

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XOJALIGI

VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

NUKUS FILIALI

GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI

O'ZZBEKISTON TARIXI



NUKUS 2016 yil

O'ZBEKISTON TARIXI'
fanidan bakalavriat yo'nalishi I-kurs talabalari uchun
(tarix mutaxassisligidan tashqari)

MA'RUZALAR MATNI

MUNDARIJA:

| | |
|---|----------------|
| 1- mavzu: “O‘zbekiston tarixi” fani predmeti, nazariy metodologik asoslari va uni o‘rganishning ahamiyati..... | 7-16 |
| 2 - mavzu: Markaziy Osiyo insoniyat sivilizasiyasining qadimgi o‘choqlaridan biri | 17-24 |
| 3-mavzu: O‘zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari..... | 25-36 |
| 4-mavzu: O‘zbek xalqining etnik shakllanishi, ilk o‘rta asrlar davlatchiligi..... | 36-45 |
| 5-mavzu: IX-XII asrlarda o‘zbek davlatchiligi, O‘rta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uyg‘onish (renessans) davri..... | 45-55 |
| 6-mavzu: Mo‘g‘ullar istilosi va ularning zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi jasorati..... | 55-61 |
| 7-mavzu: Amir Temur va Temuriylar davrida o‘zbek davlatchiligining yuksalishi. ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot..... | 61-68 |
| 8-mavzu: Turkistonning xonliklarga bo‘linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari..... | 68-80 |
| 9-mavzu: Chor Rossiyasining turkistonni bosib olishi. chorizm istibdodiga qarshi turkiston xalqlarining milliy-ozodlik kurashi. Jadidchilik..... | 80-94 |
| 10-mavzu: Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o‘rnatilishi va unga qarshi qurolli harakat..... | 95-109 |
| 11-mavzu: Sovet hokimiyatining O‘zbekistonda amalga oshirgan siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy-madaniy tadbirlari va ularning mustamlakachilik mohiyati | 109-121 |
| 12-mavzu: Sovet hokimiyati davrida O‘zbekistonning ma‘naviy-madaniy qaramligi va uning oqibatlari..... | 121-130 |
| 13-mavzu: Mustabid sovet tuzumining O‘zbekistondagi qatag‘onlik siyosati va uning oqibatlhari..... | 130-137 |
| 14-mavzu: Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi..... | 137-146 |
| 15-mavzu: Sovetlar imperiyasining tanazzulga yuz tutishi va O‘zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyat asoslarining barpo etilishi..... | 147-163 |
| 16-mavzu: Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning iqtisodiy, ma‘naviy va madaniy taraqqiyoti hamda jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi..... | 163-180 |
| Tarix faniga oid internetdagi saytlar..... | 181 |

KIRISH

Mamlakatimizda erkin demokratik jamiyatga o'tish jarayonida xalq xo'jaligining barcha sohalari bilan bir qatorda xalq ta'limi sohasida ham izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Mustaqil O'zbekistonning kelajagini zarur mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida 1997-yil 29-avgustda Respublika Oliy Majlisining IX sessiyasida "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi va uning hayotga joriy etilishi nihoyatda buyuk ahamiyatga ega bo'lgan voqea bo'ldi.

Hozirgi mustaqillik davrida o'qituvchi-murabbiylar oldiga qo'yilgan bosh va asosiy vazifa o'z fani va ayniqsa "O'zbekiston tarixi" o'quv fani vositasi orqali talaba yoshlarimizni o'tmishda yashabo'tgan ulug' va buyuk ajdodlarimizga munosib vorislar qilib tarbiyalash va ularni to'la ma'noda komil insonlar qilib yetishtirishdir. Bu ulug'vor niyatlarning bosh maqsadi yoshlarimiz ongi va shuurida milliy istiqlol tafakkuri va ma'naviy qadriyatlarni sayqal toptirishdan iborat.

O'zbekiston tarixini o'qitishda Prezidentimiz I.A.Karimov 1998 yil 26 iyunida tarixchi olimlar va ziyolilar bilan uchrashib, mustaqillik tufayli tarix fani oldida turgan dolzarb masalalarni davlat va millat manfaatlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqishdek ulkan vazifa qo'ygan edilar¹.

Shu munosabat bilan 1998 yil 27 iyulda Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix institutining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori e'lon qilindi². Ushbu qarorda O'zbekiston tarixini o'rganishda mustaqillik talablari asosida o'tmish tariximizni xolisona yoritish, ularni ilmiy xulosalar bilan boyitish va haqqoniy tariximizni xalqimizga, eng avvalo yosh avlodga yetkazishdek ulkan, sharaflil vazifa tarixchi olimlar zimmasiga yuklatildi.

Shularni hisobga olgan holda, keyingi yillarda oliy o'quv yurtlarida O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda katta o'zgarishlar bo'lmoqda. "O'zbekiston tarixi" va "Jahon tarixi" alohida fan sifatida o'qitilib, dars soatlari deyarli tenglashtirildi va yonma-yon, muqobil tarzda o'rganilmoqda. O'quv rejalari bo'yicha hozirgi davrda "O'zbekiston tarixi" fani uchun oliy o'quv yurtlari yo'nalishlari (tarix yo'nalishlaridan tashqari) uchun 32 soat ajratilgan.

Ushbu ma'ruzalatr matni Navoiy davlat pedagogika institutining notarix fakultetlari uchun mo'ljallangan bo'lib, "O'zbekiston tarixi"ning o'zbek davlatchiligining shakllanishidan boshlab, mustaqillikning 2008-yiligacha bo'lgan yillarini o'z ichiga oladi.

Albatta har bir fan ma'lum bir maqsad yuzasidan o'rganiladi. Zero, yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "O'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi" yoki "Biz turli mamlakatlar iqtisodiyotining o'ziga xos taraqqiyotini katta diqqat e'tibor bilan o'rganamiz, jahon amaliyoti va jahon tafakkurida to'plangan eng yaxshi tajribalarni o'zimizda qo'llashni or bilmaymiz, aksincha, bunday intilishni har jihatdan rag'batlantiramiz". O'zbekiston tarixini o'qitish va o'rganishdan maqsad shu fikrdan kelib chiqadi.

Vatan tarixi fani baynalminalchilik tarbiyasining muhim vositasidir. Bu fanni o'rganish natijasida nafaqat o'z millatini balki, boshqa millat va xalqlarni hurmat qilish,

¹ Karimov I.A. . «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». «O'zbekiston tarixi» jurnali. 1999 й.№ 1 3-14 betlar.

² Alimova D. O'zbekiston mustaqilligining 15 yilligida tarix fani. «O'zbekiston tarixi» jurnali, 2006 й.ил, 26-bet.

ularning urodatlari va tarixini qadrlashga, umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish hissini tarbiyalashga yordam beradi.

O'zbekiston tarixi fanini o'rganish, voqea va hodisalarni o'zaro dialektik bog'liqlikda deb tushunishga yordam beradi hamda "o'tmishsiz kelajak bo'lmaydi"—degan tarixiy haqiqatni teran anglashga undaydi.

O'zbekiston tarixi fanini o'rganish ijtimoiy-siyosiy harakatlar tarixidan nazariy-ilmiy xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi va O'zbekiston fuqarolariga umuminsoniy jarayonlardan kelib chiqib o'z amaliy ish faoliyatlarini belgilab olishlariga yordam beradi hamda mamlakatimiz, qolaversa kurrai-zaminimizdagi fan va texnika yutuqlaridan xabardor bo'lish, mamlakatimiz tarixini o'rgangan holda, uning ahvoli haqida aniq tasavvur hosil qilish, ularni mustaqillik yillarida bo'lib o'tayotgan voqealar bilan solishtirish va xulosalar chiqarish imkoniyatlarini yaratadi.

O'zbekiston tarixi fani materiallari talabalardan yuksak ahloqiy fazilatlar: o'zligini anglash, Vatanni sevish, mehnatsevarlik, halollik, poklik, insof, diyonat, iymon, intizomlilik, o'z qadrini bilish, go'zallikni sevish kabi xislatlarni kamol toptirish vositalaridir.

"O'zbekiston tarixi" fani o'qituvchilaridan mazkur o'quv dasturi matbuotda chop etilgandan so'ngi davrda mamlakat ichki va xalqaro hayotida sodir bo'lgan yangilik, kundalik o'zgarish, voqea va hodisalarni ommaviy axborot vositalari orqali ijodiy o'rganib borilishi va o'quv darslari mazmunini zamon bilan bog'lab olib bormog'i talab etiladi.

1. MAVZU: “O‘ZBEKISTON TARIXI” FANI PREDMETI, NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI VA UNI O‘RGANISHNING AHAMIYATI.

Reja:

1. O‘zbekiston tarixining fan sifatidagi o‘rni va uning predmeti.
2. O‘zbekiston tarixini o‘rganishning nazariy, ilmiy va metodologik asoslari.
3. O‘zbekiston tarixining davrlashtirilishi, manbalari va o‘rganilishining ahamiyati.

Tayanch so‘z va iboralar:

Fanning predmeti, dolzarb muammolari, xolslik, ilmiylik, tarixiylik, metodologiya, umuminsoniylik va umumbashariyat, mantiqiylik, dialektik uslub, tarixning davrlashtirilishi, moddiy va yozma manbalar.

I. Bizga ma‘lumki, har bir tarixiy taraqqiyotning ma‘lum bosqichlarida, turli ijtimoiy-siyosiy tub burilish yuz beradi. Bu o‘zgarishlar xalqni, tinimsiz kurashlari, erk-ozodlik uchun harakatlari misolida ko‘zga tashlanadi. Shu nuqtai-nazardan qaraydigan bo‘lsak, XXI asr bo‘lag‘asida O‘zbekiston xalqi tarixida yangi davr boshlandi. 1991 yil 1 sentyabrda O‘zbekiston o‘zining davlat mustaqilligini qo‘lga kiritdi. Bu yil mustaqilligimizning 17 yilligini bayram qildik. Xalqimiz demokratik, odil huquqiy jamiyat qurish yo‘lida dastlabki sinovlardan o‘tib, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lidan bormoqda. Endi uni asrash va mustahkamlash, tezda jahondagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga ko‘tarish xalqimizning, ayniqsa yoshlarimizning o‘z o‘rniga bo‘lgan mehr-muhabbatiga va milliy istiqlol uchun kurashga tayyorgarligiga bog‘liq.

Tarix fani turli dunyo xalqlari qanday yashaganligi, ularning hayotida qanday voqealar sodir bo‘lganligi, odamlar hayoti qanday va nima uchun o‘zgarib, hozirgiday bo‘lib qolganligini o‘rgansa, O‘zbekiston tarixi esa uning ajralmas qismi bo‘lib, shu tarixiy-madaniy jarayonlarga mos holda Ona zaminimizda o‘tmishda yashagan xalqlarning hayoti va ularning rivojlanishi davomida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar, voqea-hodisalar, ularning turmush tarzi, iqtisodi, ijtimoiy munosabatlari, davlatchiligi, madaniyati va shu kabilarni to‘lalgicha o‘rganadigan fandır.

O‘zbekiston tarixi fani dunyodagi eng qadimiy va boy tarixga ega bo‘lgan o‘zbek xalqining qariyb 3 ming yillik tarixiy taraqqiyotini o‘rganuvchi fandır.

Darhaqiqat, qullik, tobe‘lik va mustamlaka mute‘ligi asorati g‘oyalardan ozod bo‘lish uchun milliy ongni, tafakkurni, milliy vijdonni shakllantirmoq kerak ekan, milliy ongni, milliy tafakkur va milliy vijdonni qaror toptirmoq uchun nima qilmoq kerak? Buning uchun ona xalqimizning haqiqiy tom ma‘nodagi tarixini o‘rganmok kerak, o‘qimok kerak va yangisini yaratmoq kerak. O‘tmish tarixini chuqur bilmasdan, kelajakni yaxshi va aniq tasavvur qilish mumkin emas. Chunki, tarix xalq xotirasi, Vatanimiz o‘tmishi avlodlar sevib, e‘zozlab o‘rganib saboq oladigan hayot maktabidir. Bu hakda Prezidentimiz I.A.Karimovning, tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak deb bunday deydi: “Xotirasiz barkamol kishi bo‘lmaganidek, o‘z tarixini bilmagan kishining kelajagi ham bo‘lmaydi” deganlari ayni haqiqatdir¹.

Bu oliyjanob va umuminsoniy fazilatlarini ongimizda qaror toptirishimiz va shakllantirishimizda Respublika tarixining o‘rni kattadir.

“Modomiki, o‘z tarixunu bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo‘lmas ekan, biz tariximizni tiklashimiz xalqimizni, millatimizni anashu tarix bilan

¹ Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li - T.: O‘zbekiston, 1992, 75-bet.

qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish yana bir bor qurollantirish zarur” Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi prezidenti.

Mustaqillikning buyuk mahsuli bo‘lgan O‘zbekiston tarixi fani uzoq o‘tmishga xos jihatlari bilan ajralib turuvchi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotimiz to‘g‘risidagi bilimlarning majmuidir. Unda ijtimoiy hodisalar va voqealar, ular o‘rtasidagi muhim aloqalar va bog‘lanishlar aniq voqyelik bilan chambarchas holda o‘rganiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda “O‘zbekiston tarixi” fanining predmeti jahon sivilizasiyasi tarixiy tajribalariga asoslangan va Respublikamizning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjaxon sivilizasiyasi beshiklaridan biri bo‘lganligi, bu tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqanligini, diniy va dunyoviy ilmning asoslari mana shu zaminda yaratilganini tadqiq etadi.

“O‘zbekiston tarixi” fani o‘zbek xalqining shakllanishi davrlarini o‘rganish asosida mahalliy va turli sabablar va maqsadlarga ko‘ra tashqaridan kelgan aholi aralashuvi jarayoni va hodisalarni tahlil qilish, tushuntirish va ilmiy xulosalar chiqarish bilan shug‘ullanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, “O‘zbekiston tarixi” fani o‘zbek davlatchiligining qaysi asrda paydo bo‘lganligi, davlatchiligimizning ilmiy nuqtai nazarini asoslab berishi va o‘zbekchiligimiz haqida aniq tushunchalarni tug‘ri izohlab berishi, uning asosiy mavzularidan biridir.

O‘zbek xalqi O‘rta Osiyodagi barcha xalqlar qatorida doimo erkinlik, ozodlik va mustaqillik uchun mustamlakachilar va yot kelgindilarga qarshi kurash olib borganligi mazkur fanning diqat markazida turadi. Tarixning komil insonni, yuksak ma’naviyatlilikni yuzaga keltirishdagi o‘rnini Prezidentimiz Islom Karimov quyidagicha belgilaydi: “Ma’naviyatni tiklashi, tug‘ilib o‘sgan yurtida o‘zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko‘tarib yurishi uchun insonga, albatta tarixiy xotira kerak”.

“Har qaysi inson - Men shu millat farzandi ekanman, mening ajdodlarim kim bo‘lgan? Millatimning ibtidosi qayda, uning oyoqa turishi, tiklanishi, shakllanishi jarayoni qanday kechgan? degan savollarni o‘ziga berishi tabiiy. Nega jahonga buyuk siymolarni bergan bu millat XVII-XIX asrlarga kelib, to shu choqacha erishgan yuksalish darajalaridan tushib ketdi? Nega so‘ngi uch asr mobaynida boshimiz qoloqlikdan chiqmay qoldi? Ajdodlarimizning qattiq qarshiligiga qaramay Chor Rossiyasining o‘lkamizni nisbatan oson zabt etishida ana shu qoloqlikning ham o‘rni bo‘lmaganmikan?¹[2]

Tarixiy ildizini izlagan odam, albatta, bir kun mana shunday savollarga duch keladi va aminmanki, to‘g‘ri xulosalar chiqaradi. Tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson. Takror aytaman, irodali insondir.

Kim bo‘lishidan qat’iy nazar, jamiyatning har bir a’zosi o‘z o‘tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo‘ldan urish, har xil aqidalar ta’siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o‘rgatadi, irodasini mustahkamlaydi”.

Vatanimiz tarixining bu muammolari Chor Rossiyasi va Sovet mustamlakachiligi davrida o‘rganilmadi va o‘rganish mumkin ham emas edi. Chunki olib borilgan buyuk davlatchilik va ruslashtirish siyosati sinfiylik va partiyaviylik g‘oyalarini o‘ta darajadagi

¹[2]. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. - T.: 1993, 9-bet.

hukmronligi tariximizning milliy manfaatlar nuqtai nazaridan turib o'rganishida asosiy to'siq bo'lgan.

Mustamlakachilik davri tarixchilari odil xolisona va adolatli fikr aytishi mumkin emas. Aksincha, ular bor kuch-g'ayratlarini Turkistonning o'tmishini kamsitishga, bizni tariximizdan judo qilishga sarflaganlar. "Inson uchun tarixdan judo bo'lish, - Islom Karimov ko'rsatganidek, - hayotdan judo bo'lish demakdir"³.

O'zbekistonda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida Vatan tarixini o'qitish masalasiga e'tibor berilmadi (maktablardagi 12 soatlik fakultativ va oliy o'quv yurtlari tarix fakultetlari mutaxassisliklari uchun "O'zbekiston SSR tarixi" fanini o'rganish uchun ajratilgan 30 soatlik o'quv mashg'ulotlarini hisobga olmaganda) "O'zbekiston tarixi" bo'yicha yoqlangan dissertasiyalar, chop etilgan Foydalanilgan adabiyotlar: va maqolalar asosiy qismida haqiqiy xalq tarixi xolisona yoritilmadi, balki bo'lib o'tgan voqea hodisalar soxtalashtirildi, milliy manfaatlarimiz oyoq ostiga olindi "katta og'a" himoyalani, uning roli ko'klarga ko'tarildi. Natijada, o'zbek xalqining ma'naviy hayotiga putur yetdi. Xalqning siyosiy ongi o'tmaslashdi, ijtimoiy-siyosiy voqealarga befarqliq, loqaydlik hissi kuchaydi.

Ana shu mustamlaka asorati g'oyalaridan ozod bo'lish uchun milliy ongni, tafakkurni, milliy vijdonni shakllantirmoq zarur bo'lib qoldi. Ushbu ma'noda xristian ilohiyotchisi A.Avgustin: "G'aflatda yotgan xalqni uyg'otish uchun avvalo uning tarixini uyg'ot" deganda o'sha haq edi.

Milliy vijdonning inqirozi mustamlaka mutyeligining tamal toshi ekanligini taniqli turk adibi Ziyo Ko'kalpning "Turkchilik asoslari" (T., 1994) asarida qayd qilingan quyidagi so'zlaridan ham bilish mumkin: "Tarix va hozirgi kunning bu shahodatlari bizga shuni ko'rsatadiki, butun Ovrupoda milliy vijdonga ega bo'lmagan hych bir qavm qolmadi. Shunga ko'ra Ovruponing hych bir o'lkasida mustamlaka ta'sis etishga imkoniyat yo'qdir...

Islom dunyosida ham endilikda mustamlaka hayotga chek qo'ymoq uchun musulmon qavmlarida milliy vijdonni qanoatlantirmoqdan boshqa chora yo'qdir... U holda nima qilmoq kerak? Har narsadan oldin, kerak bo'lsa, ... doimo milliy vijdonni uyg'ontirishga va quvvatlantirishga kirishish kerak. Chunki, har qanday taraqqiyotning manbai milliy vijdon bo'lgani kabi milliy mustaqillikning tug'iladigan joyi ham, tayanchi ham shudir"⁴.

Shu ma'noda tarix bo'lib o'tgan tarixiy voqea va hodisalarni tahlil qilish, fikrlash va ulardan amaliy hayotiy xulosalar chiqarish asosida dasturiy harakatlar yo'llanmasini belgilashga yordam beradi. Milliy o'zlikni anglashda, milliy birlikni shakllantirishda, shajaramiz ulug'ligi va pokligini bilishda, dono xalqimizning oliyanob, hurriyatparvarlar va erk parvar an'analarini izchil o'rganish va uni yanada boyitishda va tarbiyalashda Vatan tarixining o'rni beqiyos kattadir.

Vatan tarixi mustaqil davlatimiz ijtimoiy hayotida faol qatnasha oladigan, idrokli va qobiliyatli, o'zining tarixiy ildizlarini anglashga qodir, yurtiga, vataniga, ona xalqiga cheksiz mehr-muhabbat, his-tuyg'ulari bilan to'lib toshgan avlodni kamol toptirish, ularning ongida milliy istiqloq tafakkuri va vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirish qurolidir.

³ 2. O'sha joyda. 10-bet.

⁴ Ziyo Kukalp. Turkchilik asoslari. – T.; 1994, 60-bet.

Respublika Prezidenti Islom Karimov 1998 yil 23 iyulda bir guruh tarixchi olimlar va jurnalistlar bilan “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q” degan mavzuda o’tkazgan uchrashuvda bu masalalarga katta ahamiyat berib o’zbek xalqining tarixiy o’tmishi, nasl-nasabi, o’zligini anglashni va o’zbek davlatchiligini to’g’ri aniqlab o’zlikni anglash tarixini bilishdan boshlanadi deb O’zbekiston tarixini o’rganishni davlat siyosati darajasiga ko’tarilishi zuruligini ko’rsatib bunday dedi: “ ... o’z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yyengib bo’lmas ekan, biz xaqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur”⁵.

Ma’lumki, tarix ilmidan boxabar, ayniqsa o’z xalqi, o’z mamlakati, o’z davlati tarixini puxta bilgan kishi yaxshi vatanparvar, fidoyi elsevar, sadoqatli fuqaro bo’ladi, ajdodlari ruhidan madad oladi, ona-vatanini chuqurroq sevadi, qadriga ko’proq va tushunibroq yetadi.

Tarix - ma’rifiy qurollardan, xalqimizning ma’naviy yetuk qilish vositalaridan biri. Millatimizni xaqqoniy tariximiz bilan qurollantirishimiz lozim. Chunki, to’g’ri tarix - to’g’ri tarbiyani to’g’ri yo’lga solib turadi. To’g’ri tarixiy dalil ishonchli hujjat sifatida nishonga - kishining ongi va qalbiga yetib boradi. Xalqning o’ziga bo’lgan ishonchini oshiradi va mustahkamlaydi. Kelajagi buyuk davlat qurishga xalqimiz uchun o’z tarixini bilishi shuning uchun ham juda zarur. Muhtaram yurtboshimiz o’zbek xalqi tarixini, jumladan davlatchiligimiz tarixini xolis va xaqqoniy qilib yaratish uchun jonbozlik ko’rsatib kelayotganining tub sababi mana shundadir.

Mustaqillik sharofati bilan Vatanimiz tarixini o’rganish, uni o’qitishga bo’lgan munosabat tubdan o’zgartirildi. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi va O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’limi vazirligi birgalikda 1996 yil O’zbekiston tarixini o’rganish va o’qitishning yagona konsepsiyasi yaratildi, o’quv dasturlari, darsliklar, qo’llanmalar nashr qilinmoqda. O’zbekiston tarixi fani umumiy o’rta ta’lim maktablarining 5-9-sinflarida 3 yillik akademik lisey va kasb-hunar kollejlarda o’qitilmoqda.

Oliy ta’limning birinchi bosqichi bo’lgan bakalavriyatda u bakalavrlilik yo’nalishlaridan biri bo’lib, ba’zaviy oliy ta’lim berish demakdir. Unda o’qish 4 yil davom etib, u oliy ma’lumot va tayanch mutaxassislik diplomi olish bilan tugaydi.

O’zbekiston umumiy, o’rta, o’rta maxsus va kasb-hunar ta’limi o’quvchilari tomonidan to’la idrok qila olmaydigan, Prezident Islom Karimovning bir guruh tarixchilar bilan suhbatida ilgari surilgan nazariy, konseptual-metodologik muammolar o’qitiladi.

II. Tarixiy voqealarni o’rganishda qanday ilmiy-nazariy metodologik asoslarga tayanishning ahamiyati juda kattadir. Ilgari uni o’qitish va o’rganish ishlari marksistik metodologiyaga bo’ysundirildi. Har qanday voqeani yoritishda Komfirka mafkuraviyligi, partiyaviylik, sinfiylik nuqtai nazaridan yondoshildi. Mamlakat butun bir xalq tarixi ikkiga - ekspluatator va ekspluatasiya qilinuvchilar, quldorlar va qullar, feodallar va qaram dehqonlar, burjuaziya va yollanma ishchilar, boylar va kambag’allar, mulkdorlar va yo’qsillar tarixiga bo’lindi. Boylar va mulkdorlar, ular orasidan chiqan beklar, amirlar, xonlar, davlat arboblari, ruhoniylar qoralandi, nomlari badnom qilindi. Tarixiy voqealar jamiyat a’zolarining bir qismi - kambag’allar va yo’qsillarni himoya qilgan holda yoritildi. Din va diniy qadriyatlar qoralandi. Insonlarning diniy e’tiqodlari

^{5 2.} Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. - T.: 1993, 4-25 betlar.

oyoq osti qilindi. Ruhoniylar, mullalar quvg'in ostiga olindi. Buyuk olimlar, allomalar, ma'rifatparvar shoiru ulamolar, yozuvchilar ikkiga - materialistlar va idealistlarga bo'lindi. Ulardan u yoki bu dinga e'tiqod qilganlari idealist deb ataldi va shuning uchungina ta'qib qilindi, ularning faoliyatini o'rganish ta'qiqlanadi. O'zlari tahqirlandi, asarlari xalqdan yashirildi, yoqib, kuydirib yo'qotib yuborildi.

Oqibatda ko'pgina tarixiy voqea-hodisalar soxtalashtirildi, ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz haqoratlandi. Yosh avlodga ularni jirkanch illat, xurofot, eskilik sarqitlari deb o'rgatildi. Tarix faqat jangu-jadal, urushlardan iboratdek qilib ko'rsatildi.

Xalqimiz tarixining bu qadar soxtalashtirilishiga faqat marksistik metodologiyaning yaroqsizligi aybdor deyish kifoya qilmaydi, albatta. Bu borada mamlakatda hukmron bo'lgan totalitar tuzumning salbiy roli katta bo'ldi. Tarix esa totalitar tuzum xizmatkoriga, targ'ibotchi va himoyachisiga, kommunistik mafkura dumiga aylantirilgan edi.

Kishilik jamiyatini tarixiy voqea, hodisalarni o'rganishning muhim nazariy metodologik asoslaridan biri jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ochib beruvchi dialektik metoddir.

Insoniyat hayoti, jamiyat taraqqiyoti dialektik jarayondir.

Bu uslub O'zbekiston tarixini o'zlashtirishda uni to'laligicha voqea-hodisalarni bir-biri bilan bog'liqlikda, ayrim tarixiy voqeyelikka o'rgatuvchi fanlarni ham bir butunlikda, uning bo'laklarini ajratib olmaslik va voqea-hodisalarni doimo o'zgarishda, rivojlanishda o'rganishni taqozo qiladi. Biror bir davr haqida fikr mulohaza yuritilayotgan bo'lsa, ana shu davrning o'ziga xos xususiyatlarini anglab olib, uni ko'rsatishni talab qiladi. Dialektik uslubga asoslanib, tarixiy jarayonni umumiylik va alohidalik qoidalaridan kelib chiqan holda tushunish lozim.

Dialektik metodologiya har qanday mamlakat tarixini jahon xalqlari tarixi bilan bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Negaki, har bir xalq tarixda milliylik, o'ziga xos betakror xususiyatlari bilan birga, jahon tarixi, butun insoniyat taraqqiyoti bilan umumiy bog'lanishdadir.

O'zbekiston tarixini yoritishda nazariy metodologik asoslarni bilish katta ahamiyatga ega ilmiylik, xolislik, tarixiylik, mantiqiylik metodlari tarixni yoritishning asosiy kaliti hisoblanadi.

Birinchidan, yaratilgan o'zbek xalqi va uning davlatchilik tarixi konsepsiyasi asosida tarixni davrlarga bo'lish va ularni chuqur tahlil qilish lozim. Eng asosiy vazifalardan yana biri - mustaqillik davrida yaratilgan yangi tadqiqotlar asosida obyektiv tarixni o'rgatishni tashkil qilishdir.

Ilmiylik bilan bir qatorda xolislik turadi. Bunda tahlil qilinayotgan har bir tarixiy voqea-hodisalarni xolis xaqqoniy ravishda o'rganish va tarixnavisning hohish-irodasidan tashqarida, voqea-hodisalar qanday sodir bo'lgan bo'lsa, shundayligicha yoritish ko'zda tutiladi. Har bir tarix yozuvchi kishi shaxs sifatida o'zining fikr-mulohazalari, idroki va boshqa his-tuyg'ular orqali atrofni o'rab turuvchi muhit bilan uzviy bog'liq. Bu bog'liqlik unga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Xolislik talab qiladigan qoidalar yana shundan iboratki, ushbu yo'nalishda tarixiy-madaniy taraqqiyotni (tarixning turli davrlarida) o'rganish jarayonida bo'lib o'tgan yoki shu taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan jamiki voqea-hodisalarni hyech bir o'zgarishsiz, qanday bo'lib o'tgan bo'lsa, o'sha holatda talqin va tahlil etish, tekshirish va xulosalar chiqarib yaxlit holga keltirish o'ta muhimdir. Bu holatda aniq manbaviy

asoslarga tayanish, tarixiy jarayonlarning o'zaro chambarchas bog'liqligini asoslash lozim bo'ladi.

Tarixiy voqea, hodisalarni o'rganish, tahlil qilish va yoritishda xolislik - bu xaqiqatni buzmay-netmay aytishdir. Tarixning oqqa ko'chirib olinadigan nusxasi, ya'ni variantlari bo'lmaydi. Tarix bir marta yoziladi. To'g'rirog'i, tarix to bizgacha yozib bo'lingan, yozilib qo'yilgan bo'ladi. Tarixni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilmasdan boshqa iloj yo'q. Agar tarixni o'zgartirib yozsangiz, u endi o'zgargan tarix bo'ladi. Agar tarixdan bir nimani tushurib yozsangiz, u kemtik tarix bo'lib qoladi. Shu o'rinda Islom Karimovning ochiqchasiga aytgan ushbu so'zlarini keltirishni juda joiz deb bilamiz: "Sovet davrida yozilgan tarixni men tarix sanamayman. O'zgalar yozib bergan tarixni o'qitishga mutlaqo qarshiman. Mustamlakachi qachon qaram bo'lgan xalq haqida xolis va adolatli fikr aytgan! Ular bor kuch-g'ayratlarini Turkistonning o'tmishini kamsitishga, bizni tariximizdan judo qilishga sarflaganlar".

Xolisona, haqoniy, adolatli yondashuv muhim metodologik qoidadir. Xolislik qoidasini tarixiy voqea-hodisalarni o'rganayotganda ular bilan bog'liq bo'lgan barcha faktlarning hych bir istisnosiz butun majmuini birga olib tekshirishni aniq, haqoniy dalillarga asoslanishni talab qiladi.

Tarixiy hodisalarni bir butun holda o'zaro aloqada va munosabatda deb tekshirish lozimdir. Oldindan to'qilgan bir g'oyani, uydirmani oqlash darkor bo'lsa, faktlar silsilasidan faqat ayrim mos kelganlarinigina saylab, tanlab olinishi "tajriba"sining sir emasligi ma'lum albatta. Bunday yo'l bilan chiqarilgan xulosa va baho xolisona haqoniy bo'lmay u bir tomonlamalikka olib keladi.

Tarixni o'rganishda tarixiylik metodologiyasi muhim ahamiyatga ega.

Tarixiylik - har bir narsa yoki voqea-hodisani uni yuzaga keltirgan mavjud tarixiy sharoit bilan uzviy bog'lanishda tekshirish va baholash tamoyilidir.

To'g'ri tarix hamma vaqt ham to'g'ri yo'ldan boravermaydi, unda egri-bugri yo'llar ham bo'ladi. Mabodo muhim voqealar bilan birgalikda ikkinchi - uchinchi darajali hodisalarga ham e'tibor berilsa, yoki tasodifiy narsalar bo'rttirib ko'rsatilsa, mantiqiy tafakkurda chalkashlik tug'ilishi mumkin. Shuning uchun ham tarixshunoslikda tarixiylik bilan birgalikda tadqiqotning mantiqiy uslubi ham zarur.

Mantiqiylik - bu tasodiflardan holi bo'lgan, qonuniy rivojlanishdagi tarixiylik, obrazli qilib aytganda, tarixning umumlashgan ifodasidir. Masalaga chuqurroq qaralsa, mantiqiylik tarixiylik tamoyiliga qaraganda birlamchidir. Zero, yuz bergan voqea va hodisaga mantiqan yondoshilsa tarixiylikka ko'proq erishiladi.

Tarixiylik qoidasi voqea, hodisalarni o'z davrining aniq tarixiy sharoitidan kelib chiqan holda o'rganishni taqozo etadi. Voqea hodisalarni o'rganishda tarixiy bog'lanish, tarixiy rivojlanish jarayoniga e'tibor qilmok zarur. Har bir voqea-hodisani boshqa voqealar, hodisalar bilan bog'lab o'rgangandagina mazkur voqea-hodisaning umumiy tarixiy jarayondagi o'rnini to'g'ri aniqlash, belgilash mumkin bo'ladi. Har bir voqea-hodisaga umumiy tarixiy jarayonning bir qismi bo'lagi deb qaramoq zarur. Har bir hodisa qanday tarixiy sharoitda, muhitda paydo bo'lganini bu hodisa o'z taraqqiyotida qanday asosiy bosqichlarni o'tganligini keyinchalik u qanday bo'lib qolganligini bilish tarixiylik qoidasining asosiy talabidir. Masalan, bironta davlat faoliyatiga tarixiylik nuqtai-nazaridan turib baho bermoqchi bo'lsa, birinchidan, u qachon, qanday tarixiy sharoitda paydo bo'ldi, ikkinchidan, u o'z taraqqiyotida qanday bosqichlarni bosib o'tdi.

Uchinchidan, u hali ham mavjudmi, hozir qay ahvolda, qanday bo'lib qoldi, degan savollarga aniq javob berish zarur bo'ladi.

Tarixiylik metodologiyasi xalqning o'tmishini, hozirgi zamon va kelajagini yagona tabiiy tarixiy jarayon deb hozirgi zamoni tayyorlaydi. Hozirgi zamon kelajakni yaratadi, degan taraqqiyot qonuni asosida qaraydi.

Insoniyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida urug'chilik tuzumi yemirilib, xususiy mulkchilik kelib chiqach, urug' jamoalari turli ijtimoiy tabaqalarga bo'lingach, tarixiy voqea va hodisalar ana shu tabaqalarning manfaati bilan bog'liq holda kechadigan, har bir ijtimoiy tabaqa o'z manfaati nuqtai-nazaridan harakat qiladigan, ularning manfaati bir-biri bilan to'qnashadigan g'alayonlar, qo'zg'olonlar ko'tariladigan bo'lib qoldi. Bunday vaziyatda sodir bo'lgan voqealarni, tarixiy jarayonni o'rganishda ijtimoiy yondoshuv prinsipiga rioya etish zarur bo'ladi.

Shohlar, amirlar, beklar faoliyatini yoritishga sivilizasion (taraqqiyot) nuqtai nazaridan yondoshmoq kerak. Ularni boy tabaqalardan chiqan, katta mulkdor bo'lgani uchungina qoralash, badnom qilish adolatdan emas. Mamlakat yurtboshisiz, boshliqsiz, davlat idora organlarisiz, boshqaruvchilar amaldorlarsiz bo'lmasligini isbot etishning hojati ham bo'lmasa kerak. Shunday ekan, barcha davlat arboblarni amaldorlarini yoppasiga qoralash ham to'g'ri emas.

O'zbekiston tarixining har bir satri, har bir sahifasi umuminsoniy, umumbashariy va milliy qadriyatlar ustivorligiga va umuman, tarixga hurmat, e'tibor ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi, hamda boshdan oyoq milliy istiqlol tafakkurining kamol topishiga xizmat qilishi lozim.

III. O'zbekiston tarixini o'rganish va yoritishda uning davrlarini ilmiy asosda to'g'ri belgilash ham katta ahamiyatga ega.

Sobiq Sovet hokimiyati yillarida chop etilgan O'zbekiston tarixiga oid asarlar, darsliklar, qo'llanmalar va boshqa Foydalanilgan adabiyotlar:da bu sohada jiddiy xatolar va kamchiliklarga yo'l qo'yildi, tarixiy obyektiv jarayonlar buzib talqin qilindi va sun'iy bir tarzda tarixiy davrlar o'ylab topildi. O'zbekiston tarixini davrlarga bo'lishda nazariy asos bo'lib K.Marks, F.Engels va V.I.Lenin asarlari, KPSS syezdlari, konferensiyalari va partiya markaziy komiteti qarorlari xizmat qildi va o'lchov mezoni bo'ldi.

Ko'p hollarda O'zbekistonlik tarixchi olimlar tarixiy davrlarni belgilashda xalqimizning tarixiy o'tmish jarayonlaridan kelib chiqan holda yondoshmasdan Rusiya olimlari asarlaridan ko'r-ko'rona andoza ko'chirdilar. Bu holatni sobiq sho'rolar davri yuzaga chiqardi. O'zbekiston tarixini Rusiya tarixiga, KPSS tarixiga moslashtirish yo'lidan bordilar. Bunda bosh mezon KPSS ning ulug' saltanatchilik mafkurasini «ulug' og'a»ni ko'klarga ko'tarish mafkurasini bo'ldi. Natijada, O'zbekiston tarixida sun'iy va qo'lbola davrlar va mavzular paydo bo'ldiki, bu haqoniy tarixiy jarayonga mutlaqo zid bir yondoshuv edi. Jumladan, «O'rta Osiyoning Rusiyaga qo'shib olinishi va uning progressiv ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy oqibatlari», «O'zbekiston SSRning tashkil topishi SSSRda lenincha milliy siyosatning tantanasi», «O'zbekistonning kapitalizmni chetlab, sosializmga o'tishi», «O'zbekiston rivojlangan sosializm davrida», «O'zbekiston-kommunizm qurilishi keng avj oldirilgan davrda» kabi davr va mavzular bunga misol bo'la oladi. Agar haqiqiy tarixiy jarayon nuqtai nazaridan «izm-izm»larsiz O'zbekiston tarixiga yondashadigan bo'lsak, u quyidagi katta davrlarga bo'linadi:

1) O'zbekiston tarixining eng qadimgi davri ibtidoiy jamoadan V asrgacha.

(Eng qadimgi va qadimgi davrlari.)

2) O'zbekiston tarixida o'rta asr davri V asrdan XVI asrgacha.

3) Turkiston Rossiya bosqini va mustamlaka davri XIX asr o'rtasidan 1917 yilgacha

4) O'zbekiston tarixi Sho'rolar istibdodi davrida 1917 yildan 1991 yilgacha.

5) O'zbekiston milliy istiqlol davri 1991 yildan boshlanadi.

Bu katta davrlar o'z navbatida bir necha kichik davrlarga bo'lib o'rganilishi mumkin.

O'zbekiston tarixini yoritishda qaysi manbalar asos bo'lganligi ham g'oyat katta o'rin tutadi. Sovet hokimiyati yillarida yozilgan O'zbekiston tarixiga oid Foydalanilgan adabiyotlar: uchun marksizm-leninizm klassiklarining asarlari, KPSS hujjatlari, Kommunistik partiya va Sovet davlati rahbarlarining ma'ruza, nutq, maqola va asarlari, Rusiya, Rim tarixchilari, adiblari va olimlarining asarlari asosiy manba bo'lib xizmat qilgan.

Vatanimiz tuprog'ida tug'ilib, o'sib voyaga yetgan va kamol topgan Beruniy, al Xorazmiy, Ibn Sino, Farobiy, Ahmad Farg'oni, Yusuf Xos Xojib, Mahmud Qoshg'ariy, Narshaxiy, A.Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Xondamir, Zahridin Muhammad Bobur va boshqa juda ko'plab dunyoga mashhur alloma va mutafakkirlarning qimmatli asarlari va meroslari esa deyarli e'tibordan chetda qolgan. Bulardan tashqari, turli davrlarda yaratilgan tarixiy manbalar ham e'tibordan chetda qoldi.

O'zbekiston tarixini yaratish va o'rganishda uning manbalarini bilish g'oyat katta ahamiyatga ega. Bunday manbalar quyidagilardan iborat:

O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi va qadimgi tarixi asosan 2 ta manba asosida o'rganiladi.

Birinchisi, moddiy manbalar, ikkinchisi, bizgacha yetib kelgan turli xil yozma manbalardir.

Moddiy manbalar tariximizning barcha davr va bosqichlariga oid yodgorliklardir. Ular orqali tariximizning qadimgi va o'rta asrlar davrlari to'g'risida to'liq ma'lumotga egamiz.

Tariximiz to'g'risidagi yozma manbalar juda xilma-xildir. O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi davri haqidagi dastlabki yozma manbalar bizgacha Eron ahmoniylarining toshga bitilgan mixxatlari orqali bizgacha yetib kelgan. ahmoniylar podshosi Doro I o'z hukmronligini abadiylashtirish maqsadida Kirmonshohdan Hamadonga ketadigan yo'l yuzasidagi Bixistun qoyasiga xat bittiradi. Ana shunday xatlar ahmoniylar poytaxti Persopol saroyining bosh devorlariga, Doro qabri ustiga qo'yilgan toshga bitilgan. Ular asosan uch tilda – qadimgi fors, elam va vavilon tillarida yozilgan bo'lib, ulardan ahmoniylarga tobe bo'lgan xalqlar va ularning mamlakatlari eslatiladi. Masalan: Bixistun qoyalari yozuvlarida Marg'iyona, Baqtriya, Xorazm va Sak qabilalari to'g'risida yozilgan.

O'rta Osiyo xalqlari to'g'risida xabar beruvchi ikkinchi manba Zardushtiylarning «Avesto» kitobidir. Unda O'rta Osiyoning qator viloyatlari eslatib o'tiladi, hamda o'sha davr ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti yoritiladi.

O'rta Osiyo xalqlar tarixi va madaniyati to'g'risida ma'lumot beruvchi uchinchi manba qadimgi Yunon tarixchilari va geograflari asarlaridir. O'rta Osiyo xalqlari haqida

Gerodot (mil.avv.V asr), Polibey (mil.avv.II asr), Ptolomey (II asr), Arrion (II asr), Kvint Kursiy Ruf (I asr) va boshqalar ma'lumotlar qoldirganlar.

O'rta Osiyo xalqlari tarixi haqida ma'lumot beruvchi to'rtinchi guruh yozma manbalar Xitoy tarixchilaridan Si-Siyaga Szyan (mil.avv. II-I asr) «tarixiy yilnomalar» va Bon Gunning (mil.avv. I asr) «Birinchi xon dinastiyasining tarixi» asarlaridir.

O'zbekiston tarixi fani xalq maorifi tizimining barcha tarmoqlarida o'zining jamiyat hayotida tutgan o'rni va mavqeiga ko'ra asosiy va yetakchi fan hisoblanadi. Shu boisdan ham bu fan Vatan tarixining ibtidosi o'lkashunoslik ekanligini e'tiborga olgan holda umumta'lim maktablarida, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarining barcha mutaxassisliklarida, qaysi kasb-hunarni egallashdan qat'iy nazar bir hajmdagi soatlarda o'qitiladi. Bu O'zbekiston tarixi fani oldiga qo'yilgan oliyjanob vazifalar bilan bevosita bog'liqligini quyidagilarda ko'rish mumkin:

Birinchi, O'zbekiston tarixi mustaqil O'zbekiston yoshlari ongida siyosiy, nazariy, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishi, voqea va hodisalarga tarixiy nuqtai nazardan yondoshadigan har tomonlama yetuk, barkamol insonni tarbiyalash lozim.

Ikkinchi, O'zbekiston tarixi mustaqil O'zbekiston yoshlari ongida milliy vijdonni uyg'otib, uning shakllanishiga ko'maklashadi. Yoshlar ajdodlarimizning taraqqiyot yo'lini, tarixiy tajribalarini o'qib-o'rganganlaridagina ularda istiqlol tafakkuri, hozirgi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy turmushni o'tmish bilan qiyoslash va kelajakka nazar solish tuyg'usi shakllanadi.

Uchinchi, O'zbekiston tarixi fani yoshlarimizni baynalminalchilik ruhida tarbiyalash qurolidir. Yoshlarimiz bu fanni o'qish, o'rganish va mutolaa qilish jarayonida O'zbekiston jahon hamjamiyatining ajralmas tarkibiy qismi va bir bo'lagi ekanligini tushunib oladilar. O'zbek xalqi va buyuk allomalarimiz, fan va madaniyat arboblariimizning jahon taraqqiyoti va sivilizatsiyasiga qo'shayotgan munosib hissasi bilan qonuniy suratda faxrlanadilar.

To'rtinchi, O'zbekiston tarixi fani yosh avlodni ulug' xalqimizning milliy qadriyatlari va axloqiy fazilatlarini: halollik, poklik, odillik, adolatlilik, insonparvarlik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik va kamtarlik, iymon va e'tiqodlilik ruhida tarbiyalamog'i, Vatan va xalq oldidagi burchga sadoqat qaror toptirmog'i dardkor.⁶

Prezidentimiz I.Karimov o'zining «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» degan risolasida bunday deb yozgan edi: «Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikr o'yi, xulosani mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi. Shunday ekan bizga xohlang iqtisod, xohlang siyosat, xohlang tarix ma'naviyat sohalari bo'lsin, bemalol bahslasha oladigan bilimdon, zukko, ma'rifatli odamlar kerak» - dedi, yana fikrini davom ettirib Prezidentimiz. Xo'sh, tarixning ma'naviyatimizda tutgan o'rni qanday deb savol berib, bunday dedi: «Tarixni yaxshi bilmasdan turib, yuksak ma'naviyatga erishish mumkinmi? Albatta mumkin emas. Ma'naviyatni tiklashi, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak. Tarixiy xotirasi bor inson irodali inson, takror aytaman, irodali inson.

⁶ O'zbekiston tarixini o'qitish va organishining yagona kontseptsiyasi. T., 1996 y., 6-bet..

Jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi», - dedi.

Hozirgi davr sharoitida ma'naviyat masalasini tushunishda uning mohiyati, maqsadini anglash, his qilishda yurtboshimiz Islom Karimovning asarlarini o'rganishni katta ahamiyatga ega deb bilamiz. Bu borada «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «Istiqlol va ma'naviyat» deb nomlangan to'plami hamda «Barkamol avlod orzusi», «Buyuk kelajak sari» kitoblari alohida o'rin egallaydi.

Mustaqillik yillarida bizning sharoitimizda ma'naviyat yo'lidagi eng muhim masala bu boy tarixiy merosimizni chuqur o'rganish, ijtimoiy adolatni mustahkamlash, har bir oilaning moddiy va ma'naviy mustahkam bo'lishini ta'minlashdir. Bu yo'l orqali kishilarda yangicha fikrlashni, his tuyg'ularni shakllantirish, qisqasi insofli, diyonatli insonni yaratishdir. Yangicha his-tuyg'ular, fikr va dunyoqarashlar o'z-o'zidan, bir zum shakllanmaydi. Buning uchun jamiyatning har bir a'zosi, ayniqsa, yoshlar, talabalar jonbozlik ko'rsatishlari lozim.

Demokratik jamiyat qurish jarayonida faoliyatimizning har bir qirrasini, yo'nalishi jamiyat, xalq, inson manfaatlari yo'lida xizmat qilish g'oyalari, his-tug'ulari uzviy bog'langan bo'lishi lozim. Yo'qsa, demokratik jamiyatning o'zi ham bo'lmaydi. Inson moddiy jihatdan to'la ta'minlangan bo'lishi mumkin. Lekin, unda xalq bilan birga bo'lish, xalq uchun xizmat qilish kabi ichki ruhiy xislatlar bo'lmasa, avvalo bundaylarni o'zi ozod inson bo'lmaydi. U moddiy boyliklarning quli bo'lib qoladi. Ma'naviyat inson va jamiyat manfaatlariga munosib turmush-sharoitlari barpo qilish yo'lida go'zal, ko'rkam va komil insonlarni yaratish uchun xizmat qiladi. Faqat ma'naviyatgina insonni yetuk inson bo'lib yashashini to'la ta'minlaydi. Ma'naviyatsiz haqiqiy inson bo'lmaydi, chunki u yashashni ma'nosini bilmaydi.

Demak, yuqorida aytilganlardan xulosa chiqarib, «o'z tarixini bilgan, ruhiy quvvat oladigan xalqni yyengib bo'lmas ekan, biz haqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish yana bir bor qurollantirish zarur», - deb yozadi I.A.Karimov.

Prezident Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi XI sessiyasida «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotinin poydevori» degan mavzudagi nutqni barkamol avlod tarbiyalab yetishtirishda bugungi kunda oldimizga qo'yilgan buyuk maqsadlarimizga erishishimiz, jamiyatning yangilanishi, hayotimiz taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirayotgan islohotlarimiz, rejalarimiz samarasi taqdiri – bularning barchasi avvalombor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, eng yaxshi, yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yashamoqdamiz», - deb «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni qabul qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T., O'zbekiston, 1998 y.
- 2.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T., Sharq, 1998 y.
- 3.Karimov I.A. Milliy istiqbol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T., O'zbekiston, 2000 y.
- 4.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T., O'zbekiston, 1999 y.
- 5.Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. – T., O'zbekiston, 1998 y.

- 6.Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T., 1999 y.
- 7.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008.
- 8.Karimov I.A. O’zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – T.: “O’zbekiston”, 2005.
- 9.Karimov I.A. O’zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo’li. – T.: “O’zbekiston”, 2007.
- 10.Sulaymonova F. Sharq va G’arb. – T., Fan, 1997 y.

2 - MAVZU: MARKAZIY OSIYO INSONIYAT SIVILIZASIYASINING QADIMGI O’CHOQLARIDAN BIRI.

R e j a:

1. Hududimizda qadimgi sivilizasiyaning uzoq asrlar davomida shakllanishi.
2. Ibtidoiy jamiyatning davrlari va uning manzilgohlari.
3. Dastlabki sivilizasiyaning ma’naviy asoslari: diniy e’tiqotlar va tasviriy san’atning paydo bo’lishi.

Tayanch so’z va iboralar:

Sivilizatsiya arxeologiya, antropologiya, antropogenez jarayoni poleolit, mezolit, neolit, eneolit, Ashel, mustye, Tyeshiktosh, Zarautsoy, Joytun, Xisor, Kaltaminor, Xorazm, Zamonbobo, Sopollitepa, Neandertal, Kramonüon, Matriarxat, Bronza, birinchi va ikkinchi mehnat taqsimoti.

1. Markaziy Osiyo insoniyat olamida juda qadimdan madaniyati rivojlangan, tarixi boy mintaqalardan biridir. Bu muqaddas zaminda odamzotning ilk ajdodlari faoliyatidan guvohlik beruvchi ko’pgina materiallar topilgan. O’zbekiston Ryespublikasi Prezidenti I.A.Karimov ham O’zbekiston deb ataluvchi hudud, ya’ni Vatanimiz nafaqat Sharq, umumjahon sivilizasiyasi beshiklaridan biri bo’lganligini butun jahon tan olmoqda deb qayd qilgandi¹.

Sivilizatsiya so’zi - lotincha so’z bo’lib, fuqoraviy va ijtimoiy ma’nosida jamiyatning o’z taraqqiyoti jarayonida yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklarning, ularni yanada ko’paytirib va takomillashtirib borish usullarning majmuidir.

Insoniyat o’z boshidan katta uch davrni: yovvoyilik, vahshiylik va sivilizasiyani kechirdi. Sivilizasiya bundan 5-6 ming yil muqaddam boshlangan.

Sivilizasiya ayrim hududiy, bir-biri bilan bog’lanmagan sivilizasiya maskanlari sifatida shakllana boshlab (Qadimgi Misr sivilizasiyasi, Qadimiy Hind sivilizasiyasi, O’rta yer dengizi sivilizasiyasi, Markaziy Osiyo sivilizasiyasi va hakoza), bozor munosabatlari iqtisodiy hukmronlik shakllanishi davrida umumjahon sivilizasiyasiga aylandi.

Sivilizasiyaning tarixi qonli urushlar va diniy jaholatparastlikka qarshi, dunyoviy madaniyat uchun kurash tarixidir. XX asrning 2- yarimiga kelib ilg’or fan, texnika va texnologiya asosida ish ko’rib, o’zlarida demokratik, insonparvar jamiyat va huquqiy davlat qurgan mamlakatlarga haqiqiy sivilizasiya yo’liga chiqmoqdalar. Sivilizasiya inson taraqqiyotining mahsuli va ayni vaqtda uning asosidir. U insoniyat jamiyatining nihoyatda nozik holati bo’lib, vaqt jihatdan 5 mln. yillik insoniyat tarixining bor-yo’g’i

¹ Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. -T. «Sharq», 1998. 3-bet

0,1 foizni tashkil qiladi, ya'ni insoniyat o'zining bosib o'tgan yo'lining 99,9 foizi davomida ibtidoi jamoa darajasida hayot kechirgan.

Mustaqil O'zbekistonning maqsadi - hozirgi zamonning insonparvar, demokratik va huquqiy davlatiga, ya'ni sivilizatsiyali, ma'rifiy davlatga aylanib, halqning farovonligini ta'min etish hamda ilg'or mamlakatlar qatoridan joy olishdir. Buning asosi va zaruriy sharti davlatimizda ta'min etilgan tinchlik, barqarorlik va hamjihatlikdir.

Tabiatshunos va jamiyatshunos olimlar inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan yuksak rivojlanishni kuzatar ekan, bu yo'lda ko'p yillar davomida izlanishlar olib borib, inson tarixiy taraqqiyotini turli ijtimoiy-iqtisodiy davrlarga va bosqichlarga bo'lib o'rganishni taklif qiladi.

Janubiy Qozog'iston, Tojikiston, O'zbekistonning Toshkent viloyatidagi Ko'lbuloq va Farg'ona vodiysidagi Syelung'ur g'ori arxiologik qazishmalar natijalariga ko'ra, odamzotning O'rta Osiyodagi ilk faoliyati ashel davriga, ya'ni bir million yilga yaqin yillarga tegishli ekanligi aniqlanmoqda. Endilikda hududimiz jahonda odamzotning ilk ajdodlari yashagan mintaqaga kiradi.

Eng qadimgi jamoa tuzumi - kishilik jamiyati tarixining boshlang'ich va tarkibiy qismidir. Bu tuzumning ilk bosqichi "ibtidoiy to'da" keyingi bosqichi esa "urug'chilik jamoasi" deb ataladi. Bu tuzumning boshlang'ich davrida odamlar toshdan, yog'ochdan va suyakdan har-xil qurollar yasab, oddiy termachilik bilan shug'illanganlar. Bu davrda odamlarning turmush tarzi oddiy bo'lib, boy va kambag'al bo'lmagan. Ular har jihatdan tabiat ne'matlariga qaram bo'lishgan. Odamlar g'or, ungur va chakalakzorlarda hamda qamishzorlarda yashab tunaganlar. Ularni umumiy turmush va umumiy mehnat birlashtirgan. Ibtidoiy jamoa tizimida qadimgi odamlarning asosiy mashg'uloti termachilik va ovchilik bo'ldi. Termachilik inson hayotida muhim vazifa bo'lib, insonlar qorin to'ydirish maqsadida nima uchrasa istemol qilgan. Bu ularning sog'ligiga ta'sir qilib manbalarda ko'rsatilishicha ilk paleolit odamlarining o'rtacha yoshi 28 dan oshmagan.

Eng qadimgi jamoa tuzumi odamlarning hayoti va ularning mashg'ulotlarining o'rganishda asosan moddiy manbalar yaqindan yordam beradi. Moddiy manbalar inson qo'li bilan yaratilgan barcha narsa kiradi. Ular asosan yer ostida topilgan mehnat v ov qurollari, odam va hayvon suyaklari, turli xil idishlar, turli xil manzilgoh qoldiqlari shular jumlasidandir. Umuman olganda tarix fanini o'rganishda moddiy va ma'naviy manbalar muhim rol o'ynaydi. **Tarixni mana shu manbalar asosida o'rganadigan fan Arxeologiya deb atalib, bu esa "qadimiyat to'g'risidagi fan " demakdir.**

Arxeologlar moddiy manbalardan tashqari eng qadimgi odamlar suyaklarini ham topadilar. Odamlar qiyofasi, kelib chiqishi va rivojlanishining o'rganadigan fan antropologiya - odam haqidagi fan deb ataladi. Xalqlarning urf-odatlarini, xo'jalik va madaniyatni o'rganuvchi fan etnografiya, ya'ni yunoncha so'z bo'lib, "urf-odatlarini o'rganuvchi fan" shug'ullanadi.

Eng qadimgi odamlar yasagan qurollar asosan toshdan bo'lgani uchun insoniyat tarixining dastlabki bosqichi tosh davri deb ataladi.

2. Arxeologlar eng qadimgi jamoa tuzumi, uning tarixiy davrlarini quyidagicha bo'lib o'rgangan:

1) **Paleolit** - qadimgi tosh davri, bu davr taxminan 700-100 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. O'z navbatida ushbu davr 3 bosqichga bo'linadi. Ilk paleolit, o'rta paleolit,

va so'nggi poleolitga. O'rta poleolit 100-40 ming yilliklarni o'z ichiga olsa, so'ngi poleolit esa 40-12 ming yilliklarni o'z ichiga oladi;

2) **Mezolit** - O'rta tosh davri, 12-7 ming yillikni o'z ichiga oladi;

3) **Nyeolit** - yangi tosh davri, 6-4 ming yillikni o'z ichiga oladi;

4) **Eneolit** va bronza - mis - tosh davri 4-3 ming yillikni va 2-ming yillikning oxirigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Odamzotning paydo bo'lishi muammosi birgina biologiya fanining vazifasi bo'lmay, balki bu jumboq bilan arxeologiya va antropologiya fanlari ham shug'ullanadi. Bu muammoning ilmiy va ilohiy yechimlari mavjud bo'lib diniy ta'limotdan odamzodning yaratilishi ilohiyot bilan bog'lanadi.

Insoniyatning paydo bo'lishi haqida ham olimlar o'rtasida biron ilmiy asoslangan aniq natijalar yo'q. Bu muammo bilan qadimdan olimlar shug'ullanib kelishgan. XVIII asr oxirida Jyems Monboddoo birinchi bo'lib odamning eng oliy tipdagi aqlli zotli odamsimon "maymun"dan tarqadi degan g'oyani ilgari surdi. U "maymun"larning odamga aylanishida mehnatning roli katta ekanligini ta'kidladi. Odamzodning eng oliy tipidagi maymunsimon ajdodlari bilan bog'liqligi haqidagi ilmiy g'oya Charlz Darvinga nasb etdi. Bu mavzu haqida ham hozirda turli qarashlar vujudga kelmoqda.

Ilmiy izlanishlarga qaraganda insonning maymunsimon ajdodlarini quydagi guruhlariga bo'lish mumkin:

Hozirgi kunda bu aqlli odamlarning qoldiqlari yer kurasining 100 dan ortiq nuqtalaridan topib o'rganildi. Markaziy Osiyoda xususan O'zbekistonda yashagan ilk ajdodlarimizning manzilgohlari Farg'ona vodiysining So'x rayonidagi Syeleng'ur g'oridan va Toshkent viloyatining Angren shahri yaqinidagi Ko'lbuloq makonidan topib o'rganildi.

Syeleng'ur g'ori 1958 yilda akad. A.P.Okladnikov tomonidan tadqiq etilgan O'zbekiston FAsining muxbiri a'zosi U.Islomov 1980 yildan boshlab Syeleng'ur g'ori arxeologiyasiga oid takroriy ishlar olib borib yangi kashfiyot qildi. U g'ordan topilgan tosh qurollari va hayvon suyaklarini chuqur o'rganib Syeleng'urda yashagan ajdodlarimiz ashelü davriga, ya'ni ilk poleolitga mansub ekanligini isbotladi. Ilk poleolit 1 million 100 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Dyemak, bu g'orda yashagan ajdodlarimizning yoshi yaqin 1 million yil atrofida degan xulosa qilindi. Ushbu g'ordan topilgan ajdodlarimizning nomi fanga "Fyergantrop" yoki "Farg'ona odami" nomi bilan kirdi.

O'rta poleolit davrida (bundan 100-40 ming yil avval) arxeologiya fanida mustüye davri ham deb ataladi. Mustüye Fransiyadagi bir shaharning nomi. Bu davrda havo soviy boshlab muzlik keng tarqalgan. Insonlar ovchilikning takomillashtirib yirik hayvonlarni ov qila boshlagan. Turli xil yo'llar bilan o't chiqarishni o'rganganlar. Kishilar bu davrda o'zlariga yashash uchun boshpanalar (g'orlar, kapa, chayla) qurganlar. Poda - pada bo'lib yurish bu davrda ham davom etgan. Bu davrning odami Nyeandertal deb atalgan. Ular past bo'yli, pastgi jag'i ham yo'q, ikki og'iz tishi bo'rtib chiqqan, qo'l panjalar kalta va yo'g'on, boldir suyaklari bir oz egri bukulganligi sababli rosa tikka yura olmagan. Ular ko'p jihatdan deyarli hozirgi zamon odamlariga yaqin bo'lgan.

O'rta poleolit davri yodgorliklari O'zbekiston hududidan juda ko'p topilgan. Surxondaryo (Tyeshiktosh), Samarqand (Omonqo'ton, Qo'turbo'loq, Zirabo'loq),

Toshkent (Obiraxmat, Xo'jakent, Ko'lbuloq), Navoiy (Uchtut) viloyatlarida ko'plab bu davr manzilgohlari mavjud.

O'zbekistonda topilgan mustüye davri yodgorliklari orasida Tyeshiktosh g'ori alohida ahamiyat kasb etadi. Bu g'or Surxondaryo viloyatida bo'lib, 1938 yili arxeolog A.P.Okladnikov tomonidan o'rganildi.

Bu yerda o'tkazilgan arxeologik izlanishlar natijasida toshdan yasalgan ov va mehnat qurollari bilan birga, muhim topilma 9 yashar Neandertal bolasining suyagi topildi. Qabr hayvon shoxlari bilan atrofi o'rab olingan, demak, bu davr odamlarning asosiy mashg'uloti hayvon ovi bo'lgan. Ilmiy natijalar shuni ko'rsatadiki O'rta poleolitdan boshlab diniy tasavvurlarning dastlabki belgilari asta-sekin paydo bo'la boshlagan. Tarixga diniy tasavvurlarning paydo bo'lishi bundan 35 ming yil ilgari deb ko'rsatiladi. Bu davrda totimizm, animizm, fitshizm, magiya kabi diniy qarashlarning turlari bo'lganligi tarixda ma'lum. Bularga ko'ra qadimgi ajdodlarimiz o'zlari ovlaydigan hayvonlarga, jon va ruhlarga, sanamlarga, budlarga, jonsiz narsalarga sig'inishgan. Tyeshiktosh g'orini o'rganishda gulxan qoldiqlari borligi aniqlangan. Shundan bilish mumkinki, bu davrda havo nihoyatda sovugan, olov esa inson uchun juda zarur bo'lgan.

Qadimgi tosh davrining so'ngi bosqichi eng qadimgi jamoa tuzumi arxeologik davrlashtirishda yuqori poleolit nomi bilan ataladi. Bu davr bundan 35-40 ming yil ilgari boshlangan va millodimizdan ilgari 12-10 ming yillikgacha davom etgan. IOqori poleolit davrida Markaziy Osiyo hududida iqlim quruq bo'lgan. Bu davr odamida rosmana peshona va pastki jag' shakllangan. Oyoq qo'l harakatlari chaqqon bo'lib hozirgi zamon odamlariga xos jismoniy xususiyatlar vujudga kelgan. Olimlar bunday odamlarni aqlli, ongli odamlar deb atagan.

Zamonaviy ko'rinishdagi odamlarning shakllanishi davrida uch asosiy irq tashkil topdi: Evropa, Nyegr (Zanji) va Mangol irqi. Bu davrda mehnat qurollari ancha takomillashdi, odamlarning ongi o'sdi, natijada, ular turli xil taqinchoqlar yasay boshladi. Odamlar yog'ochni bir-biriga ishqalash yoki chaqqoq toshni bir-biriga urish yo'li bilan sun'iy tarzda olov hosil qilishni o'rganib oldilar.

So'ngi poleolit davrida insonlar orasida dastlabki diniy qarashlar va marosimlar paydo bo'ldi. Ulardan Animizm - tabiatdan tashqari kuchlarga ishonish, jon va ruhlarning mavjudligiga ishonish, Totimizm ajdodlar ruhiga sig'inish, Magiya - sehrgarlik shular jumlasidandir.

Bu davrga oid 30 ga yaqin yodgorliklar Markaziy Osiyo hududidan topilib o'rganilgan.

So'ngi poleolit davrining eng muhim sifat o'zgarishi onalar atrofida dastlabki urug' jamoalarining paydo bo'lishidir. Chunki, tug'ilgan bola dast avval o'z onasini tanigan. Ota esa noma'lum bo'lgan. Bu davr jamoasi Materiariat deb atalgan. Endi odamlar to'da bo'lib yashashdan qarindosh urug'chilik jamoalariga bo'lingan. So'ngi poleolit odamlarning muhim kashfiyoti - turar joylar qurish bo'lgan.

Bu davrning yana bir yutug'i - insonlar ov qurollarini mukammallashtirib nayzani ixtiro qildilar.

3. So'ngi poleolit davrining tugashi bilan ulkan muzlik davri ham tugaydi. Er isiy boshlab insonlar yashash uchun qulay sharoit paydo bo'ladi. Bu davr fanda Mezolit - o'rta tosh davri deb atalib, bu davr 12-7 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Bu davr yodgorliklari Surxondaryodagi Machoy g'or makonidan, markaziy Farg'onaning

ko'pgina yodgorliklaridan topib o'rganilgan. Farg'ona vodiysining tog'li va tog' oldi tumanlarida, Markaziy Farg'onada vujudga kelgan katta va kichik qullar bo'yinlarida mezolit davri ajdodlarimizning juda ko'plab manzilgohlari topilgan. Olim U.Islomov va uning hamkasblari bu hududda 1970-1980 yillarda arxeologik to'qnashuvlar olib borgan va So'h yaqinida Obisher bilan aholi o'rtasida ma'lum bo'lgan ung'urlarda mezolit davri jamoalarining qarorgohlarini kashf etdilar. Bu joylar fanda Obisher-1 va Obisher-5 nomlari bilan ataladi. Ayniqsa Markaziy Osiyoda 100dan ortiq mezolit davri yodgorliklari topilgan. Ularning asosiy qismi qadimgi qo'l yoqlarida joylashganlar.

Mezolit davriga oid manzilgohlar, Toshkentning Sariqamish tumanida qadimgi Bo'zsuv havzasida ham topilgan. Bu tadqiqotlarda ham arxeologi olim U.Islomovning xizmati kattadir.

1970-1971 yillarda Surxandaryo viloyatidagi Machay g'ori tekshirilganda machayliklar shoxli va mayda hayvonlarni xonakilashtirganlar. Bu g'ordan topilgan buyumlar mezolit davrining so'nggi bosqichiga taaluqli ekanligi aniqlangan.

Mezolit davri termachilikning roli ham kuchayib bu termachilik qadimgi termachilikdan tubdan farq qilgan. Odamlar endi o'simliklarning ildizi bilan emas mazali mevalari bilan, boshqoqli o'simliklarning donlari bilan oziqlanadigan bo'ldi. Ular suyakdan qurol yasab baliq tuta boshladi.

Surxondaryoning Zarautsoy darasidagi ov manzarasi mezolit davrida tasviriy san'atning paydo bo'lishidan dalolat beradi. Bu davrda amaliy san'atda ham katta yutuqlarga erishildi. Jamoada onalarning roli nihoyatda kattaligini bu davrda topilgan tosh va mamond suyaklaridan yasalgan ona haykalchalaridan ham bilish mumkin.

Insoniyat o'z taraqqiyot yo'lida mezolit davridan so'ng neolit deb atalgan yangi tosh davrini o'z boshidan kechirdi. Bu davrda odamlar toshlarni randalash, pardozlashni o'rganib oldilar. Tosh qurollar ichida tosh boltalar paydo bo'ldi. Bu davr Markaziy Osiyoda 6-4 ming yilliklarni o'z ichiga oldi. Bu davrda insonlar sopoldan turli xil buyumlar yasay boshlaydilar. To'qimachilik, kemasozlik paydo bo'ldi.

Nyeolit davrining asosiy xususiyatlari qadimgi ajdodlarimiz termachilikdan o'troqlashishga o'ta boshlab o'zlari uchun doimiy makonlar qura boshlaydi. Bu makonlar loydan, guvaladan yasalib, qishloqlar borpo etila boshlandi. Ana shu tariqa doimiy o'troqlik xo'jaligi vujudga kela boshladi. Bu hol dehqonchilikning kelib chiqishiga, cho'lli mintaqalar azim daryo va ko'l bo'ylarida o'troq ovchilik xo'jaligining qaror topishiga sabab bo'ldi. Hozirgi Turkmanistonning Kopetdog' tog'i oldi rayonlarida neolit davri odamlari miloddan avvalgi VI ming yillikning oxiri va V ming yillikning boshlarida ilk dehqonchilik madaniyati bilan band bo'ldilar. Bunga misol qilib "Joyi Tun" (qorong'u joy) madaniyatini olish mumkin. Bu yerda rus arxeologi S.P.Tolstov ilmiy izlanishlar olib borgan. Tyekshirish natijasida bu yerdan ko'plab mehnat qurollari, paxsa uy qoldiqlari sopol idishlar hayvon suyaklari topilgan.

Neolit davriga oid manzilgohlar Zarafshonning o'rta havzasidan, hozirgi Samarqand viloyatining Sazag'on qishlog'ida ham topilgan. Bu yerda odamlar tog' oldi joylarida yashaganlar. Ular yirik shoxli hayvonlarni boqib chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Neolit davri o'ziga xos madaniyatlaridan yana biri Kaltaminor madaniyatidir. Kaltaminorga oid makonlar dastlab Amudaryo etaklari va Xorazm hududidan topilgan. Bular orasida Xorazmdagi Yonboshqal'a makoni diqqatga sazovor. Bu yerni qazish vaqtida chayla shaklidagi makon ochilgan. Bu makon yog'och ustun, sinchlar bilan ko'tarilgan. Ustiga ko'ndalang yog'ochlar tashlanib, usti qamish bilan

berkitilgan. Chayla o'rtasidan katta markaziy o'choq qoldig'i, atrofida mayda o'choq qoldiqlari ochilgan. Makondan nayza poykonlari, kamon o'qlarining uchlar va boshqa tosh qurollar topilgan. Makonning qatlamlaridan baliq, yovvoyi cho'chqa, qirg'ovul suyaklari va jiyda danaklari ham topilgan. Jonbosqal'a topilmalari orasida sopol idish parchalari ham bo'lib, tadqiqotchilar fikricha bu sopol mil. avv. V-IV ming yilliklarga oiddir.

Kaltaminor madaniyatiga oid yodgorliklar, Zarafshon etaklaridagi Darvozaqir makonidan ham topib o'rganilgan. Bu yerdan topilgan sopol idish namunalari Jonbosqal'a sopoliga juda o'xshashdir. Quyi Zarafshon va Qashqadaryo etaklaridagi Darvozaqir, Katta va Kichik Tuzkon, Qorong'isho'r, Poykent makonlaridan topilgan tosh qurollar va sopol buyumlar hamda boshqa ashyolarni chuqur o'rganish, Yaqin Sharq, Qozog'iston, Ural va boshqa joylardan topilgan neolit davri ashyolari bilan qiyoslash natijasida tadqiqotchilar yuqorida eslatilgan makonlar Kaltaminor madaniyatiga mansub bo'lib mil.avv. IV-III ming yilliklarga oid deg xulosaga keldilar. Bu makonlarda yashagan neolit davri odamlari termachilik, jayron, yovvoyi ot, yovvoyi cho'chqa, bug'u va boshqa hayvonlar, baliq ovlab kun kechirishgan.

Keyingi 25-30 yil ichida Markaziy Osiyoning neolit davri Xisor madaniyatiga oid yodgorliklarini o'rganishda katta yutuqlarga erishilib sharqiy tumanlarda asosan Hisor – Pomir tog'laridan topilgan, neolit davri makonlari Hisor madaniyati nomi bilan ataladi. Bu madaniyat tog' madaniyati bo'lib Tojikistonning tarkibidan, Hisor-Bobotog' oralig'idan topib tekshirilgan. Hisor madaniyatiga mansub yodgorliklar 200 dan ziyod bo'lib, ularning eng mashhurlari Tutqovul, Soysayyod, Quyi Bulyon va boshqalardir. So'nggi vaqtda Tojikistonning Vaxsh, Kofirnihoi daryolari, Ko'lob shahri atrofidan topilgan neolit davri yodgorliklari ham Hisor madaniyatiga mansub bo'lib, miloddan avvalgi V-III ming yilliklarga borib taqaladi.

Hisorliklar sopol idishlar yasab, asosan chorvachilik, ovchilik, qisman termachilik bilan shug'ullanganlar. Tadqiqotchilarning fikricha, Hisor madaniyatiga oid yodgorliklar qoldirgan neolit davri qabilalari mezolit madaniyatining bevosita avlodlaridir.

Nyeolit davri manzilgohlarini o'rganish natijasida shunday xulosa keladiki dehqonchilikdan ajralgan chorvachilik bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi. Birin- ketin emas. Bu hol tarixda birinchi mehnat taqsimoti deb atalib uni kashf etishda ayollar asosiy rol o'ynagan.

Nyeolit davri kashfiyotlaridan yana biri hunarmadchilikning vujudga kelishidir. Endi ibtidoiy odamlar faqat hayvon terilaridan yasalgan kiyim-kechaklarnigina emas, balki uni junidan hamda o'simliklar tolasidan to'qilgan matolardan kiyim-kechaklar tikib kiyadigan bo'ldilar. Bu davrda jamoada hali ibtidoiy urug'chilik jamoasi hukmron bo'lib, ona urug'i davom etar edi. Shu boisdan dunyo olimlari neolit davrini materiariat urug'chilik tartiblarining gullagan davri deb baho beradilar.

Millodan avvalgi 3 ming yillikning oxiriga kelib, Markaziy Osiyoda tosh davri tugadi, u o'z o'rnini eneolit va so'ng bronza davriga bo'shatib berdi. Insonlar ilk bor mis metalni kashf etdi. Undan dastlab taqinchoqlar yasay boshlagan. Shu sababli bu davr Eneolit mis-tosh davri deb ataladi. Odamlar bu davrda ham misdan, ham toshdan yasalgan qurollardan foydalanganlar. Chunki mis metal sifatida yumshoq va undan yasalgan qurollar mo'rt bo'lganligi tufayli mehnat qurollarining ko'pchiligi hali toshdan ishlanardi.

Mehnat qurollari takomillashtirilib rudali metallar, mis, qalay, kumush, oltin ixtiro etilib ularni eritib, foydalanish o'rganildi. Qadimgi «metallurglar» mis va qalayni qorishtirib bronza (jez) olishni bilib oldilar. Bronza egiluvchan, mustahkamroq metal edi. Natijada millodan avvalgi 3-2 ming yillikning oxiri tarixga bronza davri bo'lib kirdi. Ilk bor bronza milloddan avvalgi 3-ming yillikdan Old Osiyo va Hindistonda kashf etilgan.

Bronzaning kashf etilishi qadimgi jamoa xo'jaligida ro'y bergan buyuk madaniy-xo'jalik ixtiro edi. Bu bilan mehnat qurollarining turi ko'paydi, harbiy qurollarning jangovorligi ortdi. Ammo bronzaning kamchiligi, toshdan yasalgan mehnat qurollarini uzil-kesil siqib chiqara olmadi.

Arxeologik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyoda bu davrda ovchilik va termachilik hayotda o'zining dastlabki rolini yo'qotdi. Axolining asosiy xo'jaligi dehqonchilik va chorvachilik bo'lib qoldi. Zarafshon vohasida ilk dehqonchilik izlari bronza davriga borib taqaladi. Buni isboti uchun Buxoro yaqinidagi Zamonbobo madaniyatini misol tariqasida aytish mumkin.

Arxeologiyaga oid qazishlar vaqtida Zamonbobo ko'li atrofidagi qablardan naqshli sopol idishlar, erkaklar qabrlaridan chaqmoqtoshdan yasalgan qurollar, pichoqsimon buyumlar, ayollar qabrlaridan qizil va sariq oxra, surma ushoqlari, tosh bezaklar, oltindan yasalgan marjonlar topilgan. Ulardan tashqari qablardan sopol idishlarga solingan don qoldiqlari ham topilgan. Bu shundan dalolat beradiki bu manzilgohda yashagan aholi bronza davridan boshlab dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Yuqori Zarafshonning Panjikent shahridan 15 km g'arbda topilgan Sarazm qishlog'i xarobasi muhim arxeologik yodgorlikdir. U dehqonchilik qabilalarining Markaziy Osiyo shimoli-sharqiga yoyilganligidan dalolat berib, qadimgi dehqonchilik aholisining geografik chegaralarini ham ko'rsatadi.

Sarazm I davri sopol idishlari rangli naqshlar bilan bezatilgan bo'lib, Turkmanistonning Anov II, Geoksyur tipidagi moddiy buyumlarga ancha o'xshaydi. Idishlar sirtida qora va qizil bo'yoqlar bilan ishlangan turli geometrik naqshlar bor. Shuningdek, topilmalar orasida misdan yasalgan qurollar ham uchraydi. Bu topilmalar miloddan avvalgi IV ming yillikning oxiri – III ming yillikning boshlariga oiddir.

Sarazm I davri qurilishlari ko'p xonali uy massivlaridan iboratdir. Ular katta jamoa uylari hamdir. Hozirgi vaqtgacha bu yerdan 48 ta paxsadan qad ko'targan xonalar topib tekshirildi. Umumiy turar joylar yakka kichik oilalarga mo'ljallangan bo'lib, 2-3 xonali qilib qurilgan. Ular uy-joy va ro'zg'or xo'jalik inshootlari vazifasini bajargan. Turar joylarga moslashgan xonalarda dumaloq shaklda ishlangan o'choqlar ham topilgan.

Yuqori Zarafshon vohasining tabiiy sharoiti dastlabki dehqonchilik rivojlanishi uchun uncha qulay emas edi. Shuning uchun tog'larga yaqin joylashgan Sarazm aholisi hayotida metall ishlatish muhim ahamiyat kasb etgan bo'lishi mumkin. Bunday madaniyat yodgorliklari O'zbekistonda Surxondaryo (Sopollitepa, Jarqo'rg'on), Xorazm (Tozabog'iyob) Toshkent (Achiqul), Namangan (Dolvarzintepa), Qashqadaryo (Er qo'rg'on, To'rtqultepa) va boshqa viloyatlarda ham ko'plab topilgan.

O'lkamizda dehqonchilikni rivojida sun'iy sug'orish asosiy rol o'ynaydi. Mintaqa iqlimi issiq bo'lganligi sababli, dehqonchilik dastlab daryo va jilg'a bo'yinlarida tashkil topgan. Ekinlar daryolardan qazib olib borilgan ariq va kanallar orqali sug'orilgan. Bu ish nihoyatda og'ir va mashshaqqatli mehnatni talab qilgan. Afsuski, o'lkada boshqa yo'l bilan dehqonchilikni rivojlantirish mumkin emas edi.

Inson g'ildirakni kashf etib undan qo'l tegirmoni, arava, charxpalak yasab, ulardan foydalana boshladi. Yuk tashish vositalari vujudga keldi.

O'lkamizda paxtachilik va ipakchilikning kashf etilishi haqida gapirganda Surxondaryo viloyatidagi Sopollitepa yodgorligini gapirib o'tish zarur. Sopollitepaning dastlabki maydoni 4 gektar bo'lib, atrofi uch qator mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. 1969-1974 yillarda bu yerda A.Asqarov rahbarligida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Qazish jarayonida bu yerdan xom g'ishtdan qurilgan ko'p xonali uy-joy qoldiqlari, turli xil mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, sopol idishlari, bezaklar, taqinchoqlar topilgan.

Sopollitepaliklar abadiy o'limga ishonmaganlar, «narigi dunyo» tushunchasi ularda kuchli bo'lgan. Shu sababli ular marhum yoniga uning mol-mulki, idish-tovoqlarda ovqatlar bilan ko'mgan. Agar jamoa a'zosi bedarak yo'qolsa, unga qabr kovlanib, qabrga odam haykalchasi, qo'y yoki echki bolasi ko'milgan. Bunday mozorlar fanda «kenetaf» deb yuritilgan.

Sopollitepada hunarmandchilikning boshqa turi-to'qimachilik ham yuksak rivoj topgan. U yerdagi mozorlardan kiyim qoldiqlari topilgan. Bu kiyim qoldiqlari tekshirilganda ular paxta va tabiiy ipakdan ishlanganligi ma'lum bo'ldi. Bu buyuk ixtiro bo'lib, o'tmishdagi ajdodlarimiz bronza davridan boshlab paxta ekish va uni ko'paytirish bilan shug'ullanganliklaridan dalolat beradi. Bu ilmiy dalillari shu bugungacha darsliklarda aniq yoritilmagan. Ipakning vatani Xitoy bo'lgan va O'zbekistonga ipak Xitoydan olib kelingan degan fikrlarni inkor etmoqda. Markaziy Osiyoda jumladan, O'zbekistonda ipakchilik tarixining ildizlari bronza davriga borib taqalishi isbotlandi. Arxeologiyaga oid tekshiruvlar shundan dalolat beradiki o'lkamizda paxtachilik tarixi 3,5 ming yildan kam emas. Bronza davri bilan shug'ullangan tadqiqotchilar bu davrni uchta katta yilnoma davrga: ilk, rivojlangan va so'ngi bronza davrlariga bo'ladilar. Markaziy Osiyoning shimoliy va sharqiy hududlarida mavjud bo'lgan bronza davri yodgorliklari madaniyati janubiy hududlardagi o'troq madaniyatdan ajralib turadi.

O'zbekiston hududida bronza davrida asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalarning moddiy-madaniy yodgorliklari Xorazmda Tozabog'yob madaniyati (shu nomli kanal atrofidan topilgan) nomi bilan mashhur. Bu davrga mansub sopol buyumlar Qozog'iston va Sibir cho'l hududlaridagi sopollarga ancha o'xshab ketadi. Lekin, Tozabog'yob madaniyati o'ziga xos xususiyatlari bilan Sharqiy Yevropadagi chorvadorlar yaratgan Yog'ochband madaniyatidan, Qozog'iston va Sibirdagi Andronov madaniyatidan ham farq qiladi. Bunga asosiy sabab, tozabog'yobliklar orasida dehqonchilik keng tarqalgan.

Xorazmda tekshirilgan so'nggi bronza davri yodgorliklari Amirobod madaniyati nomi bilan atalgan. Amirobod madaniyati miloddan avvalgi IX-VIII asrlarga oiddir. Bu davr yodgorliklari Tozabog'yob madaniyati xususiyatlarini saqlab, yarim yerto'la, turar-joy, sug'orish inshootlari izlari va qo'lda yasalgan sopol idishlar bilan izohlangan.

Qadimgi ajdodlarimiz hayotida metall bilan ishlab hunarmandchilik qilish yuksak darajada taraqqiy etgan. Qazishmalar vaqtida yer tagidan juda ko'plab metall buyumlar – oddiy uy ro'zg'or buyumlaridan tortib to harbiy qurollargacha, ayollarning surmadonlari, oyna va boshqa turli xil idishlar metaldan ishlanganligi ma'lum bo'ldi. Oltin va kumushdan turli xil taqinchoqlar yasalgan.

Sopollitepa madaniyatida mudofaa tizimida murakkab me'moriy an'analar aks etgan, uy qurilishida ular xom g'ishtdan keng foydalanganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov. I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.Sharq, 1998. 3-4 bet
- 2.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
- 3.Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – T.: “O'zbekiston”, 2005.
- 4.Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 2007.
- 5.Karimov Sh, Shamsuddinov R. Vatan tarixi. 1-kitob, T. “O'qituvchi”, 32-45, 97-109 b.
- 6.O'zbekiston xalqlari tarixi. Ikki jildlik. Akademik A.Asqarov tahriri ostida. T. Fan; 1992-1993.
- 7.Asqarov A.A. O'zbekiston tarixi (Eng qadimgi davrlardan eramizning V asrlarigacha) T. “O'qituvchi” 1994. 12-68, 103-111 betlar.
- 8.O'zbekiston tarixi. T. “Universitet”, 1996, 1-jild. 56-68 betlar.

3-MAVZU: O'ZBEK DAVLATCHILIGINING SHAKLLANISHI VA DASTLABKI TARAQQIYOT BOSQICHLARI.

Reja:

1. Davlatchilik tushunchasi. Jahon tarixidagi eng qadimgi davlatlar.
2. O'zbekiston hududida eng qadimgi davlatchilikning rivojlanishi.
- 3.O'lkamiz xalqlarining madaniyati. Diniy e'tiqodlar. «Avesto»- zardushtiylik dinining muqaddas kitobi.
4. Yuyechji qabilalarining O'rta Osiyoga kirib kelishi. Kushonlar saltanati mamlakatimiz davlatchiligi tarixida yangi davr ekanligi.

Tayanch so'z va iboralar:

Davlatchilik, dunyo va O'zbekistonning qadimgi davlatlari, ahamoniylar va makedoniyaliklar davri davlatchiligi, Kushon podsholigi, markazlashgan davlatlar, Zarado'shtra Axuramazda, Axriman, Vis, Mo'niy, So'g'd yozuvi.

1. O'zbek xalqi davlatchiligi tarixini o'rganishning o'ta muhimligini I.Karimovning quyidagi so'zlaridan bilish mumkin: "O'zbekiston –kelajagi buyuk davlatdir. Bu mustaqil, demokratik huquqiy davlatdir. Bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir".

Ushbu masalani yoritishdan oldin davlatchilik tushunchasiga, jahon tarixidagi eng kadimgi davlatlar yuzaga kelishi tajribasiga qisqa bo'lsa ham e'tibor qilish o'ta o'rinlidir.

Davlat - insoniyat sivilizasiyasi rivojlanishining mahsuli, elatlar, xalqlar va millatlar hayotining ma'lum huquq va qonunga asoslanib tashkil etishning siyosiy

shaklidir. U o'z mohiyatiga ko'ra kishilarning talablari va ehtiyojlarini amalga oshirish huquqlarini himoya qilish, amaliyotda barqarorlikni o'rnatish va saqlashga mo'ljallangan, muayyan aholi jamoalari tomonidan tashkil etilgan maxsus vakolatli va qonun-qoida asosida faoliyat ko'rsatadigan vakillar guruhlar majmuasidir.

Davlat siyosiy va ma'muriy tashkilot sifatida xalqni uyg'unlashtiradi. Davlat tufayli jamiyatning butun tuzilishi (iqtisodiy, huquqiy normalari, turmushi, urf-odati, texnikasi va bilim darajasi, etikasi, dini, falsafasi, ijtimoiy qarashlari va boshqalar) to'la kuch bilan namoyon bo'ladi. Boshqacharoq, aytilganda, davlat boshqaruvida quyidagi ikkita muhim jihatlar hal etilganligini sezish mumkin.

birinchidan, davlat paydo bo'lishi bilan amaliyot hayotini tashkil etish va uni boshqarishning tarixan dolzarb bo'lgan yangi shakllari qaror topdi. Hokimiyatning vakolatli shakli yuzaga kelib, katta-katta ijtimoiy vazifalarni bajarish uchun keng xalq ommasini safarbar etishning tashkiliy usullari va vositalari ishlab chiqilib, doimo takomillashtirilib borildi. Davlat doirasida aholining ijtimoiy jihatdan farqlanadigan tarkibiy tuzilishi yuz berdiki, natijada urug', qabilachilik aloqalaridan etnik va sinfiy umumiylikka o'tish ta'minlandi. Shuningdek, davlat mavjudligi tufayli ijtimoiy manfaatni shaxsiy manfaatdan ajratib, uning ahamiyatliligi ta'minlandi. Ijtimoiy intizom qaror topib, insonning shaxs sifatida ijtimoiy qiyofasi birinchi o'ringa chiqdi. Demak, davlatning kelib chiqishi nafaqat tarixiy zaruriyat, balki ijtimoiy taraqqiyot omili ham bo'ldi;

ikkinchidan, davlat ibtidoiy jamiyatda mavjud bo'lgan boshqaruvdagi tamoyillarga barham berdi. Oqibatda, butun jamoaning jamiyat hayotida bevosita ishtiroki, boshqaruvda jismoniy zo'ravonligi emas, balki jamoa fikri va obro'si kuchining tan olinishi, iqtisodiy majburlashning yo'qligi va boshqa ko'pgina tamoyillar yo'qolib ketdi.

Jahonda eng qadimgi davlatlar miloddan avvalgi 4-ming yillik oxiri 3-ming yillik boshida Mesopotamiya va Misrda, birmuncha keyinroq Gang daryosi vodiysida va Old Osiyoda, Egey dengizi havzasida va Xuanxe daryo vohasida vujudga kelgan va rivoj topgan.

Qadimgi Sharqda davlatlarning yuzaga kelishi jarayoni juda murakkab kechdi va bir necha yuz yilliklarni o'z ichiga olgan uzoq davrga cho'zildi. Chunki, bu yerda urug'chilik tuzumi qoldiqlari va uning organlari tezda o'z o'rnini yangi jamiyatga bo'shatib bermadi.

O'rta Yer dengizi havzasidagi qadimgi Gresiya va Rimda shahar davlatlari-polislarning yuzaga kelishi va rivojlanishlari uchun butunlay boshqacha qulay sharoit bo'lgan. Bu yerda polislar demokratik (qadimgi Afinada) yoki aristokratik (qadimgi Rimda) xarakterga ega bo'lishganlar va o'zlarida mulkning shaklini aks ettirganlar. Lekin, antik dunyodagi xo'jalikni rivojlantirish ehtiyoji, iqtisodiy aloqalar takomillashuvi asta-sekinlik

bilan davlatlarning yiriklashuvini taqazo etgan. Bu hududda Etoliy, Axey va boshqa shahar - davlatlari ittifoqi bilan birga yirik Ptolemeylar Misri va Salavkiy davlatlarining yuzaga kelishi, nihoyat O'rta Yer dengizi havzasida yagona Rim imperiyasining paydo bo'lishi yuqoridagi fikrimizning isbotidir. Ellin davlatlarida sharqiy harbiy-ma'muriy despotik imperiyalar belgilari o'z-o'zini boshkaruvchi shahar-davlatlari sistemasi bilan qo'shib ketgan deyish mumkin.

Davlatchilik munosabatlari rivojlanishi va shakllarining ortishi natijasida davlat apparati ham murakkablashib bordi. Soliq tizimi yuzaga keldi, kemasozlik barpo bo'ldi, doimiy armiya tashkil etildi va b. Endi ilgarigi shahar-davlatlari apparatiga xos senat, magistratura, komisiya va boshqalar o'rnida Rim respublikadan imperiya tartibotiga o'tdi.

Oliy hukmdor monarx bo'lib qoldi va uning atrofiga asta-sekinlik bilan yirik yer egalari, shaharning boy kishilari to'plana bordi. Demak, jamiyat takomillashmoqda edi. Davlatning yiriklashib, hayotda muammolar ko'payib borishi bilan boshqaruvni takomillashtirish ehtiyoji kelib chiqan. Mukammal, doimo harakatda bo'lgan hujjatlar ishlab chiqish davr talabi bo'lib qolgan. Bu hujjatlar davlat qonunlari darajasiga ko'tarilgan. qonun esa huquq ma'nosida davlat hokimiyati oliy organining tartibga solingan qarorlari bo'lib, ularni barcha fuqarolar, tashkilotlar, uyushmalar va idoralar bajarishga majbur bo'lganlar.

Bobilda miloddan avvalgi 1760 yilda podshoh Xammurapi qonunlar majmuasini qabul qilgan edi. U tarixda Xammurapi qonunlari deb ataladi. qadimgi Rimda XP qonunlar kodeksi, Arab xalifaligida islom dini shariat qonunlari qabul qilingan. Hattoki, Chingizxon tomonidan tuzilgan deyarlik ko'chmanchilar davlatida ham "Yaso" nomi bilan qonunlar majmuasi bo'lgan. "Temur tuzuklari" dagi "qonun hukmron bo'lgan joyda erkinlik bo'ladi", "Kuch adolatdadir" degan qoidalarni alohida eslashimiz zarur.

Shimoliy Amerika mustaqillikka erishgach 1776 yilda "Mustaqillik deklarasiyasini"ni, Fransiya esa 1789 yilda "Inson va fuqoro huquqlari Deklarasiyasi"ni qabul qilgan edi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning 1990 yil 20 iyunida bo'lgan ikkinchi sessiyasida qabul qilingan "Mustaqillik Deklarasiyasi", 1991 yil 28-31 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari" to'g'risidagi qonun, 1992 yil 8 dekabrda hayotimizga joriy etilgan O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi (Asosiy qonuni) davlatimizning asosiy poydevori bo'lib qoldi.

2. Ishonchli tadqiqotlarda bizning qadimgi davlatlarimizning Xitoy, Hindiston, Eron davlatlari bilan tengdosh bo'lganligi e'tirof etilmoqda. Bu fikrimizni olimlarimizning o'sha davr ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini, ya'ni yirik sug'orish inshootlari qurilishini, o'troq joylashuvi o'lkalari bo'lgan viloyatlarning yuzaga kelishini, Markaziy Osiyoning janubida mustahkam devorlar bilan o'ralgan, ichida hokimlarning qarorgohlari, mudofaa burjalari mavjud bo'lgan qal'alar, ko'hna shaharlar va uy-qo'rg'onlar barpo etilishini, chorvachilik va hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishidan iborat bo'lgan mehnatning dastlabki taqsimotlarini, pul muomalasining yuzaga kela boshlanganligini tahlil qilishliklari, rimlik, yunonlik, xitoylik, eronlik va boshqa mualliflar qoldirgan ma'naviy ma'lumotlar, mahalliy yozma manbalar ("Avesto" kitobi, Beruniyning "qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari va b.) to'laligicha tasdiqlaydi. Shaharlarning paydo bo'lishi dastlabi davlatchilik shakllanishida asosiy omil, bu ikkala jarayon uzviy bog'liq holda kechgan.

Shaharlarning paydo bo'lishi dastlabki davlatchilik shakllanishida asosiy omil bo'lib, bu ikkala jarayon uzviy bog'liq holda kechgan. Ilk shaharlar O'zbekistonda bronza davrida, ya'ni millodan avvalgi 2-ming yillik boshidan paydo bo'lgan bo'lib, buni Sherobod tumanidagi Jarqo'ton yodgorligidan bilish mumkin. Bu yodgorlikda

qal'a ark, shahar qismi va qabristondan iborat bo'lib, unda shohlar saroyi, olov ibodatxona, kulollar mahallasi, turar joy manzilgohlari, qal'a devolari va ikki mingdan ortiq qabrlar mavjud edi. Jarqo'tonda yashagan aholini quyidagi ijtimoiy guruhlarga bo'lish mumkin: shahar-davlat amaldorlari, dindorlar va oqsoqollar, harbiylar, savdogarlar, chorvadorlar va dehqonlar. Ularning barchasi saroyda yashagan amaldorlar va dindorlar tomonidan boshqarilgan. Jarqo'ton aholisi o'rtasida antagonistik qarama-qarshiliklar bo'lmagan, ko'proq urug'chilik an'anasi saqlangan. Ushbu shahar-davlatning hududi shahar qismidan, dehqonchilik qilinadigan Sherobod daryosi uzanidan va chorvachilik uchun zarur bo'lgan Ko'hitong tog' yonbag'ri yaylovlaridan iborat bo'lgan. Bu yodgorlikni davlatchilikning birinchi bosqichi bo'lgan qadimgi Sharq shahar – davlatlarining nusxasi deyish mumkin. Demak, Jarqo'ton yodgorligi O'zbekiston hududidagi eng qadimgi shahar-davlatdir yoki "Avesto" tilidagi "noma" davlatdir. Milodgacha IX-VII asrlar jamiyatining ijtimoiy tarkibi to'g'risida ma'lumot beruvchi zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da ko'rsatilishicha, Markaziy Osiyo va Sharkiy Erondagi jamiyatning asosini katta patriarxal oila tashkil etgan. Bu "imana" deb atalgan. Shunday oilalarning bir nechtasi urug' jamoasini – "vis"ni tashkil etgan. Hududiy qo'shinchilik jamoasi "varzana" deb atalgan. Bunday jamoalar birlashib qabilani - "zantu" ni tashkil qilgan. qabilalar o'rtasida turli sabablarga ko'ra kelishmovchiliklar ham bo'lgan. O'z hududlarini himoya qilish maqsadida bir necha qabilalar yagona ittifoqqa "dax'yu"ga birlashganlar. Ularning boshqaruv tizimi ham bo'lgan: Oqsoqollar kengashi-xalq yig'ini qabilalar boshliqlari. Vujudga kelayotgan davlat tuzilishiga aholining urug'-qabilaviy emas, hududiy belgilar bo'yicha bo'linishi asos bo'lgan. Bu uyushma dastavval harbiy-siyosiy birlashma sifatida paydo bo'lgan, o'zi yashagan hududni mudofaa qilgan, xo'jalik sohasida esa yerni ishlash, ekinlarni sug'orish ishlarini uyushtirgan. Miloddan avvalgi 1-ming yillik boshlarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning jadal rivojlanishi natijasida jamiyatda dehqonchilik, xonaki chorvachilik, hunarmandchilik va sug'orish ishlarida mashg'ul ishlab chiqaruvchilar hamda ishlab chiqarish bilan shug'ulanmaydigan oqsoqollar va harbiy boshliqlar ajralib chiqib boshlaydi. O'zbekiston hududida milodgacha 1-ming yillikning X-VIII asrlaridagi jamiyatning bunday tuzilishi davlatchilikning ikkinchi bosqichida shohlik boshqaruviga asoslangan hududiy va milliy kichik davlat birlashmalari mavjudligidan dalolat beradi.

"Baqtriya podsholigi" haqidagi ma'lumotlarni Yunonistonlik tabib Ktesiy va solnomachi Diodordan ham olish mumkin. Diodor Ossuriya hukmdori Ninning 1910 ming (ma'lumot bo'rtirilgan) piyoda va otliq harbiy qo'shin bilan Baqtriyaga qarshi hujum uyushtirganligini, mahalliy podshoh Oksiartning esa 400 ming kishilik armiya bilan uning hujumini qaytarishga harakat qilganligini, natijada baribir Baqtriya poytaxti Balx egallanib, uning boyligi talanganligini yozadi. Biroz vaqt o'tgach Ossursiya va Midiya davlatlari o'rtasida urush kelib chiqadi. Unda Baqtriya dastlab Ossursiya tomonida, keyinchalik Midiya aslzodalari Baqtriya qo'shinlari boshlig'ini o'z tomoniga ag'darib olganidan keyin Midiya bilan birgalikda Ossursiyaga qarshi harbiy harakatlarni olib borgan. Tarixchi Gerodot ham podshoh Kirning Midiya davlati ustidan harbiy g'alabaga erishganidan keyin navbatdagi urushning Vaviloniya va Baqtriya xalqlariga, saklar va misrliklarga qarshi davom etishligi to'g'risida xabarni bergan. "Baqtriya podsholigi" harbiy-demokratik tipdagi konfederasiyadan iborat bo'lgan. Baqtriya davlati hozirgi Surxondaryo, qisman qashqadaryo viloyatlari, Janubiy

Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston hududlarida joylashgan. Sug'diyona va Marg'iyona ham uning tarkibida bo'lgan. Baqtriya Misr va Bobil davlatlari qatorida edi. U qudrati jihatidan ham qo'shni davlatlardan qolishmagan. Uning tabiiy boyliklari Old Osiyoga mashhur bo'lgan. Xususan, Badaxshon Lojuvardi (lazuriti) juda qadrlangan.

Shu davrda yana bir qadimiy davlat "Katta Xorazm" tashkil topgan. U Amudaryo quyi oqimidagi shimoliy yerlarda Marv va Xirof atrofida joylashgan ulkan davlat bo'lgan. Uning markazlaridan biri Ko'zaliqir shahri edi. Shahar qalin va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Uning dehqonchilik bilan shug'ullangan aholisi turli xil o'y-qo'rg'onlarga va qishloqlarda yashagan. "Katta Xorazm" da hunarmandchilik, binokorlik va savdo sotiq sezilarli darajada rivojlangan. Uning inqirozga uchragan vaqti to'g'risida aniq ma'lumotlar bo'lmas-da, lekin milodgacha IX-VII asrlardagi Midiya davlati hukmronligi davrida "Katta Xorazm"ning Janubiy qismi ajralib ketgan, uning yana bir qismini esa Eron ahmoniylari bosib olganligi ma'lum. Natijada "Katta Xorazm"ning Amudaryo quyi qismida milodgacha IV asrda "qadimgi Xorazm" davlati paydo bo'lgan. Uning podshosi Farasman makedoniyaliklar Baqtriya va Sug'diyonani zabt etgan paytda katta qo'shin va sovg'a-salomlar bilan Iskandar Zulqarnayn huzuriga tashrif buyurib, unga agar sohibqiron Markaziy Osiyoning shimol qismiga harbiy yurish qilsa, unga yordam berajagini izhor etgan. Shu bois makedoniyalik hukmdor Xorazmga harbiy yurish qilmadi va u o'zining davlat mustaqilligini saqlab koldi.

Qisqasi, milodgacha IX-VII asrlarda O'zbekiston hududida ilk temir asriga o'tish boshlangan. Milodgacha VII-VI asrlarda bu yerda qadimgi yirik davlatlar faoliyat ko'rsatgan. Bu davlatlar harbiy-demokratik tipdagi qabilalar ittifoqidan o'sib chiqqan, bu davrdagi davlatchilik taraqqiyoti mahalliy aholining yuqori darajada rivojlangan ziroatchiligiga asoslangan edi.

Biroq, keyingi davrdagi arxeologik ma'lumotlar Markaziy Osiyodagi Murg'ob vohasi va qadimgi Baqtriya yodgorliklari orasida milodgacha 2-ming yillikning o'rtalariga oid yozuvlar borligidan dalolat bermokda. Ammo, hali ular mutaxassislar tomonidan o'qilmagan. Demak, hududimizda 3,5 ming yil ilgari ham davlat bo'lgan degan mantiqiy xulosani e'tibordan chetda qoldirmasligimiz zarur.

Milodgacha 545- 540 yillarda Eron ahmoniylari shohi Kir II harbiy qismlari Markaziy Osiyoga kirib keladi. Natijada Xorazm, Parfiya, Baqtriya, Marg'iyona va Sug'diyona xalqlari 200 yildan ko'prok Ahmoniyar imperiyasi tarkibida mustamlakachilik zulmini o'z boshidan o'tkazdi.

Bu davrda Markaziy Osiyo uchta satrapliklarga bo'lindi, ularning boshliqlari (satraplari) etib fors amaldorlari tayinlandi. Satraplar harbiy-ma'muriy viloyatlarning hukmdorlari sifatida o'z hududida qo'shinlar lashkarboshisi bo'lgan, mahalliy aholini turli soliqlar to'lashga majbur etganlar. Soliqlar sifatida qimmatbaho toshlar, chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlari berib turilgan. Lekin, ular bosib olingan hududlarda mahalliy xalqning urf-odatlarini, dini, qonun-qoidalari, og'irlik va uzunlik o'lchovlari, yozuvi va tilini saqlab qolganlar. Eron ahamoniylarining zulmiga qarshi O'rta Osiyoda juda ko'plab qo'zg'olonlar ko'tarilgan. Masalan Kir II ning bosqinchilik siyostiga qarshi massagetlar malikasi To'maris va uning o'g'li Sparangiz kurash olib borgan bo'lsa, Doro I ga qarshi sak cho'pon yigiti Shiroq va mil.avv. 522 yilda Marg'iyonada Frada boshchiligida qo'zg'olonlar ko'tarildi. Ular shavqatsizlik bilan bostirildi.

Bu davrda ko'plab yangi shaharlar qurilganligini, hunarmandchilikning kengayishini, "shoh yo'li" nomi bilan xalqaro aloqa yo'li barpo etilganligini, savdo-sotiq, san'at va musiqa ishlarining ancha jonlantirilganligini, Markaziy Osiyo xalqlarining birinchi marta zarb etilgan tanga pullar bilan muomala qilinganliklarini ham qayd etish o'rinlidir. Umuman ahmoniylar davri madaniyati va san'atini tahlil qilar ekanmiz, unda Yunoniston, Ossuriya, Misr va boshqa chet el xalqlari o'zaro ta'sirini sezish qiyin emas. Bu o'zgarishlar, shubhasiz, mavjud davlatchilikka ta'sir o'tkazmasdan qolmasdi.

Milodgacha IV asrga kelib ahmoniylarning markaziy hokimiyati o'zining ilgarigi mavqeyini yo'qota boshlagach ayrim o'lkalar o'z mustaqilligini qo'lga kirita boshladilar. Jumladan, Xorazm milodgacha IV asrdayoq ahmoniylar tassarrufidan chiqqan edi. Baqtriya satrapligi boshqaruvi ham mahalliy aristokratiya vakillari qo'lga berilgandi. Lekin, bu yerda ahmoniylarga tobelik yunon - makedoniyalik bosqinchilar kirib kelguncha saqlanib qolgandi.

Milodgacha 329 yilning bahoridan boshlangan Yunon-Makedon istilochilari zulmidan qutulish uchun Sug'diyona xalqlariga 150 yil, Baqtriya xalqlariga esa 180 yil kerak bo'ldi. Iskandarning Markaziy Osiyoni boshqaruv siyosati haqida yunon olimlari Gerodot, Kvint Kursiy Ruf, Arrian, Plutarx, Diodor, Strabon kabilar ko'plab ma'lumot berganlar. Ularning ko'rsatishicha, Iskandar mamlakatni boshqarishda ahmoniylar joriy qilgan satrapliklar tizimini qoldirsada, ularning pul zarb etish va o'z ixtiyorlarida yollanma qo'shin saqlash huquqini bekor qildi. Satrapliklarda makedoniyaliklar nazorati episkoplar roli kuchaytirildi. Satrapliklar devonidagi episkop ayni vaqtda lashkarboshi ham hisoblanardi. Moliya boshqaruvi uchun esa alohida lavozim tayin qilindi. Eroniy satraplar o'rniga makedoniyaliklar quyildi. Ko'rinadiki, mamlakatni boshqarishda Iskandar deyarli katta o'zgarishlar kiritmadi.

Yevtidemning o'g'li Demetriy davrida (milodgacha 199-167 y.) Yunon-Baqtriya davlati Hindistonning bir qismni bosib olish hisobiga kengayadi, hukmdor nomi bilan tanga pullar zarb qilinadi, davlatni boshqa

Lekin, milodgacha 174 yildan Yunon-Baqtriyada separatistik harakatlar kuchayadi. Bundan foydalangan Parfiya hukmdori Mitradat I Margiyonani bosib oladi. Sug'diyona ham Yunon-Baqtriya tarkibidan chiqadi. Ana shunday og'ir damlarda Yunon-Baqtriya davlati uchun shimoli-sharqiy tomondan ko'chmanchilar xavfi ham kuchaydi. U paytda shak qavmlarining bir qismi bo'lgan yuechjilar sharqiy Turkistonda yashaganlar. Ular o'zlarining shimoli-sharqdagi qo'shnisi bo'lgan xunlar siquvida O'rta Osiyoga quvilishga majbur bo'lgan edilar. Ular dastlab Farg'ona vodiysidagi shak qavmlarini mag'lubiyatga uchratdilar, keyinchalik milodgacha 140-130 yillar orasida Yunon-Baqtriya davlatini bosib oladilar. U yerda yashagan to'xtar qabilalari Yunon-Baqtriya davlati tugatilgandan keyin Tohariston deb atashgan. Unga Amudaryo chap kirmog'idagi yerlardan Hisor tog' tizmalarigacha bo'lgan joylar, ya'ni hozirgi Surxondaryo viloyati va Janubiy Tojikiston kirgan. Toharlar qisman ko'chmanchi bo'lib, yagona davlatga ega bo'lishmaganlar, har bir shahar o'z hukmdoriga ega bo'lishgan.

Yunon-Baqtriya davlati 120 yil yashagan. U markazlashgan davlat bo'lib, hokimiyatni podsho boshqargan. Davlat bir necha viloyatlarga bo'lingan bo'lib, viloyat hokimlari podshoga bo'ysinishgan. Bu davrda Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligi, madaniy hayot, hunarmandchilik va shaharlar rivojlanishini ko'rish mumkin. Bu davrga

oid mis tangalar tovar-pul munosabatlari mavjudligidan dalolat beradi. Dalila daryosi bo'yi – Salavkiyadan Baqtriyagacha karvon yo'lining ishga tushirilishi bilan xalqaro savdo va madaniy aloqa jonlandi. Baqtriya orqali Xitoydan Hindistonga boradigan karvon yo'li va Buyuk Ipak yo'li tarmoqlarga bo'lingan.

Taxminan miloddan avvalgi III asrdan milodning II asrlarigacha o'lkamizda Dovon-Farg'ona deb nomlangan davlat ham bo'lgan. Xitoy tarixchilarining milodning I-II asrlariga doir ma'lumotlarida qayd etilishicha, Dovon davlati hududlari Toshkentgacha borgan. Uning poytaxti Ershi shahri edi (hozirgi Andijon viloyatining Marhamat tumani yonida). U bug'doyi, bedasi, arpasi, uzumlari, anorlari va armug'oni, kulolchiligi bilan mashhur bo'lib, hunarmandchilik ham rivoj topgan edi. Aholisi 300 ming kishidan iborat bo'lib, shaharlari soni 70 gacha yetgan.

Xitoy hukmdorlari milodgacha 104-101 yillarda 2 marta bu davlatni bosib olmoqchi bo'lganlar-da, lekin mahalliy aholining tazyiqi ostida tovon evaziga uning hududini tashlab chiqishga majbur bo'lganlar. Dovon podsholigi tepasida mahalliy aholining aslzodalaridan chiqqan hukmdor turgan. Hukmdor yonida eng yaqin qarindoshlaridan 2 ta yordamchi bo'lgan. Hukmdor davlat ishlarini olib borishda oqsoqollar kengashiga tayangan. Kengash davlat ahamiyatiga molik ijtimoiy, siyosiy va diniy masalalarni hal qilishdan tashqari hukmdor faoliyatini ham nazorat qilgan. Demak, hukmdor huquqi kengash oldida cheklangan edi. Oliy kengash hukmdorni hokimiyatga qo'yishi yoki undan chetlatishi mumkin edi. Dovon davlatini asragan bir sulola vakillari uzluksiz boshqarib kelgan. O'zbek xalqi davlatchiligi jarayonini Kushon podsholigisiz tasavvur etish qiyin. U davlatchiligimiz poydevorlaridan biri sifatida o'rganishga va faxrlanishga arzigulik meros qoldirgan. Uning katta hududida turli tildagi va dindagi xalqlarni birlashtirishga, Sharq va ʻarbning barcha shaharlari bilan keng miqyosdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar olib borishga qaratilgan faoliyatini o'rganish katta ahamiyatga ega.

3. Markaziy Osiyodagi turli xalqlarning qadimgi davrlardagi diniy qarashlari va e'tiqodlari, payg'ambarlari va ular ta'limotlarining yoyilishi ko'pgina olilar orasida ilmiy munozalarga sabab bo'layotgan masaladir. Ahmoniyar davri Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng yoyilgan va asosiy din zardushtiylik edi. Bu ta'limotning asoschisi Zaratushtra va uning faoliyati, bu dinning muqaddas kitobi «Avesto» va u paydo bo'lgan hudud haqidagi masalalar ham hozirgi kunda ko'pchilik tadqiqotchilarning diqqat markazida turibdi.

Juda ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, Zaratushtra afsonaviy bo'lmasdan tarixiy shaxs hisoblanadi. U Yunon manbalarida Zoroastr nomi bilan eslatiladi. Zaratushtra nomi qadimgi Eron «Zara-ushtira» so'zidan kelib chiqqan. «Zar» - oltin, «ushtra» - tuya, yoki uch xil ma'noda – «Oltin tuyali», «Oltin tuya egasi», «Oltin tuya yetaklagan odam» deb tarjima qilinadi. U Spitama avlodidan (so'g'diycha Spitaman dngan ism ham shundan kelib chiqqan) bo'lib, otasini Porrushasp, onasini Dugdova deb atashgan. Zaratushtraning otasi qohinlar tabaqasiga mansub bo'lib, u tug'ilgan mamlakat bizga noma'lum. Bularning barchasi Zaratushtra hayoti tarixi, ayoniqsa uning tug'ilgan joyi va sanasi haqida to'la ma'lumot berolmaydi. Bunga yanada aniqliklar kiritish maqsadida zaradushtiylarning muqaddas diniy kitobi hisoblangan va eng eski qismlari Zaratushtra tomonidan bitilgan «Avesto» kitobiga murojaat etishimiz lozim. Avestoning maxsus boblari Zaratushtrani tarixiy shaxs sifatida yoritiladi.

Al-Beruniy Zaratushtraning tug'ilgan yilini makedoniyalik Iskandardan 258 yil oldin edi, deb belgilaydi. Ba'zi tadqiqotlar bu sanani to'g'ri desa, ba'zilar noto'g'ri deb hisoblaydilar. Mil. Avv. 330 yilda Ahmoniylarning so'nggi vakili bo'lgan Doro III vafot etadi. Hokimiyat makedoniyalik Iskandarning qo'liga o'tadi. Agar Beruniy ma'lumotlaridan xulosa chiqaradigan bo'lsak ($330+258=588$), Zaratushtra mil. Avv. 588 yilda tug'ilgan. V.I. Abayev va I.M. Dyakonov xulosalariga ko'ra Zarashtura yashab o'tgan vaqt – bu mil. Avv. VII-VI asrlardir. Olimlar fikriga ko'ra, Zaratushtra mil. Avv. 553-541 yillar atrofida 77 yoshida vafot etgan. Bu sana hisobidan Zaratushtra 630-553 y. yoki 618-541 yillar davomida yashagan bo'lishi mumkin.

Zaratushtraning tug'ilgan joyi haqida hozirgacha ham bahslar davom etayotgan bo'lishiga qaramasdan, bu muammoga aniqliklar kiritilmagan. U haqda turli fikrlar mavjud. Bir guruh olimlar Zarashtrani hozirgi Ozarbayjon hududida tug'ilgan deb hisoblaydilar. Bu guruh olimlar «Avestoda» keltirilgan Ar'yonam Vayjo (forscha «Eron yoj» - aynan tarjimasini, «eron tekisligi» degani, bu viloyat – Zaratushtra ta'limoti dastlabki tarqalgan viloyat hisoblanadi) viloyatini o'zlariga asos qilib oladilar. Yana bir guruh olimlar Zaratushtrani Baqtriyada (hozirgi O'zbekistonning Surxandaryo vohasi, Tojikistonning janubi, shimoliy Afg'oniston) tug'ilgan deb hisoblaydilar. Bu guruh olimlar Yunon tarixchisi Ktesiy (mil. Avv. V asr oxiri – IV asrning boshi) ma'lumotlariga asoslanadilar. Undan tashqari, bu guruh tadqiqotchilar «Avesto»ning eng qadimgi qismlari Baqtriyadi yozilgan deydi. Yana boshqa bir olimlar guruhi Zaratushtraning vatani – qadimgi Xorazm deb hisoblaydi. Payg'ambar Zaratushtra tug'ilgan joy va vatani haqida «Avestoda» hych qanday ma'lumot yo'q.

«Avesto»da keltirilgan geografik hududlarni o'rganishdan xulosa chiqargan ko'pchilik hozirgi tadqiqotchilar Zaratushtraning Markaziy Osiy viloyatlaridan birida hych bo'lmaganda bu hududga qo'shni bo'lgan shimoli-g'arbiy Eron hududida tug'ilgan deydi. Umuman olganda, Zaratushtraning vatani Markaziy Osiyo deb hisoblovchi olimlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Zaratushtraning diniy islohotlar o'z vatanida tarafdorlarini topmagan. Shuning uchun ham payg'ambar o'z yurtidan ketishga majbur bo'lgan. Zaratushtra e'tiqodini qabul qilgan birinchi tarafdorlari – bu qadimgi Baqtriya podshosi Kavi Vishtasp, malika Xutaosa va ularning yaqin qarindoshlaridir.

Zaratushtra dinining yoki aniqroq qilib aytganda diniy islohotning mohiyati nimada? Ko'p xudolikdagi eroniy xalqlardan qaybirlari unga ko'proq kirgan? Zaratushtra o'z g'oyalarida qonli qurbonlik (mil. Avv. VII asrgacha bo'lgan dinlarda odamlar va hayvonlar xudolarga qurbonlik qilgan) qilishni qat'iy qoralaydi. Zaratushtra yana shuni ta'kidlaydiki, odamzod yashashga haqli bo'lib, bu huquqdan uni mahrum qilishga hych kimning haqqi yo'q. Zaratushtra o'z g'oyalarini targ'ib qila boshlagan davr Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixida eng muhim davr edi. Ibtidoiy jamoa munosabatlari o'zgarib, sinfiy munosabatlar qaror topmoqda edi. Yangi din bu o'zgarishlarni o'zida aks ettirar va tug'ilayotgan sinfiy jamiyatga xizmat qilardi. U sinfiy jihatdan birlashishga va kuchli markazlashgan hokimiyat tuzishga, o'sha davrda o'troq dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi vodiy aholisi uchun «xudoning qamchisi» (tig'i) hisoblangan ko'chmanchi xalqlarga qarshi keskin kurashga chaqirdi. Zaratushtra islohotlari diniy jihatdan ham, ijtimoiy jihatdan ham bita – ulug' va donishmand xudo Axuramazdaga (so'zma-so'z tarjimasini «janobi dono») sig'inishga va Axuramazdaning

dushmanlari deb e'lon qilingan sobiq qabila xudolari – asuralar va devlarga qarshi kurashga olib keldi.

Zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto» shu tariqa yuzaga kelgan. Bir qator olimlar zardushtiylik aqidalariga tayanib «Avesto»ni ilk Sosoniylar (milodning III-VI asrlari) davriga bog'lasalarda, shunga qaramay uning birinchi tahriri miloddan oldingi I asrlarda bo'lib o'tgan deb hisoblanadi. «Avesto» jumlasini ham o'sha paytda paydo bo'lgan bo'lib, u o'rta fors tilida, «apastak», ya'ni «asos», «asosiy matn» degan ma'noni bildiradi. Eng qizig'i Videvdat bo'lib, to'plam ma'nosi – «devlarga qarshi qonun» demakdir. U qohinlar majmui bo'lib, poklanish marosimlari qoidalari, gunohlarni yuvish va sahovatli bo'lish, har xil urf-odat qoidalari, shu bilan birga Dafn etish marosimlari haqidagi bo'limdir.

«Avesto»ning yana bir qimmatli tomoni shundaki, u O'zbekiston xalqlari qadimgi tarixini o'rganishda dastlabki yozma manbalardan biri hisoblanadi. «Avesto»ni to'plam holida yig'gan olim anketil Dyupperon (Fransiya) bo'lib, u XVIII asrning o'rtalarida uni Hindistondagi Gujarat viloyatidan keltiradi va Fransuz tilida Chop ettiradi. Bizgacha «Avesto»ning ayrim kitoblari yetib kelgan. Tadqiqotchilar uni quyidagi qismlardan iborat deb hisoblaydilar. «Yasna» «qurbonlik keltirish», «Yasht» (qadrlash), «Videvat» (devlarga qarshi qonunlar). «Visprat» (hamma hukmronlar). «Yasna»dagi 72 bobdan 17 tasi payg'ambar Zaratushtraga tegishli. Ular – «Gota»lar nomli «muqaddas qo'shiqlar»dir. Videvdatda Markaziy osiyodagi viloyatlar va davlatlar haqida quyidagicha ma'lumotlar beriladi: «Men, Axuramazda eng yaxshi yerlar va mamlakatlar orasida birinchi bo'lib Vanxvi Daiti bo'yida (ko'pchilik tadqiqotchilar uni Amudaryo deydilar) Aryonam vayjoni yaratdim, shunda o'lim keltiruvchi Anxro Manyo devlar va qishni yaratdi Men Axuramazda eng yaxshi yerlar va mamlakatlar orasida ikkinchi bo'lib sug'diylar yashaydigan Gava makoniga asos soldim». Shundan so'ng Mouru (Marg'iyona), Bahdi (Baqtriya) kabi ko'plab davlat va viloyatlar eslatiladiki, bu «Avesto»ning tarixiy manbai sifatida qimmatini yanada oshiradi.

Ba'zi olimlar, makedoniyalik Iskandar qadimgi forslar sulolasini tor-mor etganidan so'ng «Avesto»ning eng eski qismlarini yo'q qilgan deb hisoblaydilar. Ammo, Parfiya podshosi Vologez I davrida (mil. 51-78 yillari). «Avesto»ning qolgan-qutgan qismlari to'planadi.

4. Ma'lumki, milodgacha IV asr o'rtalarida yunon-grek bosqinchilarining harakati natijasida yuqorida eslatuvchi yuechji deb eslatilgan massaget qabilalari Sharqiy Turkistondan to Mug'ulistongacha bo'lgan yerlarga ketib qolgan edilar. Lekin, ular o'sha vaqtda Balxashdan to Xitoygacha bo'lgan hududlarda yashovchi xunlar zarbasi bilan milodgacha 165 yilda T'arbg'a uloqtirib tashlanganlar. Yuechjilar dastlab Farg'onada, keyinroq milodgacha 155 yildagi Yunon-Baqtriya inqirozidan foydalanib, Sug'd va Baqtriya yerlariga ham kirib borgan edilar. Hokimiyat uchun kurashgan 5 ta qabilalar orasida Guyshuan (Kushon) guruhi g'olib chiqib, milodgacha I asr oxirida yuqorida qayd etilgan Tohariston va Kushon podsholigini barpo etgan. Bu davlatning asoschisi Kujula Kadfiz bo'lgan.

U o'z davlatini Kushon bekligi sifatida e'lon qiladi va hozirgi Surxandaryo viloyatining Sho'rchi tumanida joylashgan Dalvarzintepani bu beklilikning poytaxtiga aylantirdi. Kudzula Kadfiz o'z davlat chegaralarni kengaytirish va uning mustahkamlash maqsadida Amudaryoning chap sohili tumanlarini egallashga bel bog'ladi. U tez orada Parfiya, Afg'oniston va Kashmirni egalladi. Kudzula Kadfiz 80

yoshida tark etdi. Uning davrida Kushon davlatining o'z pullari bo'lmagan. Kudzulla Kadfiz tangalarni Rim saltanati va Parfiya podsholari zarb etgan tangalarga taqlid qilib chiqargan. Shu boisdan ham bu davrdagi tangalarda «Kudzulla Kadfiz Yabg'u» degan yozuvlarni uchratamiz. Keyinroq esa «Hukmdor Kadfiz» degan yozuvda tangalar zarb etilgan.

Kudzulla Kadfiz vafotidan so'ng uning o'g'li Vima Kadfiz taxtga o'tradi. Bu davrda Kushonlar davlati Pokiston va Hindiston markaziy viloyatlarini bosib oladi. Vima Kadfiz o'z nomidan tangalar zarb etadi. Unga atab tosh haykali o'rnatadilar. Bu haykal Hindistonning Mathura shahrida qad ko'taradi. Vima Kadfiz 30 yil podsholik qiladi. Mamlakatda pul islohotini o'tkazadi.

Vima Kadfizdan so'ng mamlakatni idora etish Kanishka zimmasiga tushgan. U podsholik qilgan davrda Hindistonning janubiy tumanlari, Markaziy Osiyoning Sug'diyona, Xorazm va choch viloyatlarini zabt etadi. Kanishka davrida «shahlarning shohi – ulug' xaloskor» yozuvi bilan tanga pullar zarb etiladi. Kanishka tangalari Ashgabatdan Xorazmgacha, buyog'i Toshkent vohasigacha bo'lgan katta hududlarda ko'plab topilgan. Kushon davlati bu davrda eng gullagan va hududlari juda ham kengaygan davrda o'z boshidan kechiradi. Kanishka Buddha dinini rasmiy ravishda davlat dini deb e'lon qiladi, buddizmni qabul qilib, uning saltanat miqyosidagi tashviqotchisi va himoyachisiga aylanadi. Kanishka davlat poytaxtini Dalvarzindan peshovardga ko'chiradi.

102 yilda Xitoyning nomdor va yengilmas lashkarboshisi Ban Chao vafot etadi. Bundan foydalangan Sharqiy Turkiston viloyatlari xalqlari birin-ketin Xitoyga qarshi qo'zg'olonlar ko'tardilar. Bu qulay vaziyat tufayli kushonlar 107 yilda Sharqiy Turkistonga Yana lashkar tortadilar. Kushonlar sharqiy Turkistonga o'zlari bilan buddizmni ham olib keldilar. Ular Sharqiy Turkistonda o'z hukmdorlarini o'rnatolmagan bo'lsalarda, Hindiston yilnomalarida Kanishkaning Tarim havzasini bosib olganligi haqida ma'lumotlar berilgan. Xullas, Kanishka podsholik qilgan 23 yillik davrda Kushonlar davlati hududlari juda ham kengaygan.

Soson podshosi SHOPUR 1 (241-242 yillar) yozdirgan «Zoroastr Kaabasi»da kushonlar saltanatining hududi haqida: «Kushonlar mamlakati Peshavor, Qashg'ar, So'g'd va Chochgacha cho'zigan», - deyiladi. Markaziy Osiyoda kushonlar asos solgan 3 ta shahar bo'lgan: 1.Koson – Farg'ona vodiysida; 2.Kattaqo'rg'on – Zarafshon vohasida va 3.Kesh – Qashqadaryo viloyatidadir.

Kanishka vafotidan keyin kushonlar taxtiga uning o'g'li Vasishka o'tirdi. U 4 yilgina podsholik qildi xolos. Vasishkadan so'ng hokimiyat Xuvishka qo'liga o'tadi. U 32 yil hukmronlik qiladi. Undan so'ng Vasudeva podsholik qildi. Vasudeva 34 yil mamlakatni idora qildi. Bu davrga kelib Kushon podsholigi ikki qismga bo'linadi. Mamlakatning bir qismiga Vasudeva, ikkinchi qismiga Kanishka III hukmronlik qiladi. Buni ularning har ikkalasi nomidan zarb etilgan tanga pullar isbotlaydi.

Shahar qurilishiga katta e'tibor berilgan, me'moriy-monumental, tasviriy va Amaliy san'at, haykaltaroshlik rivojlanish borasida eng yuqori nuqtaga ko'tarilgan. Ichki va tashqi savdo taraqqiy etgan. Mamlakatda tinchlik va osoyishtalik hukmronligiga erishilganligi tufayli dehqonchilik va uning yurak tomirlari hisoblangan sug'orish inshootlarini barpo etish davlat tasarrufida bo'lgan. Hunarmandchilikning deyarli barcha tarmoqlari keng qo'lamda yuksalgan. Bu davrda etnik madaniyati, tili va dini bir xil bo'lgan xalqlarning siyosiy jihatdan birlashishi ayniqsa muhim ahamiyat

kasb etgan. Turli xalqlar madaniyatining chatishishi natijasida bu yerda o'ziga xos yangi madaniyat shakllanib rivoj topadi va keyingi asrlar madaniyatining taraqqiyotiga ham zamin bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga kushonlar davri Markaziy Osiyo xalqlarining oldingi davridagi taraqqiyotiga yakun yasadi. Shundan so'ng Sharq va Tarb madaniyatlarining o'zaro ta'siri yangi tarixiy bosqichga qadam qo'ydi. Ellin madaniyatining an'analari Kushonlar davrida ijodiy jihatdan qayta shakllandi va yangicha talqin qilina boshlandi.

Lekin, markazlashgan davlat barpo qilish va kengaytirish uchun uzoq davr olib borilgan harbiy harakat milodiy III asrdan Kushon imperiyasining inqirozga yuz tutishiga sabab bo'ldi. Uning asosiy qismi Sosoniylar sulolasi qo'lga o'tishdi. qisman esa shimoldan kirib kelgan xionit, eftalit va oq xunlar deb nomlangan yarim ko'chmanchi xalqlar tomonidan egallandi.

Bu davrda Xorazm ham mustaqil davlat bo'ldi va unda milodiy III asr 40-50 yillaridan Afrig podsholari hukmronligi boshlanadi.

Umuman olganda Kushonlar hukmronligi sharoitida o'zbek davlatchiligining deyarlik 1,5 ming yil davom etgan qadimgi davriga yakun yasaldi va davlatchiligimizning yangi bosqichi uchun shart-sharoitlar yaratildi deyish mumkin.

Vatanimiz hududlarida zardushtiylik bilan bir qatorda MONIYLIK dini ham milodimizning III asri o'rtalaridan boshlab keng tarqala boshlagan dinlardan biridir. Moniylikning asoschisi Moniy ib Fatak (216-277) dir. U 216 yilda Taysafun (Ktesifon) yaqinida tavallud topgan. Shu bilan birga Moniy 230-yillarda Eron, Markaziy Osiyo, Hindiston bo'ylab safar qilib zardushtiylik, buddiylik, bahramandlik dinlari bilan va turli diniy ta'limotlar bilan tanishadi. 240-yillardan boshlab Moniy o'zining mustaqil ta'limotini targ'ib qila boshlaydi. O'z ichiga zardushtiylik, buddiylik, brahmanlik, xristianlik dinlarining ba'zi tomonlarini olgan bu ta'limot boshqa mamlakatlarda ham qiziqish uyg'ota boshlaydi. Jumladan, sosoniylar sulolasidan bo'lgan Eron shohi Shopur I bu ta'limotni quvvatlab Moniyni Eronga taklif etadi. Moniyning 242 yilda Shopur I ning taxtga o'tirib toj kiyish marosimi paytida birinchi marta o'z ta'limotini bayon etib va'z o'qiydi. Shopur I Ushbu moniylik ta'limotini xristianlik va mahalliy dinlarga qarshi chiqadilar. Zardusht qohinlarining kuchayishi tufayli Moniy muvaffaqiyatsizlikka uchrab Erondan qochishga majbur bo'ladi. Shundan so'ng Moniy Markaziy Osiyo yerlarida, shu jumladan O'zbekiston hududida faoliyat ko'rsatadi.

Moniy 273 yilda Eronga qaytadi va Shoh Bahrom Ining topshirig'i bilan 275 yilda hisbga olinib zindonband qilinadi va 277 yilda qatl etiladi. Moniy bir necha kitoblar muallifidir. Jumladan «ShOBURAQON», «KANZ ULAHYO'», («Tirilganlar xazinasini») «JABBORLAR HAQIDA», «SIRLAR KITABI», «AVANGELION», «KEFALAYA», «BUNGOXIK», (Bungohang) kitoblari uning qalamiga mansubdir.

Moniylik ta'limoti Moniy o'limidan keyin ham keng tarqaladi. U VIII asrda Uyg'ur xonligida hukmron dinga aylanadi. Ammo keyinchalik moniylik islom dini ta'qibiga uchraydi va asta-sekin Yevropa va Osiyo mamlakatlarida barham topadi. XIV asrga bu diniy ta'limot Xitoyda ham taqiqlanadi. Biroq moniylikdagi yaxshilik va yomonlik kurashi haqidagi dualistik ta'limot keyinchalik Yevropa mamlakatlarida pavlikianchilik, Sharq mamlakatlarida esa mazdakiychilik harakatlarini keltirib chiqardi.

Moniy o'rta asr sharq she'riyatida mashhur naqqosh va rassmo sifatida doimo tilga olingan. Buyuk shoirlardan Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Abdurahmon

Jomiylar o'z «Xamsa»larida Moniyni ta'rif va tavsif etib o'tganlar. Jumladan Alisher Navoiy o'z «Xamsa»siga kirgan. «Farhod va Shirin», «Sab' ai sayyor» kabi dostonlarida Moniyni alohida tilga olgan.

Markaziy Osiyo xalqlari dunyodagi eng boy tarixga ega bo'lgan xalqlardan ekandigi yuqoridagi mavzularida qayd etildi. Bu o'lkada qadim-qadimdan yashab kelgan Xorazmiylar, Baqtriyalilar, Sug'diyonalilar, Parfiyonlar, Davanlilar, Qang'ililar, Kushonlar va boshqalar o'z paydo bo'lish, rivojlanish va tarqqiy qilish tarixlariga monan o'z madaniyatlari va yozuvlariga ham ega bo'lganlar. Hozirgacha bizga ma'lum bo'lgan manbalarda Markaziy Osiyo xalqlarining yozuv tarixi yoshini taxminan, 2500-2700 yillar atrofida deb hisoblaydilar, Xorazm, baqtr va sug'dda eron tillari bir necha laxjalardan iborat bo'lgani kabi, turkiy tillar ham xilma-xil laxjalarni o'z ichiga olgan. Uzoq yillar o'tishi bilan eron tillari zaminida fors tili - tojiy tili, turkiy tillar laxjalari zaminida turkiygo'y xalqlar tillari paydo bo'lgan. Qadim-qadimdan bu hududda yonmayon, yelkama-yelka yashab kelgan domo iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan aloqador va bog'lanib ketgan eron va turk tillarida so'zlashuvchi xalqlar so'zlashuv tili jihatidan ham bir-birlariga kuchli ta'sir o'tkazganlar. Buni nafaqat og'zaki so'zlashuv tilida balki yozma madaniyatda ham ko'rish mumkin.

Mil.avv. I ming yillik o'rtalarida Eron, Markaziy Osiyo va boshqa o'lkalarda oromiy yozuvi keng tarqalgan. Markaziy Osiyoni iZulqarnayn bosib olgach, u yerga Yunon yozuvi kirib keldi. Oromiy yozuvi, Yunon yozuvi, forsiy mixxat muayyan davrlarda ma'muriy hujjatlarda qo'llanilgan. Mi. Avv. I ming yillik o'rtalarida oromiy yozuvi negizida Ovesto, Xorazm, So'g'd, Kushon-Baqtriya, Rum (Urxun – Enasoy) Uyg'ur kabi bir qator mahalliy yozuvlar vujudga kelgan. Tarixi yozma manbalarning guvohlik berishicha, Kushon davlati davrida Hind xalqlari bilan o'zaro aloqadorlik negizida Braxma va Qharoshhi deb atalgan hind alifbolari ham ishlatilgan.

Muarrixlar muqaddas «Avesto» kitobini milloddan avvalgi VII-V asrlarda bitilganligini taxmin qiladilar. Markaziy Osiyoda uzoq vaqtlar qo'llanib kelingan Xorazm va so'g'd yozuvlari ham qadimiydir. Xorazm yozuvi oromiy yozuvning qadimiy an'analarini o'zida saqlab qolgan edi. Buni rus olimi S.P.Tolstov o'z hamkasblari bilan Xorazmdagi Qo'yqirilgan qal'asida arxeologiyada oid tadqiqotlar uyushtirib topgan ashyolar asosida isbotladi. Bu yerdan u Xorazm yozuvi namunalarini topdi. Bu yozuvlar qadimgi Xorazm tangalari, muhrlari, hujjatlari, san'at asarlari, uy-ro'zg'or buyumlarida aks etgan edi.

Shunday qilib yuqoridagi dalil asoslar Markaziy Osiyo hududidagi xalqlar eng qadimgi yozma madaniyatga ega bo'lganligini isbot qiladi. Bu g'oyatda muhim siyosiy ahamiyatga molik masaladir. Chunki, qadimgi ajdodlarimiz o'z rivojlangan davlatchiligi, yuksak rivoj topgan madaniyati va yozuviga ega bo'lgan qadim-qadim zamonlarda shimoliy mintaqalarda yashovchi xalqlar hali yovvoyilik bosqichidan ham chiqmagan edilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - T.: Sharq, 1998.
- 2.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
- 3.Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – T.: “O'zbekiston”, 2005.
- 4.Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 2007.

5. Azizxo'jayev A. Davlatchilik va madaniyat. - T.: Sharq, 1997.
6. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. - T.: 1993.
7. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. T., 2000.

4-MAVZU: O'ZBEK XALQINING ETNIK SHAKLLANISHI, ILK O'RTA ASRLAR DAVLATCHILIGI

Reja:

1. O'zbek xalqining etnik asosini tashkil etgan tub joy urug'-qabilalar, elatlar va ularning etnik tarkibiga milodiy VIII asrgacha yuz bergan siyosiy vaziyatning ta'siri.
2. Ko'chmanchi kidariylar, xioniylar va eftaliylarning O'rta Osiyoga yurishi.
3. Turk hoqonligining vujudga kelishi, aholining etnik tarkibi, idora usuli.
4. Arab xalifaligining paydo bo'lishi, ularning bosqinchilik yurishlari.

Tayanch so'z va iboralar:

Etnogenez, o'zbeklarning tarixiy vatani, urug', qabila, elat, xalq, millat, etnik-madaniy jarayon, skiflar, saklar, massagetlar, "ikki daryo oralig'i tipi", o'zbek xalqi shakllanishi bosqichlari, "o'zbek" atamasi. Kidariylar, eftalilar, kadivar, kashovar, Mazdak, Bumin Xaqon, budun, qora budun, tudun, najjorlik, yabg'u, badaviylar, Quron, juzya, xiroj, zakot, Qutayba ibn Muslum, Go'rak, Tarhun, Muqanna qo'zg'aloni, Abumuslum.

1. O'zbek xalqining kelib chiqishi – etnogenezi juda kam o'rganilgan, tarix, arxeologiya, etnografiya, antropologiya, tilshunoslik, folklorshunoslik kabi fanlarning ancha jiddiy tadqiqotlarini kutayotgan masalalardan biridir.

1998 yil iyunida Prezident I. Karimov ham tarixchilar va O'R FA ning rahbariyati bilan "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" mavzusidagi uchrashuvda "biz o'zimizni millat deb bilar ekanmiz, o'zbekchiligimiz haqida aniq tushunchaga ega bo'lishimiz kerak", deyish orqali xalqimiz etnik shakllanishi masalasini chuqur o'rganish zarurligini ko'rsatgandi.

O'zbeklarning tarixiy vatani - ular tarqalgan geografik hududdir. Taxminan hozirgi kunda O'zbekiston va unga qo'shni mamlakatlarda yashayotgan o'zbeklar soni 25 mln. ni tashkil qiladi. Bunga Saudiya Arabistoni, Turkiya, Olmoniya, AQSH va boshqa uzoq xorijdagi bir millionga yaqin muxojir o'zbeklar kirmaydi. Mazkur raqamdan 20 milliongacha o'zbek ona yurt O'zbekistonda, 2 mln. ga yaqin Afg'onistonda (Xuroson o'zbeklari), 1,5 mln. Tojikistonda, 0,6 mln. Qirg'izistonda, 0,5 mln. Qozog'istonda va 0,4 mln. Turkmanistonda istiqomat qiladi.

O'zbeklar tarqalgan bu yerlar ruslar istilosiga qadar o'zbek xonliklari tarkibiga kirgan. O'zbeklar millat bo'lib ana shu yerlarda shakllanganlar. Lekin o'tmishda o'zbeklar yashagan hudud bundan ham keng bo'lgan.

O'zbek xalqining etnik shakllanishi urug'chilik jamoasidan to hozirgi davrda yetuk millat darajasiga ko'tarilgan juda uzoq va murakkab jarayonni o'z boshidan kechirdi. Aslida urug' bir ota-onadan tarqalgan qon-qarindoshlarning uyushuvi natijasida shakllangan jamoadir. Tirikchilik tashvishi va tashqi dushmanlardan saqlanish zaruriyati kishilarning qon-qarindoshlikka asoslangan birlashuviga olib kelgandi. Urug'chilik jamoasi eng qadimgi odamlar to'dasiga nisbatan mustahkamroq va tashkiliyroq bo'lib, shu yo'l orqali kishilarning teng huquqliligi, asosiy ishlab chiqarish qurollarining umumiy mulkligi, jamoa mehnati va iste'mol qilishning umumiyliigi ta'minlangan, nikoh va diniy marosimlar tartibga solinib turilgan, joriy urf-odatlar buzilganda

aybdorlar jazolangan. Urug' jamoasi o'zining eng aqlli va botir jangchilaridan birini shu urug'ning boshlig'i etib tayinlagan.

Bir hududda yashagan bir necha urug' jamoalari birlashib qabilaga aylangan. Qabilalar yagona qabilaviy tilga (shevaga), kengashga va harbiy boshliqqa ega bo'lgan. Urug' boshliqlari qabila kengashi tarkibiga kirgan, eng kuchli urug' boshlig'i esa qabila rahnamosi deb e'lon qilingan.

Qabilalar yuzaga kelish jarayoni kishilarning ovchilik va ko'chmanchi chorvachilik bilan birga dehqonchilik va ibtidoiy temirchilikka o'ta boshlagan, boshqacharoq qilib aytganda aqliy tabaqalanish mulkiy tabaqalanishga o'ta boshlagan davrga to'g'ri keladi.

Elat deyilganda qabilalar ittifoqi kishilarning til, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan tarkib topgan birligi tushiniladi. Aksariyat holatlarda qabilalar ittifoqi yaylov va suv uchun tez-tez bo'lib turadigan janglarda o'zini himoya qilishi yoki g'olib chiqish maqsadida barpo etilgan. Elatni xalqning millat bo'lib shakllanishidan oldingi bosqichi deyish mumkin. Kishilarning bir hududda elat bo'lib yashashlari qon-qarindoshlik, umumiy manfaatdorlik his-tuyg'ularini kuchaytirgan. Umumiy manfaatdorlik hissi va uni himoya qilish ma'suliyati esa davlatni vujudga keltirgan.

Xalq deyilganda ko'proq el, elat, millat, aholi, olomon, bir guruh kishilar tushiniladi. Xalq so'zi falsafiy nuqtai-nazardan qaralsa, uni tarixning barcha bosqichlarida jamiyat vazifalarini hal etishga qodir, yurt yumushiga yaroqli va qobiliyatli qatlam, ijtimoiy birlik, tarix ijodkori deyish mumkin. Demak, balog'atga yetmaganlar aholi soniga kirsam ham xalq safiga kirishga hali erta.

Millat kishilarning tarixiy tarkib topgan, umumiy iqtisodiy turmush, til, hudud birligi, madaniyat, ong va ruhiyat uyg'unligi demakdir. Millatni davlatsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Hozirgi o'zbek millati ham urug'chilik va qabilachilik davrlarini, elat, xalq va millat shakllanishi jarayonlarini o'z boshidan kechirgan.

Manbalarda ko'rsatilishicha, milodgacha ikki ming yillikning o'rtalari va oxirlari (bronza asri) o'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron hududlari tarixi hind va eron qabilalari yoyilishi bilan bog'liq. Ular hattoki, Volga va Ural daryolari hamda janubiy Sibir oralig'idagi yerlarda ham yashaganlar.

Taniqli arxeolog A.Sagdullayev fikricha, ana shu bronza davridayoq o'rta Osiyoda yuqorida eslatilgan qadimgi janubiy va shimoliy qiyofadagi odamlar vakillarining qo'shilishi jarayoni boshlanadi hamda aynan shu davrda o'lkamizda yashagan qabilalar o'rta Osiyoning qadimgi xalqlariga asos solganlar.

O'lkamizning qadimgi aholisi tosh va bronza asrlari davrida qanday nom bilan atalganliklari bizga noma'lum. Ilk bor o'rta Osiyo aholisi xususidagi ma'lumotlar sharq va antik davr yunon-rim manbalarida tilga olinadi. Yunon tarixchilari aytishicha, Yevroosiyoning katta hududlarida yashovchi qabilalar umumiy "skiflar" nomi bilan atalgan. Tadqiqotchi Pliniy esa o'sha davrda o'rta Osiyoda 20 yaqin turli nomda qabilalar borligi to'g'risida xabar bergan. Yana skiflarning 2 ta yirik qabilasi: saklar va massagetlar xususida ham qayd etiladi.

Yunon olimlaridan Efor (milodgacha 405-330 yillar) quyidagilarni yozgan: "Qo'yboqar saklar skiflar tarkibiga kiruvchi qabilalardir. Ular soddadil ko'chmanchilar toifasidan bo'lib, don yetishtiradigan Osiyoda istiqomat qiladilar. Saklar bir joydan ikkinchi bir joyga aravalarda ko'chib yuradilar va biya suti bilan tirikchilik o'tkazadilar"

Yunonistonlik Strabon (milodgacha 63-28 yillar) va Pompey Trog (milodgacha 1-milodiy I asr) asarlarida saklar va massagetlarning qaysi xalqqa mansubligi, ular egallagan hududlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Pompey Trog shunday yozadi: "Kaspiy dengizidan boshlab skiflarning katta qismi daylar (Qoraqumda), ulardan Sharqda yashovchi qismi esa massagetlar va saklar deb ataladi. Skiflarni hamma vaqt eng qadimiy xalq deb hisoblab kelganlar. Qadimiylikda ular misrliklardan qolishmaydilar".

Milodgacha VI-V asrlarda toshga o'yib yozilgan ahmoniylar yozuvlarida saklarning uchta qabilaviy birlashmalari ko'rsatib o'tilgan: "Saka-Tigraxouda" Sug'diyonaning sharqiy-shimolida, Sirdaryoning o'ng tomonida – Toshkent viloyati, Yettisuv va janubiy Qozog'iston yerlarida yashaganlar. Ularni "cho'qqayma qalpoq kiygan saklar" deyishgan: "Saka-Tiay-Taradarayya" Sirdaryo va Orol dengizi atrofida yashab, ularni "daryo narisidagi saklar" deyishganlar; "Saka-xaumavarka" o'rta Osiyoning markaziy va janubiy qismida istiqomat qilishgan.

Bu qabilalarning bir qismi o'troqlik holatiga o'tib, dehqonchilik bilan shug'ullana boshlasa, boshqa katta qismi esa tog' va tog'oldida istiqomat qilishgan, cho'llarda ko'chib yurishgan. O'troq bo'lib yashagan qabilalar esa ilk temir asridan (milodgacha XII-IX asr) "so'g'dlar", "baqtriyaliklar", "farg'onaliklar" va "xorazmliklar" deb atalgan.

Milodgacha IV-III asrlardayoq o'rta Osiyoning shimoliy-sharqida turkiy tilli qabilalar mavjud bo'lib, ularning xorazm, so'g'd, baqtriya kabi yozuvlari o'sha joy aholisi ichida ishlatilgan. Yettisuvdagi saklarning bir qismi ham turkiy tilda so'zlashgan. Tushunarliki, o'rta Osiyoda qadimdan 2 xil: turkiy va sharqiy eroniy tillarda so'zlashuvchi aholi bo'lgan.

Hozirgi o'zbek millatining asosini ana shu ikki tilda so'zlashuvchi urug'lar, qabilalar, elatlar tashkil etgan. o'zbek xalqining etnik shakllanishi uzoq davom etgan tarixiy jarayon bo'lib, uning shakllanishidagi asosiy vosita ishlab chiqarishdagi, iqtisodiyotdagi va madaniy hayotdagi o'zgarishlar bo'lgan.

Antropolog olim T.Xodjayev o'rta Osiyoning turli hududlaridan topilgan 500 dan ortiq antropologik material asosida hozirgi o'zbek va tojiklarga xos antropologik tip – "Ikki daryo oralig'i irqi" milodgacha birinchi ming yillik oxiri va milodning boshlarida Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida shakllanib, keyinroq Farg'ona va Xorazm vohalariga, Zarafshon vodiysiga ko'chib o'tganligini isbot qildi. Bu esa fanda yaqingacha keng tarqalgan fikrlar, ya'ni o'zbeklarga xos Markaziy Osiyo "ikki daryo oralig'i irqi" avvalo Volga daryosi bo'ylarida va o'rolda sarmat qabilalari tarkibida shakllanib tarqaldi, degan yoki bu irq Baykal ko'li atrofida va Mo'g'uliston cho'llarida shakllanib tayyor holda mahalliy aholiga o'z irqini tarqatdi, degan fikrlarni inkor qiladi.

T.Xodjayevning bu antropologik tadqiqoti natijalari yozma manbalarda ma'lum bo'lgan sak qabilalarining bir tarmog'i hisoblangan yuechjilarning janubga yurishi – Yunon-Baqtriya podshohligining istilo etilishi va Buyuk Kushon imperiyasining barpo bo'lishi davriga to'g'ri keladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, yuechjilarning janubi-g'arbga yurishi Iskandar vafotidan keyinroq boshlanib, ular Yunon-Baqtriya davlatini inqirozga uchratdi. Ko'chmanchilarning boshqa bir katta qabila ittifoqi o'rta Osiyoning shimoliy qismida yarim o'troq va yarim ko'chmanchi Kang' davlatini barpo etishda ishtirok etdi (milodgacha III-II asr). Ana shu davrda hozirgi Toshkent viloyati va Janubiy

Qozog'istonda "ikki daryo oralig'i tipi" bilan birga "qovunchi madaniyati" yuzaga keldi. Bu madaniyat ijodkorlari qang'arlar bo'lishi kerak. Chunki turkiylarning Movarounnahr va Xorazmning ichki hududlariga kirishi ana shu madaniyat yoyilishi davri bilan bog'liq. Milodning IV-V asrlarida shimoldan o'rta Osiyoning markaziy va janubiy tumanlariga xionitlar, kidariylar va eftalitlarning kirib kelishi natijasida yerli aholining moddiy madaniyatidagi qadimgi an'ana kamayib, nozik va nafis sifatlilik kulolchilik buyumlari o'rnini dag'al, yarim o'troq chorvadorlar hunarmandchiligi egallay boshladi. Demak, bu o'zgarishlar turkiylarning kirib kelishi bilan bog'liq edi va ular bu hududda milodgacha II-I asrlardan to milodiy VI asr o'rtasida ham istiqomat qilishardi.

Milodgacha birinchi ming yillikda Markaziy Osiyo, Sibir hamda shimoliy-g'arbiy Xitoy yerlarida yashagan xalqlarning bir qismi turkiyzabon bo'lganligi manbalarda ma'lum. Issiqko'l yaqinidan milodgacha IV-III asrlarga doir sak qabilalari qabridan qadimgi yozuv namunalari topildi. Bu oromiy imlosida bitilgan yozuv "qadimgi turk yozuvi" deb tan olinmoqda. "Turk yozuvi" qadimgi Xorazm, Sug'd va Baqtriya yozuvlari singari o'rta Osiyoning shimoliy-sharqiy hududlarida istiqomat qiluvchi turkiy tilli aholi yozuvi sifatida yuzaga kelgan. Demak, "Turk yozuvi" qo'llanilgan yerlarda turkiy qabila va elatlar yashagan, ular ham juda erta o'z yozuviga ega bo'lganlar. Markaziy Osiyoning sug'diylar, xorazmiylar va bahtarlar yashagan hududlarda Sharqiy Eron tillar guruhiga kiruvchi sug'd va xorazm tillarida so'zlashsalar, shimoliy-sharqiy qismidagi aholi turkiy tilda so'zlashganlar va o'zlarining turkiy yozuviga ega bo'lganlar.

Hozirgi o'zbek tili turkiy tillar negizida shakllangan bo'lsa, tojik-fors tili Sharqiy Xuroson, ya'ni dariy tili asosida shakllandi. Demak, tojik tili hozirgi Tojikiston hududidan tashqari Amudaryoning narigi tomonida, Murg'ob vohasi, hozirgi Afg'oniston va Shimoliy-sharqiy Eron zonasida shakllanib, asta-sekin eftalitlar davlati va turk xoqonligi sharoitida, ayniqsa somoniylar hukmronligining dastlabki davrida so'g'dlar yurtiga jadal kirib bordi. U dastlab shahar va unga yangi aholi punktlarida yerli sug'd tilini siqib chiqarib, markazlashgan somoniylar davlatining tiliga aylandi. Sug'd tilini hali XII-asrda ham uchratish mumkin bo'lgan.

XI asrda yashagan Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida turklarning ijtimoiy hayoti to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Iskandar Zulqarnayn Turonni bosib olayotgan paytda turklar uzun, uchi cho'ziq burk kiyib, ot chopayotib, orqa tomonidagi dushmanga mahorat bilan yoydan o'q otardi". Xuddi shunday ta'rifni skiflar davriga oid arxeologik qazilmalarga bag'ishlangan asarida S.Rudenko ham takrorlaydi. Demak, qadimgi skiflar nomi bilan Sirdaryoning o'rta va quyi sohillaridan to Oltoygacha bo'lgan hududda ko'chib yurgan qabilalar turklarning ajdodi bo'lgan. Hozirgi zamon turkiyzabon xalqlarning soni 150 milliondan ortiqroq bo'lib, ular turli diniy e'tiqodga va 32 dan ko'proq bir-biriga yaqin tillarda so'zlashadilar.

O'rta Osiyo xalqlarining shakllanishida ma'lum rol o'ynagan eftalit qabilalar uyushmasi ham etnik jihatdan turkiylar tarkibiga kirgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da ahmoniylar va sosoniylar asoratiga tushib qolgan xalqlar orasida tur (ko'ra) lar ham tilga olinadi. Sharq manbalarida Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida, unga tutash yerlardagi xalqlar "Turk" nomi bilan, ular istiqomat qilgan yerlar esa "Turon" yoki "Turkiston" deb atalib kelingan. Firdavsiyning "Shahnoma"sida ham "Eron" va "To'ron" atamallari ko'plab tilga olinadi. Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida yashab

kelayotgan turkiy xalqlarning keng qatlamiga 639 yildan “Turkiston” degan nom berilgandi.

Milodgacha birinchi ming yillikdan o’rta Osiyo dasht mintaqalarida yashagan xalqlar hududimizning markaziy va janubiy viloyatlariga o’troqlashuv jarayonini o’z boshidan kechirib, ularning janubga siljishi va Yunon-Baqtriya davlatini istilo etishi natijasida Buyuk Kushon saltanatining barpo bo’lishi bilan yakunlangan bo’lsa, G’arbiy Turk hoqonligi hukmronligi sharoitida cho’l aholisi Sirdaryo quyi oqimidan Markaziy Qizilqum orqali Samarqand atrofiga, so’ngra Qashqadaryoning Qarshi shahri orqali Surxandaryo viloyatidagi ko’hna Termiz, Dalvarzin, Shoxtepa, Ayritom kabi qadimiy shahar va yirik manzillarga kelib joylashganlar. Ularning ikkinchi guruhi esa qadimiy Buxoro vohasi orqali Turkmanistonning janubiy viloyatlariga yetib borgan.

Tarixchi at-Tabariyning “Payg’ambar, podshohlar va xalifalar tarixi” asarida ko’rsatishicha, arab istilosi arafasida Balx, Bodhiz, Xuttalon, Chag’oniyon, Shosh va hatto Buxoro aholisining malun qismini turklar tashkil etgan. Ular mahalliy xalqlar bilan aralash yashash jarayonini o’z boshidan kechirganlar, bu xalqlarga til jihatdan ta’sir o’tkazib, ularning tillarini turkiylashtirib bordilar. O’z navbatida ilgaridan o’troq turmush tarzida istiqomat qiluvchi mahalliy aholi xalqlar ham asosiy kasbi chorvadorchilik bo’lgan turkiy xalqlarga o’z ta’sirini o’tkazganlar. Ammo til nuqtai-nazaridan turkiy xalqlarning ta’siri shu qadar kuchli bo’lganki, arablar bosqini arafasida Movarounnahr va Xorazmning tub yerli aholisi turklashib bo’lgan edi.

O’zbek xalqining etnik shakllanishida uchinchi bosqich XV asr oxiri – XVI asr hisoblanadi. Bu davrda Markaziy Osiyoga Dashti Qipchoq o’zbeklari kirib keladi. Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” sida o’rta Osiyo va u bilan qo’shni hududlarda XIV-XV asrning birinchi yarimida istiqomat qilgan 44 ta turkiy qabila va urug’larning nomlari qayd etilgan. Shular jumlasiga Sirdaryo va Amudaryo oraliq’idagi o’lkalarga XIII asrda Chingizxon va XVI asr boshida Muhammad Shayboniyxon boshchiligida Dashti Qipchoqdan ko’chib kelib, o’troqlashib ketgan qabila va urug’lar orasida uchramagan 10 dan ortiq qabilalar: qang’lilar, lochinlar, qatag’onlar, besh yuzlar, qozoqlar va boshqalar bo’lgan. Chunki, bular mazkur yurtlarda qadimdan istiqomat qilib kelgan turkiyzabon qabilalar bo’lgan.

XVI asr boshida Dashti Qipchoqdan Movarounnahrqa ko’chib kelgan turk-mug’ul qabilalari mahalliy turkiyzabon xalqdan son jihatdan juda kam bo’lgan. Ularning umumiy soni 24-26 qabiladan oshmagan. Manbalarda ko’rsatilishicha ularning nomi quyidagilar edi: qushchi, nayman, uyg’ur, qurlovut, girayli, qiyot, qo’ng’irot, tang’ut, echki, do’rmon, yoboqu, xitoy (kidonlar avlodidan), chimboy, shunqorli, shodbaqli, iyjon, qavchin, mang’it, jurg’un, ming, bachqird (bashqird), mo’jor, solur qozon, echki bahri.

XVI asrda bu qabilalar soni 40 taga yetgan: bahrin, yuz, do’rmon, jaloyir, kenagas, mang’it, ming, mo’jor, nayman, olchin, orlot, suldus, uyg’ur, xaloj, xitoy, shirin, o’tarchi, qang’li, qatog’on, qipchoq, qo’ng’irot, qiyot, arg’in, yobu, mo’g’ul, tama, keroit, qorliq, saroy, turk, uyshin va h.k. XVII asrga kelib ularning soni 50 dan oshgan, ya’ni quyidagi 20 yaqin qabila qo’shilgan: buyrak, qirq, qurama, yuz, kelachi, o’zz, qulon, uyrot, bulochi, makrit, mesit.

Qisqasi, Oltin o’rdaning “mamlakati o’zbekiya” qismida shakllangan o’zbek xalqining shimoliy qatlami Turkistonda, uning markaziy qismi Movarounnahr va

janubiy hududi Xurosonda qadimdan yashab kelayotgan turkiy qatlamga kelib qushilgan edi.

Shimoliy Turkistondan ko'chib kelgan aholi ham, navkarlar ham bu yerda yashovchi xalq bilan qon-qardosh, dindosh, mazhabdosh, tildosh edilar. Jonli so'zlashuv tilida, talaffuzda bir ozgina farq bo'lsa-da, adabiy til bitta-umumiy edi. Turkiy shoirlar Atoyi, Lutfiy, Sayfi Saroyi, Muhammad Shayboniy, Uvaysiy va boshqalarning she'riyat tili Ahmad Yassaviy hikmatlariga juda yaqin.

Turkiyalik qardoshlarimiz ko'p asrlar davomida o'zlarini avvaliga "saljuqiylar turklar", keyin "usmonli turklar" deb davlatlari nomini esa Usmoniylar saltanati, Usmoniylar xalifaligi, Kamol Otaturk zamonida o'zlarini "turk", davlatini "Turkiya jumhuriyati" deb e'lon qilganlar. 1920 yilda Usmoniylar halifaligi bekor qilinib, yangi davlatga qanday nom qo'yish masalasi munozaraga sabab bo'ladi. Bir guruh kishilar bu jumhuriyatni "Turkiston" deb atashni taklif etganlarida, boshqa uzoqni ko'ra bilgan kishi "Turkiston bizning ona yurtimiz, Turkistonning o'z vorislari bor, turkistonlik yurtdoshlarimiz kelajakda hurriyatga chiqajaklar, o'z mamalakatlarini Turkiston deb atajaklar, qardoshlarimizning milliy qadriyati – Turkistonga teginmaylik, bu tarixiy va shukuhli nom o'zlariga buyursin", degan to'g'ri taklifni o'rtaga tashlagan. Shu tariqa yangidan asos solingan jumhuriyatga "Turkiya jumhuriyati" degan nom berilgan. Shu o'rinda atoqli turk tadqiqotchisi Ziyo Ko'kalpning 20-yillarda Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tahliliga bag'ishlangan "Turkchilik asoslari" maqolasidagi (Fan va turmush, 1990, 2-son) ushbu satrlarni eslash joizdir: "Xalq firqasi hukumronlikni millatga, ya'ni turk xalqiga berdi. Davlatimizga "Turkiya" va xalqimizga "turk millati" nomlarini berdi. Holbuki, Onado'li inqilobiga qadar, davlatimizning, xalqimizning, millatimizning hattoki tilimizning nomi "usmonli" degan so'z edi, "turk" degan so'z og'izga olinmasdi".

Shunday qilib, rasmiy ravishda 1920 yillardan boshlab turk atamasi onado'lilik qardoshlarimizga tegishli bo'lib qoldi. Turk xalqi deganda Turkiya jumhuriyatida yashovchi tub aholi tushinila boshladi.

Turkiy xalq deganda esa, qadim zamondan boshlab Turonzamin va Turkistonda yashab kelgan o'troq turkiy xalq – o'zbeklar nazarda tutiladigan bo'ldi. "Turkiy" iborasi o'rniga qarab, yana boshqa ma'nolarni ham anglata boshladi. Masalan, turkiy xalqlar deyilganida barcha turk xalqlari, elatlari va qavmlar tushiniladi, bu tushunchaga turkiyalik turklar ham kiradi.. Demak, barcha turkiy xalqlarning ildizlari teran, tomirlari bir ekan.

2. Milodiy I-III asrlarda yuksalish davrini kechirgan Kushon podsholigi IV asr o'rtalariga kelib inqiroz davriga kirdi. Uning ayrim vohalarida mustaqil mulklar paydo bo'ldi. Bu mulklarning podshochalari o'zlarini turli nom bilan atadilar: Buxoroda – buxorxudotlar, Chog'aniyonda – chog'anxudotlar, Vardanzida – vardanxudotlar, Chochda – to'dunlar, Samarqand va Farg'onada – ixshidlar, Osrushanda – afshinlar, Xorazmda – xorazmshohlar, Termizda – termizsho, Iloqda – dehqonlar kabi. Ularning harbiy kuchlari esa chokarlar deyilgan. Markaziy hokimiyat ana shu podshohlar va mulklar uyushmasidan tashkil topgan.

Kidariylar nomi bilan atalgan qabila (bu nom qabila boshlig'i va podshosi Kidar nomi bilan bog'liq) esa V asrda massaget qabilalaridan ajralib chiqqan. Bunga 456 yilda kidariylarning sosoniylar bilan bo'lgan jangda yengilishi sabab bo'lgan. Jangda Halok bo'lgan Kidarning o'g'li Kungas boshchiligidagi kidariylar Shimoliy Hindistonga o'tib,

Gupta podsholigini o'zlariga tobe etganlar va u bu yerda 75 yil hukmronlik qilganlar. Qisqasi, nima bo'lganda ham olimlar eftaliylarni asli O'rta Osiyoda ilgaridan yashab kelgan sak – massaget va xun qabilalarining birikmasidan kelib chiqqan deb hisoblaydilar. Bu qabilalar o'rtasidagi farq etnik xarakter emas, sulolaviy jihatdan bo'lishi mumkin. «Eftal» so'zi esa eftaliylar shohi Vaxshunvor Eftalon nomi bilan bog'liqdir. Vaxshunvor 457 yildan e'tiboran Chog'aniyon, Tohariston va Badaxshonni ham o'ziga bo'ysundirib O'rta Osiyoda yirik davlatga asos soladi. Bundan taxlikaga tushgan Eron shohi Peroz eftaliylarga qarshi uch marta harbiy yurish qilgan va ularda muvaffaqiyatsizlikga uchragan. Natijada, eftaliylar Marv, Qobul va Panjob vodiysi, Qarashar, Kuchu, Qashqar va Xo'tonni ham qo'lga kiritadilar. Eron uzoq davr eftaliylarga xiroj to'lab turgan.

Taxminiy fikrlarga ko'ra, Eftaliylar davlatining poytaxti Poykand yoki Balx shaharlari bo'lgan. Aholining asosiy qismi dehqonchilik bilan shug'ullangan, qolganlari esa ko'chmanchi chorvachilik hayot tarzini o'z boshidan kechirgan. Eftaliylarning ko'pchiligi maxalliy aholi bilan aralashib, o'troq hayot tarziga o'tgan, yoki shaharliklarga xos yashashga moslashganlar. Eftaliylarning ko'chmanchi aholisi esa kigiz o'tovlarda, keng yaylovlar va suvga boy yerlarga ega bo'lishgan. Ko'rinadiki, ular dastlab ko'chmanchi chorvador bo'lishgan, keyinroq esa, shaharlarni ishg'ol qilib, uning doimiy axolisiga aylanishgan.

Muhimi shuki, eftaliylar davlatida yer egaligi munosabatlari shakllana boshlagan. Eski tartibdagi shaxarlar o'rnida yangi shahar-qal'alar qaror topgan. Eron, Vizantiya, Xitoy va Hindiston kabi davlatlar bilan savdo aloqalari olib borilgan.

O'rta Osiyoda feodal munosabatlari – yer egaligi yuzaga kelishining o'ziga xos xususiyatlari shuki, bu yerda dehqon ko'proq mulkdor zamindorga emas, yerga bog'lanib qolar edi. Bu esa chorikorlik tartibini vujudga keltirdi.

Feodal munosabatlar yuzaga kelishini yana shundan sezish mumkin ediki, kushonlar podsholigi davrida dehqonchilik uchun yaroqli, sug'oriladigan yerlar asosan qishloq jamoalari ixtiyorida bo'lib, bu jamoa a'zolari «Kashovarlar» deb atalardi. Yer egasi bo'lib qolgan harbiy zodagonlar esa «dehqon» deb atalardi.

Bu davrlarda «dehqonlar» qishloqda ekin yerlari, ariq bo'ylariga joylashib, «Koshavarlar»ni bo'ysindirganlar va xom g'ishtdan kushk-qo'rg'onlar qurib yashaganlar. Jamoa yerlarini egallagan «dehqon»larning qullari, bog'-rog'lari, chorva mollari, xizmatkorlari va kanizaklari shaxarda savdo-sotiq bilan ham shug'ullanish uchun ularning savdo – do'konlari hamda hunarmandchilik bilan bog'liq dastgohlari mavjud edi.

V-VI asrlarda dehqonchilik vohalarida kichik-kichik sug'orish kanallari ishga tushiriladi. Hozirgi vaqtda ham mavjud bo'lgan Zag'ariq, Bo'zsuv, Darg'om kanallari V asrda barpo etilgan. Shuningdek, tog' oldilariga suv olib borish uchun suv chiqarish asboblardan keng foydalanilgan.

Qalin mudofaali Qo'rg'onlar ilk o'rta asrning o'ziga xos me'morchilik namunalaridan bo'lib, Nahshab vohasidagi Zahoki-Moron qal'asi, Buxorodagi Shahri Vayron, Xorzamdagil Fir qal'asi shular jumlasidandir. Vohalarni tashqi dushmandan himoya qilish maqsadida bir necha chaqirim uzunlikdagi qalin devorlar barpo etilgan. Samarqand vohasidagi 12 ta darvozaga ega bo'lgan «Devori Qiyomat», Buxoro vohasidagi uzunligi 336 kilometrli «Kampirik», Toshkent vohasidagi «Kampirdevor» istehkom devorlari shular jumlasidandir.

Bu davr me'morchiligida qasrlar qurilishi, ayniqsa, ahamiyatlidir. Qasrlar odatda 2 Qavatli, shipi tekis, gumbazsimon va ravoqsimon yopilgan bir necha xonadan iborat bo'lgan. Bu davrda qurilgan saroy va ibodatxonalar qurilishida paxsa va xom g'ishtdan tashqari pishiq g'isht ham ishlatila boshlangan. Bularga misol tariqasida Surxandaryodagi Bolaliktepa, Xorazmdagi Tuproqqal'a qasrlari xarobalarini ko'rsatish mumkin.

Shunday qilib, V-VI asrlarda mamlakatimizda, umuman, mintaqada yuz yildan ortiq davr davomida eftaliylar sulolasi hukmronlik qildi. Davlatni boshqarishda ular o'tmishdagi dongdor sulolalaridan qolishmaganlar. So'nggi kushonlar zamonida boshboshdoqlik yo'liga kirgan mamlakatni qaytadan birlashtirib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlar va tashqi aloqalar taraqqiyotini an'anaviy yuksak darajada tutib turishiga bosh - qosh bo'lganlar.

3. VI asr o'rtalariga kelib, Sharqiy Turkiston, Farg'ona, So'g'diyona, Xorazm, Baqtriya, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Eronni o'z ichiga olgan Eftaliylar davlati tanazzulga uchray boshlagan. Ayni davrda Oltoy, Yettisuv va Markaziy Osiyodagi turli qabilalar va xalqlar birlashib, yirik turk xoqonligi davlatini tashkil qildilar. Lekin bu turkiy xalqlarning davlatga uyushuvi VI asr o'rtalarigacha bo'lmagan degan xulosani bermaydi. Turkiyshunos olimlar fikricha, eng qadimgi turkiyzabon xalq Xitoy solnomalarida miloddan avvalgi 1756 yildan tilga olinadi. Lekin bu xalq «Turk» nomi bilan emas, balki «xun» deb atalgan. «Turk» so'zi etnik (xalq) nomi sifatida milodimizning V asridan boshlab uchraydi. Xunlar turkiy xalqlarning uzoq ajdodlari bo'lib, juda qadimiy tarixga egadirlar. Xunlar Markaziy Osiyo, Kaspiy dengizi bo'ylari hamda Shimoliy Kavkaz va G'arbiy Yevropa yerlarigacha cho'zilgan hududlarda yashaganlar. Miloddan avvalgi 207 yildan to milodning 216 yiligacha, ya'ni 423 yil hukmronlik qilgan Ulug' Xun saltanati sharqiy va g'arbiy qismga bo'linib idora qilingan. 374 yildan to 469 yilgacha Yevruopoda Xunlar saltanati mavjud bo'lgan. Bu saltanatning asoschisi Balamir (374-400) hisoblanadi. U juda ko'p mamlakatlarni o'z qo'l ostida birlashtiradi. Sharqiy Rus, Ruminiya, Yugoslaviyaning shimoli, Mojariston (Vengriya), Avstriya, Chexoslovakiya, Sharqiy va O'rta Olmoniya mamlakatlari bu saltanatga kirgan. Xun Hukmdorlaridan Attila (434-453) nomi Yevropada hozirgacha ma'lum. Ikkinchisi Oq Xun saltanatidir. Bu O'rta Sharq – Eftalit saltanati deb ham yuritiladi. Sulolaning asoschisi Kun xon bo'lgan. Uning tarkibiga Hindistonning yarmi, Afg'oniston va Turkiston kirgan. Hindiston bu sulola tarkibida bo'lganligidan ko'k tangridan tashqari buddizm ham yetakchi din hisoblangan. Qayd qilinishicha, V asrning ikkinchi yarmida Xun davlati turli sabablarga ko'ra parchalanib ketgan. Xunlarning uncha katta bo'lmagan bir toifasi o'z atrofiga qisman mo'g'ul va xitoy muhojirlarini birlashtirib, hech qanday hokimiyatga va davlatga bo'ysunmasdan ko'chmanchilik qilib hayot kechirganlar. Ana shu toifani ya'ni ularga qo'shilgan mo'g'ullarni «Turk-utu», ya'ni «bo'ri urug'i» deb ataganlar. Bu degan so'z turklar bo'ridan tarqalgan ma'noni bildirmaydi. Balki barcha xalqlarning uzoq o'tmishida bo'lgani singari har bir qabilaga homiylik qilgan hayvon, daraxt va jismlar nomi bilan atalgan.

VI asr boshlariga kelib, o'sha qabilalar uyushmasi son jihatidan osha borgan. Nomlanishdagi ikkinchi so'z tushib qolib, «Turk» deb atalavergan. Ana shu tariqa VI asr o'rtalariga kelib, Markaziy Osiyoda Turk xoqonligi tarkib topadi. Unga asos solgan kishi Ashin bo'lgan. 545 yilda Qo'zg'olon ko'targan jo'jonlarga Teles qabilalari zarba beradi va o'z navbatida turklar Teles qabilalarini tor-mor keltiradi. Shundan so'ng 545

yildan e'tiboran Turk xoqonligi Markaziy Osiyo, Mo'g'uliston, G'arbiy Sibir va Dashti Qipchoq yerlarida Hukmron davlatga aylanadi. Umuman, birinchi va ikkinchi turk xoqonligi 545 yilda to'liq mustaqillikka erishganlaridan so'ng o'z hukmronliklarini deyarlik ikki yuz yil davom ettirdilar. Turk xoqonlari nihoyatda katta xududlarga ega bo'lgan mamlakatlarni sakkizta tobe xonliklar asosida boshqardi. Sharqiy xoqonlik markazi Oltoyda, G'arbiy xoqonlik Yettisuvda bo'lgan.

563-567 yillarda Turk xoqonligi qo'shinlarining kuchli zarbalari ta'sirida O'rta Osiyodagi eftalitlar davlati barbod bo'ldi. Turk xoqonligi yerlari yanada kengayib, u Amudaryo va Kaspiy dengizi chegaralarigacha yetib bordi. Turk xoqonlari O'rta Osiyoda o'z hukmronligini o'rnatish bilan chegaralanmay, sosoniylar Eroni bilan ham vaqti-vaqtida urushlar olib bordilar. V-VII asrlarda fiodal zulmining kuchayishi oqibatida yersiz aholi kadivarlarning axvoli yomonlashadi va bu davrda dexqonlar zulmiga qarshi Eronda Mazdak, Buxoroda Abro'y boshchiligida qo'zg'olonlar ko'tarilgan va ular shavqarsizlik bilan bostirilgan.

4. VII asr boshida arab xalifaligi yuzaga kelishi arafasida yarim orolda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot darajasi bir xil emas edi. Yamanda quldorlik munosabatlari hukmronlik qilgan bir paytda mamlakatning shimoliy qismida quldorlik munosabatlari endigina kurtak otayotgan, chorvachilik bilan shug'ullanayotgan qabilalarda patriarxal urug'chilik tuzumi ilk yemirilish bosqichida edi. Aholining asosiy qismi ko'chmanchi chorvachilik bilan mashg'ul edi. Shaqarliklar esa hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan band bo'lgan. Ko'chmanchi aholi «badaviylar» nomi bilan atalgan. Tushunarliki, Arabiston yarim orolida yashovchi qabilalar o'zlariga qo'shni mamlakatlarga qaraganda tarixiy taraqqiyotning quyi bosqichida edi.

Ayni vaqtda Arabiston yarim orolining g'arbiy qismidagi qizil dengiz sohillarida geografik qulay hududda joylashgan hijoz tumanida iqtisodiy taraqqiyot ancha ilgari ketgandi. Bu hududning markazi bo'lgan Makka shahri diniy markaz sifatida ham o'rni ancha yuqori bo'lgan. Makkadagi Zam-zam Qudug'i qadimdan ko'chmanchi qabilalar va o'tkinchi savdogarlar e'tiborini qozongandi. Nihoyat, Makkada qurilgan birinchi bino-Ka'ba arablarning muqaddas joyiga aylangandi. Demak, Makka arab qabilalarini birlashtirishda muhim rol o'ynashi mumkin edi. Chunki V-VI asrlarda arab qabilalari ittifoqi mustahkam emas edi. Negaki, har bir qabila turla dinlarga sig'inardi. Ko'p xudolilik va ko'p payg'ambarlilik negizida tez-tez kelib chiqadigan va sodir bo'ladigan qabilalar hamda urug'lar o'rtasidagi urushlar xalq ommasiga katta qiyinchiliklar tug'dirardi. Ko'p xudolikka asoslangan qabilaviy urushlar siyosiy porakandalikka olib kelib, bu mamlakatni yagona davlatga birlashtirishga asosiy g'ov bo'lmoqda edi. Ana shu zaruriy ehtiyoj oqibatida yakka xudolikni bosh bayroq qilib olgan, insonlarni to'g'ri va haq yo'lga boshlovchi islom dini vujudga keldi. «Islom» so'zi arabcha «xudoga o'zini topshirish», «itogat», «bo'ysinish» ma'nosini anglatadi. Shu bois bu dinga e'tiqod qiluvchilar «Muslim» («bo'yin eguvchi») deb ataladi. Islom dinining asoschisi Muhammad alayhissalom (570-632)dir. Uning otasi Abdulloh Kuraysh qabilasining boshlig'i Abutolibning o'g'li bo'lgan. Yana Abutolib Makkadagi Ka'ba maschiti kalitining saqlovchisi edi. Ota-onadan yosh yetim qolgan Muhammad dastlab bobosi, so'ng amakisining qo'lida tarbiyalanadi. U 25 yoshida amakining maslahatiga ko'ra badavlat, 40 yoshdagi ayol Xadichaga uylanadi va uning savdo ishlariga boshchilik qiladi.

632 yil 8 iyunda Muhammad alayhissalom vafot etdi. Uning ishlarini noiblari yoki o'rinbosarlari (arabcha xalifalar) davom ettirdilar. Ana shu tariqa Arab xalifaligi paydo bo'ldi. Islom dunyosida asosan to'rtta xalifa alohida diqqatga loyiqdir: Abu Bakr (632-634), Umar (634-644), Usmon (644-656) va Hazrat Ali (656-661). Ulardan so'ng xalifalik 661-750 yillarda ummaviylar sulolasiga o'tgan. Bu sulolaga Muoviya bin Abu So'fyon (661-680) asos solgan. Ummaviylardan so'ng xalifalikni abbosiylar (750-1258) davom ettirdilar. Uning asoschisi Muhammad alayhissalomning amakilari avlodidan Abul Abbas as-Saffoq (749-754) edi. Islom dini bayrog'i ostida Arab xalifaligi VI-VIII asrlarda Shimoliy Afrika, Shom yurti, Falastin, Iroq, Eron va boshqa xududlarni bosib oldi va o'z hukmronligini o'rnatdi.

O'rta Osiyo xalqlari qariyb yarim asr davomida arab istilochilariga qattiq turib qarshilik ko'rsatganlar. Bunday qarshilikni arablar boshqa yerlarni bosib olishda uchratmagan edi. Katta kuchga ega markazlashgan xalifalik harbiy qo'shinlari qiyinchiliklariga qaramay O'rta Osiyoda o'z hukmronligini o'rnatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov.I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., Sharq, 1998.
2. Azizxo'jayev.A. Davlatchilik va madaniyat. T., Sharq, 1997.
3. Nasimxon Raxmon. Turk xaqonligi. T., 1993.
4. Tolstov.S.T. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. T., Fan, 1964.
5. Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi. T., Cho'lpon, 1992.
6. G'ulomov.S, Usmonov.Q. Mustaqillik O'zbekistonga nima berdi. T., 2000.
7. O'zbekiston tarixi. 1-qism. T., Universitet, 1996.

5-MAVZU: IX-XII ASRLARDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI, O'RTA OSIYO XALQLARI HAYOTIDA YUZ BERGAN UYG'ONISH (RENESSANS) DAVRI.

Reja:

- 1.IX asrda Movarounnahrning siyosiy ahvoli. Toxiriylar davlatining tashkil topishi. Somoniylar hukmronligining boshlanishi.
- 2.Qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar davlatlarining tashkil topishi.Xorazmshohlar sulolasining davlatni boshqaruv tizimi.
- 3.IX-XII asrlarda O'rta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uyg'onish (renessans) davri madaniyati va uning ahamiyati.

Tayanch so'z va iboralar:

Moddiy va ma'naviyat, renessans , buyuk allomalar, Zij, rioziyot, xattotlik, Farobiy, Ibn Sino, Avisena, tavsir, tasavvuf, tarkidunyochilk, Toxr ibn Xusayn, safforiylar, Ismoil Samoniy, iqto, koranda, eloqxon, yag'mo, jikil, bug'raxon, zarbxona, Otsiz, Takash, sadrlar.

1.VIII asr oxiri va XI asr boshida arab xalifaligi og'ir siyosiy vaziyatni o'z boshidan kechirdi. Xalifalik hududida mahalliy xalqlarning hukmron ma'murlar zulmiga qarshi qo'zg'olonlar avj oldi, ayniqsa uning boshqaruv markazida ichki nizolar tinimsiz davom etmoqda edi. Bu vaziyat o'z navbatida joylarda, xususan O'rta Osiyoda ham mustaqil davlatlarning tashkil topishi uchun shart-sharoitlar yaratmoqda edi. Dastlabki bunday davlatlar arablar istilo qilib ulgurmagan O'rta Osiyoning shimoliy va shimoliy-sharqiy hududlarida shakllandi. Ulardan birinchisi qarluqlar davlati bo'lsa, ikkinchisi O'g'uzlar davlati edi.

Oloy daryosining g'arbida, Irtish daryosining o'rta oqimida istiqomat qilgan qarluqlar qadimdan turkiy elatlar bo'lib, VI-VII asrlarda Turk xoqonligi tarkibida bo'lganlar. VII asr o'rtalarida Yettisuv o'lkasiga kelib joylashgan. qarluqlarning katta guruhi Talos va Chu daryolari adoqlaridan Issiqko'lgacha bo'lgan hududlarda yashaganlar. Ular VIII asr oxirlarida davlat bo'lib birlashdilar. Uning markazi Chu daryosi shimolida joylashgan Siyob shahri bo'lgan. Bu davlat hududiga yana Jo'l, Navkat, Karmankot, Yor, To'n, Barsxon, Panjikent, Beklig' kabi shaharlar kirgan. Xalqning asosiy mashg'uloti chorvachilik va ovchilik bo'lgan. Daryo vodiylarida esa dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Ular dastlab moniy va nasroniy dinlarini, so'ngra X asr o'rtalarida islomni qabul qilganlar, hattoki, shaharlarda jome masjidlari qurganlar. qarluqlar doimo janubda yag'molar, g'arbda Sirdaryo etaklarida yashovchi o'g'uzlar tazyiqidan aziyat chekkanlar. X asrda qoraxoniylar davlati shakllanganidan keyin qarluqlar uning tarkibiga singishib ketgan. Ular asosan Shosh, Farg'ona va Zarafshon vohalarigi kelib joylashib, mahalliy aholi bilan qorishib ketdilar.

O'g'uzlar esa VII asrga qadar qarluqlar singari Turk xoqonligi tarkibida bo'lgan. Ular tarixda to'quz o'g'uz nomi bilan tilga olinadi. Turk xoqonligi yemirilgach, o'g'uzlarning katta bir qismi g'o'z yoki o'g'uz nomi bilan Sirdaryo havzasi va Orol dengizi atroflarida o'rnashib, IX asr oxiri X asr boshida Turklarning yana bir birlashmasi sifatida – O'g'uzlar davlatiga asos soldilar. Uning chegaralari shimolda Irtish daryosidan to Ural tog' tizmalarining janubi-sharqiy yonbag'rigacha, janubda Kaspiy dengizining shimoli-g'arbiga qadar cho'zilgan edi. O'g'uzlar asosan chorvachilik, o'troq dehqonchilik bilan shug'ullangan. Shosh va Xorazm yerlariga doimo hujum uyushtirib turgan, shahar va ovullarni talaganlar.

Somoniylar davlatida markaziy va viloyatlar boshqaruvi tizimi yuzaga keldi. Markaziy boshqaruv dargoh (saroy) va devon (mahkama) orqali amalga oshirildi. Boshqaruvda amir (hukmdor)ning shaxsiy lashkari bo'lmish turk g'ulomlarining roli katta bo'lgan. Eng obro'li, iqtidorli g'ulomlar xiyolboshi (otliq askarlar boshlig'i), so'ng hojib lavozimini egallaganlar. Amirning hamma hukm va farmoyishlarini ijro etuvchi sohibi xaros yoki amiri xaros oliy siyosiy hokimiyatni boshqargan. Somoniylar saroyida ham devonboshilar, mirzaboshilar, miroxo'rlar va boshqa mansablar mavjud bo'lgan. Devonlarning eng kattasi vazir devoni hisoblanib, unga boshqalari bo'ysungan.

2. X asr o'rtalarida Yettisuv va Qashqarda yashovchi Qarluq, chig'il va yag'mo qabilalarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Avvaldan asosan chorvachilik bilan shug'ullangan bu qabilalar endi o'troq hayotga o'ta bordi va dehqonchilik bilan shug'ullana boshladi. Shaharlar yuzaga keldi, yana bu davrda Issiqko'l janubi va Qashqarda yashagan yag'molarning o'zlaridan shimolda yashayotgan chig'il qabilalari bilan yaqinlashuvi tezlashdi. Ular Yettisuvdagi Qarluqlarni uyushtirib, o'zlariga bo'ysundirdilar. Yag'mo urug'idan chiqqan, o'z qavmi bilan islomni qabul qilgan Sotuq Abdul – Karim Qoraxon (Bug'raxon) 942 yili Bolasog'un hokimini mag'lub etib, o'zini xoqon deb atadi. Demak, Qoraxon davlati Yettisuv hududida Qarluq davlati o'rnida tashkil topdi. Bu davlatning vujudga kelishida chigillar, tuxsilar, arg'ular, yag'molar, turgashlar, Qipchoqlar, yabaqular, qaylar, o'g'uzlar, qirg'izlar singari urug'-qabilalar muhim rol o'ynagan. Bu davlatga yuqorida qayd etilgan Sotuq Abdul – Karim Qoraxon asos solgan. Xoqon nomiga ko'ra Qoraxoniylar davlati deb nomlangan. U o'zini Afrosiyob (Alp Er To'nga)ning avlodi deb hisoblar edi. «Qora» iborasi qadimgi turkiy tilda «buyuklik», «ulug'lik»

ma'nolarini bildirgan. Odatda Qoraxoniylar hukmdorini «tamg'achxon», ya'ni, «xonlar xoni» deb yuritgan. Sotuq zamonida Qoraxoniylar davlati ikkiga bo'linib ketadi. Birining poytaxti Bolasog'un bo'lib, oliy hokimiyat yoshi katta bo'lgan xoqon tomonidan boshqarilgan. Ikkinchi davlatning poytaxti Taroz, keyinchalik Qashqar bo'lib, kichik xoqon tomonidan boshqarilgan. Qoraxoniylar somoniylar davlatidagi ichki nizolardan ustalik bilan foydalandilar. Hasan Bug'roxonning 992 yili somoniylarga qarshi harbiy yurishi oldidan somoniylar lashkarboshisi Abuali Simjuriy u bilan muzokara olib borgan. Somoniylarning boshqa lashkarboshilaridan Balx hokimi Foyiq Raboti Malik yaqinidagi Bug'roxonga qarshi jangda, har tomonlama ustunlikka ega bo'lishiga qaramasdan taslim bo'ladi. Iloq hokimi Mansur ibn Ahmad esa xoqonga tobelik bildirib, uning nomiga pul zarb etadi. Shu bois Bug'roxon 992 yilgi birinchi hujumdayoq Buxoroni egallashga erishadi. Lekin Bug'roxon kasallangani tufayli Buxoroni tark etdi va yurtiga qaytish chog'ida yo'lda vafot etildi. Bundan foydalangan somoniylar vakili Nuh II ning o'g'li Nasr Somoniy Buxoro taxtini qayta egallaydi. Lekin Qoraxoniylar 996 yili Buxoroni to'liq ishg'ol qiladi. Butun Movarounnaqr Qoraxoniylar tasarrufiga o'tadi. 1001 yildagi Mahmud G'aznaviy bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra Amudaryoning janubidagi barcha yerlar Qoraxoniylar qo'lga o'tgandi. Shu tariqa Somoniylar davlati o'rnida ikkita turk davlati – Qoraxoniylar va G'aznaviylar davlatlari tashkil topdi. XI asr o'rtalarida tamg'ochxon unvonini olgan Qoraxoniy Ibrohim ibn Nasr g'arbiy Qoraxoniylar davlatining poytaxtini O'zganddan Samarqandga ko'chirdi. 1068 yilda Movarounnahrda Ibrohim ibn Nasr o'g'illari o'rtasida taxt uchun bo'lgan kurashlarda Shamsulmulk g'alaba qozondi. 1080 yilda Shamsulmulk vafotidan keyin Movarounnahrda hokimiyat uchun kurash yana avj oldi. Bundan foydalangan saljuqiylar sultoni Malikshoh 1089 yilda Movarounnahrda bostirib kirib, Buxoro va Samarqandni zabt etadi. Ahmadxon asirga olinadi. Ahmad bilan sulh qilinib, uni o'z taxtida qoldiradilar. Lekin uning saljuqiylarga itoatkorligi amirlar va ruhoniylar noroziligiga sabab bo'ldi. Natijada Ahmadxon 1095 yilda o'ldiriladi. Undan keyin taxtga o'tirgan Arslonxon (1102-1130) davrida Qoraxoniylar garchi yarim mustaqillik sharoitida siyosat yurgizgan bo'lsalar ham, Samarqandning obodonligi bo'yicha ko'rinarli ishlar qilindi. Lekin Arslonxon siyosatidan harbiy qo'mondonlar va ruhoniylar norozi edilar. Arslonxon sog'ligi yomonlashgani uchun hokimiyat uning o'g'li Nasrga o'tadi. Lekin fitnachilar Nasrni o'ldiradilar. Arslonxon Marvdan Sulton Sanjarni yordamga chaqiradi. Bundan foydalangan Sanjar 1130 yilda Samarqandni egallaydi.

XII asr boshlarida Qoraxitoylar Bolasog'unni egalladilar. 1138 yilda Qoraxitoylar go'rxoni Sulton Sanjarning qarindoshi, Samarqand hukmdori Mahmudni Xo'jand yaqinida mag'lub etdi. Shahar talanib, katta tovon o'ndirildi. Lekin shahar bosib olinmadi. 1141 yilda Qoraxoniylar yana Movarounnahrda bostirib kirdilar. Bu galgi jang Samarqand yaqinidagi Katvon cho'lida bo'ldi. Jangda Sulton Sanjar va Mahmudning birlashgan qo'shnilar tor-mor qilindi. Qoraxitoylar Samarqand va Buxoroni egalladilar. So'nggi Qoraxoniylar Qoraxitoylarga tobelikdan qutulgan edilar. Lekin 1212 yilda Alovuddin Muhammad Xorazmshoh g'arbiy Qoraxoniylar davlatining xoqoni Usmonni o'ldirib, Samarqandni o'z mulkiga qo'shib oldi. Qoraxoniylar davrida Movarounnahr markazlashgan davlat tizimidan alohida mulk boshqaruv tizimiga o'tdi. Har bir viloyat ma'lum siyosiy mavqeyga ega holda xondan kichikroq unvonga ega elikxonlar tomonidan boshqariladigan bo'ldi.

Xorazm somoniylar davrida ularga tobe edi. Xorazm davlati o'z mustaqilligiga g'aznaviylar va saljuqiylar hukmronligiga qarshi kurash jarayonida erishdi. 996 yilda Shimoliy Xorazm shoqi Ma'mun ibn Muhammad (995-997) ikki qismga bo'lingan o'lkani birlashtirib, xorazmshoh unvonini oladi va Urganchni o'z poytaxtiga aylantiradi. X asr ikkinchi yarmidan G'azna shahri Xurosonning siyosiy markaziga aylanadi. G'aznaviylar davlatiga dovyurak turk qo'mondoni Sabuqtegin asos solgan (962). Bu davlat uning o'g'li Sulton Mahmud (998-1030) davrida musulmon dunyosining eng kuchli davlatlaridan biriga aylanadi. Mohir siyosat arbobi Mahmud Qoraxoniylar bilan bo'lgan kelishuvga binoan o'zining shimoliy chegaralarini aniqlab, g'arbda Kaspiygacha bo'lgan hududlarni rasmiy jihatdan mustahkamlab oldi. Shu tariqa uning davlati tarkibiga hozirgi Afg'oniston, O'rta Osiyoning katta qismi, Shimoli-Sharqiy Eron va Shimoliy Hind yerlari kirgan. Mahmud G'aznaviy temir intizomli, yaxshi harbiy tayyorgarlik ko'rgan, zamonaviy qurollangan katta qo'shin tashkil qilgan. Unga tayanib, ko'plab istilochilik yurishlarini uyushtirdi va katta boyliklarni qo'lga kiritdi. Jumladan, u Shimoliy Hindistonga 17 marta Harbiy yurishlar uyushtirgan. 1019 yilda Kanauja shaHrini zabt etdi. 1010-1015 yillarda Xurosonning G'ur viloyati ham unga taslim bo'ldi. Mahmud G'aznaviy Xorazmning moddiy boyliklari va madaniy salohiyatini e'tiborga olib, Xorazm shohini o'ziga tobe etish maqsadida o'z singillarini Xorazmshoh Ali ibn Ma'mun (997-1009); uning ukasi Ma'mun ibn Ma'mun (1009-1016)ga uzatadi. Ma'mun ibn Ma'mun shoqligining so'nggi yillarida Mahmud G'aznaviyning Xorazmga tazyiqi kuchaydi. 1017 yilda shohning Xozaraspda turgan qo'shinida Ma'munga qarshi fitna uyushtirilib, suiqasd qilinadi. Isyonchilardan o'ch olish baHonasida Mahmud G'aznaviy Xorazmga bostirib kirib, uni egallaydi. Xorazmda o'z odami Oltuntoshni noib qilib qoldiradi. Mahmud G'aznaviy vafotidan so'ng (1030) uning o'g'li Ma'sud davrida (1030-1041) bu davlat ichki ziddiyatlarning kuchayishi va saljuqiy turklarning ketma-ket hujumlari, ayniqsa, 1040 yildagi Dandanakondagi zarba natijasida o'zini o'nglab ola olmadi. Nihoyat, 1043 yilda Xorazmni saljuqiylar bosib oldi. Saljuqiy sultoni Malikshoh (1072-1092) o'z tashtdori Anushteginni 1076 yilda Xorazm hokimi etib tayinlaydi. Saljuqiylar davlati dastlab IX asrning ikkinchi yarmi va X asr o'rtalarida Orolbo'yi va Kaspiybo'yi hududlarida yashagan o'g'uzlar ittifoqi negizida shakllangan edi. Uning dastlab poytaxti Sirdaryo etaklaridagi Yangikent edi. O'g'uzlar aslida 22-24 qabiladan iborat bo'lgan. Unga chovdir, chandir, sireli, ichdir yazir, salir, qoradoshli, bayot, koyi kabi qabilalar kirgan. O'g'uzlarning muayyan sabablar bilan hozirgi Turkmaniston yerlariga o'tib, islomni qabul qilgan va o'sha joydagi yerli aholi bilan singishib ketgan qismi turkmanlar nomini olgan. O'g'uzlarning yobg'usi (yetakchisi) Saljuqbek Saljuqiylar davlatiga asos solgan. Uning avlodlari – To'g'rulbek, Chog'irbek va Shakarbeklar bu davlatni buyuk saltanat darajasiga ko'tardilar. O'g'uzlar turli xalqlarning, chunonchi o'zbek, turkman, turk, gagauz va boshqa xalqlarning etnik shakllanishiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatganlar. Ko'chmanchi chorvador qabilalar bo'lgan o'g'uz – turkmanlar XI asr o'rtalariga qadar Qoraxoniylar va g'aznaviylar hukmdorlari bilan kelishuv asosida bu davlatlarga qarashli turli hududlarda o'z ko'ch-ko'roni, chorvasi bilan ko'chib yurganlar. Ba'zi hollarda mahalliy aholi bilan kelisha olmay ularga hujum uyushtirib, talonchilik va bosqinchilik bilan ham shug'ullanganlar. G'aznaviylar roziligi bilan Niso, Farova, Dehiston, Obivard hududlarida joylashgan turkman o'g'uzlari To'g'rulbek boshchiligida tez orada katta kuch bo'lib birlashib, G'azna davlatiga Ham jiddiy xavf sola boshlaydi. To'g'rulbek

qisqa vaqtda Xuroson yerlarini ishg'ol Qildi. 1040 yilda Saraxs va Marv o'rtasidagi Dandanakonda qaqshatgich zarbaga uchragan g'aznaviyalar hududlari ham saljuqiylar tasarrufiga o'tdi. To'g'ulbek Saljuqiylar davlatining boshlig'i (1038-1063) sifatida istilochilik yurishlarini g'arb tomonga davom ettirib, Fors Iroqi, Ozarbayjon, Kurdiston, Qo'histonni zabt etdi. 1055 yilda xalifalik poytaxti Bog'dodni o'ziga bo'ysindirdi. Ray shahri (Eron) uning poytaxti edi.

Saljuqiylar davlati, ayniqsa, Sulton Sanjar (1118-1157) davrida o'z hududlarini kengaytirdi. Bu davrda Xorazm ham saljuqiylar nomidan boshqarildi. Qoraxoniylar xoni Arslonxon ham Sulton Sanjar bilan hisoblashishga majbur bo'lgan. Biroq 1141 yilda Katvon cho'lida Qoraxoniylar bilan bo'lgan katta to'qnashuvda saljuqiylar qaqshatgich zarbaga uchragach, ularning hukmdorlari ham inqiroz tomon yuz tutdi. Sulton Sanjar vafotidan keyin (1157) saljuqiylar davlatining Movarounnahrda ta'siri amalda barham topdi. Xorazmda anushteginlar sulolasining mustahkamlanishi, o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida Qutbiddin Muhammad garchi muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, biroq uning butun hukmronlik davri saljuqiylar ta'siri doirasida o'tdi. Shuning uchun ham Xorazmning mustaqil davlat sifatidagi o'rni va mavqeyi ko'proq uning o'g'li Otsiz (1127-1156) hamda anushteginiylarning keyingi avlodlari: El Arslon (1156-1172), Takash (1172-1200) va Alavuddin Muhammad (1200-1220) davrlarida har jihatdan ko'zga tashlandi. So'nggi hukmdorlar Takash va Muhammad Xorazmshohlar davriga kelib, Xorazm davlati o'rta asrlar davridagi eng qudratli saltanatga aylanadi. Ayniqsa, Otsiz hukmronligi davrida Xorazm saljuqiylarga bo'lgan tobelikdan, Qoraxitoylarga 30 ming dinar to'lash majburiyatidan ozod bo'ldi. Bu Xorazm mustaqilligini ta'minlashda juda katta qadam edi. Hattoki, Otsiz o'z hududini kengaytirishga ham harakat qildi. 1141 yilda Qoraxitoylar bilan Sulton Sanjar o'rtasidagi qonli to'qnashuv va unda saljuqiylar mag'lubiyatidan foydalangan Otsiz Xuroson yerlarini, Marv va Nishopur shaharlarini egalladi. Otsizning vorisi El Arslon ham mamlakat mustaqilligini ta'minlash yo'lida Qoraxitoylar bilan jang olib bordi. El Arslon vafotidan foydalangan Qoraxitoylar Xorazm hududiga bostirib kirdilar va uni o'lpon to'lashga majbur qildilar. Ammo Xorazm taxtini egallagan Takash (1172-1200) o'z davlati qudratini yuksaltirishga muvaffaq bo'ldi 1187-1193 yillarda u Nishopur, Ray va Marv shaharlarini bosib oldi. 1194 yilda saljuqiylar sultoni To'g'ul II ta zarba berib, Eronni egalladi. Uning yirik va katta markazlashgan hokimiyat boshqaruviga ega bo'lgan. Unda oliy idora – devon mavjud bo'lib, davlatning ichki va tashqi siyosati vazir tomonidan amalga oshirilgan. Hokimiyatning muhim bo'g'inlarida Takashning xotini – Turkon xotiga qarashli qipchoq qavmlarining ta'siri kuchli bo'lgan. Xorazm davlatining eng yuksalgan cho'qqisi ham, uning inqirozi ham shu so'nggi Xorazmshoh nomi bilan bog'liq. Binobarin, Muhammad Xorazmshohning hukmdorlik davrining murakkabligi va ziddiyatliligi hamda fojealiligining boisi ham shundadir. Negaki, shuhratparastlik va jahongirlikka nihoyatda o'ch bo'lgan Sulton Muhammad o'zining 20 yillik hukmronlik davrida, bir tomondan to'xtovsiz jangu jadallarda bo'lib, qanchadan-qancha hududlarni bosib olishga erishgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning davrida katta saltanat turli ichki va tashqi sabablarga ko'ra yemirilish va chuqur tushkinlik holatini boshidan kechirdi. Bu esa oqibatda xorazmshohlar davlatining qulashi va mo'g'ul istilosiga duchor bo'lishiga olib keldi. Dastlab Muhammad Xorazmshoh katta qo'shin tuzib, zafarli harbiy yurishlar qildi, o'z davlatining hududlarini kengaytirdi. Janubda Hindiqush tog'larigacha, janubi – g'arbda Fors

qo'ltig'i, xalifalik davlati chegaralarigacha, Sharqda Yettisuvga qadar bo'lgan hududlarni egallashga muvaffaq bo'ldi. 1210 yilda Talos vodiysida Qoraxitoylar bo'lgan hal qiluvchi jangda ularni ham yyengib, o'z qudratini namoyon etdi. Ushbu g'alabalardan so'ng Xorazmshoh o'ziga ortiqcha bino qo'ydi, o'zini «Iskandari soniy» («ikkinchi Iskandar»), «Xudoning yerdagi soyasi» deb atashgacha borib yetdi. Biroq aslida esa uning saltanati «usti yaltirog', ichi qaltiroq» edi. Buning sababi birinchidan, oliy hokimiyat chuqur ziddiyatga botgan edi. Hukmdorlar bilan uning hokimiyatparast, katta siyosat mavqeiga ega bo'lgan uning onasi Turkon xotin va uning turkiy zodagonlaridan iborat muxolifotchi kuchlari o'rtasidagi ittiloflar kuchayadi. Ikkinchidan, markaziy hokimiyat tizimi bilan mahalliy hokimlar, beklar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, ularning o'zboshimcha hatti-harakatlarining kuchayib borayotganligi saltanatni inqirozga tortmoqda edi. Buning ustiga hukmron tizimdan norozi bo'lgan keng xalq ommasining g'alayonlari faollashib bormoqda edi. 1206 – 1207 yillarda Buxoroda yuz bergan Malik Sanjar boshchiligidagi, 1212 yilda Samarqandda ko'tarilgan kuchli xalq qo'zg'olonlari xorazmshohlar davlatining halokatga borayotganligidan dalolat berdi.

Ma'lumotlarda qayd qilinishicha, Xorazmshohlar davlatining aholisi va uning tarkibidagi turli qatlamlari orasida sayyidlar, imomlar va olimlar, qozilar va hakimlar, tasavvuf vakillari, qishloq, kasaba, urug'-qabila boshliqlari, oqsoqollar, amaldorlar va sipohiyalar, islom dini uchun kurashuvchi g'oziylar bo'lganki, hukmdorlar ularni asosiy tayanch sifatida foydalanganlar. Mamlakat mehnatkashlarining qatlami va martabalar o'rtasidagi farqlar somoniylar davlatidagi singari edi. Markaziy Osiyoda IX-XII asrlarda tashkil topgan markazlashgan davlatlar davrida Samaeqand, Buxoro, Urganch, Marv, Termez va ko'plab shaxarlar ma'muriy va madaniy markazlarga aylandi. Bu shaxarlarda ko'rkam madrasalar, machitlar, maqbaralar va karvonsaroylar qurildi. Ularga X asrda barpo etilgan Ismoyil Samoniy maqbarasi, Samarqand yaqinidagi Arab ota maqbarasi, XI asrda Marvda barpo etilgan Sulton Sanjar va boshqa o'nlab memoriy unshoatlarni aytish mumkin. Bu davrda Markaziy Osiyoda kulolchilikda ijobiy siljishlar ro'y berdi. Ayniqsa badiiy kulolchilik tez taraqqiy etdi.

3. Fanda «Uyg'onish davri» deb nomlangan davr G'arbiy va Markaziy Yevropadagi mamlakatlarda XIV–XVI asrlardagi rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini idodalash uchun ishlatilgan. Birinchi marta «uyg'onish» atamasini XVI asr italyan rassomi va tarixchisi J.Vazari o'z asarlarida qo'llaydi. Lekin bu atama XIV – XVI asr ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanish mohiyatini ochib bermasdan, ko'proq antik davr merosini, ya'ni, antik madaniyatga o'xshash madaniyatning qaytadan «tirilishi», «uyg'onishi» va «jonlanishi» ma'nosida ishlatila boshlandi. Keyinchalik bu atama fanda keng qo'llanildi. Shu ma'noda ko'pchilik tadqiqotchilar IX – XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida madaniyatning rivojlanishiga xos xususiyatlarini ham «uyg'onish» davri deb atalishi yuqorida qayd qilinganidek, shartlidir deb hisoblaydilar. Haqiqatda XV –XVII asrlarda Yevropa mamlakatlarida birin–ketin madaniy yuksalish ko'zga tashlanadi. Bu madaniy yuksalish, birinchi navbatda, ijtimoiy–iqtisodiy o'zgarishlar bilan, jamiyat hayotida shaharlarning, shahar madaniyatining hunarmandchilik ishlab chiqarishining rivoj topishi bilan uzviy bog'liq edi. Renessans madaniyati birinchi bo'lib Italiyada boshlangan. Ma'lumki, Italiya o'sha davrda O'rta yer dengizda, temir va havo yo'llari bo'lmagan bir davrda, suv yo'li orqali savdo-sotiqni rivojlantirish, boshqa mamlakatlar bilan turli iqtisodiy – madaniy aloqalarni avj oldirishda markaziy

o'rinlardan birini egallar edi. Italiya suv yo'li orqali bevosita rivoj topgan Sharq davlatlari, xususan, arab davlatlari bilan yaqindan aloqada bo'lishga intildi. IX - XII asrlarda Yaqin va O'rta Sharq xalqlari, musulmon Sharqi madaniyatning yuqori cho'qqiga ko'tarilgani tarixdan ma'lum. Italiyaning bu davlatlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalari Yevropada Renessans madaniyatining vujudga kelishida muhim rol o'ynagan. Italiyaning Sharqiy qo'shnisi bo'lgan Ispaniyada esa musulmon madaniyatini bevosita rivoj ettirgan arab davlati – Qordova xalifaligi deyarli XV asrlarga qadar davom etdi. Bularning barchasi Italiyada boshlangan Renessans, Uyg'onish madaniyati shakllanishida IX-XII asrlarda Yaqin va O'rta Sharq Uyg'onish davri madaniyati, fani bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. XII-XV asrlarda Italiyada Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Marvoziy, Farobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd kabi mashhur Sharq olimlarining asarlari lotin tiliga tarjima etildi, arab ilmiy yutuqlarini o'rganishga intilish kuchaydi. Bu asarlar Yevropaga keng tarqaldi va Renessans madaniyatining muhim qismiga aylandi. Ma'lumki, V asr oxiri va IX asr o'rtalariga kelib, arab xalifasi Sharqda eng rivojlangan imperiyaga aylandi. Xalifalar Mansur, Xorun ar – Rashid, Ma'mun davrlarida xalifalikning markaziy shaharlari, xususan, Bog'dod iqtisodiy va madaniy jihatdan eng rivojlangan shaharga aylandi. Madaniyat, ilm-fan taraqqiy etdi. Bu yerda turli ilmiy, diniy, muzokaralar avj oldi, turli mamlakatlardan kelgan ilm vakillari tomonidan keng ilmiy muhokamalar uyushtiriladigan bo'ldi, ilmgohlar vujudga keldi, kitob ko'chirish, turli tillardan arab tiliga ilmiy kitoblarni o'girish avj oldi, maxsus tarjimonlar maktabi vujudga keldi, asar yozishga qiziqish kuchaydi. Bu davrda birinchi akademiya – «Donolik uyi» tashkil topdi va bu yerda turli ilmlarning rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratildi, arab xalifasi Ma'mun uning rivojiga maxsus mablag' ajratib turdi. Akademiya – «Donolik uyi»da xalifalikning turli o'lkalaridan kelgan arab, yahudiy, fors, turk, hind, yunon olimlari birgalikda ish olib bordilar. Uning faoliyatida O'rta Osiyodan borgan olimlar ham muhim rol o'ynadi. Bu davr madaniyati Foydalanilgan adabiyotlar:da Yaqin-Sharqda Uyg'onish davri madaniyati sifatida talqin etiladi. Haqiqatda ham bu davrdagi Yaqin Sharqda arab tilidagi madaniyat o'z mazmuni, yo'nalishi, yutuqlari bilan Uyg'onish davri madaniy yuksalishini o'zida ifoda etdi.

Uyg'onish davri madaniyati boshqa o'lkalardagi so'nggi madaniy yuksalishga katta ta'sir ko'rsatdi. Ma'lumki, VIII asrlarda O'rta Osiyo Yaqin Sharqda yangi vujudga kelgan arab xalifaligi tomonidan istilo qilindi. Keskin kurashlar, qarshiliklarga qaramay yerli xalq bosqinchilarga qaram bo'lib qoldi. Buyuk olim Beruniy qayd qilishicha, bosqinchilar yerli xalqlarga ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan katta zarar keltirdi – yerli hokimiyat tugatildi, shaharlar, qadimgi madaniyat, mavjud yozuvlar yo'q qilindi, kitoblar yondirilib yuborildi, arxitektura, san'at namunalari barbod bo'ldi. Ilm - ma'naviyat fidoyilari qurbon etildi va hokazo. Xalq xalifalikka, dinga qaram qilindi. Ma'naviy norozilik kuchaya bordi, xalq mustaqillikni tiklash uchun kurashga qo'zg'aldi. VIII – IX asrlarda Abu Muslim, Shariq ibn Shayx, Sumbatmag, Muqanna boshchiligidagi xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. Ular ozodlik uchun kurashdilar. Xalqning ana shu kurashi natijasida Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar va Xorazmshohlar davlatlari vujudga keldi, ular uzoq umr ko'rmay yo'q bo'lib ketgan bo'lsa-da, har qalay Yaqin va O'rta Sharqda yangi shakllangan musulmon o'lkalari o'rtasida iqtisodiy-madaniy aloqalar avj oldi. Madaniyat namunalari bilan almashuv, o'zaro ma'naviy ta'sir kuchaydi. Qadimgi hind, eron, arab, yunon madaniy boyliklari

qorishib, Foydalanilgan adabiyotlar:da «musulmon madaniyati» deb nom olgan yangi madaniy qatlam vujudga keldi. Qadimgi madaniyat aʼanalariga nihoyatda boy boʻlgan Oʻrta Osiyoda mustaqillikka erishgan xalq bu davr ichida oʻz madaniyatini yuksaklikka koʻtara oldi. Shaharlar, shahar madaniyatining tez rivoji hamda madaniy aloqalarning kuchayishi samarasi boʻlgan Uygʻonish, Renessans shu davrda boshlandi. Oʻrta Osiyo ilm–fan, maʼnaviyat, tarixda misli koʻrilmagan namunalar yaratdi.

Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Firdavsiy, Rudakiy, Imom al-Buxoriy, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshgʻariy, Zamaxshariy kabilar shu davr madaniy yuksalishining choʻqqilaridir. Hattoki, arab xalifasi Maʼmun Oʻrta Osiyo olimlarini xalifalikning markaziga olib ketgani va ular Bogʻdod akademiyasining koʻrki boʻlib, ilm uchun xizmat qilganliklari tarixdan maʼlum. Muhammad Xorazmiy, Ahmad Fargʻoniy, Javhariy, Ibn Mansur Marvarudiy kabi olimlar shular jumlasidan. Oʻrta Osiyoning buyuk oʻgʻlonlari nomi dunyo madaniyati sahifasida oltin satrlar bilan yozib qoldirilgan. Sosial utopiya shu davrda shakllandi. Forobiy asarlaridagi yetuk, yuksak jamoa va komil inson haqidagi fikr–xayollar shu davr mahsulidir. Oʻrta Osiyoda bu davrda uch tilda: arab, fors, turkiy tillarda ijod etildi, tafakkur mevalari yozuvlarga muhrlanib, Sharqning turli burchaklariga yetib bordi. Bu davr madaniyati oʻzining kuchli gumanistik ruhi, insonparvarlik nafasi, odamlarni oʻzaro doʻstlikka chaqirish, aqlni eʼzozlashi bilan umuminsoniy qadriyatlarni yuksaklikka koʻtardi. Oʻrta Osiyo madaniyati tarixida Uygʻonish, birinchi navbatda, qaramlikdan qutulish, mustaqil tafakkur, mustaqil ijod, mustaqil maʼnaviylik – mustaqillikning samarasi boʻldi. Oʻrta Osiyoda IX - XII asrlarda hukm surgan somoniylar, qoraxoniylar, gʻaznaviylar va xorazmshohlar davlatlari xalqaro maydonda oʻz mavqeyi va tutgan oʻrni jihatidan katta eʼtibor va nufuzga ega boʻldilar. Ahmad Nasr, Ismoil Somoniy, Alptakin, Mahmud Gʻaznaviy, Toʻgʻrulbek, Sulton Sanjar, Otsiz, Takash singari tadbirkor va uzoqni koʻra oladigan davlat arboblari davrida Oʻrta Osiyoda hayotning barcha jabhalarida yuksalishga erishildi, davlat hokimiyati mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik vujudga keldi. Tarixchi Abu Mansur as–Saolobiyning somoniylar Buxorosiga bergan maʼlumotlari butun Oʻrta Osiyo davlatlarining IX-XIII asrlardagi ahvoliga tegishlidir: «shon–shuhrat makoni, saltanat kaʼbasi va zamonasining ilgʻor kishilari jamlangan, yer yuzi adiblarining yulduzlari porlagan hamda oʻz davrining fozillari yigʻilgan (joy) edi».

XII asr oʻrtalarigacha boʻlgan besh asrlik davr vatanimiz xalqlari maʼnaviy–madaniy hayotida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davrda madaniyat, uning deyarli barcha sohalari yuksak darajada rivoj topdi va Oʻrta Osiyoning dunyo madaniyati tarixiga qoʻshgan hissasini belgilab berdi. Movarounnahr, Xuroson xalqlari qadimiy madaniy anʼanalarga boy va maʼnaviy mavqye jihatidan yuqori edi. Shu sababli Oʻrta Osiyo arab xalifaligiga, musulmon dunyosiga kirgandan soʻng VIII – XII asrlar davomida barcha musulmon oʻlkalari madaniyati rivojida yetakchi oʻrinlardan birini egalladi. Islom dini, adabiyot, tabiiy fanlar, tarixnavistlik, sanʼat, falsafa, huquqshunoslik, ijtimoiy tafakkur kabi madaniyatning barcha sohasida ham bu davrda buyuk siymolar, mutafakkir olimlar, zamonasining ilgʻor kishilari yetishib chiqdilar. Oʻrta Osiyoning Buxoro, Marv, Samarqand, Termiz, Urganch, Xoʻjand, Aksikent, Margʻilon, Binkent, Kesh (Shahrisabz), Nasaf (Qarshi) kabi shaharlari oʻz davrining taraqqiy etgan shaharlari va savdo markazlari sifatida maʼlum boʻldi. IX – XII asrlarda Markaziy Osiyoda fan va madaniyat bobida shu qadar ajoyib fan kashfiyotlari va

tadqiqotlari yaratildiki, bu o'tmish ajdodlarimizning jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan bebaho hissasigina bo'lib qolmasdan, ularning aql-zakovatining nihoyatda yuksakligidan ham dalolat beradi.

Ahmad Farg'oniy 6 ta kitobi bilan dunyoga mashhur: «Falakkiyot ilmining usullari haqida kitob»; «Al-Farg'oniy jadvallari»; «Usturlod bilan amal qilish haqidagi kitob»; «Oy yerning ustida va ostida bo'lganida vaqtni aniqlash risolasi»; «Yetti iqlim Hibi»; «Astronomiya negizlari». Al - Farg'oniy Yerning shar shaklida ekanligini ochdi, Nil daryosi suvini o'lchaydigan asbob yasadi. Falakkiyotga oid asarlari Yevropada Kopernikgacha bo'lgan falakkiyot ilmidan asosiy qo'llanma bo'lib qoldi.

Al Farg'oniy proyeksiyalar tuzish nazariyasini yaratdi. Undan ming yil keyin buyuk matematik Eyler geografik xaritalar tuzishga bag'ishlangan asarida undan foydalandi. Undan tashqari, kompleks o'zgaruvchi miqdorlar tekisligi, noyevklid geometriyalar, kosmik geodeziya va kosmografiyalarning mazmunida ham Al Farg'oniy fikrlari yotadi.

Abu Nasr Farobiy (873-950) Toshkentning shimolidagi Foroba-Utrorda tug'ilib, dastlabki ma'lumotni Shosh (Toshkent), Buxoro va Samarqand shaharlarida oladi. So'ng Bog'dodda uzoq yashab, zamonasining buyuk qomusiy olimi darajasiga yetadi. U turli ilmlarga doir 160 dan ortiq risolalar yozgan. U Aristotel merosini chuqur o'rganadi va uni Sharqda rivojlantirgani uchun «Sharq Aristoteli» degan nomga sazovor bo'lgan. Uning risolalari riyoziyot, falakkiyot, tibbiyot, axloqshunoslik, musiqashunoslik, davlatni boshqarish, ayniqsa, falsafa va mantiq ilmi masalalarini o'z ichiga oladi. Farobiyning Aristotelning barcha falsafiy asarlariga yozgan sharhlari «Masalalar bulog'i», «Ilmlar tavsifi», «Hikmat xulosasi», «Falsafaga oid maqola», «Lug'atlar haqida kitob» degan nomlar bilan bitilgan. Farobiy fikricha, olam moddiy, abadiy, yo'q bo'lmaydi va cheksiz. Inson mavjudot rivojining yakuni, rivojining aql idroki orqali dunyoni o'rganadi. U o'zining «Grajdanlik siyosati», «Fozil shahar aholisi», «Baxt-saodatga erishuv haqida» asarlarida inson uchun adolat, o'zaro hamjihatlik, farovonlik, erkin mehnat qiluvchi yetuk-fozil jamoa haqidagi ta'limotni olg'a surdi. Farobiy musulmon sharqida falsafiy va ijtimoiy-axloqiy ta'limotlarga, dunyoviy musiqashunoslikka asos soldi, mantiqshunoslik, shaharni boshqarish sohalarida ham rivojlanish yo'llarini belgilab berdi. Uning g'oyalari F.Bekon, Spinoza kabi faylasuflar dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Abu Ali Ibn Sino (960-1037) Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'idagi turkiy oilada tavallud topgan. U tinimsiz ilmiy izlanish natijasida falsafa, mantiq, biologiya, geologiya, mineralogiya, fizika, matematika, tibbiyot, falakkiyot va fanning boshqa sohalarida 450 dan ortiq asarlar yozgan. Shundan 80 tasi falsafa, ilohiyat va tasavvufga, 43 tasi tabobatga, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi ruhshunoslikka, 23 tasi tibbiyot ilmiga, 7 tasi falakkiyotga, 1 tasi musiqaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi odob ilmiga, 4 tasi adabiyotga, 8 tasi boshqa fanlarga tegishli bo'lgan. Yevropada «Avisenna» nomi bilan mashhur bo'lgan Ibn Sino asarlari arab va fors-tojik tillarida yozilgan. Uning «Tib qonunlari kitobi» to XVIII asrning oxirlarigacha Yevropaning barcha tibbiy o'quv yurtlarida asosiy o'quv qo'llanma sifatida foydalanildi. Olimning falsafaga oid «Kitob ash-shifo» («Ruhni davolash kitobi»)da mantiq, tabiiy fanlar, riyoziyot va ilohiyot bo'yicha falsafiy g'oyalar tahlili berilgan. «Ishoralar va tanbehtarlar» asarida falsafaning asosiy masalalari qisqacha bayon etiladi. U «Donishnoma» asarida o'zigacha bo'lgan tabiiy fanlar va falsafa yutuqlaridan foydalanib, Sharqning nazariy bilimlarini umumlashtirdi. Ibn Sino

iste'dodli shoir va adib ham edi. Uning badiiy faoliyati «Qush risolasi», «Salomon va Ibsol», «Yusuf qissasi», «Uyg'oq o'g'li Tirik» asarlarida o'z aksini topgan.

Xorazmda tug'ilgan, lekin feodal urushlari tufayli Markaziy Osiyo va Eronning qator shaharlarida qochib yurishga majbur bo'lgan, so'ng Urganchda, Jurjonda yashagan, G'aznada uzoq davr xizmatda bo'lgan, Hindistonga safar qilgan Abu Rayxon Beruniy (973-1048) tibbiyot, riyoziyot, astronomiya, astrologiya, geografiya, geodeziya, meteorologiya, etnografiya, tarix, falsafa va filologiya kabi fanlarga oid 150 ga yaqin asarlar yozgan. Beruniyning «Hindiston», «Geodeziya», «Farmokologiya», «Minerologiya», «Mas'ud qonuni», «O'tmish avlodlar xotiralari» kabi asarlari gumanitar bilimlar, arab tili, she'riyati, turli xalqlar etnografiyasi, tarixi, urf-odatlar, taqvimi, axloqshunoslik, falsafa muammolari borasida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bu davrda qomusiy olimlar bilan birga ma'lum ilmlar sohasi bo'yicha mashhur bo'lgan kishilar qatoriga Hakim Termiziy, Ismoil Jurjoniy, Chag'miniy, Zamaxshariy, Narshaxiy, Balxiy, Masixiy, Ibn Iroq, Fahriddin Roziy, Muhammad Buxoriy, Abdurahmon Marvoziy kabilarni kiritish mumkin. Somoniylar davrining eng mashhur tarixchilaridan biri Abubakr Muhammad ibn Ja'far Narshahiy edi. Uning tarjimai holi to'g'risida manbalarda ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda Narshahiy 899 yilda tavallud qilgan va 959 yilda vafot etgan. U Buxoro yaqinidagi Narshah (hozirgi Vobkent) qishlog'ida tug'ilgan. Narshahiyning ilmiy asarlari to'g'risida ham ma'lumotlar juda kamdir. Uning faqat "Ta'rix Buxoro" (Buxoro tarixi) asari bizgacha etib kelgan. Bu asar 943-944 yillarda arab tilida yozilgan bo'lib, uning asl nusxasi va nomi hozircha noma'lum. Bizga etib kelgan "Ta'rix Buxoro" asari 1128 yilda Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al Quboviy (Quva shahridan) tomonidan arab tilidan fors tiliga ag'darilgan. Abu Nasr Quboviy bu asarni fors tiliga do'stlarining iltimosiga binoan tarjima qilgan.

IX asrda musulmon o'lkalarida hadisshunoslik, hadis to'plash, uni o'rganib tartibga solish muhim sohaga aylandi. Ularning hajmi, chinligi, tartibi, ahamiyati bilan musulmon olamida 6 muhandis (hadis to'plovchi) mashhur bo'ldi. Shulardan 3 tasi Markaziy Osiyolikdir. Muhandislar ichida eng obro'lisi va mashhuri Imom Buxoriydir (810-870). Uning dinshunoslikka oid 20 ga yaqin katta hajmdagi asarlar yozgani ma'lum: «Al Jome' as-Sahih», «At-tarix al-Kabir», «At-tarix-as-Sag'ir» va boshqalar.

Buxoriy shogirdlaridan biri Imom at-Termiziydir (824-894). U 10 dan ortiq diniy asarlar muallifi hisoblanadi. Termiziyning musulmon olamiga mashhur qilgan asari «Jome' at-Termiziy»dir. Turkmanistonning qadimgi Niso shahridan bo'lgan Abu Abduraxmon an-Nisoniy (830-915) barcha hadislarning qisqartirilgan «An-Sunan» kitobini yozib qoldirgan. 6 ta mashhur hadisshunoslarning qolgan 3 tasi Eron va arab mamlakatlaridan. Burxoniddin Marg'inoniy (1197 y. vafot etgan) ning «Hidoya fi-l-Furuz» («Shariat sohalari bo'yicha qo'llanma»), ya'ni «Hidoya» asari musulmon huquqshunosligi bo'yicha eng yirik va keng tarqalgan tadqiqotdir. U fors, ingliz va rus tillariga o'girilgan. Qur'onga tavsif (sharh) yozish borasida xorazmlik Zamahshariy, Faxriddin Roziy kabilar katta hissa qo'shganlar. Sharq xalqlari tafakkurini asrlar davomida nurafshon etib ma'naviyatimiz va ma'rifatimizga chuqur ta'sir o'tkazgan tasavvuf(sufizm) ta'limoti VIII o'rtalarida payso bo'gan. Dastlab u zoxidlik(tarkidunyochilik- bu dunyo orzu xavaslaidan voz kechish) xarakari ko'rinishida bo'lib Bog'dod, Basra, Kufa, Damashq shaharlarida keng yoyilgan. Asli tasavvuf so'zi "so'fiy" so'zidan, "so'fiy" so'zi esa arabcha "So'f" so'zidan yasalgan.

So'f deb arablar jundan bo'gan matoni aytadilar. Dastlabki davrlarda so'fiylik yolini tutgan kishilar boshqa oddiy kishilardan ajralib turish uchun jundan to'qilgan chakmon yoki po'stin kiyib yurishni odat qilganlar. Shuning uchun ularni jun chakmon kiyib yuruvchilar, yani so'fiylar deb ataganlar. Biz ajdodlarimiz qoldirgan buyuk merosni IX-XII asrlarda mamlakatimiz hududida yuz bergan chuqur ijobiy o'zgarishlar, ilm-fan, madaniyatning rivojlanishini o'rganar ekanmiz, ularning yaratilishida o'zlarining buyuk hissalarini qo'shgan buyuk allomalar, olimu fuzalolarining jahon sivilizasiyasi rivojlanishiga qo'shgan ulushlarini alohida ta'kidlaymiz. Jahon madaniyati rivojida ularning o'rinlarini aniqlab olishimiz va ko'rsatishimiz vaqti keldi. Ularning hammasi mustaqil Uzbekistonda yosh avlodni milliy g'oya, milliy mafkura, Vatanga muhabbat, sadoqat, g'urur ruhida tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. Ko'rinadiki, IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy taraqqiyotning barcha sohalarida yuqori darajada rivojlanish yuz bergan. Bu jarayonni esa «uyg'onish» renessans deyishga asos bor. Uning muhim xislati insonparvarlik bo'lgan va markazida doimo inson, insoniy aql, his-tuyg'u, inson ma'naviy boyligini egallash, uni yuksaltirish masalalari turgan. Tarixiy sharoitning va davrning bu chaqirig'iga vatandosh donishmandlarimiz va mutafakkirlarimiz talab darajasida javob bera olganlar.

Xulosa shuki, uyg'onish madaniyati, birinchi navbatda feodal munosabatlarning tez rivojlanishi, yerli mustaqil davlatlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq. U yangi davr ehtiyojlari asosida shakllandi. Yana uyg'onish madaniyati shahar madaniyatining yuksalishi, shaharning jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy rolining kuchayib borishi bilan bog'liqligini ham e'tibordan chetga qoldirmasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov.I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., Sharq, 1998.
- 2.Karimov.I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga hizmat etsin. T., O'zbekiston, 1998.
- 3.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
- 4.Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – T.: “O'zbekiston”, 2005.
- 5.Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 2007.
- 6.Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shaxri. T., 1993.
- 7.Axmedov.B. Tarixdan saboqlar. T., O'qituvchi. 1994.
- 8.Buyuk siymolar, allomalar. T., Meros. 1995, 1996, 1998.

6-MAVZU: MO'G'ULLAR ISTILOSI VA ULARNING ZULMIGA QARSHI KURASH. JALOLIDDIN MANGUBERDI JASORATI.

Reja:

- 1.Mug'ullar xujumi arafasida Xorazmshoxlar davlatidagi vaziyat. Elchilik munosabatlari.
- 2.Mug'ullarning Markaziy Osiyoga harbiy yurishlari. Jaloliddin Manguberdi jasorati.
- 3.Chig'atoy Ulusining tashkil topishi. Undagi boshqaruv tartibi, iqtisodiy-ijtimoiy hayot.

Tayanch so'z va iboralar:

Tungus – manjur, Temuchin, Yasaq, Tamg'a, Maxmud Yalovach, Utror, Inalxon, Zarnuq, Jaloliddin Manguberdi, suyurg'ol, muzariy. Chig'atoy Ulusi.

1. Markaziy Osiyo va O'rta sharq mamlakatlarining XII-XIII asrlardagi tarixiy davrni yoritishda ilmiy manba xizmatini o'taydigan talaygina tarixiy asarlarning mavjudligi tadqiqotchilarga allaqachon ma'lum. Ulardan biri Mirzo Ulug'bek qalamiga mansub, 1425 yilda yozilgan «Tarix-i Arba' Ulus» (To'rt ulus tarixi) asaridir. Asarda Markaziy Osiyo xalqlarining XII-XIII asrlardagi tarixi hamda Mug'ullar imperiyasining to'liq tarixi yoritilgan. Ushbu mavzuga oid yana bir muhim manba oliy nasab va toju taxt sohibi, yirik olim Abulqozixonning «Shajarayi turk» asaridir. Bu asar 1663-1664 yillarda yozilgan bo'lib, kirish va 9 bobdan iborat. Asarda Odam Atodan to turklarni qadimgi xonlaridan Mo'g'ul xongacha kechgan xodisalar zikri, Mo'g'ul xondan-Chingizxongacha bo'lgan tarix, Chingizxonning tug'ilganidan to vafotigacha tarixi va uning o'g'illri podsholik qilgan davr hamda Shayboniylar tarixi keng yoritilgan. Ulardan tashqari bu mavzuga oid yana bir muhim manba Herman Vamberining «Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi» asaridir. Asarning «Mug'ullar istilosi. Xijriyning 615-624 yillari (1218-1226) bo'limida Chingizxonning Movarounnahrda qilgan istilochilik harakatlari bayon etilgan. Akademik B.V. Bartoldning «Turkistan v epoxu mongalskogo nashestviya» (Soch, tom I, Moskva; Nauka, 1963), V.G.Yanning «Chingizxon» (Nukus, 1981), «Баты» (Nukus, 1982) va M.Ivaninning «Ikki buyuk sarkarda. Chingizxon va Amir Temur» (Toshkent; fan, 1994 yil) asarlari bu mavzuni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy Osiyoda tashkil topgan Xorazmshoxlar davlati 1017 yilda Maxmud G'aznaviy boshchilik G'azniviylar davlatiga 1044 yildan Saljuqiylar davlatiga qaram bo'ldi. Xorazmning mustaqilligi uchun kurash XII asrning ikkinchi choragidan boshlandi. Bu harakat xorazmshox Otsiz(1127-1156) davrida boshlanib, Alouddin Takash (1172-1200) davrida nihoyasiga yetdi. Takash davrida Xorazm davlati mustaqillikga erishdi, mamlakat xududlari ikki baravar kengaydi. Natijada Old va O'rta Osiyoda yirik va qudratli feodal davlati tashkil topdi. Alouddin Takash vafotidan so'ng taxtga uning ug'li Sulton Muhammad (1200-1220) utirdi. Uning davrida mehnatkash aholining ahvoli og'irlashdi, maxalliy hukumdorlarning talon-tarojlar avjiga chiqdi, tuxtovsiz urushlar halq xo'jaligini xonavayron qildi, mamlakatda ichki ziddiyatlar keskinlashdi. Bu shubxasiz shahar va qishloq mehnatkashlarining xorazmshoxlarga qarshi noroziligini oshirdi. Natijada 1210 yilda Utrorda, 1212 yil Samarqandda yirik halq harakatlari bo'lib o'tdi. Xorazmshoxlar davlatidagi bunday ichki ziddiyatlar, uning sharqdagi dushmani mo'ng'ullarga ayni muddat edi. Mo'ng'ullar XII asrda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda Markaziy Osiyoda eng qoloq aholi edi. Ular asosan chorvachilik bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchi aholi edi. XII asrdan boshlab ularning hayotida urug'chilik munosabatlari yemirilib, sinfiy tabaqalanish boshlanadi. XII asrning oxiridan boshlab hozirgi Mug'iliston xududida bir-biri bilan kelisha olmaydigan tatar, nayman, merket kabi o'nlab qabilalar yashab kelishgan, ammo ular bilan hamjins bo'lgan turklar bir-necha asrlar mobaynida G'arbiy Osiyoning hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatib kelgan.

«Mug'ul» atamasi etnik mazmundan ko'ra, siyosiy mazmunga ega. Halq o'zining ko'p sonli qabilalari nomi bilan «tatar» deb atar edi. Shu sababli bu halqlar tarixda «mongolo-tatarlar» deb yuritilgan. XII asrning oxiri va XIII asr boshlarida mung'ul urug' boshliqlari orasidan ichki kurashlarda Timuchin degan kishi g'olib chiqadi. 1204-1205 Mug'ilistondagi ko'chmanchi qabilalarni birlashtirib, markazlashgan davlat tuzadi. 1206 yilda Timuchin Onon daryosi bo'yida o'ziga buysundirilgan mo'ng'ul

urug' va qabila boshliqlarini quriltoyini chaqiradi. Unda Timuchinga "Chingiz"-beg'ubor, toza, musaffo, baquvvat laqabi beriladi. U o'z davlatini kuchaytirib, uning barqarorligini mustaxkamlash maqsadida kuchli armiya tuzishga kirishadi. Jangchilar zarur qurollar bilan (o'q-yoy, sadoq, nayza, qilich, qalqon) qurollantirildi. Ushbu quriltoyda qo'llanma sifatida Chingizxon mamlakatni boshqarishda "Yoso" nomi bilan mashhur bo'lgan o'z qonunlaridan foydalanishni taklif etadi. Bu qonunlar M.Ivanovning "Ikki buyuk sarkarda. Chingizxon va Amir Temur", nomli kitobida bayon qilingan. Unda aytilishicha jinoyatchilar, o'g'rilar qattiq jazolangan. Agarda kimda kim ot, tuya o'g'irlasa o'lim jazosiga, o'g'rilik miqdori kichikroq bo'lsa 7-700 tagacha qamchi urish bilan jazolangan. Mug'ullarda o'tkir spirtli ichimliklar ichish 1 oyda 3 marta ruxsat berilgan. Qonunlarda tabiat, uning muhofazasi, hayvonat dunyosiga ham e'tibor berilgan. Mart va oktyabr oylarida cho'lda yashovchi kiyik, yovvoyi echki, ko'lon, qo'yon va parrandalarni ovlash man etilgan. Qonunda suv nihoyatda e'zozlangan. Uni isrof qilgan kishi jazolangan. Qonunda ayollarni muhofaza etuvchi maxsus bo'limlar bo'lgan. Chingizxon soldatining markazi qoraqurum bo'lib, markazlashgan davlatni boshqarish uchun savodli kishilar kerak edi. Ular savodli uyg'urlardan hamda Mug'iliston bilan qadimdan savdo aloqasi bo'lgan musulmon savdogarlardan o'rganishgan. Chingizxon markazlashgan davlat tuzgach o'z hududini kengaytirishga e'tibor berib 1206 yilda naymanlarni, 1207-1208 yillarda enasoy havzasi, so'ng Yettisuv viloyatining shimoliy qismini, uyg'urlarni buysuntirdi. 1211-1214 yillarda u Xitoyga yurish qildi. 1215 yilda Shimoliy Xitoyning markazi Chjundu (Pekin) shahrini egalladi. U yerdan katta boylik, cho'rilar, harbiy qurol yasaydigan, ularni ishlata biladigan moxir hunarmandlarni olib ketdi.

Chingizxon Xitoyni bosib olgach, o'z madaniyati, boyligi, buyukligi bilan shuxrat qozongan – Xorazmshoxlar davlatiga yo'l ochildi. Chingizxon 1218-1219 yillarda sharqiy Turkiston va Yettisuv viloyatlarini deyarli talofatsiz egalladi. Endi uning chegaralari Sulton Muxammad Xorazmshox saltanatini chegarasiga tutashib ketgan edi. Shraqning bu ikki buyuk davlati bir-birini kuch qudratini, harbiy ma'lumotlar to'plash uchun elchilik munosabatlarini yo'lga qo'ygan. Bunday ishni amalga oshirishda Chingizxon o'z huzuridagi musulmon savdogarlardan xususan Mahmud Yalovachdan, Sulton Muhammad esa Bohovuddin G'oziy boshchilik elchilardan foydalangan. Ikki o'rtada elchilik munosabatlari qariyb ikki yil davom etgan. Elchilar har ikki tomondan ham yaxshi kutib olingan. Ularga va mamlakat hukumdorlariga qimmatbaho savdo salomlar berilgan. Bu orada ikki mamlakat bir-biri haqida qimmatli ma'lumotlarni to'plashga erishgan. Bu haqda XIII asr muallifi Nasaviy yozib qoldirgan.

Xorazmshoxlar davlatidagi bunday og'ir siyosiy vaziyatdan Chingizxon xabardor edi. Ichki nizo boshboshdoqlik va aholining noroziligi kuchayib, mamlakat siyosiy hayoti inqirozga yuz tutgan bir paytda Xorazmshoxlar davlati ko'chmanchi Mung'ul qabilalarining bosqiniga duchor bo'ldi.

2. «O'tror voqeasi» va Chingizxon elchisi Ibn Kafroj Bug'roning o'ldirilishi Chingizxonning Movarounnahrda bostirib kirishi uchun bohona bo'ldi. Chingizxonning Xorazm ustiga yurish qilishining yana bir sababi Shayx Najmiddin Kubroning muruti shayx Majiddin Bog'dodiyning Xorazmshoxning onasi tomonidan qastdan o'ldirilishi bo'ldi^[1]. Bu hujum shunchaki tartibsiz bosqin bo'lmay, avvaldan rejalashtirilgan vaxshiyona hujum edi. Unga Chingizxon katta ahamiyat berib puxta tayyorgarlik

^[1] Mirzo Ulug'bek «To'rt ulus tarixi». T; Cho'lpon, 1994 . 128-130 b.

ko'rgan edi. Urush boshlanishida Xorazmshox qo'shinlari Mo'ng'ullardikiga nisbatan ko'p sonli edi. Ammo armiyani bir joyda to'plashdan qo'rqqan Sulton Muhammad uni tarqoq holda jangga tayyorladi, jang boshlanganda esa mudofaa taktikasini qo'llaydi. Bu Muhammadning jangdagi eng katta xatosi edi. U xatto sarkarda Shohobudin Xivakiyning «dushmani o'zini o'nglab olmasdan to'satdan zarba berish kerak» - degan fikrini ham inobatga olmadi. Oqibatda 615(1218 y) mung'ul jahongiri o'z o'g'illari Chig'atoy, O'qtoy va Jo'ji bilan birga 200 000 qo'shin bilan Xorazmshox ustiga yurish boshladi^{3[2]}. Bu yurishda unga Uyg'ur xoni Edikut va Olmaliq hukumdori Sig'noq ham xamroh bo'ldi. Ular Farg'onadan o'tib O'tror ustiga yurish boshlaydi. Shu yerda Chingizxon armiyani to'rt qismga bo'ladi: 1. Chig'atoy va O'qtoy rahbarligidagi armiya O'troni qamal qilib turish uchun qoldiriladi. 2. Jo'ji boshchilik armiya Sirdaryo etagiga yuborilib Sig'noq, O'zgan, Jand, Yangikent shaharlarini bosib olish buyuriladi. 3. Besh ming kishilik armiyaga Oloqno'yon va Sintubuqa nomlarida sarkardalar Sirdaryoning o'ng sohili va Binkentni bosib olish uchun yuborildi. 4. Chingizxonning o'zi muntazam askarlari bilan O'rta Osiyoning markazi – Buxoroga qarshi harakat boshlaydi. O'tror chegara qal'a bo'lib, uning noibi Inalxon qo'lida 50000 otliq qo'shin bor edi. Qal'ani mudofa qilish uchun Qoracha Hojib qo'mondonligida yana 10000 kishilik qo'shin keladi. Juvoyning ma'lumotlariga qaraganda shahardagi musulmonlar Mo'ng'ullar xujumidan sarosimaga tushadi. Shahar 5 oy davomida mudofaada bo'ladi. Ammo kuchlar nisbatan teng bo'lmaganligi sababli shahar taslim bo'ladi, Inalxon asir tushadi, O'qtoy uning quloqlariga kumush eritilib qo'yib Samarqanddagi Ko'ksaroy maydonida o'ldiriladi. Chingizxon o'zining asosiy kuchlarini Buxoroga tashlaydi. Ular Sirdaryoning janubida joylashgan Zarinuq va Nur qal'asini jangsiz ishg'ol qiladi. Shu sababli mo'ng'ullar bu shaharga «Qutlug' baliq» deb nom beradi.

1220 yil fevralida Chingizxon Buxoroga yetib keladi. Shaharda 20000 kishilik qo'shin bo'lib, unga Sevinchxon, Qo'shlixon va Ko'kxon boshchilik qilardi. Ikki o'rtada qonli jang bo'lib o'tdi. Buxoro ahli taslim bo'lishga majbur bo'ldi, Shahar yondirildi, 16 fevralda egallandi. Shahardan 30000 kishi mo'ng'ullar tomonidan o'ldirildi. Ilm va ma'rifat egalari, shayxlar qul qilib sotildi. Qozilar eshak va xachir boqishga majbur qilindi. Buxorodan keyin navbat Samarqandga keldi. Bu ulug' shaharni mudofaa qilish uchun 110000 qo'shin bor edi. Ularning 60000 turk va 50000 tojik edi. Ular qo'l ostida 20ta fil ham bor edi^{4[3]}.

Bu vaqtda shahar noibi To'g'ayxon edi. Ammo jangchilar o'rtasida birdamlik yo'q edi. Samarqandni bosib olish uchun Chingizxon O'trordan olib kelingan asirlardan foydalandi. Jang 3 kun davom etdi. Natijada To'g'ayxonning barcha qo'shinlari qirib tashlandi. Mo'ng'ullar Samarqandni suv bilan ta'minlovchi «Qo'rg'oshinnova»ni buzib tashladi, shahar suvsiz qoldi. 50000 ga yaqin sog' qolgan shaharliklar tashqariga olib chiqildi. Lekin ular kun botishi bilan qatil etildi. Shaharda qolgan 5000 aholi 20000 oltin tanga to'lash sharti bilan ularni aybi kechirildi. Shunday qilib butun Movarouannaxr mo'ng'ullar tomonidan bosib olindi.

Chingizxonning yaqinlashib kelayotganligini eshitgan Sulton Muhammad Jayxun orqali Xurosonga qochadi. Keyin u Rayga so'ngra Mozondoronning o'tib bo'lmas tog'lari orqali xozirgi Astrobod shahriga keladi. Keyinchalik Kaspiy dengizining

^{3[2]} Vamberi H. «Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi». T; 1990. 19-b.

¹ Vamberi H. «Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi». T; 1990. 24-b.

janubidagi bir orolchaga borib joylashadi va u yerda hor-zorlikda, g'ariblikda zotiljam kasali bilan o'ladi.

1220 yil aprelda Samarqand taslim bo'lgach mo'ng'ullar Sig'noq, O'zgan, Jandga qarshi hujum boshlaydi. Lekin bu shaharlar tezda taslim bo'ladi. Endi navbat Sirdaryo bo'yidagi Binokat va Xo'jand shahriga yetib keladi.

Mo'ng'ullarga qarshi kurash olib borgan oxirgi Xorazmshoxlar vakili Jaloliddin Manguberdi edi. U Mo'ng'ullarga qarshi 11 marta jang olib borib mag'lubiyat nimaligini bilmagan buyuk vatanparvar edi. Mo'g'ul qo'shinining eng atoqli lashkarboshilari Jaloliddinga qarshi tura olmaydilar. U Parvona dashtidagi jangda mug'ul lashkarboshisi Shiki-Xutuhu No'yon boshliq 45000 qo'shinni mag'lub etadi. Jaloliddin jangda yangi harbiy taktikani qo'llaydi ya'ni dushman suvoriylariga qarshi ot yonida turib piyoda jang qilish uslubini. Mo'ng'ullarning bu mag'lubiyati ularni esankiratib qo'yadi. Chunki ular shu vaqtgacha mag'lubiyat nimaligini bilmagan. Bu mag'lubiyatdan keyin barcha harbiy harakatlarni endi Chingizxon o'z qo'liga olishga majbur bo'ladi. Afsuski bu vatanparvarning halq oldidagi xizmati Sovet tarixshunosligida noto'g'ri talqin etilgan. Xatto M.Shayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi» dramasi bosh qahramon obrazi nihoyatda ideallashtirilgan – deb ayb qo'yilib sahna yuzini ko'rmagan. O'zbekiston Mustaqilligi tufayli Jaloliddin Manguberdi siymosi qaytadan tiklanmoqda. Jaloliddin Manguberdi xotirasini abadiylashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 24 sentyabrda 408-sonli maxsus qaror qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq buyuk sarkardaning tavallud to'yi keng miqyosda nishonlanishi qayd qilib utildi.

1999 yil noyabrda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi Xorazmda keng nishonlandi. Unda ishtirok etgan yurtboshimiz Jaloliddin Manguberdi faoliyatiga yuqori baho berdi: «G'anim oldida bosh egmagan, tiz cho'kmagan, Vatan deb halok bo'lgan» milliy qaxramonimizga halqimizning ehtiromi, muhabbati, ajdodlar xotirasini muqaddas saqlashi ramzi bo'lib qoldi. Jaloliddinning Parvona dashtidagi g'alabasi unga qimmatga tushdi. G'alabadan so'ng olingan o'ljani taqsimlashda uning lashkarboshilari Sayfutdin Ug'roq, A'zam Malik va Muzaffar Maliklar o'rtasida nizo kelib chiqadi. Sulton Jaloliddinning kuchi ancha zaiflashadi. Chunki Sayfutdin Ug'roq o'zining 30000 kishilik askari bilan ketib qoladi. Fursatdan foydalangan Chingizxon G'aznaga lashkar tortadi. Jaloliddin esa urushsiz Hind daryosi sohillariga chekinadi. Daryo bo'yida 1221 yilning noyabrida qattiq jang bo'lib o'tadi. Chingizxon Hind daryosiga yaqinlashganda Jaloliddin keyingi kuni daryoni kechib o'tmoqchi ekanligini eshitib shu kechaning o'zidayoq daryoning kechuv yo'lini to'sdi. U Sulton qo'shinining orqadigi qismiga yetib olib uni tor-mor qildi. «Sulton Jaloliddin bin Sulton Muxammad Xorazmshox - deb yozadi Mirzo Ulug'bek, - o'zini Suv va olov o'rtasida ko'rdi, chunonchi bir tarafida keskir qamchilar olov sochardi, boshqa tarafida esa qohur daryo turardi. Hyech bir tomondan chiqib ketishning iloji yo'q edi. Noiloj jangga kirishdi»5[4]. Kuchlar nisbati va jang qilish befoyda ekanligini tushungan Jaloliddin, oilasini mo'ng'ullar qo'liga asr tushishini istamaganligi uchun rafiqasi, onasi va bolalarini daryoga uloqtirib suvga g'arq qiladi, o'zi esa Hind daryosining narigi qirg'og'oga suzib o'tib ko'zdan g'oyib bo'ladi. Uning qahramonligiga tan bergan Chingizxon Jaloliddinni taqib etishni man qiladi va o'g'illariga qarab «Ko'rdingiz! Bunday otaning o'g'li shunday bo'lishi

3 Mirzo Ulug'bek «To'rt ulus tarixi». T; Cho'lpon, 1994 . 182 b.

4.Vamberi H. «Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi». T; 1990. 27-b.

kerak»6[5] -deb ta'kidlaydi. Jaloliddin mo'ng'ullarga qarshi kurashda kavkazda kuchli davlat barpo etmoqchi bo'ladi, ammo mahalliy hokimlar o'rtasidagi nizolar uning rejasini ro'yobga chiqishga to'sqinlik qiladi. Shunday qilib eng so'nggi Xorazmshoxning hukumdorligi shu tariqa 1231 yilning kech kuzida tugaydi. 140 yil xukumronlik qilgan buyuk Xorazmshoxlar davlati va uni boshqargan xonadon barham topadi.

3. Mo'ng'ullar istilosidan so'ng Movarounnahr va Xorazmning yashnab turgan obod dehqonchilik viloyatlari halokatga uchradi, Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv kabi shaharlar xarobazorga aylandi. Samarqand va Marv vohasining sug'orish tarmoqlari vayron etildi, Urganch suvga bostirildi, natijada o'lkaning tub aholisi boshqa joylarga ko'chib ketishga majbur bo'ldi. Sharq va G'arbni bog'lab turgan Ipak Yo'li butunlay barham topdi. Ilm, ma'rifatga ulkan ziyon yetkazildi. Chingizxon biroz vaqt Movarounnahrda turgach 1224 yil o'z vataniga qaytadi va u yerda quriltoy chaqrib o'z imperiyasini o'g'illari, nabiralariga taqsimlab beradi. Xitoy va Mug'iliston O'qdoyga, uyg'urlardan to Xorazmgacha bo'lgan, Movarounnahr va Turkistonning bir qismi Chig'atoyga, Xorazm va Dashti Qipchoq to'ng'ich o'g'li Jo'jiga va keyin nabirasi Botuga; Xuroson, Eron va Hindiston To'liga meros qilib berildi. Mo'ng'ullar bosib olgan viloyatlarni uluslarga taqsimlanib uzal asosida boshqariladi. 1227 yil Chingizxon 70 yoshida vafot etadi. Mo'ng'ullar hukmronligi davrida halqning ahvoli nihoyatda og'irlashadi, ular ikki tomonlama eziladi, ba'zi oqsuyaklar o'zlarining molu-davlatlaridan ayrilishidan qo'rqib mo'ng'ullar xizmatiga o'tadi. Mo'ng'ullar mamlakatni boshqarishda Mahmud Yalavochga o'xshash mahalliy savdogarlardan yaxshi foydalangan. Uning qarorgohi Xo'jand shahri bo'lib, Movarounnahr noibi va soliqlarni o'z vaqtida yig'ishtirib olish bilan shug'ullangan. Mahalliy aholi mo'ng'ullarga «kalon» - yer solig'i hosilning 1/10 qismi hajmida, «qopchun» - chorva solig'i – har 100 chorvadan bar boshdan, «zakot» solig'i, «shulen» deb ataladigan oziq-ovqat soliqlari to'langan. Bunday soliq turlarining ko'pligi mahalliy aholi boshiga ko'p kulfatlar keltirgan. Aholining bunday azoblari natijasida Buxoroda 1238 yil yirik qo'zg'olon ko'tariladi. Unga asli kasbi elakchi bo'lgan Mahmud Tarobiy boshchilik qiladi. Unga yaqindan yordam bergan kishi Shamsiddin Maxbubiy edi. Mahmud shahardagi mo'ng'ullarning tarafdorlari bo'lgan sadrlar, feodallar, badavlat kishilarni saroyga to'plab uzini hukumdor deb e'lon qiladi

Movarounnahrdagi bu o'zgarishlarni XIV asrning 30-yillarida bu yerga kelgan arab sayyohi Ibn Batuta ham yozib qoldirgan. U Samarqand, Termiz, Xuroson, Balx kabi shaharlar to'g'risida ko'p ma'lumot bergan. Chig'atoy ulusi Kebekxon (1318-1326) davrida nihoyatda rivojlangan. U Nasaf shahri yonida o'ziga bir saroy qurdirib mo'ng'ul tilida Qarshi deb atagan. U mamlakatda ijtimoiy hayotni yo'lga solish maqsadida ma'muriy va pul islohoti o'tkazgan. Unga ko'ra davlat viloyatlarga bo'linib, mo'ng'ulcha tuman deb atalgan, lekin uning bu islohoti Movarounnahrdagi qadimiy an'analarga barham bera olmagan, feodal davlatni mustahkamlashda ijobiy rol o'ynagan. Uning davrida ikki xil pul: dinor – kumush tanga, dirham – mayda kumush tanga zarb etilgan. Bu pullar Temuriylar davrida ham aholi o'rtasida muomilada bo'lgan. XIV asrning 40-yillarida Mo'ng'ullar o'rtasida taxt talashlar, ichki nizolar, boylikka xirs qo'yish natijasida Chig'atoy ulusi 2 ga bo'linib ketadi. Uning sharqiy qismida – Sharqiy Turkiston va Yettisuv mo'ng'ullarning Dug'lat amirligi, g'arbiy

qismida esa Mavorounnahr amirligi tashkil topadi. «Xorazm sharqiy qismi ham g'arbiy ulusga qaragan»⁷[8].

1348 yilda boshlab Movarounnahr – ya'ni Chig'atoy ulusi yerlariga hukumronlik qilish Mo'ng'ullardan bo'lgan Tug'lug' Temurga, 1363 yilda uning vafotidan so'ng esa o'g'li Ilyosxo'ja qo'lga o'tadi. Demak Movarounnahr mo'ng'ullarning hukumronligi bir yarim asr davom etgan. Ma'ruzaning yakunida Chingizxon boshliq mo'ng'ullarning Mavorounnahrda bosqinchilik siyosati va uning oqibatlarini gapirish bilan bir qatorda ba'zi ijobiy tomonlarni aytib o'tish ham zarur. Lekin ularni bosqinchi ekanligini esdan chiqarmaslik zarur. Keyingi Chig'atoy xonlari davrida Urganch va Buxoro shaharlari qayta tiklandi, Andijon, Qarshi, Olitin O'rdada Saroy Botu va Saroy Berke, Eronda Sulaymoniya kabi yangi shaharlar barpo etildi. Ularni qurishda mahalliy aholining hissasini yoddan chiqarmaslik zarur. Mo'ng'ul xonlari Movarounnahrda kelib fan va madaniyatdan bahramand bo'ldi. Ular xat savodni shu yerdan o'rgandi. Chunki tashkil topayotgan davlatni boshqarish uchun savodli kishilar zarur edi. Shu yerda ma'ruzachi Movarounnahrni yana bir karra madaniyat markazi ekanligini «Nur Sharqdan chiqishini» ta'kidlab o'tishi lozim bo'ladi.

Bu davrda Movarounnahrda ko'plab maqbaralar, me'moriy ansambillar «ma'suriya va Xoniya» kabi madrasalar barpo etildi. bu davrda fors – tojik poeziyasining yirik namoyondalari Jaloliddin Rumiy, Sa'di-Sheroziy, Amir Xisrav Dehlaviy kabi buyuk siymolar yashab ijod etganlar.

Shunday qilib XIII-XIV asrning I-yarmi vatanimiz tarixida eng og'ir davr bo'ldi. Chunki Mo'ng'ullar istilosi va zulmi o'lkamiz halqlari hayotida og'ir iz qoldirdi. Mamlakatimiz hayoti taraqqiyotini bir necha un va yuz yillab orqaga surib yubordi, ammo uni to'xtatib qololmadi. Ozodlik, xurlik va mustaqillikka tashna bo'lgan avlodlarimiz mo'ng'ullar zulmiga qarshi kurashdilar, va nihoyat mo'ng'ul bosqinchilarini mamlakatimiz tuprog'idan uloqtirib tashladilar. Bu ozodlik kurashi ulug' bobomiz Amir Temur faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», T. Sharq, 1998.
- 2.Karimov Sh., Shamsiddinov R. Vatan tarixi, T. 1997.
- 3.Abulg'oziy “Shajarai turk”, T. Chulpon, 1992.
- 4.Vamberi X. «Buxoro yoxud Movarounnaxr tarixi», T. 1990.
- 5.Bayoniy M.YU. “Shajarai Xorazimshoxiy”, T. 1994.
- 6.Murtozayeva R.X. va b. O'zbekiston tarixi (ma'ruzalar matni), T. 2000, 221-265 betlar.
- 7.Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Halq so'zi, 1998, 21-oktyabr.

7-MAVZU: AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA O'ZBEK DAVLATCHILIGINING YUKSALISHI. IJTIMOY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT.

REJA:

- 1.Amir Temurning markazlashgan davlat tuzishi. Uning boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy asoslari.
2. Temuriylar davrida madaniy hayot. Ulug'bek akademiyasi.

2. Ahmedov B. «Tarixdan saboqlar», T; O'qituvchi. 1994. 178-b.

3. Temuriylar hokimiyatining inqirozga yuz tutishi va uning sabablari.

Tayanch soʻz va iboralar:

Markazlashgan davlat, Amir Temur, Amir Xusayn, «Loy jangi», Ilyosxoʻja, sarbadorlar, Temur davlati, xarbiy yurishlar, suyurgʻol, soliqlar, davlat boshqaruvi, harbiy boshqaruv, «Temur tuzuklari», Shohrux Mirzo, Ulugʻbek, ilm-fan, madaniyat, Husayn Boykaro, Alisher Navoiy, adabiy muhit, inqiroz.

1. XIV asr oʻrtalarida Chingizxon tasarrufidagi yerlar uning vorislari qoʻl ostida boʻlsa ham, ular mayda boʻlaklarga boʻlinib, idora qilinmoqda yedi. Oʻzaro hokimiyat uchun ichki kurashlar va nizolar natijasida 1348 yilda Sharqiy Turkistonda Chigʻatoy avlodidan boʻlgan Tugʻluq Temur hukmronligida Moʻgʻuliston nomi bilan yangi davlat barpo yetiladi. Tugʻluq Temur oʻz yerlarini kengaytirish maqsadida Movarounnahrda bir necha bor harbiy yurishlar uyushtirdi. Bu harakatlar Movarounnahr ichidagi barqaror boʻlmagan ijtimoiy-siyosiy vaziyat, boshboshdoqlik tufayli sodir boʻlgandi.

Ana shunday ichki oʻzaro urushlar avj olib, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy inqiroz kuchayib borgan davr Amir Temur faoliyati bilan bogʻliq. Amir Temur Shahrisabz yaqinidagi Xoʻja Ilgʻor qishlogʻida barlos beklaridan boʻlgan Muhammad Taragʻay oilasida 1336 yil 9 aprelda tavallud topadi. Uning yoshligi Keshda kechadi, harbiy mashq, diniy va dunyoviy bilim oʻrganadi. 1360-1361 yillarda Tugʻluq Temur qarshiliksiz Movarounnahr yerlariga bostirib kirganida Temurning amakisi Kesh hokimi Hoji barlos Xurosonga qochib ketadi. Yosh Temur amakisi hokim boʻlib turgan yerlarni qoʻlda saqlash maqsadida Tugʻluq Temur xizmatiga kiradi va uning ishonchini qozonib, Kesh viloyati yerlariga hokimlik qilish uchun yorliq oladi. Temurning bu harakati Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik, oʻzaro nizolar va boshboshdoqlik hukm surgan davrdagi birdan-bir toʻgʻri yoʻl yedi. Chunki kelajakda mahalliy hukmdorlarning Moʻgʻuliston xoniga qarshi kurashining yuzaga kelishi, shubhasiz yedi. Tugʻluq Temur 1361 yilda Movarounnahr yerlarini boshqarishni oʻgʻli Ilyosxoʻjaga topshiradi. Shundan boshlab Amir Temur Tugʻluq Temur xizmatidan asta-sekinlik bilan uzoqlashib, Balx hokimi Amir Qozogʻonning nabirasi Amir Husayn bilan ittifoq tuzadi. Uni mustahkamlash maqsadida Temur Amir Xusaynning singlisiga ham uylanadi. Muhimi, birgalikda moʻgʻullarga qarshi kurashni ham boshlab yuboradi. U mahalliy hokimiyat uchun boʻlgan janglarning birida, aniqrogʻi, Seyistonda turkmanlarga qarshi boʻlgan janglarda oʻng qoʻli va oyogʻidan yaralanib, bir umrga oqsoq boʻlib qoladi.

1363 yili Tugʻluq Temurning vafoti Movarounnahr uchun boʻlgan kurashlarni kuchaytirib yubordi. Lekin moʻgʻul bosqinchilari osonlikcha Movarounnahrni bermasligi maʼlum yedi. Shu munosabat bilan Temur va Amir Husaynning birlashgan kuchlari 1365 yilda Movarounnahrdan haydalgan Ilyosxoʻja qoʻshinlariga qarshi kurash boshlaydilar. Toshkent va Chinoz oraligʻida boʻlgan mashhur «Loy jangi» ittifoqchilar oʻrtasidagi kelishmovchilik tufayli magʻlubiyat bilan tugaydi. Ana shu voqeadan soʻng Amir Temur va Amir Husayn oʻrtasida ixtilof boshlanadi. «Loy jangi»da gʻalaba qilgan Ilyosxoʻja yesa Movarounnahrda harbiy harakatlarini kengaytirdi. Yendi u katta qoʻshinlar bilan Samarqandga yurish boshlaydi. Bu paytda Samarqanddagi Mavlnozoda va Abu Bakr Kalaviy boshliq sarbadorlar Ilyosxoʻjaga qarshi chiqadilar. Mahalliy aholining vatanparvarlik namunalarini koʻrsatib qarshilik koʻrsatganliklari tufayli Samarqandni qamal qilib turgan moʻgʻul qoʻshinlari Movarounnahrni butunlay tashlab ketishga majbur boʻldilar. Samarqandliklarning moʻgʻullar ustidan yerishgan gʻalabasi toʻgʻrisidagi xabarni yeshitgan Amir Temur va Amir Husayn Movarounnahrda

yo'l olishib, Samarqand yaqinidagi Konigilda sarbadorlar rahbarlari bilan uchrashadilar. Bu uchrashuvda o'zaro kelishmovchilik kelib chiqib, sarbadorlarning rahbarlari hiyla yo'li bilan o'ldiriladi. Movarounnahrda Samarqand taxtini Amir Husayn yegallab, uning hukmronligi o'rnatiladi. Shundan boshlab Temur va Husayn o'rtasidagi munosabat yanada keskinlashadi. Demak, bu vaqtga kelib Movarounnahrda o'zaro urushlarga barham bera oladigan markazlashgan davlat tuzish o'ta zaruriyatga aylangandi. Buni anglagan Amir Temur Amir Husaynga qarshi zimdan kurash olib borib, Balxni qamal qilish paytida o'z ittifoqchisi Xuttalon hokimi Kayxusrav qo'li bilan 1370 yili Husaynni chetlashtiradi. Mana shu davrdan ye'tiboran Amir Temurning Movarounnahrda yakka hukmronlik faoliyati boshlanadi. Bu yesa uning qariyb 35 yillik hukmronligi va ko'plab jahongirlik harbiy yurishlari uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Amir Temur o'zini Amir Kuragoniy deb atay boshladi. Chunki, u Amir Husaynning beva xotini Chingizxon avlodidan bo'lgan Saroymulxxonimni o'z nikohiga olgan yedi. Keyinchalik unga atab maqbara qurdiradi.

Temur qisqa vaqt ichida Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'idagi yerlarni, Farg'ona va Shosh mulklarini o'ziga bo'ysindirdi. 1372-1388 yillar orasida Xorazmga 7 marta harbiy yurish qilib, uni ham o'ziga bo'ysundirdi. Temur Oltin O'rda xoni To'xtamishga qarshi 1389, 1391, 1394-1395 yillarda 3 marta yurish qilib, uni ham yengdi. Oltin O'rda qudrati to'lasincha sindirildi. 1395 yilda Shimoliy Kavkaz hamda Terak daryosi bo'yida Temur va To'xtamish o'rtasida shiddatli jang bo'lib, bu jang Temur g'alabasi bilan tugadi. Bu g'alabalar Temur qo'shinlarining quyi Povolje, Astraxon, Shimoliy Kavkaz, Azov bo'ylariga chiqish uchun keng yo'l ochildi. Temurning Xorazm, Movarounnahr yerlariga va Oltin O'rdaga yurishlari, poytaxtning Keshdan Samarqandga ko'chirilishi O'rta Osiyoda markazlashgan davlatni tashkil qilishga qaratilgan bo'lsa, uning Yeron, Kavkaz, Hindiston, Old va Kichik Osiyoga harbiy yurishlari imperiyani kengaytirish maqsadida amalga oshirilgandi. Temur o'zining uch yillik (1386-1388), besh yillik (1392-1398), yetti yillik (1399-1405) yurishlari davomida Ozarbayjonda jaloyirlar, Sabzavorda sarbadorlar davlatini, Hirotda kurdlar davlatini tugatib, Yeron va Xurosonni o'z tasarrufiga kiritdi. Amir Temur 1398 yilda Hindistonga qilgan harbiy yurishida Dehli shahrini, 1400 yilda Suriyaga qilgan yurishida yesa Halab va Beyrut shaharlarini, 1401 yilda Damashq shahrini yegallaydi. 1402 yilda usmoniylar imperiyasining sultoni Yildirim Boyazidga qarshi yurishida uni mag'lubiyatga uchratadi. Bu g'alaba bilan Temur Yevropaning usmoniylar asoratiga tushishini bir necha o'n yillar orqaga suradi. Temur 1404 yilda Kichik Osiyodan Samarqandga keladi va Xitoyga harbiy yurish taraddudini ko'radi. Aslida Temur yirik sarkarda bo'lib, kuchli hafbiy boshqaruv tizimini yaratadi.

1404 yil qishida Temur 200 minglik qo'shin bilan Xitoy safariga otlandi. Ammo Temur qattiq betobligi sababli chegara shahari O'trorda to'xtaydi va shu yerda 1405 yilning 18 fevralida vafot yetadi. Natijada Xitoyni tobe yetish rejasi amalga oshmay qoladi. Amir Temur hayotining so'nggi yillarida o'zining yesdaliklari va tuzuklarini yozib qoldirdi "Temur tuzuklari" da davlat tuzilishining asosiy bo'g'inlari, ularning vazifa, funksiyalari, vazirlarning faoliyatlari, turli hil ijtimoiy guruhlar, tabaqalarga munosabat, qo'shin tuzilishi davlatning moliya va soliq siyosati, mulkiy munosabatlar hamda shu singari dolzarb masalalar, ularni hal yetish yo'llari aniq ifodalangan. Amir Temur davlatni mustahkamlashda qonun-qoidalarning tutgan o'rniga keng ye'tibor berdi. U bu haqda quyidagilarni yozdi: «Davlat ishlarini saltanat qonun - qoidalariga

asoslangan holda boshqardim. To'ra va tuzukka tayanib saltanatda o'z martaba va maqomimni mustahkam saqlab turdim». Amir Temur turk-mo'g'ul an'alariga amal qilgan holda o'z davlati hududlarini suyurg'ol (ulus) tariqasida in'om qilish yo'li bilan boshqargan. Temur Movarounnahrda tashqaridagi yerlarni to'rt ulusga bo'lib, farzandlariga in'om yetdi. Bu masalaning ye'tiborli tomoni shundaki, bo'lib berilgan yerlar ichki mustaqillikka yega bo'lsalar-da, lekin amalda markaziy hokimiyatga bo'ysunganlar. Uslar o'rtasida turli nizolar va kelishmovchiliklar bo'lmasligi uchun ularning faoliyatini shaxsan o'zi nazorat qilib turgan. Temur davlat mafkurasining kuchli hokimiyat va tayanch yekanligini tushunib yetganligi bois davlat, saltanat ishlarini yuzaga keltirishda kamchilikka yo'l qo'ymaydigan vazirlarni tanlashga alohida ye'tibor bergan. Amir Temur vazir to'rtta sifatga yega bo'lishi lozim deb hisoblagan: asillik, toza nasllik; aql-farosatlilik; sipohi raiyat ahlidan xabardorilik; sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

Temur davrida davlat markaziy ma'muriyati boshida devonbegi, ark begi va to'rt vazir turgan. Vazirlar soliq yig'ish, meros ishlari, askarlar maoshi va ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash va saroy xarajatlari bilan bog'liq ishlar bilan shug'ullangan.

Temur davridagi ilm-fan, me'morchilik, san'at sohalari o'z davriga nisbatan yuqori darajada rivojlanib, yuksak ma'naviy boylik darajasiga ko'tarildi. Sohibqiron mamlakat obodonchiligiga ham juda katta ye'tibor berdi. Samarqandni poytaxt qilib olgach dunyoning turli joylaridan keltirilgan binokorlar, me'morlar tomonidan masjidlar, madrasalar, maqbaralar qurildi. Hattoki g'ariblarga oziq-ovqat beradigan g'aribxonalar, yo'lovchilar qo'nib o'tadigan maxsus joylar ham qurilgan. Shahar atrofi mustahkam devorlar bilan o'ralib, Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron, Feruza kabi nomlar bilan darvozalar quriladi. Temurning qarorgohi sifatida noyob ma'muriy bino Ko'ksaroy va Bo'stonsaroylar qad ko'taradi. Samarqand atrofida atab go'zal bog'lar yaratgan. Temur tug'ilgan joyi Keshda Oqsaroy, Jome masjidi, madrasalar barpo yettirdi. Turkiston shahrida Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasini qurdiradi. Bu davrda Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va Toshkent kabi shaharlar hunarmandchilik va savdo markazlariga aylandi. Amir Temur savdo yo'llari rivojiga va uning tinchligiga alohida ye'tibor berdi. U boy o'ljalari bilan cheklanib qolmay, balki jahon karvon savdosi yo'llari (Yevropa va O'rta Osiyo mamlakatlarining Uzoq Sharq bilan) ustidan hukmronlik qilishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ygandi. Sohibqiron Oltin O'rda hududidan o'tgan shimoliy savdo yo'lini ishdan chiqarish va savdo yo'lini O'rta Osiyo orqali o'tgan yeski ipak yo'lga yana burib yuborishga zo'r berib harakat qildi.

Amir Temur davlatining mafkurasini ijtimoiy-iqtisodiy hayotni izga solib yo'naltirishdan tashqari siyosiy hayotda ham katta kuchga aylandi. U chet davlatlar bilan aloqani kengroq yo'lga soldi. U davr shart-sharoitlaridan kelib chiqib, tashqi siyosatda qat'iy faol harakat qilib, o'z saltanati dovrug'ini jahon miqyosiga olib chiqa oldi. Amir Temurning Yildirim Boyazid ustidan bo'lgan g'alabasidan so'ng Fransiya, Angliya, Genuya va Vizantiya yerkin aloqalarni, savdogarlar va mol almashishni taklif yetgan. U Yevropa mamlakatlari bilan yaqin qo'shnichilik qilish, savdo karvon yo'llarini rivojlantirish niyati borligini ko'rsatib, o'z davlati shuhratini Yevropaga tarqata oldi. Uning saltanatining dovrug'i bu mamlakatlarga borib yetishi bilan Fransiya, Angliya, Genuya, Vizantiya va Ispaniya kabi davlatlarning qirollari sohibqiron bilan siyosiy, iqtisodiy, savdo aloqalari o'rnatishga intilganlar. Shu bois ular Temur huzuriga muntazam yelchilar yuborib turganlar. Amir Temur davrida diniy

ilmlar va dunyoviy fanlar barqaror bo'lgan. U o'z davrining fan va madaniyat homiysi sifatida ham shuhrat qozondi. Doimo kamsitilgan va ye'tibordan chetda bo'lgan mazhab tarafdorlarini o'z homiyligiga olgan. Darvesh, faqir-miskinlarni o'ziga yaqin tutib, ularni ranjitmaslikni o'zining insoniy burchlaridan biri deb bilgan. Amir Temur vafotidan so'ng uning yirik imperiyasi parchalana boshladi. Temuriy shahzodalarning taxt uchun o'zaro kurashlari qudratli davlatning bo'linishidagi asosiy sabablardan biri yedi. Amir Temur taxtiga valiahd qilib nabirasi Pirmuhammadni qoldirgan bo'lsa-da, yeng katta o'g'li Jahongir Mirzoning farzandi, ko'pgina amirlar va amaldorlar uning hukmronligini tan olmadilar. 1405 yil mart oyida Temurning nabirasi Xalil Sulton o'zboshimchalik bilan Samarqand taxtini yegalladi. Undan tashqari, Xurosonda Shohruh, Balx, G'azna va Qandahorda Pirmuhammad, G'arbiy Yeron va Ozarbayjonda Mirzo Umar va Abubakr Mirzo, Turkiston, Sabron, O'tror, Sayramda Amir Berdibek, O'ratepa va Farg'onada Amir Xudoydod, Xorazmda Idiku o'zlarini hukmdor deb ye'lon qildilar.

Temuriy hukmdorlardan Shohruh (1405-1447), Mirzo Ulug'bek (1409-1449), Sulton Husayn (Boyqaro) (1469-1506), qisman Sulton Abu Said (1451-1469) davrlarida ichki osoyishtalik, ma'rifat va madaniyatga ye'tibor tufayli ilmu-fan va madaniyat yuksalib, Movarounnahr va Xuroson yana Sharqning ma'rifat va madaniyat markazi nomini qaytarib oladi.

Bu vaqtda nafaqat Hirot va Samarqand, balki Movarounnahr va Xurosondagi boshqa shaharlarda ham olimu-fuzalo, shoiru-me'morlar, bastakoru naqqoshlar guruhlarini to'plana boshlaydi. Buxoro, Xorazm, Balx, Mashhad, Sheroz ham o'ziga xos madaniy markazlar rolini o'ynay boshlaydi. Ma'rifatparvarligi va aqlli bilan nom chiqargan Shohruh davrida asriy ilm-fan, madaniyat an'analari qayta jonlana boshlagan yedi. Shahar qayta qurildi. Hirotidagi yeng gavjum joylardan biri Shohruhning o'g'li Boysunqur tashkil yetgan kitobxonona nomini olgan joy bo'lib qoldi. Bu yerda o'z davrining yeng sara kitoblari qayta ko'chirilar, sotib olinar va sotilar yedi. Bu paytda hukmdor va amaldorlarning homiyligi natijasida tasviriy san'at, amaliy san'at, xattotlik san'ati o'z rivojini maromiga yetqazdi. Mirak Naqqosh boshchiligidagi sharq miniatyura san'ati ham o'z faoliyatini shu yerdan boshlagan yedi. Hirotlik va xurosonlik ko'plab badavlat zodagonlar, savdogarlar ham ilm-fan, madaniyatga homiqlik qila boshlaydilar. Masalan, Shohruh hukmronligi davrida zodagon Hoji Arslon Tarxon o'zining ma'rifatparvarligi bilan nom chiqargan yedi.

2. Movarounnahr yerlarini 1409 yildan boshlab Shohruhning katta o'g'li Ulug'bek Mirzo boshqara boshladi. Ulug'bekning hukmronlik davri (1409-1449) asosan Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy hayot, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi bilan izohlanadi. Mirzo Ulug'bek Movarounnahrni musulmon olamining ilmiy markaziga aylantirishga harakat qildi. Xususan, Samarqand, Buxoro, Kesh ilm-fan markazlariga aylandi. U 1417 yilda Buxoro, 1420 yilda Samarqand va 1433 yilda G'ijduvonda madrasalar barpo yetdi. Samarqandni obodonlashtirish ishlariga bosh-qosh bo'lib, Go'ri Amir, Shohizinda me'moriy majmualarini oxiriga yetqazdi. Marvda ham bir qator diniy muassasalar qurdiradi. Hadisi sharifdagi «Ilm olmoqqa intilmoq har bir muslim va muslima uchun ham farz va qarz» degan iborasi Buxoro madrasasi peshtoqiga shior sifatida o'yib yozdirib qo'yiladi. Xususan, Samarqandga o'z zamonasining yirik, taniqli olimlarini chorlashga harakat qilgan. Uning sa'y-harakatlari tufayli zamonasining 100 dan ortiq olimlari Samarqandga yig'ildilar. Ular orasida Taftazoniy, Mavlono Ahmad,

o'z zamonasining «Aflotuni» deb nom olgan Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Koshiy, Muhammad Xavofiylar va boshqa taniqli olimlar ham bor yedi. 1420 yilda Samarqand madrasasi ochilganda unda 90 dan ortiq olim qatnashgan. Ilk ma'ruzani Mavlono Havofiy o'qigan vaqtida, uni faqat 2 kishi – Mirzo Ulug'bek va Qozizoda Rumi tushungan, xolos. Keyinchalik o'z zamonasining taniqli kishilari Abdurahmon Jomiy, Xo'ja Ahror va boshqalar ham Samarqand madrasasida tahsil olganlar.

Shuningdek, Samarqandda bu davrda bir necha madrasalar ham bo'lib (Xonim, Feruzshoh, Shohmalik, Qutbiddin va boshqalar) ularda ham salohiyatli olimlar dars berishar yedi. 1424-1429 yillarda Samarqand yaqinidagi Obirahmat anhuri yaqinida Mirzo Ulug'bek rasadxona qurdiradi. U o'sha davrning noyob inshootlaridan bo'lib, doira shaklida barpo yetilgan, imoratning aylanasi 47 m., balandligi 31 m. dan iborat 3 qavatli bino bo'lgan. Binoning ichida maxsus tekshirish xonalari bo'lib, unda yerlarda maxsus asbob-uskunalar joylashtirilgan. Samoni kuzatish va o'rganish borasida G'iyosiddin Jamshid yordamida astronomik o'lchov asbobi - ulkan sekstant o'rnatilgandi. Bu sekstant Sharqdagi yeng katta astronomik o'lchov asbobi hisoblangan. Shuningdek, mahalliy ustalar (Iso Usturlobiy, Abu Mahmud Xo'jandiy, usta Ibrohim) qo'li bilan ko'plab zaruriy astronomik o'lchov asboblari ham yasaladi va o'rnatiladi. Rasadxona qoshida 15 ming nusxadan iborat boy kutubxona ham bo'lgan. Uning atrofida olimlar yashaydigan yer-chorbog'lar Bog'imaydon va Chinnixon nomi bilan shuhrat topdi. Ulug'bek Samarqandda o'ziga xos astronomiya maktabini yaratdi. Rasadxonada Ulug'bek bilan birga o'z zamonasining mashhur matematigi va astronomlari Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Jamshid, Koshiy, Ali Qushchi kabilar tadqiqot ishlarini olib borgan.

Ulug'bek davrida, shuningdek, Samarqand Sharqning madaniy markaziga aylanganligi uchun mashhur faylasuf Ali ibn Muhammad Jurjoniy, taniqli tabib Mavlono Nafis, shoir Xayoliy Buxoriy, «Yusuf va Zulayho» dostonining muallifi Durbek, qasida janrining taniqli namoyandasi o'zbek shoiri Sakkokiy, mashhur xattot Abdurahim Xorazmiy va boshqalar Ulug'bek homiyligi ostida Samarqandda yashab ijod qilganlar. Yana Sharqning ko'plab taniqli olim va shoirlari, fuzaloi ulamolari Samarqandga tez-tez kelib turdilar. Ulug'bek davridagi madaniy markaz keyinchalik Ulug'bek akademiyasi nomini olib, dastavval mashhur fransuz yozuvchisi va olimi Volter (1694-1778) tomonidan ye'tirof ye'tilgandi. Ulug'bek atrofiga uyushgan kuplab buyuk komusiy olim soxiblari - Kozizoda Rumi, Giyesiddin Jamshid Koshiy, Muxammad Ali Kushchi, Muxammad Xavofiylar ilm-fanning turli soxalarida, ayniksa, astronomiya, matematika singari anik fanlar buyicha barakali ijod kildilar xamda uzlaridan ulkan meros koldirib ketdilar. Temuriylar davri tasviriy san'atining ulkan namoyandasi, tengsiz talant soxibi, unlab moxir musavvirlarning ustoz, benazir ijodi xozirgacha xam insoniyat axlini lol koldirib kelayetgan Kamoliddin Bexzod (1455-1537) xam Xirot ijodiy muxitida faoliyat kursatdi.

Temur va temuriylar davrida tarixshunoslik fani rivoj topdi. Bu davrda yashab ijod kilgan muarrixlarning asarlarida usha zamon tarixiy vokealarning mufasal tafsilotlari, sharxlaridan tashkari ularning chukur ijtimoiy moxiyati, mazmuni uzining butun ziddiyatliliigi va murakkabliliigi bilan ifoda etilgan. Bu davr tarixchilaridan Nizomiddin Shomiy, Xofizu Abru, Sharofiddin Ali Yazdiy, Fosix Xavofiy, Abdurazzok Samarkandiy, Ibn Arabshox, Giyesiddin Ali, Mirxond, Xondamir usha davr ijtimoiy xayeti jarayenining talab va extiyejlaridan kelib chikkan xolda temuriy xukmdorlarning

turli-tuman faoliyati, sa'y-xarakatlari bilan boglik tarixiy xodisalar, vokealarni xolis va xakkoniy aks ettirishga intilganlar.

3. 1447 yilda Shohruh Mirzo vafotidan so'ng Temurzodalar o'rtasidagi kurash boshlanib ketdi. Oqil va dono hukmdor Ulug'bek bu kurashlarga barham berishga harakat qilib ko'rdi. Lekin buning uddasidan chiqolmadi. Aksincha, o'g'li Abdullatifning bevosita ishtiroki tufayli o'zi bu kurashlarning qurboni bo'ldi. Xullas, XV asr o'rtalariga kelib, Mirzo Ulug'bek vafotidan keyin (1449) temuriy shahzodalar o'rtasida hokimiyat uchun kurash yana avj oldi. Abdullatif xurofotchi din ahllari, darveshlar guruhi bilan yaqinlashib, o'zini himoya qilishga urindi. Lekin qotil padarkush taxtda uzoq o'tira olmadi. 1450 yilning 8 mayida shahar qandag'i yonida, Bog'inavdan nariroqda unga suiqasd qilinib, o'ldirildi. O'ldirganlar hattoki qo'rqmasdan Abdullatifning kesilgan boshini Registondagi Ulug'bek qurdirgan madrasa peshtoqiga namoyishkorona tarzda ilib qo'ydilar. Yendi Samarqand taxtiga temuriylardan Mirzo Ulug'bekning kuyovi hamda jiyani Mirzo Abdullo o'tiradi. Buxoroda yesa hokimiyat Mironshohning nevarasi Sulton Abu Said qo'liga o'tadi. Mirzo Abdullo o'zining bir yillik hukmronlik davrida mamlakatda barqarorlikni tiklashga, Mirzo Ulug'bekning madaniy sohadagi ishlarini davom yettirishga, markaziy hokimiyatni kuchaytirishga harakat qildi. U Samarqand taxti davogarlari Alouddavla va Abu Saidlar bilan kurash olib borib, Samarqandga qarshi yurish qilgan Abu Said qo'shinini tor-mor keltirdi. Abu Said Sirdaryo ortiga qochib, Dashti Qipchoq o'zbeklari xoni Abdulxayrxondan yordam so'rab murojaat qiladi. 1451 yilning yozida Samarqand yaqinidagi Sheroz qishlog'ida bo'lgan jangda Mirzo Abdullo o'ldirilib, taxt Sulton Abu Said Mirzo (1451-1469) qo'liga o'tadi. Temur davlatining Xuroson yerlari Shohruhning boshqa bir nevarasi Boysunqurning o'g'li Abdulqosim Bobur qo'lida saqlanib qolib, u to vafoti (1457)ga qadar Hirot taxtini boshqarib turadi. Bu vaqtga kelib o'zaro siyosiy tarqoqlik yanada avj oladi. Birgina Xurosonning o'zi o'ndan ortiq qismga bo'linib ketadi. O'zaro taxt uchun muttasil kurashlar mamlakat iqtisodiy va madaniy hayotiga katta zarar yetqazib, inqiroziy holatlarga sabab bo'la boshladi. Abulqosim Bobur Xurosonni o'z qo'li ostida birlashtirishga, Shohruh davridagi madaniy hayotni tiklashga harakat qildi. 1454 yilda uning Samarqandga yurishi muvaffaqiyasiz tugab, 40 kunlik shahar qamalidan keyin yana orqaga qaytishga majbur bo'lgan yedi.

Ulug'bek vafotidan so'ng madaniy markaz Xurosonga va uning poytaxti Hirotga ko'chdi. Hirot madaniy va ilmiy markazning shakllanishida Huroson hukmdori Sulton Husayn (Boyqaro) va buyukshoir va mutafakkir Alisher Navoiyning roli nihoyatda beqiyos bo'ldi. Ma'rifatli hukmdor bo'lmish Sulton Husayn butun Xurosonda ilm-fan, adabiyot, madaniyat homiysiga aylandi. Uning o'zi «Husayn» taxallusida g'azallar bitgan. Hozirgi kungacha uning she'riy «Devon»i va Nasriy «Risola» asarlari yetib kelgan. Alisher Navoiy (1441-1501) yoshligidan temuriy shahzoda Sulton Husayn bilan do'st yedi, keyinchalik ular Xuroson hokimi Abdulqosim Bobur (1451-1457) xizmatida birga bo'lganlar. Husaynning xizmat davrida Alisher Navoiy Mashhad va Hirot madrasalarida tahsil ko'radi. Keyinchalik Movarounnahr hokimi Sulton Abu Said tazyiqi bilan Samarqandga ketishga majbur bo'ladi va u yerda 2 yil turib, o'z bilimini yanada takomillashtiradi. 1469 yilda Xuroson taxti Sulton Husaynga tekkanidan so'ng, uning taklifi bilan yana Hirotga keladi va bu yerda dastlab muhrdorlik, so'ngra vazirlik qiladi. Alisher Navoiy vazirlik davrida (1472-1476) mamlakatda iloji boricha osoyishtalik va adolat o'rnatishga harakat qildi, shaharlar yuksaldi, suv chiqarilib

ko'pgina yerlar obod bo'ldi, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari yanada rivojlandi. Navoiy ilm-fan, ma'rifat va madaniyat ahliga shaxsan o'zi homiylik qildi. Garchi toju taxt uchun kurashlarda va fitna-nizolar natijasida Navoiyning Sulton Husayn bilan oralari biroz sovugan bo'lsa-da, lekin Navoiy umrining oxiriga qadar davlatning tayanch shaxslaridan biri bo'lib qoldi. Jumladan, u vazirlik lavozimidan ketar yekan, Navoiyga shohona to'n kiygizib, uning iltimosi hych qachon yerda qolmasligini qayd qiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, Alisher Navoiy 300 dan ortiq turli qurilish, obodonchilik ishlariga bosh-qosh bo'lgan. Hirotidagi Injil daryosi bo'yida uning rahnamoligida «Ixlosiya», «Shifoiya» majmualari, Tus viloyatidagi Turuqband suv ombori va kanali, Hirot va Mashqaddagi sug'orish inshootlari, Astroboddagi saroy va masjid, Marvdagi madrasa ishga tushirildi. Navoiy o'z daromadlarini ham xayriya ishlariga sarflaydi. Shaxsan uning mablag'lari hisobidan 52 ta rabot, 19 ta hovuz, 16 ta ko'prik, 9 ta hammom va boshqalar qurilgan. Xurosonda 12 dan ortiq minora, masjid va rabotlar ta'mirlandi.

Navoiy homiyligida Sharq miniatyurasi maktabining yetuk namoyandasi «Sharq Rafayeli» nomini olgan Kamoliddin Behzod, tabiblar Abdulxay Muniy, Darvish Ali, xattotlardan Sulton Ali Mashhadiy, musiqachilardan Husayn Udiy, tarixchilardan – Sohib Doro, Muhammad Nizomiy, Kamoliddin Binoiy, Davlashoh Vosifiy, Muiniddin Muhammad, Mirxond va boshqalar yetishib chiqdilar. Alisher Navoiy turkiy tilda 1483-1485 yillarda 5 ta dostonidan iborat «Hamsa» asarini yaratdi. Buyuk shoirning 20 dan ortiq asarlari ham ana shu tilda yaratildi. Ularning mazmunida tarixiy, falsafiy, axloqiy mezonlar bo'lib, insoniyatga xos bo'lgan barcha ijobiy xislatlar ulug'lanadi.

Amir Temur va temuriylar davri madaniyatining tudakonli mazmuni, manzarasi va kulami usha zamondla xar taraflama gurkirab ravnak topgan badiiy adabiyotda yakkol namoyon buldi. Eng muximi shundaki, bu davrda badiiy tafakkurda an'anaviy bayrokdor bulib kelgnan fors-tojik adabiyoti bilan yonma-yon turkiy-uzbek adabiyoti xam rivojlanib, uning namoyandalari safi kupayib bordi. Bu urinda uzbek mumtoz adabiyoti tarakkiyotiga salmokli xissa kushgan Lutfiy, Xaydar Xorazmiy, Durbek, Gadoiy, Atoiy, Sakkokiy, Xusayniy singari budiy suz ustalari nomini aloxida tilga olib butish joizdir. Shoir Lutfiy (1366-1465) o'zining 20 dan ortiq asarlari bilan Navoiygacha ham mashhur bo'lgan.

Ana shu davrda Sharofiddin Ali Yazdiyning (vafoti 1454 y) Temur tarixiga doir Nizomiddin Shomiydan so'ng yozilgan bir xil nomdagi «Zafarnoma» asari yaratildi.

Fors-tojik adabiyotida mashhur bo'lgan Abduraxmon Jomiy (1414-1492)ning ham roli buyuk bo'ldi.

Temuriyzodalar urtasidagi uzaro urushlar, birodarkushliklar nafakat kuyi tabaka axlining, balki yirik zodagonlarning xam noroziliklariga sabab buldi. Temuriylar davlatidagi siyosiy tarkoklik, ayrim xukmdorlarning ajralib, mustakillikka intilishi bu davlatning yemirilishiga olib keldi. Natijada Amir Temur asos solgan ulkan saltanat tanazzulga yuz tutdi va tugatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T., «O'zbekiston», 1992.
- 2.Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T., «O'zbekiston», 1996.
- 3.Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. T., «O'zbekiston», 1996.

4. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». T., «Sharq», 1998.
5. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. T., «O'zbekiston», 1998.
6. Amir Temur Ko'ragoni. Zafar yo'li. T., «Nur», 1992.
7. Amir Temur o'g'itlari. T., «Navro'z», 1992.
8. Axmedov A. Ulug'bek Muhammad Tarag'ay. T., 1994.
9. Axmedov B. Sohibqiron Temur (hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati). T., 1996.
10. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Ikki jildlik. T., «Mexnat», 1992.
11. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. T., «Fan», 1998.
12. Temur tuzuklari. T., «G'afur G'ulom», 1991.
13. Fayziyev T. Temuriy malikalar. T., 1994.
14. Sharaffiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. 1360-1370. T., «Kamalak», 1994.

8-MAVZU: TURKISTONNING XONLIKLARGA BO'LINIB KETISHI, UNING SABABLARI VA OQIBATLARI

Reja:

1. Movarounnahr va Xurosonni Shayboniylar tomonidan bosib olinishi va shayboniylar sulolasining boshqaruv tizimi.
2. Mamlakatning uch xonlikka bo'linishi, ulardagi ijtimoiy - iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy ahvol.
3. Xonliklarda ichki va o'zaro kurashlarning avj olishi va uning oqibatlari.

Tayanch so'z va iboralar:

O'zaro urushlar, parokandalik, Ulug'bek, Shayboniyxon, Bobur, Safoviylar, Abdullaxon II, ashtarxoniylar, udel, suyurg'ol, iqta, tanho, soliqlar, Samarqand qog'ozi, Imomqulixon, Subxonqulixon, Ubaydulloxon, Abulfayzxon, mang'itlar, inoqlar, qo'ng'irotlar, minglar, otaliq, sud va sudlov ishlari, Rossiya bilan savdo aloqalari.

I. XV asr oxiri -XVI asr boshida Xuroson va Movarounnahrning bir necha mustaqil mulklarga bo'linib ketishi, ayrim viloyatlar hokimlari o'rtasida uzluksiz davom etgan o'zaro nizolar avj olishi oqibatida Temuriylar saltanatining iqtisodiy va siyosiy inqirozi tezlashmoqda edi. Masalan, Farg'ona, Xisor, Samarqand, Buxoro singari mulklari markaziy hokimiyat bilan bog'lanmagan mustaqil siyosiy boshqaruviga ega bo'lgan. Xorazmni So'fiylar sulolasining vakili mustaqil boshqargan. Buning ustiga yana ularning ko'plari imperiya markazi Samarqandga bo'lgan da'vogarlik maqsadini amalga oshirish uchun goh mo'g'ullardan, goh ko'chmanchi o'zbeklardan harbiy yordam so'rash yo'liga ham o'tganlar. Natijada, mamlakatda tijorat ishlari va karvon savdosi deyarlik to'xtadi, dyehqonchilik va hunarmandchilik izdan chiqdi, xalqning moddiy ahvoli og'irlashdi.

XV asr oxirlariga kelib, Movarounnahrda temuriylarning bir-biridan o'zaro mustaqil bo'lgan uchta hokimiyati vujudga keldi:

1. Samarqandda Sulton Ahmad Mirzo hukmronligi (1469-1493);
2. Toshkentda Sultoy Mahmud Mirzo hukmronligi (1469-1498);
3. Andijonda Umarshayx Mirzo hukmronligi (1469-1494).

Bu uchala davlatning o'zaro urushlari Movarounnahr aholining temuriylardan noroziligini yanada avj oldirdi. Ayniqsa, yuqori tabaqa vakillari markazlashgan davlat

tarafida turdilar. Bu temuriyzodalarning davlat boshqaruvida mustahkam tayanchga ega emasligidan dalolat beradi. Bu vaqtda temuriylar huzurida ta'lim olgan Abulxayrxonning nevarasi Muhammad Shohbat Dashti Qipchoqda dasht urug'larini birlashtirib, o'z hokimiyatini mustahkamlamoqda edi.

Shayboniyxon 1487-1488 yillarda O'tror, Sayram, Yassa (Turkiston), Sig'noq shaharlarini bosib olgan, 1499 yilda Movarounnahrda jiddiy harakat boshladi. U o'zining harbiy, qarashlarida piri Shayx Mansyrning "o'rtasidan emas, chetlaridan boshlamoq zarur" degan so'zlariga amal qilib, Movarounnahrni istilo etishni Samarqanddan boshladi. Lekin, u Buxoro hokimi Amir Muhammad Boqi Tarxonning Samarqandga yordamga kelayotganligini eshitib, Samarqand qamalini to'xtatadi va Buxoro tomon o'z qo'shinlarini safarbar etib, Dobusiya qal'asi yonida Boqi Tarxonning harbiy qismlarini tor-mor keltiradi.

Bundan tahlikaga tushgan Buxoroning yirik er egalariga va ruhoniylari xalqni mudofaaga undash o'rniga, sharning jangsiz taslim bo'lish yo'lini tutdilar. Ayni paytda Samarqandda ham ikkilanishlar boshlanib, yirik ruhoniylar Xo'ja Ahrorning o'g'li Muhammad Yaxyo boshliq bir guruh amaldorlar Andijon hokimi Temuriy shahzoda Boburdan va Toshkent hokimi Sulton Mahmuddan yordam so'radilar. Bu yashirin harakatdan xabardor bo'lgan Sulton Ali ham Shayboniyxon bilan aloqa o'rnatishga kirishdi. Natijada, 1500 yili Samarqand Shayboniyxoniga jangsiz topshirildi. Samarqand 4 oy maboynida Shayboniyxon qo'shinlari tamonidan talin-taroj qikinadi, istilocholar foydasiga katta miqdordagi boj olindi, aholi kutgan tinchlik va yengilliklar ham bo'lmadi. Shahar aholisi keng qatlamlarining va feodal - zodagonlarning noroziligidan, Shayboniyxonning boshqa joyda istilochilik harakati bilan band bo'lganligidan foydalangan Zahiriddin Bobur 1500 yil kam sonli aakarlari bilan Samarqandni Samarqandni ikkinchi marta qo'lga kiritdi. U tezlikda shahardagi Shayboniyxonning 600 kishilik qo'shinini va tarafdorlarini yo'q qildi, 1501 yil aprel oyida Zarafshon atrofidagi Kuxakda olib borilgan shoshilinch jangda hal qiluvchi mag'lubiyatga uchradi. Bobur Samarqandga yashirinishga majbur bo'ldi va uni bir necha oy qamal qilib turishda oddiy aholi, ayniqsa hunarmandlar mudofaa ishida faol qatnashdilar, Shayboniyxonning hujumini bir necha bor qaytardilar. Lekin, shaharda qurol yetishmasligi va dahshatli ocharchilik boshlanishi hamda atrofdan hech qanday yordam olish mumkin bo'maganli sababli shaharni Shayboniyxon ikkinchi bor qo'lga kiritdi. Bu voqea Shayboniyxonning navbatdagi istilochilik harakatini amalga oshirishga shart-sharoit yaratdi. Dashti qipchoqliklar qisqa muddat ichida Buxoro (1500), Samarqand (1501), Toshkent (1503), Xisor (1504), Urganch (1505), Balx (1506); Hirot (1507) kabi shahar va viloyatlarni egallab, Sharqiy Turkiston chegaralaridan Markaziy Afg'oniston hududlarigacha cho'zilgan yerlarda markazlashgan Shayboniylar Davlatiga asos soldilar.

Shayboniyxon tasarrufiga o'tgan barcha hududlarni uning qarindoshlari, o'zbek qabilalarining zodagonlari va harbiy qo'mondonlari o'rtasida taqsimladi. Ukasi Mahmud Sultonni Buxoroning, amakilari Kuchkunji Sulton va Suyun Xojalarni Toshkent bilan Sirdaryo bo'yidagi shaharlar hokimlari etib tayinladi. Samarqandni mamlakatning poytaxtiga aylantirildi. Bu bilan Tyemuriylar davri feodal tarqoqligiga, shahzodalar va amirlar o'rtasidagi o'zaro ur-yiqitlarga chek qo'yildi, mamlakat yaxlitligi ta'minlandi. Shayboniyxonni bu muvaffaqiyatlar ham qanoatlantira olmadi. 1508-1509 yillarda qozoqlar yurtiga hujum uyushtirda, Volga daryosi orqali Rossiyaga,

g'arbiy va janubiy-g'arbiy Eron va Hindistonga eltuvchi yo'llarni ham qo'lga kiritishni rejalashtirdi. Shayboniyxonni janub tomon yurishini Eron shohi Ismoil I to'xtatib, 1510 yil dekabrda Marv shahri yaqinida bo'lgan jangda ko'chmanchi o'zbeklar qo'shinini tor-mor keltirdi. Shayboniyxon halok bo'ldi. Mag'lubiyat natijasida ilgari Shayboniyxon davlati tasarrufida bo'lgan Xorazm va Xuroson (Balxdan tashqari) safoviylar hokimiyati ostiga o'tdi. Shayboniyxon tarixiy kitoblar yozgan, turk va fors tillarini mukammal bilgan. Ruhoniylar o'rtasida yuksak martabali kishi hisoblangan. U kishi hamma vaqt safarlarida kichgina go'zal kitobxonani o'zi bilan birga olib yurgan. Ulamolarni xizmatga olib munosib vazifalar topshirgan. Buxoro, Samarqand, Toshkent shaharlarida masjidlar va madrasalar qurdirgan.

Shayboniyxon tarqoq mulklarni qisqa vaqt ichida birlashtirib, siyosiy hokimiyatni markazlashtirishga erishdi. U o'zaro ichki urushlar kamayishiga, ochiq talon-tarojlarni, sug'orish ishlari buzilishini bartaraf etishga ma'lum darajada harakat qildi. Natijada, iqtisodiy yuksalishga erishildi. Shayboniyxon qo'lga kiritilgan yerlarni o'z qarindoshlariga, xizmat ko'rsatgan sultonlar va beklarga taqsimlab berdi. Ularning har biri udel boshqaruvini joriy qilib, mustaqil siyosat yuritishga harakat qilar edi. Natijada, boshqaruvning udel tizimi yaxlit davlatni mustaqil beklilarga bo'linib ketishiga sabab bo'ldi. Lekin, bunday separistik harakatlarga chek qo'yish maqsadida ayrim sultonlar va amirlarni bir udeldan ikkinchisiga o'tkazish tartibini ham joriy etdi. Bunday markazdan qochish harakatining oldini olishga qaratilgan tadbirlar ayrim hollarda istalgan natijani berish o'rniga hekimorning udel boshliqlari bilan bo'lgan kelishmovchiliklarni keltirib chiqardi. Shayboniyxonning pul islohotini o'tkazishi ham markaziy hokimiyatining siyosiy va iqtisodiy mavqeini kuchaytirishga va mahalliy hokimlar rolining zaiflashtirishga qaratilgan siyosat edi. Uning ichki siyosati, ayniqsa islohotlarni bu sohada muayan yutuqlarga olib keldi. Shayboniyxon vafotidan keyin uning vorislari o'rtasida taxt uchun bo'lgan kurash natijasida markaziy hokimiyat zaiflashdi va markazlashgan davlat parchalanishi boshlandi. Hirot shahri bilan Janubiy Xuroson Ismoil Safaviy qo'shinlari tomonidan ishg'ol qilindi. Xorazmda ham Eron shohi Ismoil Safaviy hukmronligi o'rnatildi. Lekin, unga qarshi uyushtirilgan fitna natijasida 1511 yilda hokimiyatga Berka sultonning o'g'li Eldare keldi va u Xorazm xoni deb e'lon qilindi. Toshkent udeli ham amalda mustaqil bo'lgan. Unga o'sha davrda Farg'ona, XVI asrning ayrim yillarida Sirdaryo bo'yidagi shaharlar ham kirgan. Shayboniyxonlar qo'lida faqat Movarounnahr saqlanib qoldi. Faqatgina Shayboniyxonning ukasi, Buxoro udelining hokimi Mahmud Sultonning o'g'li Ubaydullaxon (1533-1539) ta'sirli hukmdor bo'ldi. U Xurosonga bir necha bor harbiy yurish uyushtirildi, davlat chegarasini Shayboniyxon davridagi holatga keltirishga harakat qildi, udel hokimlarini ma'lum darajada bo'ysungan holda saqlashga muffaq bo'ldi. Buxoroning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatidagi ta'sirini kuchaytirib, Shayboniyxonlar davlatining poytaxtiga aylantirildi.

Lekin, Ubaydullaxondan keyin boshlangan siyosiy tarqoqlikning va udellar o'rtasidagi o'zaro kurashlarning oldini olishga faqat Abdullaxon (1557-1598) erishdi. U aslida Karmana viloyatining hokimi Iskandarning o'g'li bo'lib, Buxoro yaqinidagi Jaydar qishlog'ining ta'sirchan shayxlari himoyasida hokimiyatga keldi. Abdullaxon olib borgan tinimsiz urushlar natijasida 1573 yilda Farg'ona, 1584 yilda Samarqand, 1582 yilda Toshkent, Shoxruxiya, sayram, 1583 yilda Balx shaharlari egallandi. Shu davrga kelib u deyarli butun Markaziy Osiyo yerlarini o'z tasarrufiga o'tkazdi.

Navbatdagi harbiy yurishlar natijasida 1584 yilda Badaxshon, 1588 yilda Hirot va 1595 yilda Xorazm ham Abdullaxon II ixtiyoriga o'tkazildi.

Abdullaxonning o'ta qattiq qo'llik va uzoq olib borgan harbiy yurishlari natijasida feodal tarqoqlik hollariga chek qo'yilgan, katta hududda Shayboniylar davlatini qayta tiklashga erishilgan bo'lsa ham qator viloyatlar vayron etildi, tinch aholi qirg'in qilindi va ortiqcha azobu-uqubatlarga duchor bo'ldi. O'sha davrdagi dahshatli voqealar tarixini Hofiz Tanish Buxoriyning Abdullaxon hukmronligiga bag'ishlangan asari "Sharafnomaiy shoxiy" ("Abdullanoma") da o'z aksini topgan. Unda qayd etilishicha, hattoki Abdullaxon II o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida hukmron sulolaning barcha a'zolarini qidirib tashlagan. Natijada, 1598 yilda Abdullaxonning o'zi, 1599 yilda o'g'li Abdulmo'min o'ldirilgandan keyin Shayboniylardan taxtni egallaydigan biron bir vakil qolmagan va shayboniylar sulolasi sifatida barham topgan. Shayboniylarning qariyb 100 yillik hukmronligi davrida davlat tuzilishi o'ziga xos xususiyatga ega. Hokimiyat tepasida xon turgan. Davlat viloyatlarga bo'linib, ularga sultonlar boshchilik qilganlar(1.2).

Ubaydullaxon davrida (1533-1539) poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko'chirildi. Saroydagi devonlarga davlat mahkamasi va moliya ishlari boshlig'I devonbegi boshchilik qilgan. Xonlikdagi oily martabali lavozimlar quyidagilar bo'lgan: ko'kaldosh (bir ona sutini emgan ma'nosida) muassasalarni boshqargan va xon to'g'risidagi turli ijobiy va salbiy ma'lumotlarni yigish bilan shugullangan; mushrif - xonning kishilarga beriladigan inomlarni ro'yxatini va soliq yig'ish ishlarini olib borgan; qo'shbegi - xon va sultonlarning ov qilish anjomlari nazorati bilan shugullanuvchi shaxs; munshi (mirza) - xonning farmonlarini yozgan. Bundan tashqari xon saroyida mirshab, dodxox (aholi shokoyatlarini tinglovchi), miroxo'r (otxona boshligi), parvonachi (yorliqlar topshiruvchi) kabi lavozimlar ham bo'lgan. Xonlikda ruhoniylar: payg'ambar (Muhammad) avlodi hisoblangan sayidlar va payg'ambar xalifalari (Abubakr, Umar, Usmon va Ali) avlodi xo'jalarning, ayniqsa juybor xo'jalari ta'siri juda katta bo'lgan. Xo'ja Islom Juybari va uning o'g'li Xo'ja Saud xonlikning doimiy maslahatchilari edi. Hukmdorlarning siyosiy mavqeini mustahkamlashdagi xizmatlari uchun ularga katta yerlar in'om qilingan, xo'jalik ishlarini bajarishda dehqonlar va hunarmandlar safarbar etilgan, yangi binolar qurib berilgan, hattoki urushlarda qo'lga kiritilgan boyliklarning ham bir qismi berilgan. Shayboniylar Temuriylar davrida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni deyarli o'zgartirmadi. Agrar munosabatlar ham eskicha qoldirilib, asosiy "mamlakat - i - podshohi" yoki "mamlakat - i - sultoni" deb nomlangan davlat yerlarning egasi xon bo'lgan. Bulardan foydalangan feodallar yerlarning ishlash uchun dehqonlarga berganlar. Davlat yerlari foydalanish mazmuniga ko'ra suyurg'ol, iqta, tanho kabi shakllarga bo'lingan. Suyurg'ol hukmron sulola a'zolariga, yirik davlat arboblarga va xizmat ko'rsatilgan harbiy qo'mondonlarga, keyinroq esa taniqli ruhoniylar, shoirlar va olimlarga ham berilgan. Iqtadan shayboniylar avlodlari, yirik davlat va harbiy arboblardan foydalanganlar. Tanho XVI asrlardan yuzaga kelgan yangi yer egaligi munosabati bo'lib, u asosan kichik xizmatlarga berilgan. Vaqf o'sha davr yer egaligi munosabatlarining alohida ko'rinishi bo'lgan. Vaqf yerlari xon tamonidan musulmon ruhoniylariga berilib, ulardan tushadigan daromad asosan qozi-kalonlarga, mutavalilarga (vasiylarga) berilardi, madrasa va maktab ishlariga xarajat qilinardi. Yerning turli yo'llari bilan tarqatib berilishi davlat xazinasidagi daromadni

kamaytirgan, xon hokimiyatni bo'shlashtirgan va mamlakatda separatistik harakat yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

Temur va temuriylar davrida yuzaga kelgan murakkab soliq, to'lov va majburiyatlar Shayboniylar davrida ham saqlanib qoldi. Dehqonlar ham davlatga, hamn feodallarga soliq to'laganlar. Bu soliq "Malvat jihat" deb nomlangan. Yana dorug'a-soliq yig'uvchilar va viloyat hokimlari foydasiga, zakot - mol boshiga, zobitona - hukmdor foydasiga, tanobona - yer solig'i, madadi lashkar - harbiy soliq kabilar bo'lgan. Ekin ekiladigan yerlardan olinadigan hosilning 30-40% ini har-xil soliqlar va to'lovlar tashkil qilgan. Mamlakat aholisidan olinadigan soliqlar va to'lovlar soni 90 dan ortiq bo'lgan. Bundan tashqari kanal qazish, ariq tozalash, yo'l tuzatish kabi majburiyatlar soni ham yildan yilga ko'payib borgan. Majbur etishning mazkur iqtisodiy va boshqa xil yo'llari ko'pincha dehqonlar, hunarmandlar va shahar kambag'allarining noroziligiga, qarshilik ko'rsatish hollariga sabab bolardi. Bular ekin ekishdan bosh torish, qochib ketish, qashshoqlarning ochlik e'lon qilishi, ba'zan qo'zg'olonlar uyushtirish yoki feodal hokimlarni almashtirishga intilish kabi shakllarda namoyon bo'lardi. Fikrimizning isboto sifatida 1501 yili Qorako'lda qo'zg'olonchilar Shayboniy hukmdorga qarshi chiqib shaharni qo'lga olishini, Samarqand viloyatida xon farmonining e'lon qilinishi, XVI asr boshida Kosonda bo'lgan qo'zgoloni bostirish uchun shayboniy sultonlar 3 oydan ko'proq vaqt sarflashgan, 1587 Toshkentda, 1588 yili Xo'jand va Shoxruxiya shaharlaridagi ommaviy harakatlarni bostirish uchun Abdullaxon II ning aralashuvini ko'rsatish kifoya. XVI asrda hunarmandchilik bir muncha rivojlandi. Buxoro, Toshkent va Samarqand viloyatlarida temir va va cho'yandan turli xil asbob - uskunalar va buyumlar: qurol - yaroq, mis va jez idishlarni yasash, to'qimachilik, qog'oz, sovun va o'ymakorlik buyumlari ishlab chiqarish sezilarli darajada taraqqiy etdi. To'qimachilik kengayishi, bo'yoqchilik rivojlanishiga asos soldi. Bobur "eng zo'r qog'oz Samarqandda tayorlangan", deb yozadi. Qog'oz ipakdan, bilan kanop aralshmasidan ham paxtadan tayorlangan. "Qog'ozi ipak" eng oliy navli qog'oz hisoblangan. Ularni tayorlash siri hozirgacha bizga noma'lumligicha qolmoqda. Shayboniylar davrida tashqi va ichki savdo, xalqaro aloqalar kengayishini sezish mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra bizning shahrimizdagi savdogarlar Hindistonga, Eron, Qashqar va Nug'ay xonliklariga borib turli xildagi mol olib kelganlar.

II. Shayboniy Abdullaxon II va uning o'g'li Abdulmo'min o'ldirilganidan keyin Buxoro xonligi taxtini egallagan Pirmuhammadxon (Balx hokimi) ham, 1601 yili yirik amirlar va mahalliy kuchlarga bas kelolmasdan halok bo'ldi. Anoqrog'i, Samarqand hokimi Boqi Muhammadni Markaziy hokimiyat ixtiyoriga tutish niyatida 50 ming qo'shin bilan unga qarshi chiqqan Pirmuhammadxon Bog'ishamol atrofida mag'lubiyatga uchraydi. Buxoro xonligi taxti Boqi Muhammad qo'lga o'tdi. Shu tariqa Shayboniylar hukmronligi tugab, Buxoro xonligida Ashtarxoniylar sulolasi boshqaruviga asos solindi. Ashtarxoniylar kimlar? Ma'lumki, Oltin O'rda Davlati zaiflashishi jarayonida XV asrning 30-yillarida Volga bo'yi yerlarida Astraxon xonligi yuzaga kelgandi. "Astraxon" Ashtarxonning ruslashganidir. Ashtarxon esa aslida Xolim Tarxondir. Tarxon Turkiy xalqlar hayotida mavjud siyosiy unvonlardan hisoblanib, mashhur Xazar xonligi (7 - 11 asrlar) davrlaridanoq ma'lum. 1552 yili Rossiya Qozonni bosib olgach, 1554 yili Ashtarxon (Xoji Tarxon) xonligiga nisbatan bosqinchilik qiladi va uni boshqargan mang't sulolasi yengiladi. Uning o'rniga shu suloladan Darvishali o'tqaziladi. Lekin, Darvishali ham ruslarga bo'ysinishidan bosh tortgach, 1556 yili

xonlik katta kuch bilan Rossiya imperiyasi tasarrufiga o'tkaziladi. Ana shu ruslar bosqini natijasida Ashtarxon xonlaridan Yormuhammadxon o'g'illari Joni Muhammad Sulton, Abbos Sulton, Tursun Muhammad Sulton, Pir Muhammad Sultonlar bilan Movarounnahrda kelgan. Bu yerda Yormuhammadxon Abdullaxon II ning otasi Iskandarxon tomonidan yaxshi kutib olinib, hattoki qizi Zuhrabonuni Joni Muhammad Sultonga beradi. Ulardan Din Muhammad, Boqi Muhammad va Vali Muhammadlar tug'ilib, qarindoshlik aloqalari yuzaga keladi. Qarindoshlik hisobiga Boqi Muhammad Shayboniylar tomonidan Samarqand hokimligini qo'lga kiritadi. Oxir oqibatda Boqi Muhammad davlatni boshqarish ishini shayboniy Pirmuhammadxondan tortib oladi va Ashtarxoniyalar sulolasining bir yarim asrlik 1601-1753 faoliyati boshlanadi. Yangi sulola o'zbek vadlatchiligi boshqaruviga biron - bir keskin o'zgarish kiritmagan bo'lsa-da, mamlakat yaxlitligini saqlashga qaratilgan siyosat olib bordi. Bu borada Boqi Muhammadxon (1601-1605) Marv, Xorazm, Balx kabi yerlardagi siyosiy kuchlar boshboshdoqlikni oldini olish harakatini qilib ko'rdi. U 1602 yili Balx harbiy yurishini uyushtirib, uni o'z tasarrufiga o'tkazadi va ukasi Vali Muhammadga tortiq qiladi. Boqi Muhammad vaqtni qo'ldan bermay Andxiya, Shibirg'on, Chechakti, Maymana, Murg'ob daryosigacha bo'lgan hamda Bolg'on, Badaxshon va Xisorni Movarounnahr tarkibiga kiritadi.

Imomqulixon (1611-1642) davlatni birmuncha kengaytirishga muvaffaq bo'ldi. U Toshkentni qozoqlardan tortib oldi va unga o'g'li Iskandar sultonni hokim etib tayinladi. Bu harbiy harakatda unga ukasi Balx hokimi Nazar Muhammad Sulton ham qatnashgan. Imomqulixon qabila boshliqlarining hukmronligini bir muncha zaiflashtirishga erishdi. Eron va Hindiston (Boburiylar) bilan ko'proq elchilik aloqalari olib borilgan. Uning davrida mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy barqarorlikni manbalardan olingan quuidagi so'zlardan bilishimiz mumkin: "Imomqulixon nochorlar ishini yengillashtirdi, arz bilan kelganlarni qaytarmadi, uning zamonasida na kambag'al, na bechora qolmagandi. Chiqargan buyruqlari ijrosi borasida amaldorlarga qattiq turdi, qorong'i tushishi bilan oddiy kiyim kiyib vaziri va qo'rchi bilan bozoru mahallalarni aylanib, oddiy xalqning haqiqiy turmush ahvolidan boxabar bo'lib turardi, buni xalq bilardi. Shuning uchun ham uning hukmronligi yillarida mamlakatda biron marta ham isyon tig'i ko'tarilmadi". Lekin, baribir ayrim qabilalarning amirlari markaziy hokimiyatni tan olmasdi. Masalan, Samarqand hokimi Yalantushbiy qudratli feodal bo'lib, o'zining ixtiyoridagi kattagina qo'shin bilan qo'shni viloyatlarga yurishlar qilgan, mustaqil shartnomalar tuzgan. Uning mustaqil farmoyishiga ko'ra Samarqandda ikki mashhur madrasa -Sherdor va Tillaqori madrasalari qurilgan.(3.2)

Qo'zi ojizlanganligi sababli Imomqulixon Buxoro taxtini Balxda o'ttiz yildan beri hukmronlik qilayotgan ukasi Nazr Muhammadxonlar (1642-1645) beradi. U davlat ishlarida hak qiluvchi rol o'ynaydi. Kishilar bilan til topisha olmaganligi va ko'chmanchilar bosqinining oldini olinmaganligi sababli aholining yalpi noroziligi kelib chiqadi. Nazr Muhammadga qarshi kayfiyatdagi amirlar fitnasi natijasida xonlik taxtiga o'g'li Abdulaziz o'tkazildi (1645-1680).

Abdulazizxon davrida kuchli Markaziy hokimiyatning yo'qligidan va davlat porakandaligidan foydalanib Xiva xoni lashkarlari Buxoro xonligi shaharlari va vohalariga bostirib kira boshladi. Ular 1662 yilda Buxorogacha yetib kelishga ulgurdi. Keksayib qolgan Abdulaziz Xiva qo'shinlariga va feodallar xurujlariga zarba berishga ojizlik qilib, taxtdan ukasi Subxonqulixon foydasiga (1680-1702) voz kechishga majbur

bo'ldi. U qatag'on qabilasidan bo'lgan otaliq Mahmudbiy yordamida tyez-tyez hujum uyushtirayotgan Xivaliklarni quvib yuborishga erishdi. Buning evaziga Mahmudbiy Balx va Badaxshon hokimi etib tayinlandi. U deyarli mustaqil ish tutdi va tezda Subxonqulixon bilan hisoblashmay qo'ydi. Subxonqulixon mahalliy qarshiliklarni sindira olmadi. Tinimsiz olib borilgan urushlar mehnatkash xalq boshiga katta yuk bo'lib tushdi. Aholidan olinadigan soliqlar va poraxo'rlik nihoyatda avj olib ketdi. Xazina bo'shlab qolganida uni alohida qo'shimcha soliq olish yo'li bilan to'ldirishga harakat qilindi. Ma'lumotlarga ko'ra, Subxonqulixon alohida yeti yillik soliqni oldindan to'lashni talab qilgan. Boshboshdoqlik va mamlakat xo'jaligi butunlay izdan chiqqan sharoitda Subxonqulixonning o'g'li Ubaydullaxon taxtga chiqdi (1702-1711). U feodallarning o'zboshimchaligiga chek qo'yishga, markaziy hokimiyatni kuchaytirishga harakat qilgan bo'lsa ham mamlakatdagi eng asosiy viloyatlar va shaharlarda sulola namoyandalari emas, tobora qudratga to'lib kelayotgan amirlar hukmronlik qilardi. Masalan: Samarqand, Shahrisabz, Qarshi, O'ratepa, Hisor, Balx va boshqalarda. 1711 yili Ubaydullaxon ham suiqasd qurboni bo'ldi. Bu to'g'rida Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma" asarida to'liq ma'lumotlar saqlangan.

Mamlakatda mahalliy kuchlar hamda yirik amirlar boshboshdoqligi so'nggi Ashtarxoniy hukmdir Abdulfayzxon (1711-1747) zamonida ham davom etdi. Bundan foydalangan Afg'oniylar sardori Nodirshoh 1770 yili Ashtarxoniy larga hal qiluvchi zarbani berdi. Garchi Nodirshoh Abdulfayzxonni o'z o'rnida qoldirgan bo'lsa ham amalda hokimiyat boshqa bir mahalliy sulola – mang'itlari namoyandalari Muhammad Hakimbiy va uning o'g'li Muhammad Rahimbiy qo'liga o'tadi. Muhammad Rahimbiy buyrug'i bilan 1747 yili Abdulfayzxon qatl etilib, uning o'rniga o'g'li Abdulmo'min xon deb e'lon qilindi. Ammo, amaldagi hokimiyat Muhammad Rahimbiy ixtiyorida qolaverdi. Bir yildan keyin Muhammad Rahimbiy bu qo'g'irchoq xonni ham o'ldirib, o'rniga marhumning ukasi Ubaydulla sultonni o'tkazib tez orada uni ham yo'q qiladi. Shu tariqa Ashtarxoniy lar sulolasi faoliyati barham topadi. Ashtarxoniy lar ham Shayboniy lar davridagidek mamlakatni viloyatlar va tumanlarga bo'linib boshqargan. Ularga asosan xon xonadonining vakillari va o'zbek zodagonlari boshchilik qilgan. Bu davrda markazdagi va joylardagi hokimiyat bir idora - dargohda mujassamlashib borgan. Xonlar cheksiz hokimiyatga ega bo'lsa ham viloyat hokimlari va qabilalarning obro'li oqsoqollarining o'z tevaraklariga birlashtira olganlaridagina muvaffaqiyatli siyosat yurgiza olganlar. Lekin, viloyatlardagi ayrim hokimlar qudratining oshib borishini, hattoki bo'ysinmay qo'yishni Ashtarxoniy lar hukmronligining so'nggi davrlarda sezish qiyin emas. Yalangtushbiy Samarqand hokimi, otaliq Muhammad Rahimbiy (mang'itlar hokimi) va boshqa ayrim amirlar o'zlari boshliq qabilalarning harbiy kuchlariga tayanib, mustaqil siyosat olib brogan va xonlarning butun faoliyatini nazorat qilib turgan.

Ulamolar orasida shayxulislom, ilohiyot fani bilan shug'ullanuvchi olimlar, qonunshunoslar, madrasa muddarislari alohida o'rin egallanganlar. Sadrlarning asosiy vazifasi in'om etilgan mulklar-vaqflarni boshqarar edi. Vaqf muassasalarining boshliqlari - mutavalilar ularga bo'ysinganlar. Ularning vazifalari va huquqlari vaqf yorlig'i shartlarida bayin qilinardi. Ular vaqf xo'jaligi daromadining ma'lum qismini olishardi. Sudlov ishlarini, qonunlarga rioya qilinishini shayxulislom ta'minlangan. Bu lavozim avloddan-avlodga o'tgan. Buxoro xonligi poytaxtining qozisi davlatning bosh ruhoniysi, oliy sudi (qozi kalon, qoziyi kuzzot) hisoblanardi. Har bir viloyatda bir

nafardan qozi bo'lgan. Ularni amirning o'zi tayinlanardi. Qozi din masalalari bo'yicha ham, oila, meros va qisman jinoyat ishlariga oid masalalar bo'yicha ham qarorlar qabul qilgan. Bu qarorlar Qur'on oyatlariga, shariatga asoslangan. Sudlov ishlarida muftiyning roli katta bo'lgan. U fiqh (hudud) va hadisni yaxshi biladigan huquqshunoslar orasidan tayinlanardi. Muftiyning vazifasi turli diniy-huquqiy masalalar yuzasidan shariatga asoslanib fatvo chiqarishdan iborat edi. Aholi turmushida muxtasib muhim o'rin egakkangan. U yaxshilikka ko'maklashib, yomonlikning oldini olishga qaratilgan qonunni himoya qilish bilan shug'ullangan. Bozorda tartib bo'lishini kuzatish, savdo qoidalariga rioya qilish, bozordagi tosh-tarozilar to'g'riligini ta'minlash muxtasib vazifasiga kirgan. Muxtasib yana musulmon axloqi me'yorlariga rioya qqilinishini kuzatish, ichkilikbozlik, sudxo'rlik va shu singarilar payini qirqishi zarur edi. Davlat xizmatidagi amaldorlar asosan aholida olinadigan mablag'lar hisobiga yashagan. Buxoro xonligi devonidan xizmatchilar aniq belgilangan ish haqi olishmagan. Ularga yer uchastkasi savdo-hunarmandchilik muassasasi va boshqalardan olinadigan daromadlarning bir qismi ajratilgan. Dehqonlikning barcha sohalari (g'allachilik, paxtachilik, polizchilik, bog'dorchilik) doimiy harakatda bo'lgan. O'sha paytlarda bug'doyning 20 xil navi bo'lgan. Zarafshon, Qashqadaryo va Farg'onada bog'dorchilik mashhur bo'lgan. Asosan olma, o'rik, shaftoli, olxo'ri, olcha, bodom, yong'oq, nok, uzum va boshqalar etishtirilgan. Zahiriddin Bobur: "Andijon nokidan yaxshiroq nok bo'lmaydi", -deb yozgandi. Ana shu mevalarning ko'plari quritilgan shaklda boshqa mamlakatlarga yuborilgan. Buxoroning olxo'risidan shifobaxsh meva sifatida foydalanilgan. Hunarmandchilikda ham ilgaridek an'anaviy yo'nalishlar: to'quvchilik, temirchilik, qurolsozlik, duradgorlik, qo'nychilik, zargarlik, qurolsizlik kabilar ishlab turgan.

III. XVIII asr ikkinchi yarmidan Markaziy Osiyoda Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklaridan iborat uchta mustaqil davlat birlashmasi to'la ravishda faoliyat ko'rsata boshladi.

1753 yili Muhammad Rahimbiy o'zini Buxoro amiri deb e'lon qildi. Shu bilan mang'itlar sulolasi hukm surgan Buxoro amirligiga asos solinadi. Muhammad Rahimbiy to'rt yil ichida Miyonqal'a, Nurato, Hisor, Qubadiyon, Boysun va Shaxrisabz mustaqil feodallariga qarshi bir nesha marta qilingan harbiy yurishlar natijasida ularni o'ziga bo'ysindirishga erishdi. 1753 yilda u yana Samarqand, Urgutga, Zarafshonning yuqori oqimiga, O'ratepa va Jizzaxga yangi yurishlar uyushtirdi. Uch yil davom etgan urush harakatlari natijasida Panjakent, Falgar, Qo'shtut, Jizzax va Zominni Buxoroga bo'ysindirdi. Faqat chingiziylar xon unvoniga ega bo'lishlari mumkinligini e'tiborga olib, Rahimbiy Abulfayzxonning qiziga uylandi va xon avlodlari bilan qarindosh tutindi. Qo'qon, Toshkent, Marv, Balx va Qunduz mulklari ham Rahimbiy Buxoroning qonuniy hukmdori deb tan oldi. Shundan keyin 1756 yili mangit, baxrin, xitoy-qipchoq va saroy urug'lari amirlari Muhammad Rahimbiyni chingiziylari odatiga ko'ra oq qizida ko'tardilar. Muhammad Rahimbiy Buxoro amirligida o'zining yakka hokimligini o'rnatishga harakat qilishga qaramasdan Hisor bekligi undan ajralib chiqib qoldi, 1757-1758 yillarda Hisor, Denov, Dushanbe, Boysun va Termizga qilgan harbiy yurishlar katta vayronagarchiliklarga sabab bo'ldi. Xorazm aholisini o'z hokimidan norozi ekanligidan ustalik bilan foydalangan Rahimbiy Xivaga o'z odamini o'tkazdi va Xorazm ham ma'lum vaqt amirlik ixtiyorida bo'ldi. Muhammad Rahimbiyning tinimsiz urushlari ham mamlakatni to'la birlashtirish imkonini bermadi.

Tez orada bu ichki nizolarga amirlikka vassal hisoblangan O'ratepa uchun Qo'qon xoni Olimxon bilan boshlangan urush va qo'qonliklarning Jizzax, Zomin, Xo'jand, O'ratepaga qilgan hujumlari qo'shildi. Ahmad Donishning Buxoro amirlari tarixiga bag'ishlangan "Risola" asarida yozilishicha, "Amir Haydar hukmronligi davrida har 3-6 oyda uzluksiz feodal urushlari bo'lib turibdi". Amir Haydar vafotidan keyin Buxoro taxtiga uning uchinchi o'g'li Nasrullo (1827-1860) chiqdi. Nasrulloga to'siq bo'lmasligi uchun Haydarning katta o'g'illari Husayn zaharlangan va Umar qatl etilgan edi. Amir Nasrullo mamlakatdagi feodal tarqoqlikni to'xtatishni keskin kurashdan boshladi. U taxtga o'tirgandan keyin bir oy ichida har kuni 50-100 kishini qatl qilib turdi. Harbiy yurishlar paytida bo'ysinmagan shahar va qishloq aholisini qilichdan o'tkazdi. Nasrullo Buxoroda oddiy odamlar orasidan to'plangan va mashqdan o'tkazilgan sarbozlar, ya'ni muntazam piyoda qo'shin tuzdi. U zamonaviy artileriya vujudga keltirishga harakat qildi. Amir Nasrullo SHahrisabz bekligi bilan uzoq kurash olib borib, 1856 yildagina uni zabt etdi. U qo'shni Qo'qon va Xiva xonliklari hisobiga o'z hukmronligini kengaytirishga harakat qildi. U 1842 yilda Qo'qon xonligini qo'lga kiritib, Muhammad Alixonni qatl ettirdi. Amirning Qo'qon xonligi bilan bandligidan foydalangan Xiva xoni Olloqulixon o'z qo'shinlarini Chorjuyga boshlab keldi. Bundan xabar topgan Nasrullo Buxoroga qaytishga majbur bo'ldi. Buxoro amirligi bilan Xiva xonligi o'rtasidagi bunday jiddiy munosabat Rahimqulixon hukmronligi davrida ham saqlanib keldi va nihoyat Nasrullo Xazorasp qamalida mag'lubiyatga uchradi. 1843 yilda Amir Nasrullo Xo'jand va O'ratepani qo'lga kiritish uchun Qo'qon xonligiga yana bostirib kirdi. Qisqasi bu shaharlar o'n yil davomida doimo qo'ldan-qo'lga o'tib turdi.

XVI asr boshlarida Elbarsxon (1511-1523) tomonidan tashkil etilgan Xiva xonligida hukmdorlar tyez-tyez almashinib turgan. Uning asosiy sababi mamlakatda xonavayronlikni yuzaga keltirgan o'zaro urushlar bo'lgan. Bundan foydalangan Buxoro xoni Abdullaxon 1593 yilda Xiva xonligini bosib oladi. Lekin, Abdullaxon II ning o'ldirilishi munosabati bilan 1598 yilda Xiva xonligi yana o'z mustaqilligini qo'lga kiritadi. Xonlikka qo'shni bo'lgan qalmiqlar, qozoqlar, ural kazaklar ham har safar muvaffaqiyatsiz bo'lsada bir necha bor hujum uyushtirib turganlar. Ayniqsa, Arab Muhammad davrida xonlikdagi o'zaro urushlar yuqori nuqtaga chiqib 1623 yili Turkmanlar yordamida xonlik taxtini Asfandiyorxon (1623-1643) egallaydi. Bu davrda ham Xiva lashkarlari Buxoro xonligini vayron qilarli darajadagi qator harbiy yurishlar qildi. Ana shunday bosqinlardan oxirgisini 1662 yilda Xiva xoni Abulg'ozni amalga oshirildi. U Buxoro xoni Abdulaziz bilan sulh tuzadi. Buxoroga hujumlar Abulg'ozining o'g'li Anusha davrida (1663-1687) ham davom etdi. U hattoki 1685 yili Samarqandni ham zabt qildi. Lekin, G'ijduvon yaqinida tor-mor qilindi. Buxoro xoni Subxonqulixon Anushaxoniyning o'g'li Ernak boshchiligida buxoroliklarning fitnachi guruhini tashkil qilib, 1687 yilda Anushxonning ko'zini ko'r qilinishiga erishdi. Fitnachi guruh 1688 yili Subxonqulixonga vakillar yuborib, Xivani o'z tasarrufiga olishni iltimos qildi. Xon eshikog'a unvoniga ega bo'lgan SHohniyozni Xiva hukmdori etib tayinladi. Shohniyoz Xiva xonligi mustaqilligiga erishish va Buxoroga bo'lgan qaramlikdan qutilish maqsadida imperator Pyotr I ga yashirin elchi yuborib, u orqali xonlikni Rossiya tobeligiga qabul qilinishi so'raydi. Pyotr I 1703 yilda yangi Xiva xoni Arab Muhammadga (1707-1714) yorliq yuborib xonlikning tobe'ligini tasdiqladi lekin amaldagi tobelik bo'lmadi.

Sherg'ozixon davrida (1715-1728) Xiva xonligida feodal mojarolar shiddatli davom etishdan foydalanib Pyotr I uyushtirgan À.Bekovich CHERKASSKIY ekspeditsiyasi xonlikni Rossiya ta'siriga o'tkazish yo'lidagi dastlabki harbiy urinishini qilib ko'rdi. Lekin, xonlik Cherkasskiyning 6000 kishilik otryadining to'laligicha qirib tashladi va ancha vaqtgacha Rossiya tomonidan hujum bo'lish xavfi ostida yashadi. Shu orada Xiva xonligi Xurosonga bir necha bor uyushtirgan harbiy yurishni va Buxoro tomoniga o'tib Nodirshoh qo'shinlariga qarshi chiqishi bilan o'zining janubiy xavfsizligining ham keskinlashtirdi va nihoyat Nodirshoh Buxoroni o'z tasarrufiga o'tkazgandan keyin Xorazmga hujum qilishni boshladi. U Hazorasp va Xonqa janglarida xivaliklar ustidan g'alaba qozondi. Xiva xoni Eldorxon (1728-1740) o'ldirildi. Xivada Nodirshoh noibi tayinlanib va harbiy garnizoni qoldirilib, Eron boshqaruv tizimi o'rnatildi. Ammo ularni hokimiyati xonlikni barcha qismini o'z ichiga ola olmadi va notinchlik ko'rdi. SHu paytdan boshlab tyez-tyez o'zgarib turgan xonlar aslida hokimiyatni qo'ldan berib qo'yidilar, ularning nomidan 1763 yildan boshlab o'zbeklarning qo'ng'iroq qabilasidan bo'lgan inoqlar hukmronlik qildilar. Ular badavlat shaharliklar va ruhoniylarni qo'llab quvvatlashga erishdilar. CHunki, mamlakat iqtisodiyoti feodal tarqoqligidan zarar ko'rayotgan edi. Markaziy hokimiyat zaifligi sababli aholi ko'plab bosqinlarning azobu uqubatlariga bardosh bera olmasdan qo'shni yurtlarga qochib ketmoqda edi. Sug'orish inshootlari qarovsiz qolib ko'pgina yerlar tashlandiq holatga tushib qolgandi. Xiva shahri aholisi soni ham keskin qisqargandi. Ana shu zarurat tufayli inoq Muhammad Amin (1763-1790) 1770 yilda Turkmanlarning, 1782 yilda esa buxoroliklarning hujumlarini daf etib, 1804 yildan Xivada qo'ng'iroqlar sulolasining amaldagina emas rasmiy ravishda ham hukmronligini ta'minladi.

Muhammad Rahim I (1806-1825) Xiva xonligini birlashtirishni nihoyasiga etkazdi. U soliq islohoti o'tkazdi, o'lponlarni muntazam undirush yo'li bilan davlat daromadini oshirdi, bojxona joriy etdi va oltin pul zarb qilishni yo'lga qo'ydi. U feodallar o'rtasidagi mojarolarga chek qo'yib, ularning yerlarni birlashtirdi. Muhammad Rahim 1811 yilda Orollik feodal guruhlar qarshiligini sindirib, ularni o'z itoatiga o'tkazdi. Xonlik qaraqalpoqlarni ham bo'ysundirdi. Xonlikning Xiva, Yangi Urganch, Xazorasp, Xo'jayli, Toshhovuz, Gurlan, Xonqa kabi shaharlarida turli hunarmandchilik sohalari rivojlandi, ular savdo markaziga aylandi. Yangi Urganch bozori chet ellik savdogarlar bilan gavjum bo'ldi. XIX asrning 40-yillardagi ma'lumotlarga ko'ra, Xorazmga tegishli yerlar 70 tumanga, 20 bekklik va viloyatlarga bo'lingan. Xonlik chegaralari barqaror bo'lmagan, u davlatdagi va qo'shni mamlakatlardagi siyosiy vaziyatga qarab o'zgarib turgan. Xonlik qozoq xonlarining yerlari, Eron va Buxoro amirligi bilan chegaradosh bo'lgan. XVIII asrdan boshlab uning Rossiya tasarrufidagi yerlar bilan ham chegaralari vujudga ktdi. XIX asrning birinchi yarmida Said Muhammad Rahimxon II davrida Xiva xonligida 900 mingdan ortiq aholi yashagan.

XVIII asr boshida Buxoro xonligida Ashtarxoniylar hukumronligi tanazzuli tezlashgan sharoitda Farg'ona vodiysida Qo'qon xonligi tashkil topdi. Dastlab ming qabilasidan chiqqan Shohruhbiy 1710 yilda Chodak xo'jaliklari hokimiyati o'rniga Buxoro xonligidan mustaqil Farg'ona deb nomlangan mulkga asos soladi. Uning o'g'li Muhammad Rahimbiy (1721-1740) davrida Farg'ona mulki ancha kengayib, Abdulkarimbiy (1740-1760) markaziy hokimiyatini mustahkamlash uchun feodallar o'zboshimchaligiga chek qo'yishga intildi. Norbutabiy (1769-1800) davrida Chust va Xo'jand beklari qarshiligi bostiriladi..

Norbutabiyning o'g'li Olimbek (1800-1809) Qo'qon xonligidagi feodallar o'zboshimchaligini bostirishga erishdi. U harbiy islohot o'tkazdi, 1803-1809 yillarda Toshkent, Chimkent va Sayramni Qo'qon xonligi tasarrufiga o'tkazdi. Olimbekning markazlashgan davlatga aylantirish uchun qilgan harakati ba'zi feodal guruhlar o'rtasida keskin norozilikni keltirib chiqardi. Natijada, u ukasi Umarxon boshliq fitnachilar tomonidan 1809 yilda o'ldirdi. Umarxon (1809-1822) xonlik taxtini egallagach Turkiston shahrini va qozoq dashlarining anchagina qismini Qo'qon xonligiga qo'shib oldi. Aniqrog'i, Uguztog'dan to Xazar (Kaspiy) dengizi sohillarigacha bo'lgan cho'l yerlar Umarxon hukmronligiga bo'sundirildi. Toshkent, Buxoro va Xivadan Orenburgga boradigan karvon yo'llari tutashgan joyda Oqmachit qal'asi qurildi. Qo'qon xonligi Umarxonning o'g'li Muhammad Alixon (1822-1842) hukmronligi davrida yanada kengaydi. Bu safar Farg'ona vodiysining janubida mustaqillik bilan boshqarilayotgan Qorategin, Darboz va Kulob yerlari egallandi. U yana 1826 yilda Sharqiy Turkistondan musulmonlarini Farg'onaga majburan ko'chirib yuborayotganligi va ho'jalar kuvgin qilinayotganligi to'g'risidagi xabar tarqalishi munosabati bilan qilingan harbiy yurish munosabati bilan Oqsuv, Qashg'ar, Tarkiyent, Xuton shaharlaridan soliq olish huquqini qo'lga qiritdi. 70 mingga yaqin Sharqiy Turkistonlik musulmonlarni ko'chirib kelyib Shahriston va uning atrofidagi qishloqlarga o'rnatirdi.

Bu davrda Markaziy Osiyodagi xonliklar va amirliklar o'rtasida o'zaro qurashlar yana avj oladi. Masalan, Qo'qon hukmdori Alixonning eng obro'li a'yonlarni ta'qib qilishi va qatl qilishidan narozilik bo'lgan feodallar va ruhoniylar oshkora bosh ko'tarishga botina olmay Buxoro amiri Nasrulloga yordam so'rab murojaat qiladilar. Alixonning og'ir gunohi - ikkita tug'ishgan singlisi bo'lgani holda o'gay onasiga uylangani haqida uydirma tarqatishadilar. Din pyeshvolari uni xudodan qaytgan va dindan chiqqan kofir hukmdor sifatida xalqqa ma'lum qiladi. 1840 yildagi Qo'qon xonligi bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi urush - Alixon mag'lubiyati bilan tugallanib, Ho'jand Nasrullo tasarrufiga o'tdi, xonlik amirlikka tobeligini tan oldi. Lekin, Nasrullo qo'shinlari jo'nab ketishi bilan Alixon yana o'zi bilan kelisha olmagan kishilarni ta'qib va qatl qilishni davom ettirdi. Natijada, Qo'qonda norozilik g'alayonlari boshlandi. 1842 yilda Nasrullo qushinlari yana rahbarsiz qolgan Qo'qonga kelib Alixon va unga yaqin kishilarni qatl ettiradi. Shuni qayd etish joizki, Amir Nasrullo qoldirgan noib, amaldorlar va askarlar qisqa vaqtda Farg'ona aholisiga qattiq zulm o'tkazganligi va qo'plab talonchilik ishlarini amalga oshirganligi sababli 1842 yil yozida Qo'qonda qo'zg'olon ko'tarilib, Buxoro amirligi hukmronligi o'rniga Talasda yashayotgan Olimxonning jiyani Sherali xon deb e'lon qilindi. Buxoro noibi qochib kyetdi, buxorolik qo'shin va amaldorlar qirib tashlandi. Bunga javoban 1843 yili amir Nasrullo o'z mavqeyini tiklash maqsadida xonlikka yana kattagina qo'shin bilan kelib Qo'qonni 40 kun qamal qildi. Lekin, Xiva xoni Olloqulixonning Buxoroga hujum qilganligi sababli Nasrullo qaytib kyetishga majbur bo'ladi. Xo'jand va Toshkiyent shaharlari yana Qo'qon xonligi tasarrufiga o'tadi va xonlik Umarxon davridagi chegaralarini tiklaydi. Lekin, Sheralixonning taxtga kelishiga va Qo'qonning amir Nasrullo tartibotidan qutulirishda yordam bergan qipchoqlar xonlikdagi asosiy lavozimlarni egallashga kirishdilar. Bunga Sheralixon yo'l qo'ymagach qipchoqlar qo'zg'olon ko'tarib, Qo'qon shahrini egallaydi. Natijada, qipchoq oqsoqollari kengashi Sheralixonni taxtda qoldirsa ham qipchoqlar boshlig'i Musulmonqulni amirlashkar (bosh harbiy qo'mondon) etib tayinlaydi. Xonlikdagi asosiy lavozimlarni endi qipchoqlar egallab, hokimiyatni asosan

ular boshqara boshladilar. SHERALIXON qo'g'irchoq hukmdor bo'lib qoldi. Ana shu davrda aholidan soliq undirishning kuchayishi Qo'qon xonligining bir qator tumanlarida qo'zg'olonlar boshlanishiga sabab bo'ldi. 1845 yilda Musulmonqulning O'shdagi qo'zg'olonni bostirish bilan bandligidan foydalangan Alixonning o'g'li Murod o'zini xon deb e'lon qilishga ulgurdi va SHERALIXONNI qatl etdi. Musulmonqul darhol O'shdan Qo'qonga qaytib, Murodni o'ldirdi va uning o'rniga SHERALIXONNING 13 yashar o'g'li Xudoyorxonni taxtga o'tkazdi. Musulmonqul yosh xonning xomiysi bo'lish bilan chyegaralanmasdan qaynotasi ham bo'lib oldi. Aslida hokimiyat Musulmon qo'lida to'planib, davlatni asosan qipchoqlar boshqara boshladi. Lekin, Xudoyorxon voyaga etgach, 1853 yili Musulmonqulning Toshkent, O'ratepa va Xo'jandga muvaffaqiyatsiz harbiy yurishlari davrida mahalliy aholi yordamiga tayanib fitna uyushtirdi va 20 mingdan ortiq qipchoqlar qirib tashlandi. Musulmonqul Qo'qonda qatl etildi, qipchoq yerlari musodara qilinib, egallangan lavozimlardan chyetlatildi.

Bularning barchasi mamlakat iqtisodiyotiga juda og'ir ta'sir ko'rsatardi: xo'jaliklar tushkunlikka uchrar, dehqonlar va mayda hunarmandlar xonavayron bo'lar, ko'p oilalar boquvchisiz qolardi. Natijada, xonliqda isyonlar va xalq harakatlari ko'tarilgan. Masalan, 1745-1746 yillarda Farg'ona vodiysisiga qalmiqlarning talonchilik yurishlariga qarshi hukmdorlar zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirmaganligi uchun qo'zg'olon ko'tariladi. Bundan qipchoq zodagonlari foydalanishga harakat qilishdi. Buning evaziga Qo'qon xoni Qipchoqlarni qirg'in qildi. 1799 yili Chust hokimi Buzrukxo'ja Norbutabiyga qarshi chiqdi. 1808 yili toshkyentliklar Alimxonning og'ir soliqlariga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. Ana shunday sabab bilan 1809 yili Toshkyent atrofidagi ko'chmanchi qozoqlar norozilik harakati uyushtirdi. Umarxon siyosatiga qarshi 1821 yilda Tentak to'ra boshchiligida Sayram va Chimkyenda qo'zg'olon bo'lgan. 1832 yilda qirg'izlar qo'zg'oloni, 1839 yilda xalqning og'ir ahvoli sababli ko'tarilgan Qorategindagi qo'zg'olonlar ham ilgarigidek katta harbiy kuch bilan bostirilgan.

Davlat tepasida xon, amir, qushbegi, sardor, bast, mahram (mansabdorning xususiy xizmatchisi) va boshqa xonning xos kishilari turgan. Ulardan keyin mingboshi, yuzboshi kabi navkarlarga - qo'shinlarga boshchilik qilgan shaxslar o'rin olgan. Navkarlar dehqonlardan olingan va harbiy xizmatni uzoq muddatda o'taganlar. Xonliklar ko'p tarafdin Amir Temur va Temuriylar davlatini davom ettirganlar. Lekin, shayboniylar o'zlaridan avvalgi boy madaniyatga munosib voris bo'lolmadilar. Me'morchilik sohasida shayboniylar temuriylar an'anasini biroz davom ettirgan bo'lsalar ham, ilm va umuman madaniyat sohasida davom ettira olmadilar. Hatto, qo'shni safaviylar va boburiylar davlatida bo'lgan o'sish shayboniylar davlatining chekkasidan aylanib o'tdi. Natijada, XVI asr oxiriga kelib, shayboniylar davlatida katta madaniy qoloqlik yuzaga keldi. Bu qoloqlik fan, texnika, san'at va siyosatga ham ta'sir ko'rsatdi. Markazdan boshqarish susayib, mahalliy beklar kuchaydi, separatizm va tarqoqlik yuzaga keldi. XVI asrda Xorazm, XVIII asr boshida alohida xonliklarga ajraldi. Toshkent bekligi ham nisbatan mustaqil edi.

O'zbek xonliklarida yuz bergan qoloqlik qo'shni musulmon mamlakatlaridan ham kuchliroq edi. Shunday bo'lsa-da, XIX asr boshida uchala xonlikda biroz madaniy yuksalish yuz berdi. Lekin, asosiy illat - boshbashdoqlik kuchayib bordi. Bu illat shu qadar kuchli ediki, o'tgan asrning 60 yillarida Toshkent va Qo'qon xonligiga nisbatan rus istilosi boshlanganda, Buxoro amirligi ham, Xiva xonligi ham yordam bermadi. O'sha davrdagi xonliklardagi vaziyat shuni taqozo qilar ediki, agar butun kuch va

imkoniyatlarni safarbar qilganda, birgina Buxoro amirligining o'zi rus istilosiga to'siq bo'la olardi. Afsuski, noshud amir va xonlar bu qadar yuksaklikka ko'tarila olmadilar, ularning shaxsiy, mahalliy manfaatlari umummilliy manfaatlaridan ustun kyelgandi. Mana 130 yillik mustamlakachilik davri tugadi, dushman deyarli daf bo'ldi. Ko'p og'ir damlarni boshimizdan kechirdik. Shu davrda bizni har usullar bilan egib-bukib ko'rdilar, lekin sindira olmadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov I.À. Istiqlol va ma'naviyat. T; "O'zbekiston", 1994.
- 2.Karimov I.À. Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yiligiga bag'ishlangan tantanali marosimlardagi tabrik so'zi. "Xalq so'zi" 1997, 21 oktyabr soni
- 3.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008.
- 4.Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – T.: "O'zbekiston", 2005.
- 5.Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: "O'zbekiston", 2007.
- 6.Àxmedov B. Tarixdan saboqlar, T; "O'qituvchi", 1994.
- 7.Àxmedov B. O'zbek ulusi. T; "Nur", 1992.
- 8.Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T; "Sharq", 1998.
- 9.Bayoniy M. Shajarai Xorazmshohiy. T; "G'. G'ulom" 1994.
- 10.Bobobekov X.N. Qo'qon tarihi T; "Fan" 1996.
- 11.Vamberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T; "G'.G'ulom" 1990.
- 12.Hoshimov I. Hindistonda Boburiylar sulolasi saltanati. T; "O'qituvchi" 1996
- 13.Ibrat I. Farg'ona tarixi. T; "Kamalak" 1991.
- 14.O'zbekiston tarixi va madaniyati. T; "O'qituvchi", 1992.

9-MAVZU: CHOR ROSSIYASINING TURKISTONNI BOSIB OLISHI. CHORIZM ISTIBDODIGA QARSHI TURKISTON XALQLARINING MILLIY-OZODLIK KURASHI. JADIDCHILIK.

Reja:

1. Chor Rossiyasining O'rta Osiyoni bosib olishi.
2. O'lkamizda mustamlakachilik boshqaruv tizimining o'rnatilishi.
3. Turkiston xalqlarining Chorizmning mustamlakachilik tizimiga qarshi milliy-ozodlik harakatining boshlanishi, uning boskichlari. Jadidchilik.

Tayanch so'z va iboralar:

Rus-engliz raqobatchiligi, rus bosqini, Turkiston general gubernatori, temir yullari qo'rilishi, sanoat korxonolari, ruslashtirish siyosati, rus –tuzem maktablari, chorezimning ulkada yurgizgan agrar siyosati, Turkiston Rossiyaning paxta xomashyosi ba'zasiga aylantirilishi, Turkiston xalqlarining chorizimning mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatining boshlanishi.

1.Tahlillarga ko'ra, XVI asr boshidan, Temur va temuriylar saltanati inkirozidan keyin boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy turg'unlik natijasida Turkiston XVIII-XIX asrlarga kelib dunyoning ko'pgina mamlakatlridan orqada qolayotganligi sezilayotgandi. Bunga quyidagilar sabab bo'lmokda edi:

Birinchiidan, asrlar davomida bir butun bo'lib kelgan mamlakatning, bir iqtisodiy va madaniy makonda yashab kelgan xalqning uchga bo'linib ketishi, xonliklar o'rtasidagi to'htovsiz urushlar, har bir xonlik ichidagi boshboshdoqlik va hoqimiyat uchun o'zaro tinimsiz davom etgan ichki nizo va yurushlar butun mamlakatni xonavayron qildi. Bu jarayon guruhbozlikni keltirib chiqardi, qabilalarning etnik aralashuviga, bir xalq bo'lib qovushishiga, jiplashishga halaqit berdi. Davlat darajasida ham, viloyatlar darajasida ham yagona xalq, yagona Vatan tushunchasining qadri anglab olinmadi.

Ikkinchiidan, aholi xon va beklarning, turli lavozimdagi mansabdorlarning zo'ravonligidan, o'zboshimchaligidan, mansabni suiste'mol qilishidan, g'ayriqonuniy soliq va jarimalaridan himoya qilinmadi.

Uchinchiidan, asosiy boylik bo'lgan yerga mulkchilikning eski usuli bir necha asrlardan beri o'zgarmadi. Xonliklarda oliy hukmdor yerning birdan-bir egasi bo'lib, yer ishlovchilarga – dehqonlarga ijara tarzida hatlab biriktirilgan edi. Dehqon yer egasi emas, yerda olinadigan hosilning egasi edi, holos. Shu bois dehqon yerni asrab – avaylashga, uning unumdorligini oshirishga intilmadi.

To'rtinchiidan, xonliklarda sanoat rivojiga e'tibor bo'lmadi. Oltinugurt, rangli metallar, marmar, toshko'mir, neft kabi tabiiy boyliklarga serob konlar bo'lsada, ularni qazib olish, tog'-kon ishlarini rivojlantirish, kemasozlikni yo'lga qo'yish masalalari hal qilinmadi.

Beshinchiidan, tovar-pul munosabatlari rivojlantirilmadi. Daromadan, iste'mol va qo'shin harajatlari zo'rg'a kopanlar, kapitalga aylanmasdi. Pul, oltin-kumush xon va amaldorlarning hazina to'plash manbai bo'lib qolgan edi.

Oltinchiidan, xonliklarning savdo munosabatlarida hamon ayirboshlash usuli davom etardi. O'rta Osiyo jaxon bozoridan ajralib qolgani ustiga bu yerda ichki bozor ham tashkil topmadi.

Yettinchiidan, eng muhimi, XIX asr ikkinchi yarmida O'rta Osiyo hududidagi xonliklarda o'z millati, xalqi va Vatani istiqboli uchun qayg'uradigan, odamlarni bir g'oya va bir ezgu maqsad yo'lida birlashtira oladigan hamda ortidan ergashtira oladigan yo'lboshchi ham topilmadi.

Turkiston xonliklari uchun bo'lgan ana shunday ogir sharoitda dunyoning bosqinchi davlatlari, hususan Rossiya va Angliya o'lkamizga ko'z olaytira boshladi. Aslida Rossiya Turkistonni bosib olish rejasining amalga oshishiga XVI asr o'rtasida Ivan Grozniy zamonidayok Qozon (1552), Astraxon (1556) va Sibir (1581-1590) xonliklari ko'lga kiritilganidan keyin kirishgandi. Ana shu maqsadda 1558-1559 yillarda Antoni Jenkinsonning Buxoroda bo'lishi, XVII asrda Rossiyadan Buxoro va Xivaga 9 marta elchilarning kelishi jarayonida esa xonliklarning iqtisodiy va harbiy ahvoli o'rganilishi amalga oshirilgandi. Imperator Pyotr I davrida xonliklarning g'arbiy, shimoliy va sharqiy chegaralarida harbiy istehkomlar qurish maqsadida harbiy ekspeditsiyalar yuborilishi amalga oshirilgandi. XVIII asrda Rus davlati qozoqlarining Kichik juz, O'rta juz va Katta juz hududlarini qo'lga kiritgandan keyin o'zbek xonliklarining bosib olinishida qulayliklar yaratish uchun 46 ta katta va 96 ta kichikroq harbiy kal'a va istehkomlar kuriladi va ularga o'zining harbiy qismlarini joylashtiradi.

Lekin Rossiyaning bu harakati Angliya manfaatlariga zid edi. Chunki Angliya o'z tasarrufidagi Hindiston va Afg'oniston orkali O'rta Osiyo davlatlari bilan savdo-sotik qilardi. U rus savdogarlarini bu hududlardan siqib chiqarishga intilardi hamda

ruslarning chegaralari Afg'onistongacha yetib borishini hohlamasdi. Inglizlar rejasiga ko'ra xonliklar ikkala mustamlakachi davlat o'rtasidagi «betaraf maydon» bo'lishi zarur edi. Undan tashkari Angliya O'rta Osiyo xonliklarining bu davrdagi kuchsizlanayotganligidan foydalanib, Rossiyaning harbiy bosqini boshlanishi mumkinligini ham e'tibordan chetda qoldirmayotgandi.

Rossiya va Angliya o'zaro munosabatlarini yahshilash va raqobatchilikni yumshatish uchun 1856 yilning 19 martida o'zaro bitim tuzdi. Rus general-leytenant Hrulevning fikricha, bu bitim o'zaro munosabatlarni o'zgartirmadi, chunki u mahalliy savdo va hukumronlik qilish masalalarini o'z ichiga olmagandi. 1858 yil martida Angliya parlamenti Hindistonni o'z mustamlakasiga aylantirish va Turkistonda savdo alokalarini kengaytirish maqsadida mahsus qo'mita ta'sis etdi. Natijada Turkistonda rus-ingliz rakobatchiligi yil sayin kuchayib bordi. Angliya o'z diplomatlari, sayyohlari va ayg'okchilari vositasida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarini Rossiyaga qarshi ittifoqqa uyushtirishga harakat qildi. Angliya bunda Turkiya hamkorligidan ham foydalanmokchi bo'ldi. Lekin bu urinishlar natija bermadi.

O'rta Osiyoda ruslar va inglizlar o'rtasida rakobatchilikning keskinlashuvi harbiy to'knashuvga olib kelishi mumkin edi. Lekin 1869 yilda har ikkala davlat o'rtasida muzokaralar boshlanishi bunga yo'l ko'ymadi. Natijada ikkala davlat o'rtasida betaraf davlatlar bo'lishi zarur, degan hulosaga kelindi. Rossiya uchun bu Afg'oniston bo'lishi mumkin edi. Angliya esa Afg'oniston va O'rta Osiyo bo'lishini hohlardi. Natijada masala ochik qoldirildi. Chorizm o'zining mustamlakachilik siyosatini davom ettiradi. Bu inglizlarning noroziligiga sabab bo'ladi. Shu bois Buyuk Britaniya vakili Forsayt 1873 yilda Toshkentga kelib, general-gubernator Kaufman bilan uchrashadi va u Qo'qon xonligining butunlay Rossiya tomonidan bosib olinishiga rozilik bildiradi. Buxoro amirligining esa Rossiya tasarrufida mustaqil kolishligiga kelishildi. Natijada amirlikning batamom bosib olinishi kechiktirildi.

Turkistonning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi Inglizlarning Turkiston uchun kizikish harakatlarining kuchayishi chor Rossiyasini ko'proq tashvishga soldi. U xonliklarga bevosita chegaradosh bo'lganligidan foydalanib harbiy harakatlarni boshlab yubordi. Orenburg general-gubernatori V.A.Perovskiy 1834 yilda Kaspiy dengizi kirg'og'idagi Mang'ishlokdagi harbiy istehkom kurib, unga Novo – Aleksandrovskeye deb nom berdi. 1845 yilda Orenburg va Yoyik, 1847 yilda Sirdaryoning Orol dengiziga quyilish joyida Rayim harbiy istehkomlarini kurdi. Perovskiy qo'shinlari 1853 yilda Qo'qon xonligiga qarashli Oq masjid (hozirgi Qizil O'rda)ni bosib oldi. Xonliklarning shimoliy-sharqiy tomonidagi G'arbiy Sibir general-gubernatori G.Gosford 1847 yilda Yettisuvdagi Ulutov yaqinida ikkita harbiy istehkom, Olmati yonidagi Verniy istehkomini kurib harbiy kuchlarni joylashtirdi. 1860 yilda Qo'qon xonligiga qarashli To'qmoq va Pishpakni egalladi. 1864 yil mayida Chernyayev otryadi Avliyo otani bo'ysundiradi. Qisqasi, 1847-1864 yillarda rus qo'shinlari Qo'qon xonligining hozirgi Qozog'iston va Qirg'iziston hududlaridagi joylarini egallab oladi.

Endi navbat Qo'qon xonligining tayanch shaharlari hisoblangan Turkiston va Chimkent uchun harakatlar boshlanib ketadi. Qo'qondan sarkarda Alimkulning qarshiligiga karamasdan 1864 yil 12 iyulida Turkiston egallanadi. 1864 yil sentyabrining boshlarida esa Chimkentni ham egallashga muvaffaq bo'ladi.

Chernyayev 1864-1865 yil kishida harbiy tayyorgarlik ko'rib, Sibir va Orenburgdan ko'shimcha qurol-yarog', yangi batalonlar, sapyorlar rotalari oldi.

Mahalliy aholi orasidan Chernyayev foydasi ishlovchi sotkinlar ham topildi. 1865 yil bahoridan Chernyayev Toshkentga yangi hujum boshladi. Chernyayev 28 aprelda Chirchik yokasidagi Niyazbek kal'asini egallab, Toshkentni suv bilan ta'minlovchi Kaykovuz anhoriga Chirchiqdan suv chiqarib beruvchi to'g'on buzib tashlanadi. Shu orada lashkarboshi Alimkul ham Toshkentga yetib keldi. 9 may kuni Solar arig'i yaqinida bo'lgan katta jangda Alimkul yarador bo'lib, halok bo'ldi. Nihoyat shaharliklar qarshiligi sindirildi, 15 iyun kuni Toshkent zabt etildi. Chernyayev 1866 yil yanvarida Jizzahga hujum qiladi va mag'lubiyatga uchraydi. O'zboshimchaligi uchun Chernyayev Rossiya markaziga chaqirilib, o'rniga general Romanovskiy yuboriladi. U Orenburgdan yordam olib Buxoro amirligiga yurish boshlaydi. 1866 yil mayida Yerdarda bo'lgan jangda amir Muzaffar k'shinlari yengiladi va Jizzahga qochadi. Romanovskiy harakatni Ho'jand tomon yo'naltiradi va uni 19-22 may kunlari uni ko'lga kiritadi. 1866 yil avgustida Orenburgdan general-gubernator Krijanovskiy Toshkentga kelib, Romanovskiy bilan birgalikda Buxoro amirligini tor-mor qilishni kelishadi. 1866 yil oktyabrida O'ratepa viloyati, Zomin kal'asini bosib oladi. Endi Jizzah uchun jang boshlanadi. Jizzah balandligi 4 metr, eni 3 metrlik ikki qavat devor bilan o'rab olingan kal'a edi. Shaharda 10 ming himoyachi ham bor bo'lgan. Shaharga kiradigan darvozalar ham tuproq bilan to'ldirilgandi. Lekin 11-18 oktyabr kunlari bo'lgan jang bosqinchilari foydasiga hal bo'ldi va shahar egallandi. Shundan keyin imperator Aleksandr II 1867 yil 14 iyulda 1865 yilda tuzilgan Turkiston viloyatini Turkiston general-gubernatorligiga aylantirish, Turkiston harbiy okrugini tuzish to'g'risida farmon berdi.

General-gubernator va okrug qo'mondoni etib general-ad'yutant K.P.Fon Kaufman tayinlandi. U Buxoro amirligini bosib olishni tezlashtirib 1868 yil 1-2 may kunlari Samarqand uchun Zarafshon yonidagi Cho'ponotada kattik janglar olib borib uni egalladi. Kaufman Zirabulokda amir qo'shinlari bilan urishayotgan bir paytda Qarshi, Shahrisabz va Kitob beklari Jo'rabek va Bobobek hamda amirning o'g'li Abdumalik To'ra 27 may kuni Samarqandga qo'shin bilan yetib kelib Samarqandda ko'tarilgan qo'zg'olonga ko'shildilar. Ular Kaufman Samarqandda qoldirgan polkovnik Nazarov va mayor Shtemko boshliq harbiy qismlar bilan 8 kun jang qilib, ularning 500 kishidan iborat armiyasidan 275 tasini halok va yarador qiladi. Bundan habar topgan Kaufman zudlik bilan Zirabuloqdan Samarqandga kelib 8 iyun kuni Samarqand aholisi qirg'in qildi.

Chorasiz qolgan amir Muzaffar 1868 yil 23 iyunda Kaufman bilan sulh tuzishga majbur bo'ldi va Rossiyaning vassaliga aylandi. Shunga ko'ra, Buxoro amirligi mustaqilligini yo'kotish bilan birga barcha Samarqand, Kattako'rg'on va Zarafshon daryosining yukori qismidan ham ajraldi. Yana 500 ming oltin to'lash va horijiy mamlakatlar bilan mustaqil alokalar kilmaslik majburiyatini ham oldi. Amirlikdan tortib olingan hududlarda 1868 yilda Zarafshon okrugi tuzilib, unga general mayor Abramov boshliq etib tayinlandi. Amirning bu harakatlari xalqning yukori tabakasi noroziligiga va unga qarshi harakatlar boshlanishiga sabab bo'ldi. Ayniksa Shahrisabz va Qarshida kuchli norozilik bo'ldi. Muzaffarning to'ng'ich o'g'li Abdumalik To'ra, erksevar beklar Jo'rabek, Bobobek va Sulton Sodiklar birgalikda ozodlik kurashini boshlab yubordilar. Ular dastlab Muzaffarga qarshi urushib Shahrisabzni va Qarshini egalladilar. So'ngra Karmana va Chiroqchi ham ular qo'liga o'tdi. Muzaffar 1868 yil kuzida Kaufmandan yordam so'radi. Bunga javoban dastlab Abramov boshliq harbiy qismlar yuborildi.

Kuchlar teng bo'lmaganligidan Abdumalik va Sulton Sodik xon huzuriga yordam so'rab bordi. Ular keyin Afg'oniston tomon bordi. U yerdan yordam ololmagach Hudoyorxon huzuriga bordi. Bu yerdan Qashqarga Yoqubbek huzuriga keldi va shu yerda panoh topib, 1909 yilda vafot qiladi. Ko'rinadiki, amir Muzaffar bosqinchilarga qarshi emas, Kaufman yordamida o'z vatandoshlariga qarshi urushga kirishadi, 1870 yil avgustida ularni dushman – bosqinchi kuchlari yordamida yyengib, o'z tahtini saklab koladi. Shahrisabz va Kitob beklilari ham amirlik tarkibida koladi. Chor Rossiyasi Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi yerlaridan tarkib topgan Turkiston general-gubernatorligini O'rta Osiyoni bosib olishdagi tayanch markaziga aylantirgach, Xiva xonligini bosib olishga kirishadi. Ular bu ishga Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining halokati va 1839 yilda Perovski harbiy yurishining barbod bo'lganligini e'tiborga olib, 1872 yil ohirlarida Orenburg general-gubernatori, Kavkazdagi podsho noibi va Turkiston general-gubernatori harbiy vazir ishtirokida Peterburgdagi mahfiy kengashda Xiva xonligini bosib olishga kelishildi. Bunga ko'ra, Turkiston general-gubernatorligi sharqdan, Orenburg general-gubernatorligi harbiy qismlari shimoliy-g'arbdan harakat qilishlari zarur edi. Xiva xoni Muhammad Rahim bundan habardor bo'lgani holda Angliyadan yordam so'ragandi. Lekin Angliya Rossiya bilan ochik to'knashuvdan havfsiradi. Demak xonlik fakat o'zining ichki imkoniyatlariga karab ish tutishga majbur bo'ldi. Kaufman 1873 yil bahorida 12 mingdan ortik zobit va askar, 56 ta to'p-zambaraklar bilan Xiva xonligiga qarshi harakat boshladi. Ayni paytda, Xivaga qarshi Orenburg, Mang'ishlok, Krasnovodsk, shuningdek, Kavkaz okrugi qo'shinlari ham harbiy yurishni boshlagan edi. Umumiy qo'mondonlik Kaufman zimmasiga yuklatilgandi. Amudaryo bo'ylarida qirg'inbarot janglar bo'ldi. 1873 yil 18 may kuni Kaufman harbiy qismlari Amudaryodan o'tib Hazorasni egallaydi, Ko'ng'irot va Ho'jayli shaharlari, Mang'it kal'asi zabt etiladi. Istilochi qo'shinlar Xivaga yaqinlashib qolganda Muhammad Rahim poytahtni tashlab chikadi va Izmiksho'r yaqinidagi bir turkman ovuliga yashirinadi. Kaufman shaharni zabt etadi va 1873 yil 12 avgustida Xivaga yaqin Gandimiyon kishlogida Kaufman bilan Muhammad Rahimxon shartnoma imzolaydi. Bunga ko'ra Xiva Rossiyaning vassaliga aylantiriladi, Amudaryo quyi oqimining o'ng tomoni Rossiya tarkibiga kiritiladi, 2 mln 200 ming so'm tovon to'lash kelishiladi.

Kaufman Xiva xonligini tugatgach, Qo'qon xonligini tugatishga kirishdi. U Qo'qon xonligidan bosib olingan yerlarni Rossiya tarkibiga kirganligini konunlashtirish uchun polkovnik Shaufusni Hudoyorxon huzuriga yubordi va xon 1868 yil 13 fevralda shartnomaga muhr bosdi. Unga ko'ra, rus savdogarlariga katta imtiyoz berildi, mahalliy savdogarlar esa o'z general – gubernatorligida faoliyat ko'rsatadigan qilib belgilandi. Umuman shartnoma Qo'qon xonligini og'ir ahvolga solib ko'ydi. Xonlik tashki olamdan mahrum bo'ldi, Rossiyaning karam o'lkasiga aylandi. Bu shartnomadan qoniqmagan kuchlar Hudoyorxonga qarshi bo'la boshladi. Buning ustiga xon hudud kiskarganligini ro'kach qilib, hazinani to'ldirish uchun yangi soliqlar joriy qildi, o'zini bosqinchilarga yaqin tutdi, Qo'qon va Rossiyani bir davlat deb hisoblaydigan bo'ldi. Bu vaziyat xonlikda Hudoyorxonga qarshi xalq qo'zg'olonini keltirib chikardi. Qo'zg'olonchilarning bir qismiga 1873 yilda mullo Ishok boshchilik qildi. Bu qo'zg'olonni tinch yo'l bilan bostirishga Abdurahmon Oftobachi harakat qilib ko'rdi. Lekin uni Hudoyorxon qo'llab-quvvatlamadi. Natijada g'alayon qurolli qo'zg'olonga aylandi va Hudoyorxonni tahtdan mahrum etish harakati boshlandi. Buning uchun

xonlar avlodlaridan kerak edi. Lekin rozilik bildirgan shahs bo'lmadi. Shundan keyin qo'zg'olon boshlig'i Mullo Ishok Hasan o'g'li o'zini Qo'qon xoni Olimxonning nabirasi Po'latxon deb e'lon qiladi. Xonlikda Hudoyorxonning o'g'illari Nasriddinbek va Aminbek, ukasi Sulton Murod, nevarasi Nazarbek, Sherali dodhoh, Abdurahmon Oftobachi va boshkalar ham bosh ko'taradilar. Ular ham Chor Rossiyasiga, ham Hudoyorxonga qarshi kurash boshladilar. Xalq ham qo'zg'olonchilarga ergashdi va 1873 yildan butun vodiya qo'zg'olon boshlandi.

Hudoyorxon qo'zg'olonni bostirishga o'zlik qilib, Toshkentga kochib ketadi. Kaufman Hudoyorxonning 40 ta aravadagi boyliklarini musodara qilib, o'zini Orenburga surgun qiladi. Xon u yerdan kochib hajga ketadi va hayoti ayanchli yakun topadi. Hudoyorxon kochib ketgach, qo'zg'olonchi kuchlarning bir qismi Nasriddinxonni hoqimiyatga ko'tarishni hohlasa, boshqa qismi Po'latxonni tahtga o'tkazishni taklif qilardi. Natijada ziddiyat yanada kuchaydi. Kaufman ana shu ichki kelishmovchiliklardan ustamonlik bilan foydalanib, 1875 yil avgustida Qo'qon xonligini batamom bosib olish uchun katta qo'shinni safarbar etdi. Xonlikni bosib olishda genarallar Skobelev, Golovachev va boshkalar rahbarlik qildilar. Nasriddinbek, lashkarboshi Abdurahmon Oftobachi tezlikda dushmanga taslim bo'lishdilar va ular tomoniga o'tdilar. 1876 yil fevralida Po'latxon boshchiligidagi qo'zg'olonchilar vahshiylik bilan bostirildi. Po'latxon 1876 yil 1 martida dorga osildi, uning safdoshlari esa ayovsiz jazolandi. 1873-1876 yillardagi Farg'ona vodiysidagi qo'zg'olonlar xalqning milliy-ozodlik harakati edi. Keyin imperatorlik xonlik o'rnida Farg'ona viloyati tuzilib, Turkiston general-gubernatorligiga tarkibiga kiritildi. Harbiy gubernator qilib general Skobelev tayinlandi. U tez orada Oloy vodiysini ham o'z tasarrufiga kiritdi. Endi bosqinchilar turkmanlar yashaydigan hududlarni bosib olishga kirishib, 1877 yilda Qizil Arvot, 1881 yilda Ashabod, 1877 yilda Marv bosib olinadi. Bosib olingan hududda Kaspiyorti viloyati tuzilib, u ham Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi. Shunday qilib, Rossiya 20 yil davom etgan konli urushdan keyin O'rta Osiyoni to'raligicha bosib oldi. Bosib olingan hududlarda mustahkam o'rnashib olish maqsadida 1881 yilda Rossiya – Eron chegara konvensiyasi imzolanib, ikki o'rtadagi chegara aniklandi. 1885-1887 yillarda esa Rossiya va Angliya hukumatlari tomonidan Rossiya Afg'oniston chegarasi, 1895 yilda esa Pomirdagi chegaralar belgilandi. Bu Chor Rossiyasining O'rta Osiyodagi bosqinchilik, talonchilik harakatining yakunlovchi nuqtasi bo'ldi.

2. Turkiston general-gubernatorligi tashkil topishi bilan bir vaktida Turkiston harbiy okrugi ham yuzaga keldi. General-gubernator bir vaqtning o'zida okrug qo'mondoni ham hisoblangan. Viloyatlarning harbiy gubernatorlari va uyezd boshliqlari ham o'z ihtiyoridagi harbiy qismlarning qo'mondonlari bo'lishgan. Shu tariqa «harbiy xalq boshqaruvi»dagi harbiy hoqimiyat chor zobitlari va harbiylari qo'lida to'plangan. «Xalq boshqaruvi» - yuzboshi, oqsoqollar, «xalq sudyalari» – kozilar aholi tomonidan saylangan. O'lkaning markaziy boshqaruv general-gubernator hamda uning Kengashi va Mahkamasidan iborat bo'lgan. General-gubernatorlikning - bosh boshkarmaning ijroiya organi bo'lgan general-gubernator mahkamasi dastlab to'rt bo'limdan iborat edi. Birinchi bo'lim ma'muriy va nazorat ishlarini boshkargan. Ikkinchisi bosh boshkarmaning moliyaviy va ho'jalik ishlariga karagan. Uchinchi bo'lim soliqlar va shahar ishlariga doir masalalar bilan shug'ullangan. To'rtinchi bo'lim esa mahsus bo'lim hisoblanib uning faoliyati serkirra bo'lgan. 1886 yilgacha mustaqil ish ko'rgan

bu bo'lim harbiy va adliya vazirlari ishlaridan mustasno ravishda sud qarorlarini ham kayta ko'rib chikish hukukiga ega bo'lgan.

Shaharlar o'zlarining mavkyeiga ko'ra siyosiy, harbiy, iqtisodiy va madaniy markazlar vazifasini bajargan. Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Namangan, Buxoro, Ashhobod o'lkaning eng yirik shaharlari hisoblangan. Yana mahalliy ahamiyatga bo'lgan Chimkent, Jizzah, Kattako'rg'on, Qarshi, Termiz kabi shaharlarda iqtisodiy hayot tez rivojlana borgan. Mustamlakachilik yangi shaharlarni ham yuzaga keltirdi. Jumladan, Kazalinsk, Petro-Aleksandrovsk, Skobelev, Chernyayevka qabilar. Bosib olingan shaharlarda ruslar uchun mahsus ajratilgan manzilgohlar paydo bo'ldi. Shaharlar ikki qismga bo'linib, biri eski shahar (mahalliy aholi yashaydigan qism), ikkinchisi yangi shahar (ruslar yashaydigan qism) deb ataladigan bo'ldi. Toshkentning rus qismini tashkil qilish uchun mahsus ko'mita tuzildi. Rejaga kirgan joylardan mahalliy aholi majburan ko'chirildi.

Shaharlarni ruslashtirish va rus aholisiga qulaylik yaratish maqsadida Turkiston shaharlarida savdo-sotik, hunarmandchilik va sanoat bilan shug'ullanuvchi rus fukarolari uchun alohida imtiyozlar yaratildi. 1877 yilda mahsus Muvakkat komissiya tuzilib, saylovlar tartibi belgilandi. Unga ko'ra saylovchilar mulkdorlik darajasiga karab uch toifaga bo'lindi. Bunda shahar ziyolilari, ishchilar va hunarmandlar yetarli mikdorda mulki bo'lmaganligi uchun saylov hukukidan mahrum etildi. 2400 saylovchi ishtirokida o'tgan saylovda shahar Dumasi va boshkarmasi saylandi. Ruslar uchun noiblarning uchdan ikki qismi mikdorida o'rin ajratildi. Shahar boshqaruv faoliyatini nazorat kiluvchi viloyat idorasi tuzildi. Uning raisi Sirdaryo harbiy gubernatori edi. 1888 yilda esa bu vazifa general-gubernatorga yuklandi. Ichki ishlar vaziri hukuki harbiy okrug qo'mondoni zimmasiga yuklandi. Duma oqsoqoli harbiy vazir tomonidan tayinlangan. Toshkent shahar Dumasining oqsoqoli vazifasini 1877-1907 yillarda – shahar boshlio'i – hokim to'raning o'zi boshkardi. 1870 yilda Toshkentda 80 ming aholi bo'lib, ulardan 7 mingi dehqon, 6 ming kishi hunarmand, 4 mingi – savdogar, 4 mingi – mardikor kishilar edi.

Chor ma'murlari dastlab yer-suv ishlari bilan shuo'ullanmadilar. Istilo vaktida o'lkadagi yer-suv davlat mulki, vakf va hususiy mulkdan iborat bo'lgan. Ho'jalik yuritishning asosini dehqonchilik va chorvachilik tashkil kilgan. Sun'iy sug'orish uning negizi hisoblangan. 1873 yilda Kaufman rus podshosiga yer-suvga egalik qilishni o'zgartirish to'g'risidagi loyihasini takdim qiladi. Unga ko'ra amlok yerlar uni ishlatib turgan kishilar tasarrufiga o'tishi zarur edi. Lekin bu koidani vakf yerlarga joriy etish taklifi rad etiladi. Yer-suv masalasini Kaufman ko'prok o'z bo'yniga olib, juda ko'p yerlar davlat ihtiyoriga olindi, mulkiy va vakf yerlarga soliq joriy kilindi. 1886 yilda Turkistonni boshqarish to'g'risida yangi Nizom joriy qilib, uning asosiy maqsadi yerli aholi zodagonlarini zaiflashtirishdan va mustamlakachilarni esa kuchaytirishdan iborat bo'lgan. Kiskasi, bu tadbirlar natijasida harbiy-feodal yer egaligi tugatildi. Qishloklarni boshqarish uchun ko'chmanchi aholiga ikki boskichli (volost va ovullar), o'trok aholiga esa bir boskichli (oqsoqollar) boshqaruvchi joriy kilindi. Volost asosini ming xonadondan ikki ming xonadongacha, ovul jamoalarini esa yuz o'tovdan ikki yuz o'tovgacha aholi tashkil kilgan. Chorizm bu o'zgarishlar bilan ko'chmanchi aholining urug'chilik asosidagi tarihiy bo'linishini bekor qildi. 1886 yildagi «Nizom»ga ko'ra o'trok aholining bir boskichli boshqaruvchi ikki boskichga aylantirilib, oqsoqollar

volostlarga birlashtirildi. Ovul jamoalari va oqsoqolliklar vakillari yig'ini barcha saylovchilar yig'ini bilan almashtirildi.

Turkiston shaharlarida polismeyster lavozimi joriy etilgandi. U hukuk jihatidan tumanboshilarga tenglashtirilgan. Ularga polisiya pristavlari bo'ysungan. Mahalliy ma'muriyat – volost boshqaruvchilari va oqsoqollari ham kuyi polisiya zobitlari vakolatlari hukuklariga ega bo'lib, ularga yollangan mirshablar hizmat kilgan. Mustamlakachilik ma'muriyatining muhim hukukiy bo'yinlaridan biri sud organlari hisoblangan. Sudlar ikki ko'rinishga ega bo'lib, sudlar va xalq sudlaridan tashkil topgan. Ularning birinchisi mustamlakachilik shaklida bo'lsa, xalq sudlari shariat asosida ish yurituvchi kozilik idorasi edi. Sudlar hududiy ko'rinishga ko'ra, tuman sudlari, xalq palatasi hukukidagi viloyatlar boshkarmalari, dunyoviy masalalar bo'yicha ish yurituvchi sudlar kurultoylari, harbiy sud komissiyalari joriy etildi. 1886 yilgi «Nizom»ga ko'ra mavjud sud tartiblari saklangan holda unga ayrim o'zgarishlar kiritildi. Tuman sudlari bekor kilindi. O'lkada viloyat sudlari joriy kilindi. Viloyat prokuror va uning muovini, sud tergovchisi lavozimlari joriy kilindi. Imperiya sudida mustamlakachilik tuzumiga qarshi maqsadlarda sodir etilgan «jinoyatlar» ko'rilgan. Uning asosiy vazifasi mahalliy xalq orasidan chikkan vatanparvarlarning davlat hoqimiyatini zaiflashtirish, hoqimiyatga qarshi siyosiy jinoyatchilikning ustidan hukm chiqarish edi. Rus imperiyasi Davlat Kengashi tomonidan sud islohoti tizimlari 1893 yil 2 iyunda tasdiklandi. Toshkent shahrida sud palatasi, viloyatlarda okrug sudlari ta'sis kilindi. Toshkent sud palatasi o'lkaning barcha sud organlari faoliyatini boshkarar va nazorat qilardi. Chor hukumatining siyosiy tusga ega bo'lmagan barcha fukarolik ishlari shariat va biy sudlariga topshirilgan. Mustamlakachilar shariat konun-koidalaridan istibdod negiziga kurilgan o'z tuzumlarini barkaror qilishda unumli foydalanganlar. Shu maqsadda uni uch hil qilib tuzishgan. Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona va Yettisuv viloyatlarining o'trok aholisi uchun kozi sudi, shu viloyatlarning ko'chmanchi aholisi uchun biy sudlari hamda Kaspiyorti viloyati uchun mahsus xalq sudlari faoliyat ko'rsatgan. Chorizm harbiy kuch bilan o'lkani uzok ushlab turishi mumkin emasdi. Shu bois u Turkistonda assimilyasiya, ya'ni ruslar bilan mahalliy aholini aralashtirib yuborish siyosatini yurgizdi. Uning bosh maqsadi Turkistonda doimiy yashaydigan rus va slavyan aholini yuzaga keltirishdan iborat tadbirlarni amalga oshirish zarur edi. Bu podsxoning ko'chirish siyosatidan boshlandi. Ko'chirish siyosati Turkiston general-gubernatorligi tashkil bo'lgan 1867 yildayok boshlangandi. Yettisuvda 1869-1682 yillarda 25 ming aholini o'z ichiga olgan 29 ta rus kishlog'i, Sirdaryoda esa 13 ming aholisi bo'lgan 19 ta rus kishlog'i tashkil etildi. 1910 yilda Turkistondagi Sirdaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlarda 124 ta rus kishlog'i bo'lib ularda 70 mingga yakin rus aholisi yashardi.

Chor ma'murlari o'lkaga ko'chib kelgan kishilarni qurollantirib, mahalliy aholidan o'zlarini «himoya» kilmokchi bo'lgandi. Ayniksa ko'chib kelgan rus kazaklariga qurol sotish kuchayadi. O'lkada temir yo'l kurilishining amalga oshirilishi ham mustamlakachilikdan iborat iqtisodiy va harbiy strategiya maqsadlarini ko'zlab amalga oshirilgandi. Temir yo'lsiz katta hududni ko'lda saklash va o'lkaning katta boyliklarini olib ketish mumkin emasdi. 1888 yil noyabridan Zakaspiy temir yo'l kurilishi boshlandi. Bu yo'l Kizil Arvot va Ashhobod orkali o'tkazilib, Samarqandga yetkazildi. 1888 yil 15 mayida bu yerga birinchi poyezd keldi. U 1889 yilda Mari va Kushka orkali o'tkazilib, o'sha yili Toshkent hamda Andijonga yetkazildi. 1900 yilda Orenburg –

Toshkent temir yo'l kurilishi boshlandi. 1905 yilda unda birinchi poyezd katnadi. Temir yo'l kurilishining ishga tushirilishi o'lkada dastlabki sanoat korxonalarining paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Bu korxonalar rus kapitalistlari uchun Turkiston hom ashyosini tayyorlashga hizmat qildi. Shu bois bu yerda pahtani dastlabki kayta ishlash bilan bog'lik sanoat korxonolari tashkil etildi.

Birinchi pahta tozalash zavodi 1879 yilda Toshkentda savdogar Nazarov tomonidan ishga tushirildi. Shunday ikkinchi zavod 1885 yilda Andijon uyezdida savdogar Ho'jayev, uchinchi esa Toshkentning Ko'kcha dahosida savdogar Isabek Hakimbekov tomonidan kurildi. 1867-1900 yillar orasida Turkistonda ishga tushirilgan 170 korxonaning 70 tasi Farg'ona viloyatida edi. Endi yog' ishlab chikaruvchi korxonalar paydo bo'ldi. Choy kadoklash, arak-vino ishlab chikaruvchi korxonalar kam paydo bo'ldi.

Rus kapitalistlari yer osti boyliklarini kazib olib ketishga ham e'tibor bera boshladi. Romanov va Semichevlar Qo'qon tumanida toshko'mir, D.Petrov va G.Aleksandrov esa Kamishboshi va Lakkon kishloklarida 25 ta neft konlarini ishga tushirdi. Yangi zavod va fabrikalar ish boshladi. Birgina Qo'qonning o'zida 16 ta aksioner va yirik savdo firmalari ochilgan edi. Rossiya sarmoyadorlari Turkistondagi tabiiy boyliklarni talashga hizmat kiluvchi korxonalar tarmog'ini keng kuloch yoydirishdi. Bu ishda ular mahalliy xalqlarning boy va savdogarlari bilan kelishib ish ko'rdilar. Ammo mustamlakachilar Turkiston o'lkasida hech kacxon tom ma'nodagi og'ir sanoat mahsulotlari ishlab chikadigan korxonalarni qurishga e'tibor bermaganlar. Mustamlakachilar kanchalik boyib borsa, arzon ishchi kuchi bo'lgan mahalliy aholi shunchalik kambag'allashib, kashshoklashib borardi. Dehqonlar og'ir shartlar asosida karz olardi, karzini to'lay olmay o'ziga tegishli yerini sotib, yersiz kolardi, mardikorlik, chorikorlik qilishga majbur bo'lardi. Natijada yer egalari qo'lida yollanib batraklik qilishga yoki yangi ochilayotgan korxonalariga arzimagan ish haki evaziga ishlashga majbur bo'lardi. Yerni Rossiya banklari yoki puldor mahalliy boylar sotib olardi. Shu tarika, o'lkada 90-100 gektarcha sug'oriladigan yeri bo'lgan boy ho'jaliklar vujudga keldi. XX asr boshlaridagi ma'lumotlarga ko'ra o'lka aholisining 70 foizi kambag'al va kashshoklar, 1,7 foizi o'rta hol, 13 foizi o'ziga to'k, boy oilalar hisoblanardi. Rossiyalik sarmoyadorlar o'lkada pahta tozalash, yog' va spirt ishlab chiqarish, pivo, tamaki, un, kand, sovun, g'isht, ko'n, mis eritish, jun yuvish, ohak kizdirish zavodlari va ozik-ovkat korxonalari kurib, ulardan mo'may daromad olishni yo'lga ko'ydilar. 1908 yilda o'lkada 378 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1917 yilda ularning soni Buxoro amirligi Xiva xonligida kurilgan korxonalarni ham ko'shib hisoblaganda 1200 taga yetgan. Bu jarayon aholining tabakalanishiga ta'sir etib milliy burjuaziya va ishchilar sinfi vujudga keldi. 1914 yilgi ma'lumotlariga ko'ra, o'lkada 49,5 ming ishchi bo'lib, ulardan 25,5 minggi sanoatda, 24 minggi temir yo'l va unga hizmat kiluvchi ustaxonalarda ishlagan. Mahalliy ishchilarga rossiyalik ishchilarga nisbatan 2,5-3,5 baravar kam ish haki to'langan. Turkiston Rossiyaning jaxon bozorlarida o'tmaydigan tovarlari sotiladigan bozorga aylantirildi. Rossiya imperiyasi Turkiston xalqini ma'naviy-madaniy tutkinlikka solish, o'zining uzokka mo'ljallangan manfaatiga bo'ysundirish siyosatini yuritdi. Uning mohiyati, mazmuni mahalliy xalqni milliy, tarihiy ildizlaridan uzib tashlash, xalqning ma'naviy, madaniy, tarihiy merosini yo'k qilish, hullas ruslashtirishdan iborat edi. Farg'ona harbiy gubernatori Skobelev shunday deb yozadi: «Millatni yo'k qilish uchun uni kirish shart emas, uning madaniyatini,

san'atini, tilini yo'k kilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi». Turkistonda mustamlakachilar ana shunday siyosat olib bordi. Turkistonning noyob tarixiy, ma'naviy, madaniy boyliklari talon-taroj kilindi. 1870 yilda Toshkentda ochilgan Xalq kutubxonasi va 1876 yilda tashkil topgan Toshkent tabiat muzeyida o'lkaning ma'naviy-madaniy hayotini aks ettiruvchi oltin, kumush, misdan yasalgan kimmatbaho buyumlar, gilamlar, amaliy san'at namunalari, tarixiy yodgorliklar, arhiv hujjatlari, ko'lyozma kitoblar va boshkalar to'plandi. Ular ko'rikdan o'tkazilib, kimmatbaho va nodir deb hisoblanganlari Peterburg va Moskvaga tashib ketildi. San'at darajasida ishlangan Muhammad Rahim tahti, Amir Temur makbarasining nakshinkor darvozasi, undagi bitimlar, oynalar, oltin koshinlar, Ahmad Yassaviy makbarasidagi nakshinlar, katta kozon («Nazir-niyoz kozoni») shular jumlasidandir.

Islom diniga e'tikod, masjid va madrasalar oyokosti kilina bordi. Rossiya ma'murlari musulmon muassasalari, madrasa ishlariga aralashib, ularning faoliyatini tobora cheklab bordi. Maorif va madaniyat sohasida ruslashtirish siyosati yuritiladi. Turkistonlik bolalarni ruslar bilan aralashtirib o'kitish va tarbiyalash g'oyasi ilgari surildi. 1884 yilda Toshkentda dastlab rus-tuzem maktabi ochildi. XIX asr ohirida ularning soni yuztadan ortik bo'ldi. Bu maktablarda bir vaktning o'zida rus va o'zbek o'kituvchilari mashg'ulotlar olib boradigan bo'ldi. Maqsad mahalliy yoshlarga rus tilini, ruscha yashash tarzini singdirishdan iborat edi. Yerli aholi farzandlarini kiziktirish uchun rus-tuzem maktablarini bitirganlarni, rus tilini bilganlarni mahalliy ma'muriy organlarga, boshqaruvga ham jalb qildi. Asta – sekinlik bilan o'lkada ish yuritish ham rus tiliga o'tkazila bordi. Bu tadbirlardan maqsad ruslashtirishdan iborat bo'lgan. Mustamlakachilarning yerli aholi turmushiga ma'naviy-ruhiy tazyik o'tkazish dasturida o'lka hotin-kizlarini ruscha hayot tarziga o'tkazishga alohida ahamiyat berdi. Shu maqsadda shaharlarda hotin-kizlar ambulatoriyalari tashkil etilib, ularda rus shifokorlari faoliyat ko'rsatdi. Ambulatoriyada ayollarga zaruriy tibbiy maslahatlar, tibbiy yordam ko'rsatildi, bu, albatta ijobiy hol. Shu bilan birga, ayollarga ruscha hayot tarziga o'tish, ularning farzandlari tarbiyasiga pravoslavcha ta'sir etish, paranji zulmidan halos bo'lish, «ochilish» zarurligi to'g'risida tashvikot va targ'ibot ham kilinardiki, bu sekin-sekin salbiy ta'sir ko'rsatardi.

3. Chorizmning Turkiston xalqlariga nisbatan yurgizgan mustamlakachilik, ulug' davlatchilik va shovinistik siyosati konuniy suratda mahalliy aholining milliy ozodligi, erki va insoniy hak-hukuklarini himoya qilish uchun mukuddas jangga otlantirdi. «O'rta Osiyoning Rossiyaga ihtiyoriy ko'shilganligi» g'oyasining tarafdorlari xalq ommasining chorizmga va uning mustamlakachilik zulmiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonlarini sohtalashtirib, go'yo bu qo'zg'olonlar Rossiyaga qarshi emas, balki mahalliy amaldorlarga, din peshvolari va ulamolarga qarshi ko'tarilgan deb «isbotlamokchi» bo'ldilar. Tarix shuni ko'rsatadiki, aslida chorizm tomonidan asoratga solingan, mustamlaka kilingan xalqlar dastlabki kunlardan boshlab o'z mustaqilligi, ozodligi uchun milliy-ozodlik kurashini olib borganlar:

- Qozog'iston mintakasida 1783-1793 yillarda Sirim Botir ko'zg'oloni;**
- 1822-1823 yillarda Jo'lamo Tilamchi qo'zg'oloni;**
- 1836-1838 yillarda Isatoy Toyman qo'zg'oloni;**
- 1837-1843 yillarda Sulton Kenasarin qo'zg'oloni;**
- 1856 yilda Sirdaryoda Jonho'ja Nurmuhammad qo'zg'oloni;**
- 1868 yilda Samarqand mudofaasi va Buxoro amirligi, Buxoro shahri;**

1871 yilda Esxon Eshmuhammad qo'zg'oloni;

-1871 yilda Yetimxon qo'zg'oloni;

-1872 yilda Chirchikdagi isyon;

-1873-1876 yillarda Po'latxon boshchiligidagi Qo'qon xonligida qo'zg'olon;

-1892 yildagi Toshkentdagi qo'zg'olon;

-1898 yildagi Andijon Dukchi Esxon boshchiligidagi qo'zg'olon;

-1899 yilda sodir bo'lgan Sirdaryodagi harakatlar va boshkalarni kiritish mumkin. 1887-1897 yillarda jami bo'lib Farg'ona, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida mustamlakachilar siyosatiga qarshi 663 marta harakatlar bo'lganligi ma'lum. Farg'onadagi vaziyatdan cho'chigan viloyat harbiy gubernatori Vervovskiy ahvolidan ko'z-kulok bo'lib turish uchun Markaziy hukumatga mahfiy siyosiy polisiya xizmatini tashkil etish taklifini ilgari suradi. Uni tashkil etishni o'z mablag'i hisobidan amalga oshiradi. O'lkaning oliy harbiy – siyosiy doiralari tobora kuchayib borayotgan norozilik to'likinini pasaytirish uchun ta'sirchan vosita izlay boshladi. Polisiya va harbiy kuchlar uchun 5,5 mln so'm sarflandi.

1892 yil boshida Toshkentda bo'lib o'tgan «vabo isyoni» eng yirik xalq qo'zg'olonlaridan biri edi. U Toshkentda boshlanib, unga 2 mingdan ortik kishilarning yostig'ini kuritgan vabo kasaliga qarshi mustamlakachi ma'murlar ko'rgan choralar sabab bo'ldi. Iyun oyida Toshkentda vabo tarkaldi. Shahar ma'murlari shoshilinch choralar ko'rib, vabodan o'lganlarni shahardagi 12 ta kabristonga ko'mish man etiladi, shahar tashkarisida 4 ta kabriston ochilishi rejalashtiriladi. Lekin shundan bittaginasini ishga tushiriladi. Shahardan chikish va kirish kattik nazorat ostiga olinadi. Shaharda vabo kasaliga uchraganlarni yo'k kilar ekan, degan gap tarkaladi. Lekin ma'muriyat aholi o'rtasida yetarli tushuntirish ishlarini olib bormadi. Kelishilgan 4 ta kabristondan bittaginasini ochilgani bois o'lganlarni ko'mish ishlari cho'ziladi. Aholi eski kabristonlarga ko'mishga majbur bo'ldi. Polisiya buni hisobga olmay hibsga ham ola boshladi, kabristonni ochib, o'lganlarning ruhi hakorat kilindi. Shunday sharoitda shaharning eng tanikli kishilaridan Azizyor Esxon, Abulkosim Ho'ja, bozor oqsoqoli Ziyomhammad va boshkalar boshchiligidagi mingga yakin kishi shahar mahkamasi boshlig'i Putinsev va eski shahar oqsoqoli Muhammad Yokub bilan to'knashishdi. Ular aholini tinchitish o'rniga dag'dag'a qildi, ko'rkitmokchi bo'ldi. Xalq oqsoqol ustiga tosh yog'dira boshladi. Oqsoqol shahar hoqimi idorasiga yashirinishga ulgurdi. Ana shu bilan «Toshotar» vokyasi boshlandi. Putinsev qo'lidagi qurolini ishlatmokchi bo'ldi, oqsoqolni himoya qildi. Sabr kosasi to'lgan xalq o'ylab ham o'tirmay hokimga qarshi harakatga o'tdi, Putinsev va uning mirshablarini do'pposladilar, haloyik mahkamani tezda ostin-ustin qilib tashladi. Qurollangan soldatlar kelganidan keyin xalq ayamay o'kka tutildi; o'n kishi o'ldirildi va yaralandi. O'lganlarning hisobiga ham yetib bo'lmadi, lekin bir kun o'tganidan keyin Anhordan 80 dan ortik o'lganlar jasadi olindi. Ko'lga olingan 60 kishi esa hibsga solindi. Bu zo'ravonlik ham xalqning ozodlik harakatini to'htata olmadi. 1898 yilda Andijon yakinidagi Mingtepada bo'lgan qo'zg'olonni davomi deyish mumkin. Unga shu kishlokda yashovchi Ali Esxon boshchilik qildi. U otasining ishini davom ettirib duk yasardi, shuning uchun uni Dukchi Esxon ham deyishadi.

XIX asr ohiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida jadidchilik harakati keng kuloch yoyib rivojlandi. «Jadid» so'zi arabcha bo'lib, yangi usul degan ma'noni anglatadi. Ammo jadidchilar harakati fakat madaniy-ma'rifiy harakat, ya'ni

eski maktablarning kiyin o'kitish tizimiga nisbatan yangi usuliga asoslangan yangi metod asosidagi o'kitishga o'tishdangina iborat emasdi. U ayni chog'da keng, chukur mazmundagi ma'naviy-ma'rifiy milliy tarakkiyot va milliy istiklol muammolarini ham o'z ichiga olgan edi. Bu harakatning yuzaga kelishida O'rta Osiyoning o'zidagi demokratik harakatdan tashkari O'rta va Yakin Sharq mamlakatlarida keng kuloch yoyib rivojlangan falsafiy-diniy okimlar va Turkiyadagi «Ittihod va Tarakkiy», «Yosh turklar» harakatining ta'siri ham katta bo'ldi. Turkistonda o'rnatilgan mustamlakachilik XIX asr ohiri – XX asr boshlarida kuchayib, chorizm mahalliy aholini iqtisodiy jihatdan talash, ezish bilan birga ularni jaholatda, savodsizlikda tutib turli, ma'naviy kashshoklantirishga intildi. Mustamlakachilar shu maqsadda o'lkaga chinovniklar, harbiy, bankirlar, savdo-sanoatchilar, muhandis-tehniklar, ruxoniylar, ilmiy kuchlar, ishchilar, mujiklardan iborat malaylarini safarbar etgan edilar. Birok ular kandyat urinmasin mahalliy aholining ozodlik uchun intilishini so'ndirolmadi. Tarihiy vaziyat millat ravnakini o'ylovchi ziyolilar mahalliy burjuaziya vakillari ulamolar orasidan xalqni uyg'otish, milliy ongini oshirish, birlashtirish uchun kurashuvchi kuchlarni tayyorlab yetishtirdi.

Sharq bilan G'arbni takoslab, musulmonlar va turkiylar dunyosi, hususan Rossiya tassarrufidagi musulmonlarning jaxon tarakkiyotidan uzilib kolayotganini krim-tatar farzandi Ismoil Gaspirali (1851-1914) birinchi bo'lib angladi. U turkiy xalqlardagi jaholatni yo'k qilish, ma'naviyat-ma'rifat orkali tarakkiy topgan mamlakatlar darajasiga ko'trish harakatini boshlab berdi. U maorifni isloh qilish, maktablarda dunyoviy fanlarni o'kitish masalalarini ko'tardi. Gaspirali 1884 yilda Krimdagi Bokchasaroyda birinchi jadid maktabiga asos soldi. U tashkil kilgan maktab o'kuvchilari uchun o'kuv dasturi tuzdi va darsliklar yozdi. 40 kun ichida 12 ta o'kuvchining savodini chikarib, tezda shuhrat kozondi. «Tarjimon» gazetasini chikarib, o'z g'oyalarini tarkata boshladi. 1888 yilda «Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh» kitobini nashr etib, jadid maktablarining kurulishi, dars o'tish mazmuni, jihazlanishi, sinov va imtixonlar olish usullarini ko'rsatdi. Ismoil Gaspirali g'oyalari Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligiga ham kirib keldi. U 1893 yilda O'rta Osiyoga kelib, ilg'or ziyolilar bilan uchrashdi. Buxoro amiri huzurida bo'lib, bitta jadid maktabi ochishga rozilik oldi. Ana shundan keyin Turkiston ziyolilari jadidlar g'oyasini ko'llab maorifni isloh qilish, «usuli jadid» maktablarini ochishga kirishdilar. 1898 yilda Qo'qonda Salohiddin domla, 1899 yilda Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon kori jadid maktablariga asos soldilar. 1903 yilda Turkistonda 102 ta boshlang'ich va 2 ta o'rta jadid maktablari faoliyat ko'rsatdi. O'rta Osiyoda jadidchilik harakatining yirik vakillari: Munavvar kori Abdurashidxonov, Mahmudho'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon, Ubaydullaho'ja Asadullaho'jaye, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Usmonho'ja Po'latho'jaye, Fayzulla Ho'jaye, Ahmadjon Mahdum, Abdulvohid Rafiy va boshkalar edi. Talabalarga Turkiston tarihi, turkiylar tarihini o'rganishga alohida e'tibor berildiki, bu ularning milliy ongini uyg'otishga, jamiyatni etnik jihatdan birlashtirishga hizmat qilardi. M.Behbudiyning «o'z urug'ining otini bilmagan, yetti otasini tanimagan kul-mankurtdir» degan so'zlari talabalarni milliy o'zligini anglashga chaqirar edi. Munavvar Qorining «Adibi avval», «Adibi soniy», M.Behbudiyning «Kitobatul atfol», «Bolalar maktubi», «Muhtasari tarihi islom», «o'g'g'rofiya», A.Avloniyning «Adabiyot», «Birinchi muallim», «Turkiy guliston»,

«Maktab gulistoni» kabi darsliklari milliy maktab va milliy tarbiyani yukori saviyaga ko'tarishga hizmat qildi.

Jadid maktablarida har tomonlama bilimli, ma'naviy yetuk, o'z xalqining tarhini va dunyo ishlarini yahshi o'zlashtirgan kadrlar tayyorlab chiqildi.

Jadidlar yoshlarni chet ellarga o'kishga yuborish tashabbusi bilan chikdilar. Boy tabakalarning ilg'or vakillari bu tashabbusni ma'kullab, tegishli mablag' bilan ko'maklashdilar. Ko'pgina umidli yoshlar Germaniya, Misr, Turkiya va Rossiyaning markaziy shaharlariga o'kishga yuborildi. 1910 yilda Buxoroda muddaris Hoji Rafiy va boshkalar «Bolalar tarbiyasi» hayriya jamiyatini tashkil etib, 1911 yilda 15 ta, 1912 yilda 30 ta talabani Turkiyaga o'kishga jo'natdi. 1909 yilda Munavvar Kori tuzgan «Jamiyati hayriya» ham miskin va ojiz talabalarga yordam berar, yoshlarni chet elga o'kishga yuborishga yordamlashardi. Jadidlar Turkistonda milliy matbuotga asos soldilar. Ularning sa'y-harakatlari natijasida Turkistonda turli davrlarda: «Hurshid» («Kuyosh») (1906), «Osियो», «Turon», «Sadoi Turkiston», «Turk eli», «Najot», «Kengash», «Ulug Turkiston», «Sho'roi Islom», «Oyna», «Hurriyat», «Buxoroi Sharif», «Sadoi Farg'ona», «Tirik so'z», «Yurt», «Farg'ona nidosi», «Farg'ona sahifasi», «Samarqand» kabi gazeta va jurnallar nashr etildi. M.Behbudiy 1913 yilda «Samarqand» gazetasi va «Oyna» jurnalini chikara boshladi. U «Nashriyoti Behbudiya» hususiy nashriyotini, uning huzurida «Kutubxonai Behbudiya»ni tashkil etdi. Gazeta va jurnalda millat va ona yurt dardi, xalqni ma'rifatli qilish, erkinligini ta'minlash masalalariga bagishlangan dolzarb makolalar chop etildi. Ular chor Rossiyasi tasarrufidagi turkiy xalqlarga, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Turkiyagacha yetib borardi. Tarakkiyparvar o'zbek ziyolilarining yetakchisi Asaddulla o'g'li Ubaydullaho'ja 1913 yilda «Tarakkiyparvar» nomli ziyolilarning firkasini tuzadi va 1914 yilda firkaning «Sadoi Turkiston», «Sadoi Fargona» gazetalari chikariladi. Bu gazetarlar sahifalarida e'lon kilingan makolalar xalqni mustabid tuzumga qarshi ko'zg'atishga hizmat qiladi.

Jadidlar milliy teatrga ham asos soldilar. Munavvar Kori rahnamoligida 1913 yilda musulmon drama san'ati havaskorlari jamiyati – «Turon» truppassi tuzildi. 1914 yil 27 fevralda Toshkentda «Kolizey» teatri binosida o'zbek milliy teatrining birinchi rasmiy ochilishi marosimi bo'ldi. Munavvar Qori o'zbek milliy teatrining birinchi pardasini ochar ekan shunday degan edi. «Turkiston tilida hanuz bir teatr o'ynalmaganligi barchangizga ma'lumdir... Teatrning asl ma'nosi «ibratxona» yoki «ulug'lar maktabi» degan so'zdir. Teatr sahnasi har tarafi oynaband kilingan bir uyga o'hshaydirki, unga har kishi kirsar o'zining husn va kabihini, ayb va nuksonini ko'rib ibrat olur». O'sha kuni sahnada M.Behbudiyning «Padarkush» pyesasi namoyish etildi. Unda islom dining Turkistondagi buzilishlari tasvirlanib, tomoshabin e'tiborini najot yo'li – maorif, maorifni esa «poklangan din» bera oladi, degan g'oyaga karatadi. «To'y», «Zaharli hayot», «Juvonmarg», «Bahtsiz kuyov» kabi pyesalarda hotin-kizlarning hukuksizligi, ko'photinlilik, majburiy nikoh okibatlarini kabi muammolar ochib tashlanadi. Milliy teatr san'ati odamlarga millatda mavjud bo'lgan kusurlar va ijobiy tomonlarni tushuntiruvchi oyna bo'lib hizmat qildi. Jadidlar matbuoti va teatrida mutassib ruxoniylarning poraho'rliqi, ahloksizligi ham kattik tankid ostiga olindi. Abdurauf Fitrat «Munozara» nomli asarida Buxoro ulamolarining nodonligi va poraho'rligini ochib tashladi. «Hind sayyohining sarguzashtlari» asarida esa Buxoro,

Qarshi va boshka shaharlardagi iqtisodiy tanazzulga ayrim ruxoniylarning o'z mavkeyini suistemol kilganliklarini asosiy sabab qilib ko'rsatadi.

Jadidlarga, bir tomondan, mutassib ruxoniylar, ikkinchi tomondan, mustamlakachi ma'murlar qarshilik ko'rsatdilar. Mutaassib ruxoniylar jadidlar ko'targan barcha yangiliklarga qarshi chikdilar. Ular jadidlarni padarkushlar, maktablari hakida esa «bu hil maktabda o'kuvchi – talabalar birinchi yili gazeta o'kiy boshlaydi, ikkinchi yili ozodlikni talab qilishadi, uchinchii yili esa janobi oliylarini tahtdan ag'darib turmaga tikib ko'yishadi» der edilar. Mutaassiblar tarihni tasvirlash, o'kitishni, be'manilik, dahriylik, deb hisoblashdi. M.Behbudiy ularni fosh kilar ekan, Kur'oni Karim ham, Muhammad payg'ambarning hadislari ham tarihga dahldor ekanligini, Kur'oni Karimning chorak qismi tarihiy ma'lumotlardan iboratligini ko'rsatdi.

Mustamlakachi ma'murlar, shuningdek, Buxoro amiri va Xiva xoni jadidlar harakatini jilovlash choralari ko'rdilar. Ular ustidan nazorat o'rnatar, gazeta va jurnallarni man etib, nashriyotlarini buzib tashlar, kitob do'konlari, kiroatxonalarini yopib ko'yar edi. Jadidlardan o'ng kanot ajralib chikib reaksion lageriga ko'shildi. Kadimchilar deb atalgan bu guruh Rossiyaning obro'si bizning obro'miz, hudodan ko'rk, podshohni hurmat kil, podshohlarning amri fukarolar uchun vojibdir, deb chikdilar. Ular islohotlarga qarshi chikib, kadimgi tartibni himoya qildilar. Jadidlar tobora olg'a yurdilar. Mustamlakachilarning jadidlarga nisbatan ko'llagan zo'ravonlik choralari, ularni ma'naviy-ma'rifiy islohotdan siyosiy qarshilik ko'rsatish darajasiga olib keldi. Shu orada dastlabki siyosiy uyushma va firkalar vujudga keldi. XIX asr ohiri – XX asr boshida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik madaniy-ma'rifiy, milliy, ijtimoiy-siyosiy harakat edi. U o'sib mustamlakachilarga qarshi ko'tarilgan milliy-ozodlik harakatining mafkurasiga aylandi.

1914-1916 yillarda chor ma'murlarining jaxon urushi baxonasida milliy mustamlakachilik zulmi va istibdodini ko'paytirganliklari munosabati bilan Turkiston xalqlari kurashga yanada faolrok kirishdilar. 1914 yilning kuzida Sulyukta, ko'mir koni ishchilari, Yettisuv temir yo'li hodimlari va Andijon pahta zavodi ishchilari, 1916 yilda Toshkent va Kizil Arvot temir yo'l parovoz ta'mirlash korxonalarini ishchilarining ish tashlash harakatlari Turkistonda kuchli ommaviy larzalar yakinlashib kelayotganligidan darak berardi. Buning ustiga urushda holdan toydirilayotgan Rossiya o'n minglab o'z askarlarini yo'kotmokda edi. Ana shu og'ir vaziyatda talvasaga tushayotgan chorizm Oliy Bosh qo'mondonligi shtabi harbiy vazirlikdan «armiya ehtiyojlari uchun salmokli mikdorda kuch ajratish»ni so'rab qoldi. Bu kuchni harbiy vazirlik mustamlakalardan to'plashga umid bog'ladi. Natijada Rossiya imperatori Nikolay II 1916 yil 25 iyunda Turkiston, Sibir va Kavkazdagi 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklarni front orkasidagi hizmatlar uchun safarbar qilish to'g'risida farmon chikardi.

Turkiston general-gubernatorliga zudlik bilan topshirikni amalga oshirish buyurilib, Sirdaryo viloyati zimmasiga 87 ming, Samarqandga 38 ming, Farg'onaga 50 ming kishi yuborish majburiyati yuklandi. O'lkada safarbar kilinadiganlarning ro'yhati tuzila boshlandi. Xalq bu tadbirni mardikorlikka olish deb nomladi. Bu habar tezlikda o'lkaga tarkaldi va uning asosiy yuki mehnatkashlar tabakasiga tushdi. Mardikorlikka olish ro'yhatlarini tuzish volost boshqaruvlari, oqsoqollar va ellikboshilarga yuklatilgandi. Bular o'z manfaatlari yo'lida foydalanib, ro'yhatga asosan kambag'al, himoyasiz kishilar farzandlarini kiritdilar. Mahalliy boylar katta poralar evaziga boylar va amaldorlar bolalarini mardikorlikdan qoldirib, hatto ularning o'rniga yollash usulini

ko'lladilar. Bunday nohaklik, adolatsizlik va firibgarlik busiz ham biri ikki bo'lmay, nochor hayot kechirayotgan xalq ommasining sabr kosasini to'ldirib yubordi, ular bosh ko'tarishga majbur bo'ldi.

1916 yil 4 iyulda Ho'jand shahrida norozilik namoyishi boshlanib ketdi. Unda dehqonlar, mardikorlar, chorakorlar, ayollar, jami 3000 dan ortik kishi katnashib, namoyish «Mardikor bermaymiz!» shiori ostida o'tdi. Polisiya namoyishchilarni bostirishga kirishdi. Namoyishchilar ustiga tosh yog'dirdilar. Harbiy qismdan soldatlar yetib kelib, polisiyachilar bilan birgalikda namoyishni bostirdi, ikki kishi o'ldi va bir kishi yarador kilindi. Ho'jand vokeasi butun o'lkaga tarkaldi. 5 iyulda Samarqand uyezdining Urgut kishlog'ida g'azabga kelgan 2000 kishilik dehqonlar volost boshqaruvining mahkamasi oldida to'plandi. Mahkama hodimlari kaltaklandi. O'sha kuni Samarqand uyezdining Siyob, Mahalla, Ho'ja Ahror va Angar volostlarida ham namoyishlar bo'lib o'tdi. 11 iyulda Toshkentda katta g'alayon boshlanib ketdi. Hunarmandlar, ishchilar, shahar kambag'allari va shahar atrofidagi dehqonlar Beshyog'ochdagi polisiya boshkarmasi tomon yo'l oldilar. Bu yerda katta olomon to'plandi. Namoyishchilar «bolalarimizni bergandan ko'ra o'zimiz o'lkanimiz yahshirok, podsho o'lib ketsin» deya maydonni larzaga keltirdi. Mahalliy aholi faollaridan Yo'lchi Ibrohimov (ko'nchi), G'ulom Kamolov (g'isht teruvchi), ishchi ayol Zuhrabibi Musayeva va boshkalar xalqni podshoh hujjatiga qarshi kat'iy kurash boshlashga da'vat etdilar. «Ur polisiyachilarni!» degan kichkiriklar bilan boshkarmaga hujum qildilar. Kamal va otishma boshlanganidan bir soat o'tganidan keyin yordamga jazo qo'shini yetib keldi. Kazak qismlar 5 kishini otib o'ldirishdi, 15 kishi yarador bo'ldi. Halok bo'lganlar orasida Zuhrabibi ham bor edi. Qo'zg'olonchilar chekinishdi. Sal keyinrok yana chinakam jang boshlandi. Endi podshoh askarlari chekinishga majbur bo'ldilar, ular boshkarma ichiga kirib olib, barrikada kurib himoyalandi. Polkovnik Saviskiy boshliq jazo otryadi, uning orkasidan kelgan general Galkin kuchlari jangga kirib, qo'zg'olonni bostirishga erishdilar. Toshkent atrofidagi kishloklardagi dehqonlarning g'alayonlari polisiya va qo'shinlar bilan to'knashuvga aylandi. Bunday to'knashuvlar 12 iyulda Yangibozor, To'ytepa kishloklarida, 14 iyulda Troisk, Xonobod va Pekent kishloklarida bo'lib o'tdi. Noroziliklar Rossiyaning asosiy pahta yetishtiruvchi hududiga aylangan Farg'ona vodiysida tobora kuchaya boshladi. G'alayonlar Qo'qon shahri, Kattako'rg'on, Rishton, Ganjiravon kishloklarida ham bo'lib o'tdi! Noroziliklar Rossiyaning asosiy pahta yetishtiruvchi hududiga aylangan Farg'ona vodiysida tobora kuchaya boshladi. G'alayonlar Qo'qon shahri, Kattako'rg'on, Rishton, Ganjiravon kishloklarida ham bo'lib o'tdi. Ularning barchasi ayovsiz bostirildi. 9 iyul kuni Andijon jome masjidida podshoh farmoni o'kib eshittirdi. Aholi yashin tezligida maydonni to'ldirishdi. Xalq «hozir hamma mingboshilar va amaldorlarning boshini kesib tashlaymiz va mol-mulkini yer bilan yakson kilamiz» deb tahdid solib, safarbarlikni bekor etishni talab qildi. Polisiya va kazaklarga qarshi hujum boshlandi. Jazolovchilar

Turkiya olimi Ibrohim Yorkinning ma'lumotlariga ko'ra, 1916 yildagi qo'zg'olonda 1917 yil boshiga kadar tahminan 1,5 mln kishi katl kilingan. Qo'zg'olon okibatida Turkiston aholisidan 673 ming kishi o'ldirildi. 300 mingdan ziyod kishi horijga chikib ketgan. 1mln kishining mol-mulki musodara kilinib, talon-taroj etilgan. Aholidagi otlarning 50 foizi, sigirlarning 39 foizi, tuyalarning 55 foizi, ko'y-echkilarning 50 foizi o'lgan va musodara kilingan. Hullas, «ok podsho» malaylari

Jizzah qo'zg'oloni va o'lka bo'ylab ko'tarilgan qo'zg'olon harakatlari katnashchilaridan vahshiylarcha o'ch olganlar. Bu harakat jarayonida mustamlakachilar ham katta talofat ko'rdilar. General-gubernator imperatorga yo'llagan mutlako mahfiy ahborotida 97 ta rus askari o'ldirilib, 86 tasi yarador bo'lganini va 76 tasi bedarak yo'qolganini, 7 ta rus amaldori va rus aholisidan 2325 kishi o'ldirilib, 1384 kishi bedarak yo'qolganini yozadi. Qo'zg'olon o'lkadagi chor Rossiya mustamlakachilik tuzumini tagi bo'sh zaminda ekanligi va uning ustunlari kimiray boshlananini ham ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. «Tarihiy hotirasiz kelajak yo'k». T., «Sharq», 1998.
- 2.Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga hizmat etsin. T., «O'zbekiston», 1998.
- 3.Aliyev A. Mahmudho'ja Behbudiy. T., «Yozuvchi», 1994.
- 4.Vatan tuyg'usi. T., «O'zbekiston», 1996.
- 5.Ziyoyev H. Turkiston Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T., «Sharq», 1998.
- 6.Fozilbek Otabek. Dukchi Esxon fojeasi. T., «Cho'lpon», 1992.
- 7.G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orish tarihi. T., «Fan», 1956.
- 8.Karimov Sh. Shamsutdinov R. Turkiston Rossiya bosqini davrida. Andijon. «Meros», 1995.
- 9.Hasaniy M. Turkiston bosqini. T., «Nur», 1992.
- 10.Sodikov M. Erksevar, hurriyatparvar el vorislarimiz. T., «Kamalak», 1992. 20-30 betlar.
- 11.Jadidlar harakatining milliy mustaqillikka qadar. T., «Eldinur», 1998.
- 12.Murtozayeva R.X. O'zbekiston tarixi «Yangi asr avlodi». T., 2003.
- 13.O'zbekistonning yangi tarixi. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. 1-kitob «Sharq» 2000.

10-MAVZU: TURKISTONDA MUSTABID SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHI VA UNGA QARSHI QUROLLI HARAKAT.

Reja:

1. 1917 yil fevral inqilobining Turkistonga ta'siri. O'lkada inqilobiy harakatlar. Mahalliy xalqlarning siyosiy faollashuvi
2. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi va uning shovinistik siyosati.
3. Turkistonda qarshilik ko'rsatish harakatining boshlanishi, uning mohiyati va harakatlantiruvchi kuchlari. Xiva honligi va Buxoro amirligining tugatilishi.

Tayanch so'z va iboralar:

Fevral inqilobi, «Shuroi Islomiy», Shuroi Ulamo, Ittifoqi musulimin, oktyabr to'ntarishi, Turkiston muxtoriyati, Muvaqqat hukumat, istiklolchilik harakati, Fargona, Buxoro va Xorazm qurboshilari, Yosh xivaliklar, XXSR, yosh buxoroliklar, BXS.R.

1. 1917 yilning boshlarida Sankt-Peterburgda bo'lib o'tgan voqealar ta'sirida Turkistonda ham yangi jamiyatni shakllantirish uchun harakatlar boshlanib ketdi. Yuz minglab «mudrok» odamlar uyg'onib, siyosiy faoliyatga kirishdilar. Hukumat tuzilmalarini kayta kurishga kirishildi. Hamma joylarda ijtimoiy-siyosiy tashkilot va partiyalar tuzila boshladi. Siyosiy manfaatlarni ancha erkin ifoda qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Fevral inqilobi Turkiston aholisi tomonidan zo'r hayajon bilan kutib olindi. Inqilobiy Ko'mita tomonidan e'lon kilingan «Ozodlik, Tenglik, Birodarlik»

shiorlari Rossiyaning mustamlakachilik siyosatidan ezilgan musulmonlar kalbida yorqin kelajakka umid uyg'otdi. Biz so'z erkinligi, matbuot erkinligiga egamiz. Endilikda hakikatni aytgan va yozgan paytlarimizda og'zimizni yopishmaydi. O'z huquqlarimizni talab qilgan paytda kulok solishadi»^{8[1]}.

Ko'pgina shahar va kishloklarda tartibsiz ravishda miting va norozilik yig'ilishlari boshlandi. Ularda turli demokratik jamoat tashkilotlarini yuzaga keltirish hakida qarorlar kabul kilindi. Orzu-umidlar hademay amalga oshadiganday edi. 3 martda e'lon kilingan bayonnoma va 6 martda e'lon kilingan «Rossiya fukarolariga murojaatnoma»da Muvaqqat hukumat markaziy hokimiyatning organi sifatida demokratik o'zgarishlarning dikkatini tortuvchi dasturini bayon etdi. U siyosiy erkinliklar – so'z, matbuot, uyushmalar tashkil kilish, yig'ilishlar o'tkazish, halkka o'z siyosiy irodasini ifodalash huquqini berish, barcha tabaqaviy, diniy va milliy cheklanishlarni man etish; boshqarish shakli va mamlakat Konstitusiyasini qabul qilish lozim bo'lgan ta'sis Majlisini hamda, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarini umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri va yashirin ovoz berish asosida saylovlar o'tkazish, polisiyani halk milisiyasi bilan almashtirish; to'lik siyosiy amnistiya hakida tantanali ravishda bayon etdi.

Tadkikotlarda 1917 yil mart kunlarida musulmon aholisining siyosiy harakati hakida ayrim ma'lumotlarga kiritildi, milliy ziyolilarning, eng avvalo, jadidlarning vatanparvarlik faoliyati buzib ko'rsatildi, mahalliy aholini mustamlakachilikning saltanat tuzilmalariga qarshi kurashi, Turkistonning milliy uyg'onishdagi safarbarlik roli kamsitildi. Holbuki, chor samoderjaviyasi apparatini tugatish va yangilanish jarayonlarini yanada chukurlashtirishda milliy tashkilot va harakatlar faol ishtirok etgan edi. Ta'kidlash kerakki, Turkiston mahalliy xalqlarining inqilobiy o'zgarishlarga ko'shilishi birhil kechmagan. O'lkaning hozirgi kuni va kelajagiga turlicha karaydigan hilma-hil kuchlar mavjud edi. Umumiy jihatdan olganda ikki mukobil okim - o'nglar va so'llarni ajratib ko'rsatish mumkin. O'nglar konservativ feodal-diniy mafkura vakillari sifatida maydonga chikishdi. Ular mahalliy ma'muriyatda mansabga ega bo'lgan va tegishli imtiyozlardan foydalangan amaldorlar, feodallar va ruhoniylar manfaatlarini ifoda etardilar. So'llar ijtimoiy tuzumning tubdan o'zgarishidan, mustamlaka-feodal siyosiy va iktisodiy institutlarni tugatishdan o'ta manfaatdor bo'lgan ijtimoiy guruh va katamlar manfaatlarini o'zida aks ettirgan edi. O'nglar chor hokimiyati yillarida mustamlakachilik ma'muriyati va samoderjaviya siyosatini to'la-to'kis kuvvatlab kelishgandi. Ular fevralgacha bo'lgan davrda qurolli ko'zg'olon yo'li bilan ozodlik va mamlakat mustakilligiga erishish, hon hokimiyati va shariat konunlari, zamindorlar va musulmon ruhoniylarining yo'kotilgan imtiyozlarini tiklash, o'lka halk ommasini yevropacha madaniyat va ahlok ta'siridan saklash g'oyalarini ilgari surishdi. O'lka mahalliy aholisi ushbu kismining aksari karashlarini «Sho'roi Ulamo» siyosiy tashkiloti o'zida aks ettirdi. So'llar harakatidagi boshka yo'nalishda radikal kayfiyatdagi milliy ishchi, dehkun, hunarmand va boshka mehnatkashlar bor edi. Fevralgacha bo'lgan davrda ular chor samoderjaviyasiga qarshi qurolli chikishlarda faol ishtirok etishdi. Chor tuzumi ag'darilgandan so'ng ularning bir kismi hokimiyatni zo'rlik bilan egallashni maksad kilib ko'ydi va jumladan, «ishchi-musulmon va kambag'allar huquqlarini ko'lga kiritish»ga va'da bergan bolsheviklashgan sovetlarning g'oyaviy ta'siri ostida bo'ldi. Ko'pchiligi esa Muvaqqat hukumat, so'ngra sovet hokimiyati

^{8[1]} «Hurriyat», 1917, 16 aprel.

siyosatidan kattik norozi bo'lib, keyinchalik keng kuloch yozgan, mustakillik uchun kurashgan ommaviy harakat – «istiklolchilik harakati»ning asosini tashkil etdi.

Fevral inqilobidan keyingi sharoitlarda «Sho'roi Islomiya», «Turk odami markaziyati» firikasi, «Alash o'rda» va boshkalar musulmon «markazchilari»ning eng ko'zga ko'ringan siyosiy tashkilotlari edi. «Musulmon mehnatkashlari Ittifoqi» - «Ittifoq» mahalliy aholi siyosiy kuchlarining joylashuvida alohida o'rin tutgandi. Siyosiy yo'nalish bo'yicha «Ittifoq» a'zolari asosan «kelishuvchi» partiyalar karashlariga yaqin turgan, bu partiyalar podshoh ag'darilgandan so'ng dastlabki oylarda hokimiyatni egallashni o'z oldiga maksad kilib ko'ymadi, balki milliy demokratlar kabi jamiyatni kayta kurishning muammolarini hal etishda sivilizatsiyaviy usullarini taklif etdi. Ko'rsatilgan siyosiy tashkilotlar yetuk tuzilma va g'oyaviy birlashmalar emas edi. Ularning har birida izchil siyosiy tabaqalanish jarayoni ro'y berardi, yangi yo'nalishlar ajralib chikardi. Ijtimoiy shart-sharoitlar ta'sirida ularning kaysidir kismi kurashning keskinrok yo'lini tanlar, boshkasi, aksincha, ancha mo'tadil va hatto konservativ, kolok munosabatlarga o'tardi. Birok inqilobning boshlariga kelib, g'oyaviy kelishuvchiliklarga karamay, yangilanishdan manfaatdor bo'lgan barcha siyosiy guruh va musulmon jamiyati katlamlari chor mustamlaka ma'muriyatini tugatishga intilishda birdamlik namoyish etdilar. Mart oyining dastlabki kunlarida yevropalik siyosiy harakatlar tashabbusni ko'p jihatdan o'z ko'llariga oldilar. Jumladan, 2 martdayok O'rta Osiyo temir yo'li Bosh ustahonalari ishchilarining deputatlari soveti tuzildi. 3 marta Toshkent ishchi deputatlari soveti 4 marta Toshkentda soldat deputatlari Soveti tashkil etildi. Mart ohirlarida bu ikki Sovet birlashtirildi. Shundan keyin dehkond deputatlari Sovetlari ham tuzila boshladi. O'zining milliy tarkibiga ko'ra tashkil etilayotgan Sovetlar o'lka aholisining ko'prok yevropaliklar kismi vakillari bo'lib, ularning manfaatlari ko'p jihatdan mahalliy turkistonliklar manfaatlarga to'g'ri kelmasdi. Shuni aytish kerakki, boshida Sho'rolar ham yevropalik, ham musulmon aholisining ko'pchiligi tomonidan ruhlanib kutib olindi. Ko'pchilik ularda chinakkam halkchil, chor boshkaruv tuzilmalariga mukobil bo'lgan demokratik hokimiyat organlarini ko'rdi. O'lka aholisining ijroiya ko'mitalariga turli iltimos, shikoyat kabilar bilan murojaat kilishi ham shunga guvohlik beradi. «Sho'roi Islom» yaratilishining o'zi ham Sovetlar g'oyasining obro'si yuqoriligini ko'rsatib turibdi. Birok sof musulmon sho'rosini shakllantirish hakidagi karor Toshkentda dastlabki sovetlarni tashkil kilish chog'ida namoyon bo'lgan aholining yevropalik kismning etnosentrizmi va buyuk davlatchilik da'volariga javobi bo'lgan edi. Mahalliy aholi yevropaliklarning sovetida keng musulmon vakolati yo'kligi, musulmonlarga ishonchsizlikning ifodalanishi ularning milliy huquqlari kamsitilishini ko'rdilar. Ular «Sho'roi Islom»ni tashkil etish bilan fevral inqilobidan so'ng ham kolayotgan ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish hohishini namoyish etdilar. Yangi organ yevropalashgan Sovetlardan farkli ravishda islom diniga e'tikod kiluvchi mahalliy aholidan saylangan deputatlar Sho'rosi (ya'ni Sovet) deb karalgan. «Sho'roi Islomiya», ya'ni «Musulmonlar sho'rosi» nomi ham shundan olingan.

1917 yilning 14 martida bo'lib o'tgan «Sho'roi Islom» majlisida 15 kishidan iborat boshkaruvni tashkil etish hakida karor kabul kilindi. Boshkaruv tarkibiga Abdulvohid qori o'g'li, Munavvar qori Abdurashidhon o'g'li, Kattaho'ja Hidoyatboy o'g'li, Ubaydulla Ho'jayev va boshkalar kirdi. «Sho'roi Islom» va uning boshkaruvi tarkibi bu tashkilot saflarida musulmon birligi g'oyasi birlashtirgan turli

dunyokarashdagi vakillar mavjudligi hakida guvohlik berdi. Birok Ubaydulla Ho'jayev, Munavvar qori, Abdulla Avloniy kabi jadidchilik harakatining tanikli yo'l boshchilari «Sho'roi Islom»ning yuragi, uning faol kuchi edilar. 15 martda Munavvar qori honadonida bo'lib o'tgan tashkilot boshkaruvining birinchi yig'inida kabul kilingan vaktinchilik Nizomda «Sho'roi Islomiya»ning asosiy maksad va vazifalari kuyidagicha keltirildi: Turkiston musulmonlari orasida zamonaviy ruhdagi ilmiy va ijtimoiy islohotchilik g'oyalarini tarkatish; g'oyalar maksadlar birligi asosida Turkiston musulmonlarini jipslashtirish bo'yicha ishlarni kuchaytirish: horijiy yurtlardagi davlat hokimiyati tizimi hakida ahborot yig'ish va Ta'sis majlisiga tayyorgarlik ko'rish: targ'ibot maksadlarida shahar, kishlok va ovullarda namoyishlarni muttasil o'tkazish: eski ma'muriyatni iste'foga chikarish va yangisini tayinlash zaruriyatini tushuntirish: o'lkadagi turli milliy ko'mitalar va partiyalar bilan alokalarini yo'lga ko'yish, musulmon aholisining ehtiyojlari hakida o'z vakillari orkali ma'lumotlar yetkazish va zaruriyat tug'ilganda ulardan yordam so'rash va hokazolar^{9[2]}. 25 martda «Sho'roi Islomiya»ning 4-umumiy majlisi bo'lib o'tdi. Unda 15 aprelga mo'ljallangan Umumturkiston musulmonlari syezdini o'tkazish bo'yicha mahsus dasturni tayyorlash bilan bog'lik bir kator muhim masalalar ko'rib chikildi; musulmon bayroklari kunlarini belgilash va ularni o'tkazish tartibini tuzish; rus vatandoshlar ushbu siyosiy tashkilotning maksad va dasturi hakida ahborot olish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun rus tilida gazeta nashr etish; Toshkent shahrining ruslar yashaydigan kismida «Sho'roi Islomiya»ning bo'limini ochish («Najot», 1917, 23 mart). «Sho'roi Islomiya», «Najot» va «Kengash» gazetalari uning nashr organlari sifatida faol chop etila boshladi. Bu gazetalar sahifalarida ma'rifiy harakterdagi materiallardan tashkari mahalliy turkistonliklarning siyosiy ongi va ijtimoiy faolligini uyg'otishga yo'naltirilgan makolalar ham e'lon kilindi. «Sho'roi Islomiya»ning tashkil etilishi umumturkiston miqyosida mahalliy aholining g'oyaviy-siyosiy va tashkiliy jipslanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratdi. Jumladan «Sho'roi Islomiya» tashabbusi bilan 16-21 aprelda 1 Umumturkiston musulmonlari syezdi o'tkazildi fakat shuni aytib o'tish lozimki, mazkur siyosiy yig'inda o'sha davrning asosiy masalalari: urushga, Muvaqqat Hukumatiga munosabat, Ta'sis majlisiga tayyorgarlik, Rossiya va o'lkada boshqarishning bo'lg'usi shakllari, ozik-ovkat takchilligini yyengib o'tish yo'llari va boshka masalalar dikkat markazida turdi.

1917 yilda Toshkentda jadidchilik harakati yo'l boshchilarining tashabbusi bilan Turkiston musulmonlari Kurultoyi chakirildi, unda o'lka musulmonlari Sho'rosi saylandi. Uning tarkibiga o'sha davrning mashhur siyosiy arboblari Mahmudho'ja Behbudiy, Ubaydulla Ho'jayev, Nosirhon To'ra, Muhammadjon Tinishbayev, Mustaf Cho'kayev va boshkalar kirdilar. Shunday kilib, o'lkaning siyosiy hayoti tobora tezkor sur'atlarda rivojlana bordi. Bunda musulmon tashkilotlari harakatlarning ta'siri kundan-kunga kuchaya bordi. Ular hususan, chor ma'muriyatining eng chidab bo'lmaydigan institutlarini butunlay tugatishda sezilarli hissa ko'shdilar. Biroq g'oyaviy kelishuvga erishish mumkin bo'lmasdi. Butunrossiya miqyosida ham, Turkistonda ham turli musulmon siyosiy okimlari o'rtasida ziddiyatlar saklanib koldi.

Shunday qilib, «fevral yangilanishi» jarayonlari turli-tuman natijalarga olib keldi. Fevral inqilobi Turkiston aholisida o'lkani boshqarish bo'yicha demokratik o'zgarishlar kilish, yetilgan ijtimoiy-iktisodiy va siyosiy muammolarni hal etish, mustamlaka

^{9[2]} «Najot», 1917, 9 aprel.

zulmini tugatish borasida katta umidlar uyg'otdi. Chor yakkahokimligi (samoderjaviyasi)ning barham topishi bilan ijtimoiy hayotni demokratlash, siyosiy-iktisodiy munosabatlarning yangi tuzilmalarini tarkib toptirish bo'yicha muayyan shart-sharoitlar yaratildi. Butun mamlakatda bo'lgani kabi, Turkistonda ham yangi partiya va siyosiy harakatlar jadal tashkil etildi, vakolatli ijtimoiy tashkilotlar yuzaga keldi, hokimiyat vazifalarining bir kismini o'ziga olishga intilgan sovetlar shakllandi. Fevral inqilobi tufayli, ijtimoiy hayotda yuz bergan demokratik jarayonlar tufayli Turkistonning mahalliy aholisi orasida tarixiy tarakkiyotning o'z yo'lini taklif etgan ko'p sonli milliy-siyosiy tashkilotlar yuzaga keldi. O'lkaga milliy-hududiy muhtoriyat berish pozitsiyalarida turgan O'lkamusho'rosi ana shunday tashkilotlardan biridir. O'lkamusho'rosi va uni ko'llab kuvvatlovchi milliy-demokratik partiya va birlashmalar muhtoriyat g'oyasini targ'ib etish va muhtoriyatchilik harakatiga musulmon aholisining keng katlamlarini jalb etish bo'yicha katta ishlarni olib bordi. Suverenitet va milliy turmush tarzini muhofaza qilish, asriy an'analar va islomning ma'naviy kadriyatlarni asrab-avaylash kabilarni o'ziga jamlangan muhtoriyat g'oyalari Turkiston jamiyatida tobora keng tarkaldi. Birok o'lka aholisining musulmon kismini siyosiy jipslashtirish jarayoni ziddiyatli tarzda kechdi. Mahalliy aholi esa mustakil milliy rivojlanish huquqini ta'minlashga intildi. Fevraldan keyingi davrda mahalliy turkistonliklarning siyosiy faolligi tez o'sib, ularning ijtimoiy hayotdagi ta'siri kuchaydi. Birinchi navbatda, jadidchilik yo'nalishidagi siyosiy tashkilotlar musulmon aholining erkparvarlik orzu-umidlari ifodasi sifatida maydonga chikdi.

2. «Oktyabr to'ntarishi» Rossiya davlati va Turkiston tarixida yangi sahifani ochdi. Ma'lumki 1917 yil 25 oktyabrda Petrograda qurolli ko'zg'olon amalga oshirildi. O'sha kuni kech soat beshda Toshsovet ijroko'mining yashirin majlisida o'lkada qurolli chikish rejasi muhokama etildi. 28 oktyabr ertalab soat oltida yangragan bosh temiryo'l ustahonalari gudogi Toshkentda oktyabr to'ntarishi boshlaganidan darak berdi. Shundan so'ng butun hokimiyat Toshsovetga o'tdi. 1 noyabrda Toshsovet temiryo'l liniyasi orkali kuyidagi telegrammani yo'lladi: «Sovet butun hokimiyatni kabul kildi. Hokimiyatni o'z ko'lingizga olingiz».

Petrogradda bolshevistik ko'zg'olonning g'alabasi va sovet hokimiyatining dastlabki hujjat va dekretlari Turkiston siyosiy hayotida murakkab jarayonlarga sabab bo'ldi. Bu paytga kelib uch asosiy yo'l ajralib chikdi. Birinchisi mahalliy aholining keng katlamlari manfaatlarini o'z ichiga olgan bo'lib, bu milliy o'z takdirini o'zi belgilashga oid huquqini ta'minlashda o'z ifodasini topdi. Rus eserlari va mensheviklari manfaatlarini ifodalovchi ikkinchi siyosiy yo'l Rossiya tarkibida cheklangan muhtor huquqlarni beruvchi demokratik jarayonlarni kengaytirishga karatilgan edi. Uchinchi yo'l - yagona sovet imperiyasi makonida hayoliy kommunistik jamiyatni barpo etishga yo'naltirilgan bo'lib, biroq dastlabki paytda lenincha rahbariyat o'zining asl maksadlarini turli vositalar yordamida nikoblashga intilgan edi. Milliy chet o'lkalar keng halk ommasining siyosiy ko'llab-kuvatlanishini ta'minlashga harakat kilgan yangi sovet hukumatining boshlig'i oktyabr to'ntarishining dastlabki kunlaridayok milliy masalani keskin hal kilishning serva'da istikbollarini bayon etishga shoshildi. 1917 yil 2 noyabrda V.I.Lenin va I.V.Stalin imzosi bilan «Rossiya xalqlarining huquqlari deklarasiyasi» e'lon kilindi. Unda alohida ta'kidlash bilan xalqlar irodasini bajara borib, «Halk Komissarlari soveti Rossiya millatlari hakidagi masala bo'yicha o'z faoliyatida kuyidagilarga asoslanishini karor kildi: 1. Rossiya xalqlarining tengligi va suverenligi.

2. Rossiya xalqlarining ajralib chikish mustakil davlat barpo etishgacha bo'lgan o'z takdirini o'zi erkin belgilash huquqi. 3. Har kandy milliy, milliy-diniy imtiyozlar hamda cheklanishlarni ma'n etish...» ayni paytda, Halk Komisarlarl Soveti (sovnarkom) Tatariston, Boshkirdiston, Turkiston, Kavkaz va Krim musulmon xalqlarining Rossiya tarkibida siyosiy loyalligini ta'minlash va saklashning favkulodda muhimligini hisobga olib, 1917 yil 20 noyabrda «Murojaat» bilan chikdi, unda shunday deyiladi: «Biz sizga, Rossiya va Sharkning mehnatkash va mazlum musulmonlariga murojaat kilmokdamiz. Rossiya musulmonlari, Volgabo'yi va Krim-tatarlari, Sibir va Turkiston kirg'izlari va sartlari, Kavkazorti turklari va tatarlari, Kavkaz chechenlari va tog'liklari, Rossiya podshohlari tomonidan masjid va ibodathonalari vayron kilingan, e'tikod va urf odatlari toptalgan. Bundan buyon sizning e'tikod va urf-odatlarinigiz, sizning milliy va madaniy muassasalarinigiz erkin va dahlsiz deb e'lon kilinadi. O'z milliy hayotingizni erkin va to'siksiz barpo eting. Siz bunga haklisiz. Siz o'z mamlakatingizga o'zingiz ho'jayin bo'lmog'ingiz lozim». Birok keyingi voqealar ishonarli ko'rsatilganidek, yangi hokimiyat o'ziga hos milliy rivojlanish imkoniyatini so'zlarda bayon etib, amalda ularga to'skinlik kildi. Jumladan, Boshkardiston, Tatariston, Krim va Kavkazning musulmon xalqlari hukumat «murojaati» bilan to'lik kelishgan holda o'zlarining mustakil musulmon davlatlarini tashkil etishlarini e'lon kilganda, ularning hammasi qurol kuchi bilan Rossiya tarkibiga kaytarildi. Bolshevistik markaziy rahbariyat ulug' davlatchilik siyosatini davom ettirdi. Bu hol mahalliy kommunistlarning ochikdan-ochik shovinistik harakatlari tufayli yanada chukurlashdi. Birok oktyabrning dastlabki kunlarida yangi hokimiyatning halkka qarshi munosabati hali ochikdan-ochik ko'rinmagandi. Aksincha, ozodlik hakidagi va'dalar ezilgan xalqlarda mustamlakachilik zulmidan kutulish umidini uyg'otdi. Mahalliy aholi asosiy ommasining orzu-umidlari Rossiya Imperiyasining mustamlakachilik zulmidan ozod bo'lish, mustakil demokratik milliy davlat barpo etish, asriy urf-odatlar, an'analar, butun musulmon turmush tarzini saklab kolishdan iborat edi. Birok «Inqilob» to'liknida hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar va ularning vaktinchalik Ittifoqchilari bo'lgan so'l eserlar Turkiston xalqlarining irodasi va istaklari bilan mutloko hisoblashmadilar. Lenin hukumati va o'lkada uning siyosatini amalga oshiruvchi turkistonlik bolsheviklar o'lkaning mustamlaka holatini o'zgartirishni va uning xalqlariga yengillik berishni mutlako istamas edilar. Boshka partiyalardan farkli o'larok, mahalliy bolsheviklar turli bahonalar bilan hokimiyatni aholining 95%ni tashkil etuvchi mahalliy aholiga berishni, hatto ular bilan bo'lishib olishni ham hohlamas edi. Turkistonlik bolsheviklarning tutgan bu buyuk davlatchilik yo'li Toshkentda 1917 yil 15-22 noyabrda bo'lib o'tgan sovetlarning III o'lka syezdida ayniksa yakkol namoyon bo'ldi.

Hukumat, birinchi gald bolsheviklar, mohiyatan chorizm mustamlakachilik siyosatiga amal kildilar. Shu bilan birga oktyabr to'ntarishidan keyin Rossiyada bo'lgani singari, Turkistonda ham inqilobiy akidalarga, eng avvalo sinfiylik tamoyillariga amal kilindi. Asosiy inqilobiy kuch - proletariat va kambag'al dehqonlar, aholining boshka katlamlari esa reaksion va ekspluatatar guruhlar deb e'lon kilindi. Mulkdorlar-ekspluatatorlar, ezuvchilar, milliy ziyolilar, o'kimishli, obro'-e'tiborli halk vakillari-milliy burjuaziya korchalonlari va malaylari; islom dini rahnamolari-reaksion okim deb, ularga qarshi ayovsiz kurash boshlab yuborildi.

Turkiston o'lkasidagi dastlabki sovet hukumatining ziddiyatli tarkibi mintakada yevropalik aholi hukmronligini mustahkamlashga karatilgan edi. Mahalliy millatlarning

siyosiy jarayonga aralastirilmaganligi o'lkada xalqlarining sovet hokimiyatiga bo'lgan ishonchsizligini yanada kuchaytirdi.

Hokimiyat bolsheviklar ko'liga o'tishi bilan o'lkada Muvaqqat hukumatning barcha bo'g'inlari tugatilib, o'rniga avvalo jazo organlari va sovet boshkaruv tizimi o'rnatildi. Shu vaktning o'zida Butunrossiya Favkulodda komissiya (cheka) organlari va inqilobiy tribunallar tashkil etildi. Proletariat diktaturasining bu jazo organlari ozodlik va demokratiyani bo'g'ishda, o'zgacha fikrlaydigan kishilarni katag'on kilishda muhim qurol bo'ldi. Turkiston bolsheviklari va so'l eserlari musulmon aholisining o'lkani boshqarishga bo'lgan huquqini inkor kilib, hokimiyat to'g'risidagi masalani kelishib hal kilish imkoniyatini yo'kka chikardilar va shu bilan o'lkada siyosiy hayotidagi kuchlarning kelgusida muholifatga aylanishini oldindan mukarrar kilib ko'ydilar.

1917 yil 26 noyabrda Qo'qon shahrida O'lkada musulmonlarining IV favkulodda syezdi ish boshladi. Unda o'lkaning barcha mintakalari va ko'pgina jamoat tashkilotlaridan 200 nafardan ortik vakil hozir bo'ldi. Kun tartibiga o'lkani boshqarish shakli, Turkiston Markaziy musulmonlar sovetini kayta saylash, Turkiston Ta'sis majlisi, milisiya, moliya va boshka masalalar qo'yildi.

Syezdda Farg'onadan – 100, Sirdaryodan – 22, Samarqanddan – 21, Buxorodan – 4 va Kaspiyortidan – 1 vakil katnashayotgan edi. Shuningdek, viloyat vakillaridan tashkari syezda «Sho'roi Islom», «Sho'roi Ulamo», musulmon harbiylari kengashi, O'lkada yahudiylar jamiyati (Paoley Sion), mahalliy yahudiylar vakillari katnashdilar. Muhokamadan keyin 13 kishidan iborat hay'at saylashga kelishib olindi. Ochik ovoz bilan hay'at a'zoliciga kuyidagilar saylandilar: M.Cho'kayev, U.Ho'jayev, Yu.Agayev, S.Gersfeld, O.Mahmudov, A.O'razayev, I.Shoahmedov, Kigichinboyev, Kamol Kozi, Abdul Badin, Tiliyev, Karimboyev. Syezdda uch kunlik munozaradan so'ng vakillar Turkistonning bo'lg'usi siyosiy tuzumi to'g'risida kat'iy bir fikrga yakdillik bilan kelishib oldilar. 27 noyabr kuni kechasi soat 12da 2 kishi qarshi bo'lib kabul kilingan karorda, jumladan, shunday deyiladi: «Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash hususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni federativ Rossiya respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muhtor deb e'lon kiladi, shu bilan birga muhtoriyatning karor topish shakllarini Ta'sis majlisiga havola etadi». Shundan keyin syezd «Turkistonda yashab turgan milliy ozchilik aholi huquqlarining muttasil himoya kilinishini tantanali ravishda e'lon kiladi».

28 noyabrda tashkil topayotgan mazkur davlatning nomi «Turkiston Muhtoriyati» deb ataladigan bo'ldi. Hokimiyatni esa Ta'sis syezdi chakirilgunga kadar Turkiston muvaqqat Kengashi va Turkiston Halk (Milliy) Majlisi ko'lida bo'lishi ta'kidlandi. Shuningdek, syezdda Muvaqqat Kengash tarkibiga 12 kishidan iborat a'zolar saylash taklif etildi. Halk majlisi tarkibiga saylanadigan 54 o'rindan 18 o'rin o'lkadagi turli yevropalik aholi tashkilotlarining vakillari uchun ajratildi. Bu esa uchdan bir o'rin yevropalik aholi vakillariga tegishini bildirar edi.

Muvaqqat hukumat tarkibiga kuyidagi a'zolar saylanadi:

1. M.Tanishbayev – bosh vazir, ichki ishlar vaziri, 2 chakirik Davlat Dumasining a'zosi, Muvaqqat hukumat Turkiston komitetining a'zosi, muhandis.

2. Islom Sulton Shoahmedov (Shaahmedov) – bosh vazir o'rinbosari, Butunrossiya musulmonlari kengashi Markaziy ko'mitasining a'zosi, huquqshunos.

3. Mustafo Cho'kayev – tashki ishlar vaziri, Turkiston Musulmonlar Sho'rosi Markaziy ko'mitasining raisi, huquqshunos.

4. Ubaydullo Ho'jayev – harbiy vazir, Butunrossiya musulmonlar kengashi MK a'zosi, huquqshunos.

5. Yurali Agayev – yer va suv boyliklari vaziri, agronom.

6. Obidjon Mahmudov – ozik-ovkat vaziri, Qo'qon shahar dumasi Raisning o'rinbosari, tog'-kon sanoati muhandisi.

7. Abdurahmon O'razayev – ichki ishlar vazirining o'rinbosari, huquqshunos.

8. Salomon Abramovich Gersfeld – moliya vaziri, huquqshunos.

Muvaqqat hukumat tarkibiga 12 a'zo o'rniga 8 kishi saylanganligining sababi yana to'rt kishi – yevropalik aholi vakillari ichidan nomzodlar ko'rsatilgach, kayd etilishi ko'zda tutilgan edi.

Syezdga, shuningdek, Halk Majlisi a'zolari ham saylandi. Umummusulmon syezdining 27 noyabrda Turkiston Muhtoriyatini tashkil qilganligi haqidagi qarori o'lka xalqlarini ruhlantirib yubordi. Turkiston xalqlari muhtoriyatni ko'llab-kuvvatlab mitinglar, yig'inlar uyushtirdilar. Turkiston halkining muhtoriyat uchun olib borgan kurashida 1917 yil 13 dekabrda bo'lib o'tgan fojiali voqealar muhim o'rin tutadi. O'sha kuni Toshkentda eski shahar aholisi «Muhtor Turkiston uchun!» shiori ostida tinch bayram namoyishini o'tkazdi. Ammo Toshkent Sovetidagi bolsheviklar shaharda qurolli kuch bilan tartib o'rnatishga buyruk beradilar. Okibatda tinch namoyish katnashchilari pulemyotdan o'kka tutildi, eski shaharlik 16 kishi ana shu to'knashuv kurboni bo'ldi.

Muhtor hukumatning halk o'rtasidagi obro'-e'tibori va nufuzi bolsheviklarni tashvishga solib ko'ydi. 1918 yil 19-26 yanvar (yangi hisob bilan 1-8 fevral)da Toshkentda bo'lgan Turkiston o'lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarining favkulodda IV syezdida muhtoriyat masalasi asosiy o'rinda turdi. Syezd Turkiston Muhtoriyati hukumati va uning a'zolarini konundan tashkari holatda deb, hukumat a'zolarini kamokka olish to'g'risida qaror chikardi. Bolsheviklar o'zlarining bu kabih va mudhish «hukmi»ni amalga oshirishga zudlik bilan kirishdilar. 30 yanvar (yangi hisob bilan 12 fevral)da Turkiston HKS muhtoriyat hukumatini tugatish uchun harbiy harakatlarni boshladi. Turkiston bolsheviklari buning uchun kizil askarlardan tashkari armanlarning «Dashnoksutyun» partiyasi a'zolaridan tuzilgan qurolli to'dalardan ham keng foydalandi. Ularga qarshi dastlabki jangda muhtoriyatning milliy ko'shinidan tashkari Qo'qonlik tinch aholi vakillari ham katnashdi. Asosan, bolta, cho'kich, tayok ko'targan haloyikning soni 10000 kishiga yetdi. Shunga karamay, qurolsiz bu kishilar kizil askarlarning Qo'qon shahriga hujumini uch kun davomida mardonavor kaytardilar. Shahar ustiga uch kun davomida to'plardan yondiruvchi snaryadlar otildi. Muhtoriyat ko'shinining tirik kolgan kismi Kichik Ergash Ko'rboshi boshchiligida shahardan chikib ketdi. Turkiston Muhtoriyati hukumati kizil askarlar va dashnoklarning konli hujumlari okibatida ag'darib tashlandi. Ammo Qo'qon va uning atrofidagi tinch aholini talash, o'ldirish avjiga chikdi. Fakat Qo'qonning o'zida uch kun davomida 10000 kishi o'ldirildi. Shahar butkul vayronaga aylantirildi.

Hukumat boshlig'i Mustafo Cho'kay shaharni tark etib, yashirinishga majbur bo'ldi. Vazirlarning ayrimlari halok bo'ldi. Ba'zilarini bolsheviklar ko'lga olishdi. «Ulug' Turkiston» gazetasi habar berganidek, «20 (eski hisob bilan 7) fevral Ko'kand (Qo'qon) tarihinin eng dahshatli kuni edi. Armanilar ayricha faoliyat ko'rsatganlar».

Gazetadagi ushbu makola «Ho'kand hozir o'liklar shahri», degan dahshatli ibora bilan tugaydi.

Turkiston respublikasi HKS va MIK ichida hokimiyat uchun o'zaro kurashlar, mojarolar va janjallar avjiga chikdi. Oktyabr oyida Turkiston HKS raisi F.Kolesov va boshka ayrim amaldorlar egallagan lavozimdan bo'shatildi. 1919 yil 19 yanvarda harbiy komissar K.Osipov boshchiligida Toshkentda isyon ko'tarildi. K.Osipovning buyrug'i bilan 14 komissar otib tashlandi. Isyonchilar tomonidan sovet hokimiyati ag'darildi, hokimiyat masalasi Ta'sis Majlisida hal kilinadi, deb e'lon kilindi. Birok isyon Toshkent temir yo'l ustahonalari ishchilari va boshka harbiy kismalar tomonidan tezda bostirildi. K.Osipov avval Farg'ona vodiysiga, so'ngra Buxoro amirligiga kochib ketdi. Bu isyon bahonasida bolsheviklar 1919 yil mart oyi boshida so'l eserlarni hukumatdan sikib chikarib, yakka o'zlari hukmron bo'lib oldilar. 1919 yil 8 oktyabrda Moskvada Turkkomissiya (Rossiyaning Turkiston ishlari bo'yicha komissiyasi) tashkil kinililib, u Toshkentga jo'natildi. Turkkomissiya, keyinchalik tuzilgan Turkbyuro va O'rta Osiyo byurosi kabi turli komissiya va byurolar muntazam ravishda Rossiya Markazidan Turkistonga jo'natib turildi. Markaz o'zining bu favkulodda organlari orkali Turkiston mintakasi boshqarishga, mahalliy xalqlarni mustamlakachilik asoratida ushlab turishga intildi.

Bu paytda butun Rossiyada bo'lgani singari Turkiston respublikasida ham «harbiy kommunizm» siyosati joriy kilindi. Bu siyosat o'z mohiyatiga ko'ra halkka qarshi karatilgan edi. U hususan dehkonglarga katta zarba bo'lib tushdi. Turkistonda ham sovet rejimi bir kator dekretlar chikarib, ozik-ovkat razvyorstkasi (taksimoti)ni joriy kildi. Aslini olganda, dehkondan u yetishtirgan mahsulotning deyarli hammasi tortib olindi. Bozorlar yopildi, savdo-sotik takiklandi. 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan barcha erkak va ayollar uchun mehnat majburiyati joriy kilindi. «Qo'qon fojiasi» shu hakikatni yakkol tasdikladiki, Lenin boshchiligidagi bolsheviklar hukumati va Turkistonda bolshevik F.I.Kolesov rahbarligidagi o'lka Halk Komissarlari Kengashi (HKK) so'zda «millatlarning o'z takdirini o'zi belgilash» huquqi uchun jonbozlik ko'rsatsalarda, amalda «yagona va bo'linmas Rossiya» uchun kurash olib bordi va bu borada chorizmning mustamlakachilik siyosatini ochikdan-ochik davom ettirdi. Ularni har kanday muhtoriyat emas, balki RSFSR tarkibida sovet muhtoriyati shaklidagi, bolsheviklarga ma'kul bo'lgan va ular homiyligida tashkil etiladigan muhtoriyatgina kanoatlantirar edi. Bolsheviklar «millatlarning o'z takdirini o'zi belgilash» tushunchasiga o'ta sinfiy mazmunni singdirib, o'z takdirini o'zlari belgilaydigan millatlar irodasi bilan va mavjud mahalliy vokyelik bilan mutlako hisoblashmadilar. 1918 yil 20 aprelda Toshkentda sovetlarning V o'lka syezdi ochildi. Uning ishida 263 delegat, shu jumladan, mahalliy millatlardan 50 delegat ishtirok etdi, bu esa delegatlarning bor yo'g'i 20 foizidan ko'prog'ini tashkil etardi. Ko'rinib turibdiki, mahalliy millat vakillari syezdda mutlok ozchilikni tashkil kilgan. Ulardan ikki nafari – Husayn Ibrohimov va Sa'dulla Tursunho'jayev syezd hay'ati tarkibiga saylandi. Delegatlarning aksariyati bolsheviklar va so'l eserlar edi. Bolsheviklar 86, so'l eserlar 70 kishi edi. Binobarin, ular syezd ishining yo'nalishini belgilab berdilar. Syezd kun tartibida kuyidagi masalalar turardi: Halk Komissarlari Kengashining ma'ruzasi, sanoatni nasionalizasiya kilish, ocharchilikka va ishsizlikka qarshi kurash, hozirgi sharoit, Turkiston sovet Muhtoriyatining e'lon kilinishi munosabati bilan komissarliklarni, hokimiyatni kayta tashkil etish va boshkalar. Syezdning asosiy

vazifasi Turkiston sovet Muhtoriyatini e'lon kilish edi. Moskvadan kelgan hujjatda o'lka muhtoriyatining kanday bo'lishi hakida anik ko'rsatma mavjud bo'lib, syezd delegatlariga RSFSR hukumati Turkistonning har kanday muhtoriyatini ham ko'llab-kuvvatlamasligini, fakat Markazga ma'kul keladigan sovet muhtoriyatini kabul kilishini ochikchasiga bildirib ko'rgan edi. Delegatlar uchun Moskvaning bunday ko'rsatmasidan keyin Turkistonning sovet muhtoriyatini e'lon kilishdan boshka iloji kolmagan edi. 1918 yil 30 aprelda syezd «Turkiston Sovet Federativ Respublikasi to'g'risida Nizom»ni kabul kildi. Bu nizomga ko'ra Turkiston o'lkasining hududi «Rossiya Sovet Federasiyasining Turkiston Sovet Respublikasi» deb e'lon kilinadi. Uning tarkibiga Turkistonning barcha hududi o'zining geografik chegarasi bilan kiritildi, Xiva bilan Buxoro esa bundan mustasno edi. Turkiston respublikasi muhtoriyat tarzida boshkarilib, o'zining barcha faoliyatini RSFSR hukumati bilan muvofiklashtirar va uni e'tirof kilar edi. Rossiya bilan o'zaro munosabatlarni belgilash uchun syezd 5 kishidan iborat komissiya saylandi.

1917 yilda sodir bo'lgan oktyabr to'ntarishi va buning natijasida hokimiyatni ko'lga kiritgan bolsheviklar tomonidan ilgari surilgan kommunistik mafkura Turkiston xalqlari uchun mutlako yot tushuncha edi. Mahalliy aholi bu g'oyani avval boshdanok o'ziga singdira olmadi va unga qarshi turdi.

Ikkinchidan, sovet hukumati o'rnatilgan dastlabki davrda hokimiyatni boshqarishga mahalliy halk vakillari jalb kilinmadi, ularning milliy g'ururi, hak-huquqi inkor kilindi. Turkistonda bolsheviklar tomonidan o'rnatilgan sovet rejimi chor Rossiyasi mustamlakachiligining yangi shakli ekanligi o'sha dastlabki kunlardanok oshkor bo'lgan edi.

Uchinchidan, yangi tuzum o'rnatilgan ilk kunlardanok mahalliy halkning asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, milliy kadriyatlar toptaldi. Shariat asoslari va kozihonalar bekor kilindi, vakf yerlari tortib olindi, mulkchilikning barcha shakliga chek ko'yildi.

3. Chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmi ostida ezilib kelgan farg'onaliklar Turkistonda birinchi bo'lib bolsheviklar rejimiga qarshi qurolli kurashga otlandilar. Shu tarika, Turkistonda sovet hokimiyati va bolshevikcha rejimga qarshi qurolli harakat 1918 yil fevral oyining ohirlarida boshlangan edi.

Bu harakatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi dehqonlar, chorikorlar, mardikorlar, hunarmandlar va kosiblar bo'lgan. Turkiston respublikasi rahbarlaridan birining e'tirof etilishicha, unga asosan dehqonlar va hunarmandlar katnashdi. Ularga shahar aholisining aksariyat kismiga o'ziga to'k badavlat oilalarning vakillari, savdogarlar, islom dini arboblari hamda ba'zi boylar ko'shildi. Harakat katnashchilari orasida tanigan ziyolilar ham ko'pchilikni tashkil kilar edi va ular jadidlar safidan ajralib chikkan edi. Bir so'z bilan aytganda, ular safida halkning barcha tabaqasiga mansub kishilar bor edi. Qo'qondagi dastlabki guruhlarining tashkil topishi Kichik Ergash (tahminan 1885-1918) va Katta Ergash (tahminan 1880-1921)larning nomi bilan bog'likdir.

Marg'ilonda esa milisiyaning sobik boshlig'i Muhammad Aminbek o'g'li - Madaminbek (1892-1920) kurash boshladi.

Farg'ona vodiysida 1918 yilning o'rtalariga kelib, tahminan yuzga yakin ko'rboshilar o'z dastalari bilan kizil armiya kismilariga qarshi kurash olib bordilar. Bu guruhlarda 15000 yigit bor edi. Turkistondagi bu harakatning o'ziga hos milliy

ko'rinishi va hususiyatlari mavjud bo'lgan. Bu hususiyatlar harakatdagi ko'rboshilar dastalari va guruhlari faoliyatida, ularning maksad va istaklarida o'z ifodasini topgan bo'lib, unda islom shariati konun-koidalari asosidagi milliy davlat barpo kilishdan tortib, to milliy demokratik tartibdagi mustakil davlat tuzishgacha kabi g'oyalar mujassamlashgan edi. Turkiston mintakasidagi mazkur harakatning muhim hususiyati shundaki, bu harakatda maksadlar va vazifalar kanday bo'lishidan kat'iy nazar boshidan ohirigacha bir ustuvor g'oya – Turkistonning milliy mustakilligi yotadi. Bu harakat goh kuchayib, goh pasayib turishiga karamay, unda ishtirok etuvchilarning tarkibi o'zgarib turishi va ikkilamchi manfaatlar o'rtada turganligi, hamda obyektiv va subyektiv omillar kuchlar muvozanatiga salbiy ta'sir kilishiga karamay, harakatning asosiy maksadi Turkiston mustakilligi bo'lib kolaverdi.

Turkistondagi bu harakatning uyushgan bir shaklda namoyon bo'lishida ko'rboshilar ko'rsatgan g'ayrat–shijoatni alohida ta'kidlab o'tish kerak. Ko'rboshilar harakatning harbiy rahbarlari bo'lib ular o'z jangovorliklari bilan mashhur edilar. O'z vaktida Farg'ona vodiysida Kichik Ergash, Katta Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek, Muhiddinbek, Islom Polvon, Yormat Mahsum, Samarkand viloyatida Ochilbek, Bahrombek, Buxoro respublikasida Ibrohimbek, Mulla Abdukahhor, Anvar Poshsho, Salim Poshsho, Davlatmandbek, Fuzayl Mahdum, Xorazm respublikasida Junaidhon kabi ko'rboshilar bu harakatni yagona kuchga birlashtirishi uchun rahbarlikni birin–ketin o'z ko'llariga olsalarda, lekin Turkiston mintakasidagi qurolli harakat boshdan ohirigacha yagona markazga to'lik uyusha olmadi. Farg'ona vodiysidagi bu harakat 1919 yil yozining ohiri va kuzida o'zining eng yuqori cho'kkisiga chikdi. 1919 yilning kech kuziga kelib Madaminbek ko'l ostida 30000ga yakin yigit kizil armiyaga qarshi janglarni olib bordilar. Bu paytda Shermuhammadbek ko'l ostida 20000, Katta Ergash ko'rboshida 8000 askar bo'lgan. Ana shu 3ta lashkarboshi vodiydagi jangovor harakatlarni yo'naltirib turdilar.

Turkistondagi bu harakat 1920 yilning yozi va kuzida o'zining yangi boskichiga kadam ko'ydi. Kurash yana ham shavkatsiz va murosasiz tus oldi. Turkiston MIK raisi Inomjon Hidiraliyevning keyinchalik yozishicha, «1920 yil sentyabrda bosmachilarning soni 70 ming kishiga yetdi va kuchli vahima uyg'otdi». Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatni tashkiliy jihatdan uyushtirishda Farg'ona vodiysi, Buxoro va Xorazmdagi ko'rboshilarning mazkur davrda bo'lib o'tgan o'ttizdan ortik kurultoylarining ahamiyati katta bo'lgan. Bu kurultoylarda harakat rahbarlari saylangan, ko'rboshilar yagona ko'mondonlik ostiga birlashtirilgan. Ammo bunga doim ham amal kilinmas edi. Shuningdek, kurultoylarda ko'rboshilar guruhlari harakat kiladigan joylar va ularning ta'sir doirasi belgilab olingan. Ba'zi ko'rboshilar Oliy bosh ko'mondonga bo'ysunmay, o'zlaricha mustakil harakat kilganlar. Farg'ona vodiysidagi vatanparvarlar ko'shiniga 1923-1924 yillarda oldin Islom Polvon (tahminan 1882-1923), so'ng Yormat Mahsum (1929 yil halok bo'lgan) kabi ko'rboshilar rahbarlik kildilar. Bu paytda ko'rboshilarning kichik-kichik guruhlari jang harakatlarini olib bordilar. Farg'onada ularning soni 1923 yilda 350-400 atrofida edi. Lekin ko'rboshilar kurashning mazkur boskichida turli sabab va mahalliy shart–sharoitlar natijasida doim ham bir-birlari bilan kelishib ish ko'rmadilar. 1920–1924 yillarda bu harakat Buxoro va Xorazm respublikalarida ham avj oldi. Buxoro va Xorazmdagi milliy muholifatning ozodlik kurashlari alohida, o'ziga hos yo'nalish va hususiyatga ega bo'lib, o'ta murakkabligi va ziddiyatligi bilan Turkiston respublikasidagi sovetlarga qarshi qurolli harakatdan ajralib

turardi. Bolsheviklar kizil armiya yordamida Buxoro amirligi va Xiva honligini kuch bilan ag'darib, hokimiyatni Buxoroda asosan Yosh Buxoroliklardan, Xorazmda esa Yosh Xivaliklardan iborat demokratik kuchlar ko'liga berdi.

Buxoro va Xorazm Halk Sovet Respublikalarida yuzaga kelgan qurolli muholifat shu boisdan ham bir yo'la ikki kuchga qarshi, birinchidan, bu davlatlar hududida joylashib olgan kizil armiya qarshi, ikkinchidan esa bolsheviklar yordamida hokimiyatni egallab olgan demokratik kuchlarga qarshi muholiflik urushini olib bordilar. Bu urushning Turkistondagi, hususan, Farg'ona vodiysidagi harakatdan farki ham ana shunda. Buxorodagi ko'rboshilar o'rtasida Ibrohimbek (1889-1932) alohida salmokka ega edi.

Ibrohimbek amirlik ag'darilib tashlangach, Sharkiy Buxorodagi ko'rboshilar guruhlariga umumiy rahbarlik kilib, bolsheviklar va boskinchi kizil armiyaga qarshi kurash boshladi. U o'z oldiga Buxoro tuprog'ini kizil askarlardan tozalab, ag'darib tashlangan amirlik tuzumini kayta tiklash va saltanatni sobik amir Said Olimhon (1881-1944) ko'liga olib berishni asosiy maksad kilib ko'ydi. Shuning uchun ham u kurashga kirgan dastlabki kunlardanok sobik Buxoro amiri tomonidan moddiy va ma'naviy jihatdan har tomonlama ko'llab-kuvvatlandi va rag'batlantirildi. Mujohidlarning asosiy maksadi kizil ko'shinni haydab yuborish, milliy kadriyatlar, asriy e'tikod va urf-odatlarining poymol kilinishi, barham berish edi. 1914-1918 yillarda yuz bergan jahon urushi, 1917 yilda Rossiyada amalga oshirilgan fevral burjua-demokratik inqilobi, undan keyingi oktyabr harbiy to'ntarishi va nihoyat, Turkiston o'lkasidagi milliy-ozodlik va istiklolchilik harakatlarining okibatlarini natijasida iktisodiy hayot keskin tus oldi. Har ikkala davlat hududida iktisodiy tanglik kuchaydi, narh-navo mislsiz darajada ko'tarildi, kashshoklik, ochlik avj oldi, pahta ekin maydonlari keskin kiskarib ketdi. Rossiyaga olib borib sotiladigan pahtaning mikdori 1917 yildan 1919 yilgacha bo'lgan davr mobaynida 20 barovar, korako'lning mikdori kariyb 10 barovar va junning mikdori esa 6 barovar kamaydi. Bir pud pahtaning narhi 1917-1919 yillar oralig'ida 11 so'mdan 1 so'm 80 tiyinga, bir pud junning narhi 6 so'mdan 2 so'mga, bir dona korako'lning narhi 7 so'mdan 1 so'm 20 tiyinga tushib koldi. Ayni paytda ozik-ovkat mahsulotlari narhi haddan ziyod oshib ketdi. Yana buning ustiga ustak amir ko'shinlariga mehnatkashlardan ommaviy safarbarlik e'lon kilinishi halkning ko'zg'olon ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Buxoro amirligi va Xiva honligida sodir bo'layotgan halk kurashining mafkuraviy asosini jadidchilik harakati tashkil etdi. Buxoro va Xiva jadidlari hokimi mutlok, o'z monarhlari bo'lgan amir va hon zulmiga qarshi kurashni bosh maksad deb bildilar.

«Yosh Buxoroliklar» va «Yosh Xivaliklar»ning pirovard maksadlari konstitusiyaviy monarhiya tuzumi edi. Ular ana shu konstitusiyaviy monarhiya tuzumi doirasida islohotlar o'tkazish yo'li bilan adolatli va insonparvar jamiyat kurish mumkin, deb ishonardilar. «Yosh Buxoroliklar» va «Yosh Xivaliklar» ijtimoiy-iktisodiy tarakkiyot darajasi takozosiga ko'ra halk ommasi o'rtasida mustahkam tayanch bazaga ega emas edilar. Ular o'zlariga Ittifoqchilarni chetdan izladilar va Rossiya timsolida amir va hon zulmidan ozod bo'lish mumkin, degan fikrga borib katta siyosiy hatoga yo'l ko'ydilar. «Yosh Xivaliklar» ko'mitasi tomonidan tayyorlangan manifestga Asfandiyorhon 1917 yil 4 aprelda imzo chekishga majbur bo'ldi. Bu hujjat asosida Xivada hon boshchiligida konstitusiyaviy monarhiya tuzumi karor topadi, deb e'lon kilindi. Saylov yo'li bilan deputatlar majlisi va Nozirlar kengashi tashkil topdi.

Keyinchalik majlis va hukumat butunlay «Yosh Xivaliklar» ko'liga o'tdi. Majlis nomidan e'lon kilingan Manifestga ko'ra honlikda vakf, mulk (hususiy) va podsholik yerlari dahlsizligicha saklanib koldi, hazinaning kirim va chikimlari ustidan nazorat o'rnatildi, shariat so'zlari davlat ta'minotiga o'tkazildi, yangi usuldagi jadid maktablari ochilishi belgilandi. Asfandiyorhon mamlakatda halk norozoliklarini bostirish va Boboohun Salimov boshchiligidagi jadidlarni tartibga chakirishda rus askarlaridan foydalandi. Harbiy komissar Zaysev honga yordam uchun jazo otryadlarini tashkil etdi. Halk hak-huquqlari rus askarlari tomonidan toptaldi va oyok osti kilindi. Bu ham yetmagandek, 1917 yilda honlik hududida ocharchilik avj oldi. May oyida Xiva shahrida «ochlik isyoni» ko'tarildi.

Mamlakatda ana shunday og'ir bir sharoitda 1917 yil sentyabrda Junaidhon o'z qurolli to'dalari bilan Xivaga kaytib keladi. U 1916 yildagi ko'zg'olon davrida Afg'onistonga o'tib ketgan edi. Junaidhon honlikda juda katta o'zgarishlar yasashga muvaffak bo'ldi.

Xorazm Halk Sho'ro Jumhuriyati 1920 yil 27-30 aprelda Xorazm Muvvakkat hukumati tomonidan chakirilgan Butun Xorazm Halk vakillarining 1 kurultoyda tashkil topdi. Uning Nozirlar sho'rosining raisi (Polvonniyozhoji Yusupov) va muovini (Boboohun Salimov) hamda 15ta nozirlari saylandi. Jami 17ta hukumat rahbarlaridan 11tasi «Yosh Xivaliklar»dan bo'ldi. Ular hukumatni milliy manfaat, mahalliy urf-odat va shariat koidalari va eng muhimi, mustakillik asosida boshqarishga harakat kilganlar. Bu esa Turkiston va Xivadagi vakolatli firka va sho'ro rahbarlariga yokmadi. Shuning uchun bu gal ham «Yosh Xivaliklar» firkasiga uyushgan jadidlar hukmronligi o'n oy to'lar-to'lmas, 1921 yil martda sho'ro hukumati va komfirkasi tomonidan ag'darib tashlandi. P.Yusupov hukumati a'zolari kamokka olindi. 1920 yilning kuzidayok hukumat boshlig'ining o'rinbosari va turkman bo'limining 600 jangchisi otib tashlandi.

1921 yil martida Ota Maksim rahbarligida saylangan yangi hukumat ham 1922 yil noyabrda ag'darib tashlandi. 1923 yil oktyabrda Xorazm Sho'rolarining IV kurultoyiga Xorazmni Xorazm Sho'ro sosialistik jumhuriyati deb e'lon kiladi va uning Konstitusiyasini kabul kiladi. Bu mamlakatdagi bekaror ijtimoiy-siyosiy va milliy vaziyatni yanada og'irlashtirib yuboradi. Eskilik bilan yangilik, mutaassiblik bilan tarakkiyparvarlik o'rtasidagi kurash Buxoroda ham XX asrning boshlarida jadidchilikni yuzaga keltirdi. 1917 yilga kelib esa faol ijtimoiy-siyosiy va demokratik kuchga aylandi. «Yosh Buxoroliklar» firikasi paydo bo'ldi. Abduvohid Burhonov (Markaziy Ko'mita raisi), Usmon Ho'jayev (Usmonho'ja Po'latho'jayev), Muso Saidjonov, Abdurauf Fitrat, Ota Ho'jayev, Mirkomil Burhonov, Fayzulla Ho'jayev, Sadridin Ayniy, Fazlitdin Mahsum va boshkalar bu firkaning faollaridan edilar. Uning dastlabki faoliyati davlat boshkaruvi va yer-suv islohotini o'tkazish harakatidan boshlandi. «Yosh Buxoroliklar» amir hukmronligini yevropacha konstitusiyaviy monarhiya bilan almashtirmokchi bo'ldilar.

Buning uchun ular Rossiya va Turkistondagi komfirka hamda sho'ro hukumati tazyiki ostida Amir Olimhonni 1917 yil 7 aprelda islohot o'tkazish hakidagi Manifestga imzo chekishga majbur etdilar. Bu voqeani F.Ho'jayev boshlik bir guruh ko'cha namoyishiga chikish bilan kutib oladi. Musulmon dunyosida g'ayrimusulmonlar alohida yashashi, o'z diniy e'tikodiga oid ko'cha marosimlarini fakat o'z mahallasida o'tkazishi odatga aylangan edi. Buxoroda ham shunday edi. Bu musulmonlar orasida norozilikka sabab bo'ldi. Ko'chada 5-7 ming olomon to'plandi. Amir ko'rkkandan halkni tarkatib,

jadidlarni ushlab kaltaklatadi. Kaltak zarbidan o'lganlar ham bo'ldi. Namoyish fojeaga aylandi. Jadidlar esa ta'kib ostiga olingach, horijga ketishga majbur bo'ldilar. Shundan so'ng F.Ho'jayev va boshkalar fevral inqilobiga ishonib Turkiston hukumati boshlig'i, boskinchi Kolesovdan harbiy yordam so'raydilar. Uning uchun bu ayni muddao bo'ldi. U katta armiya bilan 1918 yil martining birinchi kunlarida Buxoroga bostirib bordi. Birok Amir Olimhon sarbozlaridan yengilib, Kiziltepa degan joyda sulh tuzishga majbur bo'ldi. Buxoro Rossiya vassaligidan chikadi. Rossiya sho'ro hukumati Buxoroning mustakilligini rasman tan olib, katta tovon to'lash majburiyatini ham oladi. Lekin bunga Rossiya rioya kilmay, Buxoroning ichki ishlariga aralashaveradi. Kolesov hujumining konli fojeasi amirlikda siyosiy tenglikni yanada kuchaytirdi. Juda ko'p begunoh odamlar hon tomonidankirg'in kilindi. Jadidlar orasida «Kolesov hujumi»ning uyushtirilishiga qarshi bo'lganlar ham ko'p edi. Amir katag'onligidan kochib, jadidlar Kizil armiya safiga kiradilar, ular Toshkent, Samarkand va boshka joylarda Rossiya homiyligida boshpana topib, kommunistlar yordamida amirni ag'darishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydilar.

Kolesov boskinidan so'ng «Yosh Buxoroliklar» firkasi avval uch, so'ng ikki guruhga bo'linib ketdi. Ular alamzada sho'ro hukumati va komfirkasi yordamida A.Burhonov rahbarligidagi Buxoro komfirkasi va F.Ho'jayev boshlik «Yosh Buxoroliklar»ning inqilobiy firkasiga birlashdilar. Bu ikki rahbar va firka a'zolari orasida jiddiy o'zaro kelishmovchiliklar bo'lsa-da, ularga Moskva va Toshkentda «katta g'amho'rlik» ko'rsatiladi. Komfirkaning «Tong» jurnali va «Kutulish» gazetasi, inqilobchilarning «Uchkun» gazetasi Toshkentda bosilib, Buxoroga tarkatilib turiladi. Sho'ro hukumati va komfirkasi Buxoroga inqilobni «eksport kilish» orkali uni bosib olish uchun mablag' va «yordami»ni ayamadi. Shunday bo'lsa-da, bu firka kovushmadi.

F.Ho'jayev o'z firkasining to'g'ridan-to'g'ri Rossiya komfirkasiga ko'shib olinishini so'rab Leninga hat yozadi. Birok Lenin F.Ho'jayev dasturiga firka shariat udumiga rioya kilishi ko'satilganligi sabab, bunga rozi bo'lmaydi. Ammo u F.Ho'jayevga har tomonlama «yordam»ni kuchaytiradi. Kizil Armiya Buxoroga bostirib kirib, amir hokimiyatini ag'dargandan keyin hukumat tarkibiga kirgan yosh Buxoroliklarning inqilobiy firkasi Buxoro komfirkasiga ko'shiladi. Buxoro komfirkasi Rossiya komfirkasi va sho'ro hukumati homiyligida tashkil topadi va hokimiyatni egallaydi. Sho'ro tarixida Buxoro halki «Yosh Buxoroliklar» tuzgan komfirka rahbarligida inqilobga ko'tarilib amirni ag'dardi, degan yolg'on tushuncha bor. Halk amirdan norozi bo'lsa-da, inqilobga ko'tarilmagan. Unda inqilob tushunchasining o'zi ham bo'lmagan. Rus kommunistlari huddi Turkistonda bo'lgandek, Buxoroni ham inqilob nikobi ostida katta harbiy kuch bilan bosib oldilar.

Ular amirdan jabrlangan, alamzada jadid va boshkalarni kommunistik va «inqilobchi» kilib tayyorladilar. Buni Buxoro «inqilobi»ga rahbarlik kilgan «Harbiy inqilobiy byuro»ning tarkibi ham isbotlab turibdi. Undagi 6 kishidan fakat ikkitasi (N.Husinov va F.Ho'jayev) Buxorolik, kolganlari esa Buxoroga dahli bo'lmagan sho'ro hukumati hamda komfirkasining boskinchi vakillari edilar. «Harbiy inqilobiy byuro», ya'ni boskinchilar byurosi rahbarligida 1920 yil 29 avgust erta tongdan Frunze ko'mondonligidagi 12ta bombordimonchi samolyot, 74ta zambarak va pulemyot, 10 ming askarga ega bo'lgan Kizil Armiya mustakil Buxoro mamlakatiga hujum boshlaydi. Buxoro 1918 yildagi Kiziltepa sulhidan so'ng Rossiya vassaligidan chikkan edi. Amir Olimhon 1 sentyabr kuni shahar va halkni asrash maksadida, Frunze bilan kelishgan

holda shaharni tashlab chikishga majbur bo'ladi. Hokimiyat «Inqilobiy ko'mita» ko'liga o'tadi. 6 oktyabrda esa nomigagina chakirilgan xalk vakillarining kurultoyida oldindan belgilab ko'yilgan «Buxoro Halk jumhuriyati» va uning hukumati tashkil etiladi. Shunday kilib, sho'ro boskinchilari tomonidan Buxoro amirligi tugatildi va Buxoro Halk jumhuriyati tashkil topadi.

Birinchi kundan boshlabok Rossiya Buxoro hukumatining mustakilligini tan olsada, to'g'ridan-to'g'ri uning ichki ishlariga aralashib, unga o'z ta'sirini o'tkaza boshlaydi. Shuning uchun ham Buxoro hukumatining ko'pgina rahbarlari o'zlarining aldanganliklarini anglab yetadilar va tezlikda milliy-ozodlik urushi – «bosmachilik» tomon o'tib ketadilar. Amirlik hazinasida o'zbeklarning mang'it urug'i sulolasiga tegishli oltinu zebu ziynatlardan iborat juda katta boylik to'plangan edi. Bu boylik chorakam ikki asr davomida hych kamaytirilmagan, aksincha, doimo to'ldirib turilgan, siyosat, harbiy va boshka sarf-harajat talab kiladigan ishlarga butunlay dahlsiz hisoblangan va o'ta mahfiylikda saklangan. Hatto undan habardor bo'lganlar o'ldirilgan, degan ma'lumotlar ham bor. Uning mikdori hakda anik ma'lumot bo'lmagan. Ochlikdan sillasi kurigan Rossiya va uning yo'ksil sho'ro hukumati, komfirmasini kiziktirgan narsa ham eng avvalo mana shu afsonaviy boylik bo'ldi. Shuning uchun ham boskinchilar sulh shartlarini buzib, Buxoroni tezda bosib oldi. Frunze boshlik Kizil armiya bu oltin zahirasini hamda Buxoro shahri halkining ko'lidagi boyliklarni ham talab, Rossiyaga olib ketdi. Bu oltinlar Rossiyani ochlikdan kutkarib, Olmoniyaga to'laydigan tovonni (kontribusiyasi)ni yengillashtirdi. Hokimiyat bosib olinishi bilanok, sho'ro hukumati va komfirmasining vakillari hamda missionerlari Buxoroda hukmronlik kila boshlaydilar. Bundan norozi bo'lganlar «bu istiklolmi yo bosib olishmi?» deb tashvishlanadilar. Hatto Turkkomissiya a'zosi G.Safarovning ichki mustakillikka doir ishlarga aralashgani uchun uning ustidan Moskvaga shikoyat ham yoziladi. Umuman, boskinchilar mahalliy hukumat rahbarlari orasida ihtilofni ham kuchaytirib, bundan ustalik bilan foydalanadilar. Mana shuning uchun ham Buxoro hukumati rahbarlarining ko'pchiligi kommunistik boskinga qarshi ko'tarilgan «bosmachilik urushi» tomon o'tib ketadilar. Bu urushga Amir Olimhonning o'zi Afg'onistondan turib rahbarlik kildi. Istiklol harakati kuchlari asosan Sharkiy Buxoroda to'planib, sho'ro boskiniga qarshi muvaffakiyatli urush olib bordi. Bu urush O'rta Osiyodagi «bosmachilik urushi»ning ajralmas kismi sifatida uzok yillar davom etdi. Birok, kuchlar nisbati teng bo'lmaganligi va o'zaro birlik yo'kligi sabab u yengildi.

1920 yil 29 avgustda Frunze kumondonligidagi 12ta bombordimonchi samolet, 74ta zambarak va pulemyot, 10 ming askarga ega bulgan Kizil Armiya mustakil Buxlro mamlakatiga xujum boshlaydi. Buxoro shaxriga turt kun berilgan uzluksiz katta zaoba va yetkazilgan zararlardan sung Amir Olimxon 1 sentyabr kuni shaxar va xalkni asrash maksadida, Frunze bilan kelishilgan xolda shaxarni tashlab ketishga majbur buladi. Xokimiyat inqilobiy kumita kuliga utadi. 6 oktyabrda esa nomigagina chakirilgan xalk vakillarining kurultoyida oldindan belgilab kuyilgan «Buxoro Xalk Jumhuriyati» va uning hukumati tashkil etiladi. Shunday kilib, shuro boskinchilari tomonidan Buxlro amirligi tugatiladi va Buxoro Xalk jumhuriyati tashkil topadi. Birinchi kundan boshlabok Rossiya Buxoro hukumatining mustakilligini tan rlsa-la, tugridan-tugri uning ichki ishlariga aralashib, unga uz ta'sirini utkaza boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiklol, iqtisod, siyosat, mafkura. T., «O'zbekiston», 1996.
- 2.Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan kolsin. T.2. T., «O'zbekiston», 1996.
- 3.Karimov I.A. «Tarihiy hotirasiz kelajak yo'k». T., «Shark», 1998.
- 4.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
- 5.Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – T.: “O'zbekiston”, 2005.
- 6.Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 2007.
- 7.Amir Olimhon. Buxoro halkining hasrati tarihi. T., «Fan», 1991.
- 8.Ibrohim Karim. Madaminbek. T., «Yozuvchi», 1993.
- 9.Mahmudov M. Katag'on kurbonlari. T., «O'zbekiston», 1991.
- 10.Tursunov I.I. Istiklolga intilgan kalblar nidosi. T., 1993.
- 11.Tursunov I.I. O'zbekiston maorifchilarining istiklol yo'lidagi ishlari tarixidan (1917-1939). T., 1995.

11-MAVZU: SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRGAN SIYOSIY, IQTISODIY, MA'NAVIY-MADANIY TADBIRLARI VA ULARNING MUSTAMLAKACHILIK MOHIYATI.

Reja:

1. 20-yillarda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat.
2. O'zbekistonda sanoatlashtirish va agrar siyosatining mustamlakachilik mohiyati.
3. 50-80 yillarda O'zbekiston iqtisodiyotini boshqarishdagi hatolar va ularning oqibatlari

Tayanch so'z va iboralar:

Markazga qaramlik, “Harbiy kommunizm”, YaIS(Yangi iqtisodiy siyosat), er-suv islohoti, sanoatlashtirish, jamoalashtirish, yangi erlar o'zlashtirilishi – ekalogik fojia, Toshkent zilzilasi, metropoliten.

1. Oktyabr to'ntarishi chorizmining mustamlaka Turkiston iqtisodiyoti va Xalq ommasini imperiyaga ekspluatasiya qilishdan iborat talonchilik amaliyotiga va'da qilingan o'zgarishlarni kiritmadi. Aksincha, mustabid hokimiyat idora usuli bilan qo'shib ketgan bozordan tashqari «sotsializm» degan o'ta yaroksiz markscha andoza «Sovet O'zbekistoni» sharoitida o'zining eng so'nggi nuqtasiga yetib, milliy iqtisodiyotni izdan chiqardi. Hozirgi kun nuqtai nazaridan qaraganda, sobiq sovet davlatida amal qilgan «ittifoq mehnat taqsimoti» avval boshidan ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish sohasida chorizmining mustamlakachilik andozasi asos solgan buyuk davlatchilik mantig'iga tayanganligini yaqqol ko'rsatadi. Bu andoza O'zbekiston ho'jaligi majmuining haddan tashqari ihtisoslashuvini, uning iqtisodiy rivojlanishining bir tomonlama hususiyatini belgilab berdiki, u o'lkaning tabiiy boyliklarini talash va mehnat resurslaridan vaqtincha foydalanish, respublikani tayyor mahsulotni sotish bo'yicha keng ko'lamlı bozor sifatida saqlab turish sohasida markazning imkoniyatlarini oshirishga butunlay bo'ysundirilgan edi.

O'lka xalqlari bilan kommunistik metropoliya o'rtasida iqtisodiy sohadagi mustamlakaviy-imperiyacha munosabatlarning yangi shakli tayanch asoslarini yaratishning belgilovchi omili hususiy mulkni mustabidchasi davlat mulkiga

aylantirish siyosati, ishlab chiqarish vositalarini keng miqyosda jadallik bilan umumlashtirish bo'ldi. «Ijtimoiy adolat»ni ta'minlash niqobi ostida amalga oshirilgan mazkur harakatlar haqiqatda hukmron markaz tomonidan qattiq nazorat o'rnatishning moddiy muhitini va xalq ho'jaligini boshqarishning mustamlakachilik tizimini shakllantirishga yordam berdi. Oktyabrdan keyingi dastlabki yillarda ko'zga tashlangan boshqa sabablarni ham aytib o'tish muhimdir. Uning yorqin ifodasi lenincha kommunistik rahbariyatning sovet hokimiyatining zo'rlik bilan singdirishda mamlakat iqtisodiy salohiyatidan zo'r berib foydalanishga intilishdan iborat bo'ldi. Xalqning yot socialistik davlatchilikni kuch bilan joriy etishga qarshilik ko'rsatish ortib borishi tufayli bu sabab ayniqsa kuchaydi. Chorizmning avvalgi mustamlakachilik iqtisodiy siyosati oktyabrdan keyingi sharoitda yangi omil bilan to'ldirildi. Bu omil inqilobni «eksport qilish», o'lkaga kommunizmni yoyishning strategik vazifalarini ta'minlash, shu jumladan, Rossiya kommunistik ishtirokining bosh rahnamosi sifatida namoyon bo'layotgan imperiya qurolli kuchlarini resurslar bilan ta'minlash uchun Turkistonning iqtisodiy salohiyatini jalb qilishdan iborat edi.

Qurolli qarshilik niqobi ostida favqulodda iqtisodiy choralar ko'rish bolshevistik rahbarlarga tobora avj olib yalpi norozilik va iqtisodiyotning inqirozga sabab bo'layotgan «harbiy kommunizm» degan tarqoq atamani ishga solishlariga bahona bo'ldi. Keyinchalik «harbiy kommunizm» siyosatining Kreml rahbarlari talabi bilan rasmiy ravishda «vaqtincha chora» sifatida baholanishi, unga «inqilob dushmanlariga qarshi kurash olib borish zarurligi» sabab bo'layotir, deyilishi bejiz emas edi. «Harbiy kommunizm» siyosati quyidagilarni nazarda tutardi: sanoatni keng miqyosda davlat mulkiga aylantirish, unga rahbarlik qilishini sovet davlati qo'lida markazlashtirish (bundan maqsad, sanoat salohiyatini qurol-yarog' va armiyani moddiy ta'minlash uchun mahsulot ishlab chiqarishga safarbar etish edi); g'alla monopoliyasini o'rnatish, hususiy savdoni ta'qiqlash va oziq-ovqat razvyorstkasini qo'llash; «ishlamagan tishlamaydi» degan sinfiy holat asosida majburiy va yalpi mehnat majburiyatini joriy etish. Partiyaning ushbu mustabidlik yo'nalishi Turkiston xalqi hayotiga salbiy ta'sir qildi, mahalliy aholi mustaqil huquqlarga ega emas, o'z manfaatlarini himoya qilishga bo'lgan urinishlar esa «millatchilik» deb baholanib, qatag'ongacha olib kelingan. 1921 yilning bahoriga kelib sovet hokimiyati oldida vayron bo'lgan qishloq ho'jaligini tiklash vazifasi ko'ndalang bo'lib turdi. Buning asosiy sababi esa dehqonlarning ko'plab ko'tarilishlari bo'ldi. Bu esa siyosatni qaytadan ko'rib chiqish, sanoat bilan qishloq ho'jaligi o'rtasida ta'sirchan iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish zaruratini keltirib chiqardi. O'zbekistonda qishloq ho'jaligi respublika milliy daromadining asosiy qismini berganligi, dehqonlar esa aholining 80 foizini tashkil etganligi tufayli sovet hokimiyatining dastlabki yillarida agrar masala markaziy o'rinni egallardi.

Markazdan farqli o'laroq, O'rta Osiyo respublikalarining 20-yillardagi siyosatida nisbatan keskin choralar ko'rilgan. 1920-1921 yillardagi yer-suv islohotining amalga oshirilishi Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) bilan birga olib borildi. Yangi iqtisodiy siyosatdan ko'zlangan maqsad mahsulot ishlab chiqaruvchi yakka dehqonlarning manfaatini oshirish, uning yerga egalik qilishini ta'minlash, imtiyozli soliq olish va bozor iqtisodiyoti, tovar-pul munosabatlariga o'tish edi. Uning asosiy bo'g'inlarini oziq-ovqat razvyorstkasining oziq-ovqat solig'i bilan almashtirilishi, erkin savdo, sanoatda hususiy tashabbuskorlik va tadbirkorlikning joriy qilinishi tashkil etdi. Oziq-ovqat razvyorstkasining soliq bilan almashtirilishi qishloq ho'jalik ishlab chiqarishni

ko'paytirishning iqtisodiy rag'batlarini vujudga keltirdi hamda dehqon hosilning qat'iy belgilangan qismini topshirgach, unga o'z mehnati mahsulotini o'zi istaganicha tasarruf etish huquqi berildi. Yangi iqtisodiy siyosat yo'lining o'ziga hos hususiyati tovar-pul munosabatlarining jonlanishi, savdo va ayirboshlashda cheklashlardan ozod bo'lish edi. Erkin savdoning sog'lomlashuviga 1922-1924 yillarda o'tkazilgan pul islohoti ma'lum darajada yordam berdi. Muomalaga kursi oltinga tenglashtirilgan valyuta – chervonesning chiqarilishi bozor rolining tiklanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Yer-suv islohotini amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad mahalliy hamda Turkistondagi boy rus dehqonlarining yer va suvga bo'lgan huquqlarini tenglashtirish edi. Chunki chor ma'murlari tomonidan rus dehqonlariga eng yahshi va hosildor yerlar ajratilgan edi. Yer-suv islohotining harakteri 1920 yil sentyabrda bo'lib o'tgan Turkiston Sovetlar IX qurultoyining qarorlarida aks etdi. Ushbu dastur asosida mehnat bilan shug'ullanmaydigan boy-quloq ho'jaliklarini tugatish va ko'chmanchilarni o'troq hayotga o'tkazish, yersiz va kam yerli dehqonlarni yer bilan ta'minlash va eng asosiysi rus kelgindilarining ortiqcha yerlarini musodara qilish orqali chor Rossiyasi mustamlakachilik sarqitlarini yengish yotar edi. Vaqt o'tishi bilan ko'chirib keltirilgan ruslardan yerlarni musodara qilish bilan bir qatorda vaqf yerlari tortib olindi, boylar, mannoplar, savdogarlar, diniy hizmatchilar va qishloq hamda ovullarning «mehnat bilan shug'ullanmaydigan yuqori tabaqalari» degan boshqa vakillarining yerlari kamaytirildi. Yer va suvni taqsimlash jarayoni bir tomondan yersiz va kam yerli dehqonlarni yer bilan ta'minlagan bo'lsa, ikkinchi tomondan qishloqdagi siyosiy vaziyatni o'ta keskinlashtirib, sinfiy ziddiyatlarni kuchaytirdi. Islohotni o'tkazishning inqilobiy-zo'ravonlik usullari Turkiston qishloqlarida ijtimoiy va millatlararo tanglikni vujudga keltirdi.

Islohotni amaliy jihatdan ro'yobga chiqarishga 1921 yilning bahorida kirishildi. Islohot o'tkazish uchun dastlab Yettisuv, Sirdaryo, Farg'ona viloyatlari olindi. Islohotning birinchi bosqichida asosiy vazifa ko'chirib keltirilgan ruslarning yerlarini tortib olishdan iborat siyosiy «foydali» ishni amalga oshirish bo'ldi. Ko'chirib keltirilganlarning asosiy qismi quloqlar deb e'lon qilindi, ularning o'z manfaatlarini himoya qilishga urinishlari «quloq-mustamlakachiligi unsurlarini qarshilik ko'rsatishi» deb baholandi. Yer-suv islohoti favqulodda tadbirlar shaklida o'tkazildi. Islohotning asosiy vositasi – ma'muriy tazyiq o'tkazishdan iborat bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan islohotning strategik vazifalariga muvofiq ko'chirib keltirilgan ruslardan yerlarni musodara qilib olish bilan bir qatorda vaqf yerlarini tortib olish, boylar, mannoplar, savdogarlar, diniy hizmatchilar va qishloq hamda ovullarning «mehnat bilan shug'ullanmaydigan yuqori tabaqalari» degan boshqa vakillari yerlarini kamaytirish yuzasidan jiddiy ishlar qilindi. Bunda «Qo'shchi» ittifoq «agrar hujum»ning zarbdor kuchi bo'lib maydonga chiqdi, bu ittifoq 90 mingdan ortiq qishloq aholisini birlashtirgan bo'lib, uning a'zolari tortib olingan yerlarni birinchi navbatda o'zlariga olishardi. Ular «mehnat bilan shug'ullanmaydigan ho'jaliklar»ni aniqlar, badavlat ho'jaliklarning yer, chorva mollari, mehnat qurollarini hisobga olishar, «yashirib qo'yish»ga urinishlarni fosh etishardi. Umuman olganda, Turkiston Respublikasida «Qo'shchi» ittifoqi yordami bilan «mehnat bilan shug'ullanmaydigan» 8034ta ho'jalik tugatilgan edi. 1921-1922 yillardagi yer islohoti har hil jarayonlarni keltirib chiqardi. Bir tomondan, u ma'lum ma'noda yer masalasini hal qilishga yordam berdi. Biroq yersizlarni yer bilan ta'minlash sohasida ko'rilgan bu tadbirlar Turkiston

ho'jaliklarining, ayniqsa, uning o'zbeklar yashaydigan qismiga nihoyatda kam manfaat keltirdi, chunki ularga berilgan yerlar qishloq ho'jalik mahsulotlari yetishtirilgan barcha yerlarning 0,7%ini tashkil etar edi, holos. Jami bo'lib butun O'zbekiston bo'yicha o'tkazilgan «yer-suv islohoti» natijasida 4801ta ho'jalik quloq ho'jaligi sifatida tugatildi, 23036 ho'jalikning ortiqcha yerlari tortib olindi, yer jamg'armasiga 474393 desyatina yer qo'shildi. Yerlar bilan birga ot-ulov va asbob-uskunalar ham musodara qilingan edi. Mazkur Turkiston o'lkasiga asosiy hom ashyo bazasi sifatida qarab kelganligi bois o'lka qishloq ho'jaligining bosh sohasi hisoblangan paxtachilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan. Hususan, RKP (b) MKning 1922 yil 11 yanvardagi «Turkiston Kompartiyasiga», deb nomlangan hatida Turkiston Kompartiyasining qishloq ho'jaligi sohasidagi faoliyatida birinchi o'ringa sug'oriladigan yerlarda ekin maydonlarini tiklash, paxtachilikni rivojlan-tirish hamda mavjud sug'orish tizimini tuzatish masalalari hal etilishi lozimligi ta'kidlangan edi. Paxtachilikni tiklash va rivojlantirish ishlariga rahbarlik qilish uchun 1920 yilda Bosh Paxtachilik ko'mitasi va paxta yetishtiruvchi respublikalarda unga bo'ysunuvchi paxtachilik qo'mitalari tuzildi. Turkiston respublikasidagi barcha haydaladigan maydonlar, seleksiya stansiyalari, irrigasiya inshootlari paxtachilik ko'mitasi ihtiyoriga o'tkazildi. Bosh Paxtachilik qo'mitasi katta vakolatlarga, ya'ni boshqa qishloq ho'jalik ekinlari hisobiga chigit ekiladigan maydonlarni kengaytirish, paxta harid narhlarini belgilash, markaziy davlat organlarining ruhsatisiz mahsus qaror qabul qilish huquqlariga ega edi. Paxtaning narhi hukumat tomonidan belgilanishi uning bu masalada yakkahokimligidan dalolat berar edi. Turkistonlik ko'pgina arboblar paxtachilikda davlat monopoliyasini tugatish zarurligini bir necha marotaba ko'tarib chiqqan edilar.

1923 yilning yanvarida SSSR Mehnat va Mudofaa Kengashi qabul qilgan qarorda «Respublika ichida paxtani harid qilish davlat monopoliyasi bekor qilinsin» deyilgan edi. Shu bilan bir vaqtda paqtaning qat'iy narhi bekor qilindi. Sug'orish ishlarini tiklashni tezroq amalga oshirish, dehqonchilik uchun yaroqli yerlarni suv bilan ta'minlash va qishloq ho'jaligini, birinchi navbatda esa paxtachilikni rivojlantirish uchun suvdan to'g'ri foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida 1921 yilning fevralida TASSRdagi barcha suvlarni respublika mulki deb e'lon qilgan suv to'g'risida qonun qabul qilindi. Qonunda, suvni taqsimlash odat (boy va ruhoniylarga beriladigan imtiyozlar) bo'yicha emas, balki, birinchi navbatda dehqonlar manfaatini ko'zlangan holda berilishi kerak, deb aytilgan edi. 1921 yilning noyabrida aholining daromadlarini sug'orish ishlarini tiklashga safarbar qilish maqsadida suv solig'i joriy qilindi.

Shu yilda TASSR sug'orma yer maydoni 1920 yildagi ko'rsatgichga qaraganda 300 ming desyatina ko'paygan edi. Paxta ekin maydonlari esa deyarli 100 ming desyatina ortdi. Ittifoq hukumati avval boshdanoq yosh O'zbekiston respublikasi rahbariyati oldiga «Sovet O'zbekistoni»ni SSSRning asosiy paxta bazasiga aylantirish strategik vazifasini qo'ydi. «Oq oltin»ning aksariyat qismi, ya'ni 90%dan ko'prog'i «Sovetlar mamlakati»ning to'qimachilik markazlariga yuborildi. O'zbekistonda paxta yetishtirishni ko'paytirish sovet hukumati har yili chetdan paxta sotib olinishga sarflanadigan 100 mln. rubl oltinni tejash imkonini bergan edi. O'zbek paxtakorlarining mashaqqatli mehnati evaziga sovet davlati paxtani chetdan sotib olmay, paxta yetishtirish bo'yicha jahonda ikkinchi o'ringa chiqdi. Mana shu tariqa sobiq SSSR paxta mustaqilligiga erishdi. Paxta yakkahokimligini ta'minlash maqsadini amalga oshirish

oqibatida qishloq ho'jaligining boshqa tarmoqlari, hususan, chorvachilik inqirozga uchradi, g'alla tayyorlash keskin kamayib ketdi. Hosildor yerlar miqdori kamaydi. Don, poliz ekinlarining hosildorligi qiskardi. Yangi iqtisodiy siyosat tufayli qishloq ho'jaligida kooperativ va shirkatchilik harakati avj oldi. 1923 yilda Turkiston respublikasida qishloq ho'jaligi va kredit kooperasiyalar tizimi tashkiliy jihatdan tugal ravishda shakllandi deyish mumkin. Davlatning kooperativ kurilish siyosati ikki yo'nalishda olib borildi. Bir tomondan, kooperasiya mayda tovar ho'jaligini sosializmga jalb qilish vositasi, shahsiy va jamoa manfaatlarining kelishuv shakli sifatida baholansa, ikkinchi tomondan, kooperasiyaga hususiy sektorni siqib chiqaruvchi ijtimoiy qurol deb qaraldi. 1923 yilda Turkistonda 1169ta kredit-kooperativ shirkati bo'lib, kreditdan foydalanadigan ho'jaliklar soni 28 mingta edi.

Milliy rahbarlarning vatanparvarlik chiqishlari Markazning keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Markaz ularga qarshi siyosiy quvg'inni avj oldirdi. Q.Otaboyev va A.Rahimboyevlar «qo'pol hatolari» uchun o'z lavozimlaridan bo'shatildi. Lekin sovet hukumati biroz vaqt o'tgandan so'ng, ularga «o'z hatolarini tuzatish» imkoniyatini berib, rahbarlik lavozimlarida ishlashga ruhsat bergan edi. Biroq milliy rahbarlar o'lkaning taraqqiyotini uning mustaqilligida ko'rdilar va o'z qarashlarida mustahkam turishnida davom etdilar. Ko'pgina milliy rahbarlar qatorida Nazir To'raqulov ham qatag'onlik to'lfonidan qutulib qolmadi va 1939 yilda otib tashlandi. Yuqorida aytib o'tilgandek, 20-yillarning boshlarida o'lka partiya-davlat organlarining rahbarlik lavozimlariga milliy kadrlar jalb qilingan edi. Ular orasida taniqli davlat va jamoat arbobi Qayg'usiz Otaboyev (1887-1937) ham bor edi. O'z siyosiy faoliyati davomida K.Otaboyev Markazning ayirmachilik, shovinistik siyosatiga qarshi bir necha bor o'zining dadil fikrlari bilan chiqdi. U Markaz tomonidan yuborilgan emissarlarning mahalliy halqlarga nisbatan qo'llayotgan usullarini tankid qilib, Rossiyadan kelgan hodimlar tub aholining o'lkani mustaqil boshqara olish kobiliyatiga ishonmayotganliklari, o'zlari esa Turkistonning turmush sharoitlarini yahshi bilmasdan turib, hokimiyatning ma'sul lavozimlariga da'vogarlik qilishlari haqida TKP Sovetlarining II qurultoyi minbaridan turib gapirgan edi. Q.Otaboyev milliy rahbarlardan birinchilar qatorida «bosmachilik» harakatiga to'g'ri baho bergan. Q.Otaboyev bu harakatga «harbiy yo'l bilan yo'q qilib bo'lmaydigan xalq qo'zg'oloni», deb baho beradi va bosmachilar bilan siyosiy va iqtisodiy usullarni qo'llab, tinch muzokaralar olib borish taklifini kiritadi. Shundan so'ng 1922 yilning sentyabrida Samarkand viloyatida bolsheviklar tuzumiga qarshi kurashayotgan Bahromboyev qo'rboshi bilan teng asoslarda tinchlik shartnomasini imzolagani uchun Q.Otaboyev, A.Rahimboyev, A.Serg'oziyevlar lavozimlaridan bo'shatildi. Qayg'usiz Otaboyevning qismati ham o'sha yillardagi millatparvarlarniki singari ayanchli tugadi, u 1937 yilda mustabid tuzum tomonidan nohaq qatag'onga uchrab, otib tashlanadi.

Yana bir millatparvar rahbarlardan biri yetuk davlat arbobi Inomjon Hidiraliyevdir (1891-1928). Inomjon Hidiraliyev ham mahalliy aholining manfaatlarini himoya qilgan milliy rahbarlardandir. U 1922 yilning ohirida Butunrossiya MIKga mahsus hat bilan murojaat qilib, «Mahalliy aholining qatlamlarini sovet ishlariga jalb qilishga, bu ishlarni aholining milliy turmush tarziga moslashtirilgan holda amalga oshirishga, Turkistonda ish yuritishni mahalliy aholi tiliga o'tkazishga» e'tiborni qaratgan edi. I.Hidiraliyev fikricha, oktyabr to'ntarishidan so'ng deyarli 5 yil o'tgan bo'lsa ham, quyidan yuqorigacha boshqaruv apparatlarida asosan yevropalik

kishilar o'tirganligi mahalliy aholida chorizm mustamlakachilik siyosati sovetlar davrida ham davom etmokda degan hulosani keltirib chiqarigina asos bo'ldi. Boshqaruv idoralarida o'tirgan yevropaliklar asosan Rossiya sharoitidan kelib chiqqan kishilar bo'lib, mahalliy aholi tili, urf-odatini bilmaydigan, dehqonchilik va chorvachilikda mashg'ul bo'lgan ko'plab aholi hususiyatiga mos mafkuraviy qarashlarni tushunmaydigan shahslardir. Bu esa o'z navbatida chorizm davridagi byurokratik davlat apparatiga o'hshab qolgan boshqaruv apparatini tez orada mahalliy xalqlar ruhiyati va turmushiga moslashtirishni taqozo qiladi. Hidiraliyevning ushbu takliflari bilan Markaz qisman bo'lsa ham hisoblashishga majbur bo'ldi. 1923 yildan boshlab ish yuritish tub millatlar tillarida olib boriladigan bo'ldi. I.Hidiraliyevning hayoti 1928 yilda fojiali tugaydi. SSSR tashkil etilgandan keyin Ittifoq rahbariyatining jahon socialistik inqilobini va «chekka milliy o'lkalar»ning halqlarini muntazam ravishda kommunistik mustamlaka qilib olishni rag'batlantirish sohasidagi strategik maqsadlari o'ziga hos ravishda «O'rta Osiyoning milliy-hududiy chegaralanishi» harakatida o'z ifodasini topdi. Uni o'tkazish to'g'risidagi qaror faqat hukmron tabaqaning siyosiy manfaatlaridan kelib chiqqan va mahalliy xalqlarning siyosiy irodasini to'la-to'kis inkor qilar edi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad O'rta Osiyo xalqlariga birlashish imkonini bermaslik. Ularning birligi, madaniyati, tili va urf-odatlarini parchalash, markazga qaramligini oshirish, ruslashtirishni tezlashtirish va milliy ozodlik harakati kuchlarini parokandalashdan iborat bo'ldi. Shu maqsad yo'lida O'rta Osiyoni qayta taqsimlash masalasini birinchi bo'lib 1920 yilning boshida «Turkkomissiya» raisi M.Rudzutak ko'taradi. Raxbariyat uni ma'qullab, «O'zbekiya», «Kirgiziya», «Turkmeniya» haritasini tuzish vazifasini topshiradi.

Buni amalga oshirish uchun faol firqaviy targ'ibot, tashviqot va taz'iyiq boshlanadi. Bunga javoban Turkiston birligi uchun kurashayotgan jadid ziyolilari O'rta Osiyo federasiyasini tashkil etish taklifini o'rtaga tashlaydilar. Xorazm komfirqasining mas'ul kotibi Q.Odinayev markaz fikriga qarshi bo'lgani uchun ishdan olinadi. Markaz hohish-irodasi firqa orqali mahalliy xalq «hohish-irodasi»ga aylantirilib, uning «talabi»ni kondiruvchi qarorlar qabul qilinadi. O'rta Osiyoda O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Qora-Qirg'iz (Qirg'iziston) muhtoriyati, O'zSSR tarkibida Tojikiston muhtoriyati, shuningdek, Qoraqalpoq muhtoriyatini tashkil etish, Turkistondagi qirg'iz (qozoq)larni Qozog'iston SSR tarkibiga qo'shish rejasini ishlab chiqiladi. Ularning hududi va mulkini aniqlash RKP(b) Markaziy Qo'mitasi O'rta Osiyo byurosining mahsus komissiyasiga topshiriladi. Bu komissiya O'rta Osiyoni avvaldan belgilangan reja bo'yicha milliy-hududiy jihatdan bo'lib chiqadi. Shu asosda O'zbekiston SSR tashkil topganligi O'zSSR Sho'rolarining birinchi qurultoyida 1925 yil 17 fevralda e'lon qilinadi. U 1925 yilning 13 mayida «mustaqil» (suveren) davlat sifatida SSSRga, ya'ni sohta Sho'ro tarixida ko'rsatilganidek, «tenglar tengi» tarkibiga kiradi. Aslida esa SSSR Kommunistik mustabidlikka asoslangan, tenglar ichida teng bo'lmagan ittifoqi edi. O'zbekiston SSRning tashkil etilishi munosabati bilan 1925 yil 8 fevralda Buxoro shahrida chaqirilgan 1-qurultoyda O'zbekiston Komfirqasi tashkil etildi. Bu ko'g'irchoq firqaning mas'ul kotiblari etib V.I.Ivanov va A.Ikromovlar saylandilar. Bolsheviklarning milliy-hududiy chegaralanishiga qarshi o'z fikrlarini ilgari surgan, «Buxoro inqilobi tarixiga doir» asarida Fayzulla Ho'jayev jadidchilikka holis baho berishga harakat qilgan. Ushbu asardagi jadidchilikning ijtimoiy mohiyatiga ijobiy munosabati va jadidchilikni ijtimoiy-inqilobiy harakat sifatidagi qarashlari xato deb

baholandi. Tariximizda o'chmas izini qoldirgan buyuk siymo bu – Fayzulla Ho'jayevdir (1896-1938). 1920 yili inqilobchi «Yosh Buxoroliklar» Turkiston Markaziy byurosi raisi, 1920-1924 yillarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Nozirlari Kengashining raisi (shuningdek, horijiy-tashqi ishlar noziri) bo'lib ishlagan. Fayzulla Ho'jayevning faoliyati nihoyatda murakkab siyosiy vaziyatda o'tgan. O'zbekistonda yuz berayotgan o'zgarishlardan qoniqmaganligini u o'zining bir qancha tanqidiy chiqishlarida bildiradi.

Fayzulla Ho'jayev ham mustabid tuzumning qatag'on qurbonlaridandir. U 1937 yil Moskvada «Xalq dushmani» sifatida qamoqqa olinib, 1938 yilda otib tashlangan.

20-30 yillarda ko'zga ko'ringan milliy yetakchi – Abdulla Rahimboyevdir (1896-1938). Abdulla Rahimboyevning siyosiy faoliyati nihoyatda serqirra bo'lib, mustabid tuzum siyosatiga qarshi dalil chiqishlari buning yorqin ifodasidir. Masalan, u 1921 yilning dekabrda bo'lib o'tgan RSFSR Sovetlarining IX qurultoyi minbaridan turib, Rossiya hukumatiga ochiqdan-ochiq «Turkistondagi sovetlarning jazolash siyosati har qanday chegaralardan o'tib tushdi. Farg'ona viloyatidagi jazo otryadlari esa mutlaqo muhtor holatda, hech kim bilan, partiya organlari bilan ham, sovet organlari bilan ham hisoblashmasdan, turli shubhali shahslarni xizmatda olib harakat qilmoqdalar» degan bayonot biln chiqdi. Lekin bunday tarzda sovetlar siyosatini tanqid qilish kechirilmas edi va 1922 yilda ishda yo'l qo'yilgan «qo'pol xatolari» uchun TASSR MIK raisi A.Rahimboyev lavozimidan chetlashtirildi. Birok vaqt o'tishi bilan Markaz unga «o'z xatolarini tuzatish» imkonini beradi va yana rahbarlik ishiga jalb qiladi. A.Rahimboyev RKP (b) MK O'rta Osiyo byurosi a'zosi hamda TKP MKning mas'ul kotibi sifatida milliy-hududiy chegaralanish o'tkazishning tepasida turdi. 1924 yilning fevralida u Buxoroga yuboriladi va bu yerda BHSR rahbar hodimlarining kengashida milliy-hududiy chegaralanish to'g'risida ma'ruza qildi. 1924 yilning 10 martida Turkiston Kompartiyasi MK va Turkiston MIK rahbar hodimlarining kengashida ham ma'ruza qilib, milliy-hududiy chegaralanishni «... nisbatan ma'qul tarzda, og'riksiz usullar» bilan o'tkazish kerakligini uqtirdi. Abdulla Rahimboyevning qismati ham milliy yetakchilarniki kabi qatag'on to'fon avj olgan paytda hal qilindi. U 1938 yilda qurbon bo'ldi.

Shunday qilib, 1924 yilning ohiri bolshevizmning O'rta Osiyoni milliy-hududiy chegaralash borasidagi siyosati amalga oshirilishi bilan, nihoyasiga yetdi. Bu bolshevizmning asosiy mafkuraviy va siyosiy dushmani bo'lgan turkizmga qarshi kurash manfaatlari taqozosi bilan mohirona o'ylab topilgan harakat edi. Mintaqa Xalqlariga majburan tikishtirilgan bu siyosatni amalga oshirish uchun vaqt va mablag' bilan bir qatorda katta kuch-g'ayrat sarflash talab kilindi. Birinchi davrda – milliy chegaralanish g'oyasi paydo bo'lgan 1920 yildan 1924 yilgacha, uni amalda ro'yobga chiqarish boshlangan paytgacha, uning mafkuraviy, siyosiy, madaniy-ma'naviy asoslash va shundan keyingi harakatlar uchun zamin tayyorlash mehanizmi ishga tushirildi. «Yagona turkiy millat bo'lmaganidek, yagona madaniyati va yagona turkiy til ham yo'k» degan shiorlar ostida to'rt yil mobaynida dastlab Turkiston, keyinroq Buxoro va Xorazm respublikalari Xalqlari ongiga keng miqyosda tazyik o'tkazildi, milliy o'hshash tuzilmalarning shakllanish jarayonidagi integrasiya sun'iy ravishda jadallashtirildi. Ikkinchi davr, 1924 yilda bevosita milliy chegaralanish o'tkazildi, uni boshdan ohirigacha RKP (b) MK rahbariyati va uning muhtor vakillari rahbarligida O'rta Osiyo

partiya tashkilotlari amalga oshirdilar. Mahalliy Xalqlarning hohish-irodasi mutlaqo hisobga olinmadi va ularni o'rganish mehanizmi ishlab chiqilmadi. Xalqlarni milliy chegaralash g'oyalarini amalga oshirish bolsheviklarning taktik ustamonligi bilan muvaffakiyatli ro'yobga chiqarildi. Avvalo, bu g'oyaning dastlabki vazifasi hal etildi – turkiylar birligi mafkurasiga va amaliyotiga sezilarli zarba berildi. Milliy tuzilmalar tashkil etilishi, ularga «milliy davlatchilik» makomi berilishi bilan Markaz minqaka Xalqlarining diqqatini tashqi dushmandan (ular uchun tashqi dushman Markazning o'zi edi) ichki muammolarga yo'naltirishga muvaffaq bo'ldi. Lekin bu eng asosiysi bo'lib, bolsheviklar bu harakat bilan o'zlarining strategik niyatlarida ham muhim yutuqlarni qo'lga kiritdilar. RSFSRning Turkiston Avtonom Respublikasi bilan bir qatorda milliy-hududiy chegaralanishiga huquqiy jihatdan mustaqil Buxoro va Xorazm respublikalarining ham jalb qilinishi, ularning qismlarga bo'linishi va ular asosida yangi milliy tuzilmalarning tashkil topishi, ularning SSSR tarkibiga kiritilishi natijasida O'rta Osiyoning bu ikki qadimgi davlati dunyoning siyosiy xaritasidan butunlay yo'q qilindi. O'rta Osiyo davlatchiligining ming yillik rivojlanish tarixiga putur yetkazildi. Hukmron sulolalarning tez-tez almashishiga, makon-hudud mezonlarining o'zgarishiga qaramay, O'rta Osiyo davlatchiligining asosini tashkil qilgan muxit – uning aholisi tarihan turli etnik guruhlardan tashkil topganligi va uning tarqoq holda joylashganligi, uning o'ziga xos bo'lgan ho'jalik, maishiy, diniy, ma'naviy-madaniy hayotining mushtarakligi o'zgarmay qolaverdi. Har bir etnik guruh o'zining muayyan joyiga ega bo'lgani holda bu mushtaraklikning tarkibiy, o'zgarmas teng qiymatga ega bo'lgan qismi bo'lib turaverardi. Endi esa, ittifoqdosh, muhtor respublikalar va viloyatlarning tashkil topishi bilan millatlarni farqlash, tabaqalash joriy etildi. Bu farq fakaq ularning tashkil topish makomi bilangina emas, balki uning ichidagi mazkur tuzilmaga nom bergan etnosning nomi va «oz sonli millatlar» bilan ham yaqqol ko'zga tashlanar edi.

Shunday qilib, millatning bir qismi o'z ota-bobolari yerida yashab, mehnat qilsada, rasmiy ta'rifga ko'ra, «oz sonli millat»ga aylanib qolgan edi. 1924 yilda milliy-hududiy chegaralanish natijasida O'rta Osiyo haritasida ittifoqchi respublikalar bilan birga muhtor tuzilmalar ham paydo bo'ldi. Shular orasida Qoraqal-pog'iston muhtor viloyati ham bor edi. Ushbu viloyat Qirg'iziston (Qozog'iston) ASSR tarkibida bo'lib, unga volostlardan iborat To'rtko'l, Chimboy, Ho'jayli va Qo'ng'iro't okruglari kirdi. 1925 yil 12-19 fevralda viloyat markazi To'rtko'l shahrida bo'lib o'tgan Qoraqalpog'iston avtonom viloyati Sovetlarining birinchi qurultoyi «Qoraqal-pog'iston avtonom viloyati tashkil topganligi to'g'risida Deklarasiya» qabul qildi va «Qoraqalpoq milliy davlatchiligi» tashkil etilganligini qonuniy rasmiylashtirdi. Qoraqalpog'iston avtonom viloyati ijroiya qo'mitasining raisi etib A.Qudaboyev saylandi. Ushbu qumitaning rais o'rinbosarlari qilib A.Ayteshov va T.Nepesov, a'zolari qilib O.Dustnazarov, I.Bekimbetov, Q.Avezov va boshqalar saylandi. Qoraqalpog'istonda yashaydigan asosiy elatlar Qoraqalpoqlar – 38,5%, o'zbeklar – 28,7%, qozoqlar – 28,6%dan iborat edi.

Qoraqalpog'iston muhtor viloyati tashkil etilgandan so'ng sovetlar bu yerda ham socialistik kurilishni avj oldirib yubordilar. Jumladan, ovul va qishloqlarni sovetlashtirish keng miqyosda olib borildi. Sovetlarga batrak va kambag'allar saylanib, ularning asosiylarini kommunistik va komsomollar tashkil qildi. Mamlakatda vayron bo'lgan sanoatning turli sohalari, qishloq ho'jaligi va sug'orish ishlarini tiklash amalga oshirildi. Qoraqalpog'iston iqtisodiyotining taraqqiyoti bir tomonlama hususiyatga ega

bo'lib, SSSRning markaziy mintaqalari sanoatini rivojlantirish ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan edi. Masalan, 1933 yilning 3 oktyabrida SSSR Yer ishlari Xalq Komissarligi Qoraqalpog'istonni mamlakatga beda urug'i yetkazib beruvchi asosiy baza deb tan olgan edi. Buning asosiy sababi mamlakat Xalq ho'jaligida ittifoqdosh respublikalar o'rtasidagi mehnat taqsimotida Qoraqalpog'istonga oliy sifatli paxta, beda hamda baliq bilan ta'minlab turish yuklatilganligida edi. Muxtor viloyat sanoatining yetakchi tarmoqlarini paxta tozalash va baliq-konserva zavodlari tashkil etar edi. Sanoatni yuksaltirish bilan bir qatorda qishloq ho'jaligining barcha sohalarini rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratildi va bu yerga ko'p miqdorda qishloq ho'jalik anjomlari keltirila boshlanib, boy va ruhoniylardan tortib olingan yerlar hisobiga yersiz va kam yerli dehqonlar yer bilan ta'minlandi. 1930 yilda Qoraqalpoq muhtor viloyati RSFSR tarkibiga kiritildi. 1932 yilning 20 martida esa SSSR MIK Rayosati «Qoraqalpog'iston avtonom viloyatini Avtonom Sovet Sosialistik Respublikasiga aylantirish va uni RSFSRga kiritish to'g'risida» qaror qabul qildi. O'sha yilning may oyida avtonom respublika Sovetlarining I Ta'sis qurultoyi hukumatni tuzdi. Unda QQASSR MIK raisi etib KOPTLEU Nurmuhamedov, Xalq Komissarlari Kengashi raisi etib esa K.Avezovlar saylandilar. 1936 yilda SSSRning yangi Konstitusiyasi qabul qilindi va unga ko'ra QQASSRning O'zbekiston SSR tarkibiga kiritish ko'zda tutilgan edi. Buning asosiy sababi hududiy yaqinlik, yagona tarixga ega bo'lganligi deb e'tirof etildi. 1937 yil 12 fevralda O'zSSRning yangi Konstitusiyasi qabul qilindi. O'sha yilning 6 martida esa QQASSRning yangi Konstitusiyasi e'lon qilinadi. Qoraqalpog'iston O'zbekiston tarkibiga kirgach, o'zbek va Qoraqalpoq Xalqlari o'rtasidagi do'stlik yanada mustahkamlandi.

2. Har qanday milliy mustaqil davlat yashashining asosiy sharti o'sha mamlakatning zamonaviy rivojlangan sanoatga, og'ir industriyaga ega bo'lishligiga bog'liqdir. Buni yahshi tushungan bolsheviklar Sho'ro Rossiyasini sanoati rivoj topgan ilg'or mamlakatlar qatoriga olib chiqish vazifasini qo'ydi. Ammo O'zbekiston singari mustamlaka mamlakatlarga nisbatan bu siyosat mutlaqo boshqacha maqsadlarda – Markaz manfaati asosida amalga oshirildi.

1925-1940 yilda O'zbekistonda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosati sho'ro hukumati va komfirqa mustamlakachilik siyosatining tarkibiy va ajralmas qismi edi. Bunday siyosatni oqlash maqsadida «SSSR yagona ho'jalik kompleksi» g'oyasi ilgari surildi. Ushbu g'oyadan kelib chiqqan holda O'zbekistonda Xalq ho'jaligining qaysi tarmog'ini rivojlantirish masalasini Moskva – markaz hal qildi. Bu «taraqqiyot yo'nalishlari» stalincha besh yilliklarda o'z aksini topdi va ular Komfirqa qurultoylarida tasdiqlandi. Ana shu direktivalar asosida O'zbekiston taraqqiyotining 1925-1940 yillardagi ahvoli tahlil etiladigan bo'lsa, shu davr mobaynida respublikada sanoat mahsulotlarini mustaqil o'zi ishlab chiqara oladigan birorta industriya gigantining bunyod etilmaganligiga guvoh bo'lamiz. Chunki O'zbekistonda bunday yirik sanoat gigantlarini qurish Sho'rolarning milliy mustamlakachilik manfaatlariga javob bermas edi. Mustamlakachilik siyosati yuritishning bunday tartib-qoidasi dunyodagi Angliya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Fransiya, Germaniya va boshqa mamlakatlar tarixiy tajribalarida ham tarix sinovidan o'tgan. Mustamlakachi davlatlar (shu jumladan Sho'rolar ham) o'zlari bosib olgan hududlarda tez foyda beraoladigan, o'z milliy manfaatlariga javob beradigan va mustamlakachilikka havf tug'dirmaydigan siyosat olib boradilar. Sho'rolar ham «ihtisoslashtirish» bahonasida Rossiyaning o'zida

Ukraina, Belorussiya va boshqa asosan slavyan respublikalarida og'ir sanoat korxonalarini qurishga asosiy diqqat-e'tiborni qaratdilar. O'zbekistonda esa asosan paxtachilikning rivojlanishi bilan bog'lik bo'lgan sanoat tarmoqlari, aholining yashashi va turmush kechirishi bilan bevosita aloqador bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak va hokazolar ishlab chiqaradigan yengil sanoat korxonalari bunyod etildi. 1925-1940 yillarda qurilib ishga tushirilgan bunday korxonalar jumlasiga Bo'zsuv GESi, Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Termiz, Asaka shaharlaridagi issiqlik elektrostansiyalari, Toshkent, Samarqand, Farg'ona va Buxorodagi to'qimachilik fabrikalari, Toshkent qishloq ho'jalik mashinasozligi zavodi, Farg'ona konserva, Hilkovo sement zavodlari, Toshkent «O'rtoq» tamaki fabrikasi, Samarqand, Buxoro va Marg'ilon ipak yigiruv fabrikalari, «Chimyon» va «Santo» neft konlari bazasida tashkil etilgan neft zavodlari, «Toshtram», «Qizil Sharq» va «Birinchi may ustahonalari», ko'plab paxta tozalash, sut-yog' tayyorlash, sovun pishirish kabi zavodlarni kiritish mumkin.

Hullas, 20-30-yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosatining bosh maqsadi respublikani istiqbolda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borishini ta'minlaydigan iqtisodiy poydevordan mahrum qilish va sho'rolar ho'jalik mehanizmining bir tarmog'iga aylantirishdan iborat edi. Jamoalashtirish ham «lenincha sosializm qurish rejasi»ning tarkibiy qismidir. Taniqli olim Rahima Aminova bu mudhish jamoalashtirishga baho berib shunday degan edi: «Kollektivlashtirish – ishlab chiqarishga davlat monopoliyasi o'rnatilishining naq o'zginasidir. Tabiiyki, moddiy manfaatdorlik bo'lmagan joyda tashabbuslar ham so'nadi. Tashabbus, izlanish bo'lmagan joyda esa ish orqaga ketadi. Buning ustiga hayotning o'zi kollektivlashtirish muammosini ko'tarib chiqmagan edi. Zo'ravonlik bilan o'tkazilgan siyosat ko'plab ishbilarmon, tadbirkor odamlarning ishga, yerga bo'lgan munosabatini sovitdi. Sho'ro hukumati va komfirqa mustamlaka asoratidagi o'lka Xalqlarini qul o'rnida ishlatib, hisobsiz foyda va daromad olishning eng maqbul shakli bo'lgan kommunistik jamoalashtirish siyosatini amalga oshirish uchun ayyorlik va ustamonlik bilan tayyorgarlik ishlarini olib bordi. Bu borada amalga oshirilgan «yer-suv islohoti» muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonda amalga oshirilgan «yer-suv islohoti» ikki bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich 20-yillarning boshlarida o'tkazildi va o'lkada amalga oshirilgan «milliy davlat chegaralanishi» munosabati bilan ma'lum muddatga to'htab qoldi. Ikkinchi bosqich esa 1925-1929 yillarni o'z ichiga oladi. 1920-1921 yillarda o'tkazilgan «yer-suv islohoti»ning asosiy maqsadlaridan biri o'lkaga ko'chirib keltirilgan rus zamindorlarining yerlarini mahalliy dehqonlarning yerlari bilan tenglashtirish edi. Kelgindi rus mujiklari chor ma'murlaridan juda katta hajmdagi serunum yahshi yerlarni olgan edilar. Sho'ro hukumati bu bilan o'zini go'yo mahalliy mehnatkash Xalqning «g'amho'ri» va «mehriboni» qilib ko'rsatmoqchi bo'lgan edi. O'lkada «yer-suv islohoti» Sho'ro hukumatining «Yer to'g'risida»gi dekreti asosida amalga oshirildi va uning bosh maqsadi qishloqda tabaqalanishni kuchaytirishdan iborat edi. Sho'ro va komfirqa korchalonlari bu yerda ham «bo'lib tashla, hokimlik qil» qabilida ish yuritdilar, qishloq aholisini boy va kambag'allarga bo'lib, ularning «sonini o'zidan chiqarib» bir-birlariga qarshi gij-gijladilar. 1921 yilda tashkil etilgan «Qo'shchi» uyushmasi huddi ana shu maqsadda tuzildi. 20-yillarning o'rtalaridayoq uning saflarida 160 ming nafarga yaqin a'zo bor edi. Bu uyushmaga asosan yersiz va kam yerli kambag'al dehqonlar uyushtirildi. 1921-1922 yillarda o'tkazilgan «yer-suv

islohoti» natijasida Sirdaryo, Farg'ona, Yettisuv viloyatlari, Turkman viloyatining Marv uyezdida 1.722.626 desyatina yer musodara qilindi. Ana shu yerlardan 117.512 desyatina yersiz va kam yerli o'zbek dehqonlariga berildi va 3 ming ho'jalik tashkil etildi. Dehqonlarga yer bilan birgalikda 1.517ta ot, 87ta tuya, 1042ta sigir va 133ta eshak ham taqsimlab berildi. «Yer-suv islohoti» davrida ko'chirib yuborilgan oilalardan 250 ming botmondan ortiq don tortib olindi va shundan atigi 12,8 ming botmoni mahalliy kambag'al batraklarga bo'lib berildi. «Yer-suv islohoti»ning 1925-1929 yillarda o'tkazilgan navbatdagi bosqichi O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Ko'mitasining 1925 yil 2 dekabrda «Yer va suvni nasionalizasiya qilish» to'g'risida va «Yer va suv islohoti» to'g'risidagi dekretlari asosida amalga oshirildi. O'tkazilgan «islohot» davomida faqat Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Zarafshon viloyatlarida tortib olingan yerlar evaziga 254,2 ming desyatina yer jamg'armasi hosil bo'ldi. Bu yerlarning 70 foizi «boylar» deb hisoblangan o'rta hol dehqonlaridan tortib olingan edi. Ana shu o'rta hol dehqonlar esa 1918-1922 yillarda sho'ro hokimiyatidan yer olib o'z ho'jaliklarini tiklab olgan edilar.

Markazning «tanqidiy hulosalari» asosida O'zbekiston Sho'ro hukumati va komfirqasi respublikada jamoalashtirishni yuqori sur'atlarda va «safarbarlik» asosida olib bordi. Natijada 1932 yilda butun O'zbekistondagi boy va o'rtahol hamda sho'ro davrida yer olgan dehqonlarning 91,7 foizi jamoalashtirildi – jamoa va davlat ho'jaliklariga birlashtirildi.

Butunittifoq komfirqa Markaziy Qo'mitasi qarori bilan jamoalashtirishga yordam ko'rsatish uchun qishloq ho'jaligi ishidan behabar «25 mingchilar» nomini olgan ishchilar, shuningdek, texnik hodimlar qishloqlarga yuborildi. Shu «yordam» bahonasida O'zbekiston qishloqlariga ham Rossiyadan 433ta, O'zbekistonning o'zidan 250ta rus ishchisi yuborildi. Ular firqa ko'rsatmasi bilan rahbar lavozimlarga tayinlandilar. Ularga Markaz siyosatini amalga oshirish uchun katta huquq va imkoniyatlar berildi. Ularga qarshi bo'lgan ko'pgina mahalliy rahbarlar ishdan olinib, javobgarlikka tortildi.

3. Dunyodagi barcha mustamlakachi davlatlar singari sho'rolar davlati ham O'zbekistonni o'zining hom ashyo yetkazib beruvchi o'lkasiga aylantirish siyosatini yuritdi, og'ir sanoatni rivojlantirishga ataylab yo'l bermadi. Urushdan O'zbekiston butunlay holdan toyib, har tomonlama qiyinchiliklar girdobiga botgan holda chiqdi.

Sovet davlati O'zbekistonda hech qanaqa yirik sanoat korhonasini qurmadi va qurishi ham mumkin emas edi. O'zbekiston tuprog'ida qurilgan va ma'lum darajada ahamiyatliroq bo'lgan sanoat korhonalarning 30 foizi Ittifoq tasarrufida, 60 foizi Ittifoq-Jumhuriyat tasarrufida bo'lib batamom Markazga bo'ysunar edi. Faqat 10 foizgina sanoat korhonasi bevosita O'zbekistonga bo'ysungan va bu respublika iqtisodiyotida hal qiluvchi o'rin tutmagan. 1946-1985 yillarda O'zbekistonda elektroenergiya sanoati rivojlantirildi. Yengil va oziq-ovqat sanoatining bir qator korhonalari qurilib ishga tushirildi. O'zbekistonda sho'rolar hukumatining rangli va qora metallurgiya, ko'mir ishlab chiqarish, gaz va neft mahsulotlarini qazib olish, transport va aloqa tarmoqlarini rivojlantirish, kapital qurilishini hamda shaharsozlik kabi sohalarga e'tibor berganligi to'g'risida keragidan ortiqcha yozilgan.

Hullas, sovetlar davrida O'zbekiston og'ir vaziyatga tushib qoldi. Respublikadan chetga chiqarilayotgan mahsulotning 2/3 qismi hom ashyo hissasiga to'g'ri keldi. O'zbekistonga chetdan keltirilayotgan narsalarning 60 foizini esa mashinalar, asbob-

uskunalar, yengil sanoat va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari tashkil etdi. Milliy nafsoniyatga qattiq tegadigan jumbok ko'zga yorqin tashlanib qoldi. Respublika o'zi ter to'kib yetishtiradigan va Markazga yetkazib beradigan juda qimmatli hom ashyo mahsulotlari – paxta, nitron, kaprolaktam va boshqalarni o'zida tayyor mahsulot tarzida ishlab chiqarish imkoniyati bo'lmaganligidan, uni tayyor mahsulot tovarlari shaklida bir necha barobar qimmat narhlarda Markazdan sotib olishga majbur bo'ldi. Natijada hayot uchun g'oyat zarur va qimmatli hom ashyolarni ishlab chiqarayotgan O'zbekiston bu mahsulotlarni yetishtirishda foyda emas, zarar ko'rdi, Markazdan dotasiyalar olib yashaydigan «boqimanda» respublikaga aylandi, va aksincha, bunday hom ashyo mahsulotlarini o'zi yetishtirmasa-da, uni o'zida qayta ishlab tayyor sanoat mahsulotlari tarzida sotuvchi Rossiya bundan behisob boyliklar olib, foyda orttirdi. Paxtachilikni rivojlantirish maqsadlarini ko'zlab bu sohaga juda katta hajmdagi mablag'larni sarfladi va paxtachilikning moddiy-tehnika bazasini mustahkamladi. 1940 yilda O'zbekiston pahta dalalarida 23 ming traktor ishlagan bo'lsa, 1985 yilda 188,9 ming traktor ishladi. Paxta terish mashinalarining soni ham yil sayin ortib bordi.

O'zbekistonda 1986 yili (1940 yil bilan taqqoslaganda) aholining o'sish sur'atlariga qaraganda pahta tayyorlash bir necha barobar o'sgani holda sigirlar, qo'y va echkilarning o'sish sur'ati keskin orqada qolgan. Paxta ekin maydonlari kengayishi Amu va Sirdaryo suvlarining Orol dengiziga oqishini keskin kamaytirdi natijada, Orol fojiasi kelib chiqdi.

Sho'rolar hukumati aholi uchun nihoyatda zarur bo'lgan sohalar: don mahsulotlari, kartoshka, sabzavot kabi tarmoqlarga ikkinchi darajali soha deb qaradi. Buning oqibatida jannatmakon o'lkamizning qaramligi va tobeligi yanada oshdi. Sho'rolar tuzumining inqirozi iqtisodiy sohani ham chetlab o'tmadi. Bu jarayon 50-yillarning ohiri va 60-yillarda avj oldi. Buni biz 1956-1960 yillarga mo'ljallangan besh yillik va 1959-1965 yillarga mo'ljallangan yetti yillik rejalarining bajarilmay qolganligida ko'ramiz. Bu jarayon ayniqsa 80-yillarda keskin tus oldi. Mehnat unumdorligi bo'yicha O'zbekiston Ittifoq darajasining sanoatda atigi 40 foiziga teng edi. Qishloq ho'jaligida esa mehnat unumdorligi umumittifokning o'rtacha ko'rsatgich darajalaridan ikki baravar kam bo'lgan. Bu shunga olib keldiki, ishlab chiqarish sur'atlari ilgarilash o'rniga orqaga ketdi. 1976-1984 yillarda Jizzah, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq ho'jaligiga davlat 8 milliard so'm mablag' sarflandi. Maydonning hajmi jihatidan bu respublikada ishga tushirilgan qo'riq yerlarning yarmiga teng bo'ldi. Ammo bu mintaqalarda paxta yetishtirish ko'payish o'rniga kamayib ketdi. 1985 yilda jami bo'lib respublikadagi tumanlarning yarmi, 11 ming brigada paxta tayyorlash yillik rejalarini bajarmadi. 1986 yilda 424 davlat va 22 jamoa ho'jaligi yilni zarar bilan yakunladi. Qishloq ho'jaligining boshqa sohalaridagi davlat rejalarini ham bajarilmadi. Iqtisodiy turg'unlik ayniqsa chorvachilikka halokatli ta'sir ko'rsatdi. Iqtisodiy inqiroz va turg'unlikning bosh sababi va uning asosi adolatsizlik, haqsizlik, tengsizlik va mustamlakachilikka asoslangan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tuzumda edi. Ikkinchi asosiy sabab «lenincha adolatli milliy siyosat»ni niqob qilib olib Kommunistik firqaning yuritgan byurokratik yakkaboshchilikka, buyruqbozlikka va zo'rlikka tayanuvchi siyosatida edi. Uchinchi asosiy sabab Ittifoq «yagona ho'jalik kompleksi» niqobi ostida ishlab chiqarish va rejalashtirishning haddan tashqari Moskva qo'lida markazlashtirilishi va unga bo'ysundirilishi edi.

Hullas, O'zbekiston Xalqi 80-yillarning ohirlariga kelib sobik Ittifoqida eng og'ir va nochor iqtisodiy ahvolga tushib qolgan edi. Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning og'irligi va muttasil ishsizlar sonining oshib borishi aholi turli tabakalari, hususan, yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning ko'payishiga sabab bo'lgan omillardandir. Og'ir iqtisodiy turmush sharoiti mamlakatda fojeali tus olgan ekologik buhron bilan birga qo'shilib aholi o'rtasida turli hildagi kasalliklarni keltirib chiqardi. O'zbekistonda 80-yillar davomida rak kasali bilan og'rish 16,5 foizga ortgan. Bunday og'ir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat O'zbekistonda uzok davom etishi mumkin emas edi. Insoniy haq-huquq va adolat uchun milliy mustamlakachilik zulmiga qarshi hal qiluvchi kurash pallasi yaqinlashmoqda edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T., «O'zbekiston, 1992.
- 2.Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». T., «Sharq», 1998.
- 3.Taraqqiyot va hamkorlik yillarida O'zbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasi. T., «O'zbekiston», 1993.
- 4.Usmonov K. Abdug'aniyev A va b. O'zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida. T., «O'qituvchi», 1996.
- 5.O'zbekiston Xalqlari tarixi. Ikki jildlik. Akademik A.Asqarov tahriri ostida. T., «Fan», 1992-1993.
- 6.Levitin I., Karlayl D.S. Islom Karimov – yangi O'zbekiston Prezidenti. T., 1996.
- 7.Karimov Sh. Qafasdagi qush orzusi. T., «Fan», 1991.
- 8.O'zbekistonning Yangi tarixi. Birinchi kitob: Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. T., «Sharq», 2000.
- 9.O'zbekiston tarixi. 1-qism. A.Sagdullayev, V.Eshov tahriri ostida. T., Universitet, 1999. 2-nashri.

12-MAVZU: SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA O'ZBEKISTONNING MA'NAVY-MADANIY QARAMLIGI VA UNING OQIBATLARI

Reja:

- 1.Madaniy inqilob tushunchasi, uning mohiyati.
- 2.20-30 yillardagi madaniy hayot. Xalq maorifi, oliy va o'rta mahsus ta'lim: yutuqlar va nuqsonlar.
- 3.Urushdan keyingi davrda ma'naviy-madaniy sohada ma'muriyatchilikning kuchayishi. Ruslashtirish siyosati. O'zbek ziyolilarining qatag'on qilinishi.

Tayanch so'z va iboralar:

Madaniy inqilob, Abdurauf Fitrat, Turkiston xalq universiteti, "Hujum harakati", O'lka sayyor, Turon, Inog'omovchilik, Qosimovchilik, «18 lar guruhi», Likbiz, SAKU, O'zFA, milliy qadriyatlar, mafkuraviy cheklashlar.

1. XX asrning 20-30 yillari davrini ko'zdan kechirar ekanmiz, bunda barcha ijtimoiy hayot jarayonlari qatori madaniy-ma'naviy soha ham o'ziga hos murakkablik, qiyinchilik bilan kechganligiga amin bo'lamiz. Sovetlar hokimiyati va uning hukmron partiyasi butun mamlakatda sosializm tuzumini barpo etishni uz oldilariga asosiy maqsad qilib qo'yar ekanlar, bunda madaniy sohaning roli alohidaligini, uningsiz ko'p narsaga erishib bo'lmasligini yahshi tushunardilar. Shu boisdan sovet hokimiyatining

dastlabki yillaridan boshlab madaniy qurilish jarayonini o'z ta'minoti va goyalari asosida rivojlantirishga kirishgan edilar.

20-yillar boshlariga kelib O'zbekiston hududida madaniy qurilishning eng dolzarb vazifalaridan sanalgan sovet ta'lim tizimini shakllantirish ishlari faol boshlab yuborildi. Sovetlar O'zbekistonda yangi ta'lim tizimini yaratishga yo'l tutar ekan, bundan ko'zlagan asosiy maqsadlari o'lkada halq ta'limi bo'g'inlarini ravnaq toptirish, yalpisiga Xalq savodhonligiga erishish, ilm-ma'rifat chashmalaridan hammasini to'la bahramand etish emas, balki eng avvalo yurt farzandlari ongiga, shuuriga kommunistik g'oyalar va ideallarni chuqur singdirish va shu yo'l bilan o'zlariga quloq qoqmay hizmat qiladigan «mo'min-qobil» avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish edi.

Sho'rolarning "madaniy inqilob" tadbiri jamiyatning barcha jabhalari qatorida ilmfan, madaniyati, san'at maorif, oliy ta'lim sohalarini o'z izmiga solgan edi. Ta'lim-tarbiyaning o'choqlari bo'lgan milliy maktablarga ham bu siyosat o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridanoq an'anaviy ta'lim tizimini yo'q qilish avj oldirildi. Davlat "proletariat diktaturasi"ning mavjud barcha kuchlaridan foydalanib, sovet siyosiy rahbariyati qisqa muddat ichida Turkistonda chor imperiyasi o'rnatgan ta'lim tizimini tag-tomiri bilan yo'q qilishga erishdi. Bir vaqtning o'zida an'anaviy maktablarga nisbatan ma'muriy-repressiv hamda iqtisodiy choralar ko'rildi. An'anaviy maktab va madrasa hamda jadid maktablarini yo'q qilish bilan birga sovet organlari mahalliy aholi farzandlari maktablariga ham jiddiy e'tibor berishmagan bo'lsada, sovet o'quv maskanlarini o'qituvchi kadrlar hamda kerakli mablag bilan ta'minlash imkoniyatlarini topa olishgan. Chunonchi, sho'ro ta'lim tizimiga mos o'qituvchi kadrlarning miqdoriy o'sishini ta'minlash keng yo'lga qo'yilib, 1917 yilning o'zidayoq Toshkent, Andijon, Samarqand, Qo'qonda dastlabki o'qituvchilar tayyorlaydigan qisqa muddatli kurslar tashkil etilgan edi. 1920 yillarning boshlariga kelib, shunday kurslar orqali 3 ming mahalliy millat va 802 ta yevropalik o'qituvchi tayyorlandi.

Ana shunday sharoitda mahalliy ziyolilarimiz zamonaviy milliy universitet yaratish ishiga bel bog'ladilar va Munavvar Qori Abdurashidhonov boshchiligida Musulmon Xalq Universitetini tashkil etish guruhi saylandi. 1918 yilning 9 aprelida Munavvar Qori Abdurashidhonovning hovlisida Musulmon Xalq Dorilfununining 9 kishidan iborat tashkiliy hay'ati ta'sis etildi. Musulmon Xalq Dorilfununi 1918 yilning 12 mayida Toshkent shahrining Eski shaharida tantanali ravishda ochildi. Uning 13ta maktabi 14-maydan ochila boshladi, eng oxirgisi 17 iyunda tarkib topdi. Ulardan 4 tasi ayollar maktabi edi. 1918 yilning 31 mayida esa Musulmon Xalq Dorilfununining oliy ta'lim bosqichi – Musulmon Dorilmuallimi tashkil etiladi. Lekin sho'rolar siyosiy va ijtimoiy muhitning murakkabligi va Rossiyadagi siyosiy voqealarni ro'kach qilib, 5 yillik o'qishga mo'ljallangan dorilmuallimini faqat 4 oylik musulmon o'qituvchilari kurslari bilan chegaralab qo'yidilar. Mazkur o'quv dargohida mashg'ulotlar 1918 yilning 1-iyunida quyidagi o'qituvchilar tarkibi bilan boshlandi, Abdurauf Fitrat, Ibrohim Ismoil, Burhon Habib, Munavvar Qori Abdurashidhonov, Abdulla Rahimboyev, Abdurahmon Ismoilzoda, Haydar Shavkat, Anna Poroykova, Vladimir Sergeev. Institut mudiri qilib Ibrohim Ismoilov va kotib Abdulla Rahimboyev tayinlandi. Musulmon dorilmuallimini Turkiston Xalq Universiteti mablag bilan ta'minlangani sababli, moddiy tomondan tamoman unga buysungan edi. Tez orada Turkiston Xalq Universiteti Boshqarmasi dorilmualliminda 1918 yil 15 avgustdan 1-sentyabrgacha

o'qish to'htatilishi haqida qaror qabul qiladi va shu yilning kuzida dorilmuallimin ikkinchi darajali tashkilot qatorida yopib qo'yiladi. O'lkada milliy ziyolilarni yetishtirishda muhim ahamiyat kasb etgan musulmon Xalq Dorilfununi faoliyati sho'rolar davri adabiyotida mutlaqo yoritilmagan, u yerda dars bergan 300 ga yaqin o'qituvchilarning nomlari hozirgi kunga kelib aniqlandi.

Shuni ta'kidlash joizki, 1918 yilning 21 aprelida rus ziyolilari tomonidan Turkiston Xalq Universiteti ochilgan edi. Uning birinchi rektori V.Popov edi. Musulmon Xalq Dorilfununi faoliyati sho'ro hukumati tomonidan to'htatib qo'yilgandan so'ng faqat rus tilini bilgan mahalliy millat vakillari mana shu dargohda oliy tahsilga ega bo'lishlari mumkin edi. 1926 yilning sentayabr oyida O'rta O'siyo partiya komitetlarining hotin qizlar bo'limlari hodimlari ishtirokida kengash o'tkazildi va u erda hotin-qizlar orasida olib borilayotgan ishlarni jadallashtirish va uni majburiy ravishda o'tkazishga qaror qilindi. Bu majburiy tadbir "Hujum" deb ataldi ya'ni hujum uslubida ayollar muammosini hal qilish siyosati ustun bo'la boshladi."Hujum" dastlab katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi, 1927yil bahoriga kelib 100 ming ayol paranjisini tashladi, 5 ming ayol savodsizlikni tugatish kurslarida taxsil oldi, 5202 nafar ayol viloyat, shaxar, tuman sudlariga halq maslahatchilari qilib saylandilar. "Hujum" harakatining asl maqsadi faqat parangi tashlashdan iborat emas edi. Uning asosiy maqsadi hotin-qizlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga keng jalb etish edi shu maqsadda O'zbekistonda va unga qo'shni respublikalarda bir qator hotin-qizlar atdellari tashkil qilindi. "Hujum" kompaniyasi jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Eng avvalo bu tadbir shoshma-shosharlik bilan, o'zbek halqiga hos milliy hususiyatlar, urf odatlar o'rganilmasdan amalga oshirildi. Kompariyatning madaniy merosni inkor etish siyosati arab yozuvini lotin grafikasiga almashtirish haqidagi qarorida ham o'z aksini topdi. Buning sababini sho'rolar "madaniy o'sishda tehnik hususiyatga ega to'siqlardan biri bu qoloq transkripsiyadir" hamda "an'anaviy arabcha yozuv faqatgina diniy" musulmon an'analari nuqtai nazaridagina qimmatlidir" deb o'qtirib, arab yozuvining mavqeini pasaytirishga harakat qiladilar. Shu munosabat bilan O'zbekiston kommunistlarining III qurultoyi (1927 yil noyabr) "Yangi lotin alifbosiga yanada shiddatliroq yo'l bilan o'tishi kerak" deb ta'kidladi va 1929 yilda arab yozuvi lotin grafikasiga o'zgartirildi. Chunki O'rta Osiyoni arablar istilo qilgan VIII asrdan boshlab nafaqat diniy kitoblar, balki fanning barcha sohalarida o'n uch asr mobaynida yaratilgan yozma madaniyat yodgorliklari, o'lka aholisi amal qilib kelgan huquq manbalari ana shu yozuvda yaratilgan edi. Shu sababdan bu mahalliy Xalqni madaniyatidan, o'ziga hos huquqidan ajratib, sovet qolipiga majburan solish edi. 1940 yilda esa lotin grafikasining kirill bilan shoshilinch almashtirilishi O'zbekiston aholisi bilim darajasining o'sishiga, uzbek tilining rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ushbu hatolik savodsizlar sonining sun'iy o'sishini keltirib chiqardi. Lekin eng achinarlisi, ma'naviy hayot to'la ruslashtirilib, hamma joylarda o'zbek tili imkoniyatlarining cheklanishiga olib keldi. Shu o'rinda aytish muhimki Sovet Sosialistik davlatchiligi o'zbek Xalqining tub ma'naviy, ahloqiy qadriyatlariga mos kelmas edi. Tarbiyaviy ishlar ham ilmiy manfatlarni aks ettirmas edi. Mustabid tuzum yillari respublikamizda adabiyot bilan bir qatorda milliy san'at ham rivojlandi. 1918 yilda Hamza Fargonada "O'lka Sayyor" siyosiy truppasini tashkil etdi. M.Qori-Yoqubov, U.Egamberdiyev, H.Islomov, M.Kuznesovalar shu teatr qaldirgochlar bo'ldilar. O'sha yili Mannon Uygur Toshkentda "Turon" jamiyati qoshida teatr tuzdi. Bu guruh keyinchalik O'lka Davlat namuna

teatriga aylandi. Teatrning birinchi aktyorlari Abror Hidoyatov, Muzaffar Muhamedov, Obid Jalilov, Fathulla Umarov, Sayfi Olimov, Ma'suma Qoriyeva, Bosit Qoriyev, Ziyoy Saidlardir. Mannon Uygur vatanparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan Fitrat, G'ulom Zafariy, Cho'lpon, Qodiriy. Ozarbayjon dramaturgi Husayn Jovid asarlarini sahnalashtirdi. Shu yillarda M.Qori-Yoqubov tomonidan birinchi bo'lib o'zbek Xalq musiqa ansambli tashkil etildi. 1926 yilda esa yuzaga kelgan birinchi o'zbek davlat konsert etnografik ansambliga atoqli o'zbek honanda, aktyor, sozandalari jalb etilib, 1929 yilda uning zaminida Samarqandda O'zbek davlat musiqali teatri tashkil topdi. Aynan o'sha davrlarda atoqli o'zbek ijrochilari chet el gastrollarida bo'lishgan: Tamarahonim va Qori Yoqubovlar Parij va Berlin (1925) da katta muvaffaqiyat qozonishgan. 1936 yilda o'zbek davlat filarmoniyasining tashkil etilishi ijrochilik san'atining ma'lum darajada tizimlanishiga asos bo'ldi.

Istiqlochlilar kurashi barcha ihtilofdagi siyosiy partiyalar tugatilishi natijasida bolsheviklar mutlaq yakkahokim partiyaga aylandi. U jamiyat ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida o'z mafkuraviy ta'sirini o'tkazib bordi. Ayniqsa bu kishilar ongini o'zgartirishda muhim omil bo'lgan ta'limda, ilmda va madaniyatda jiddiy tus oldi. Dastlabki yillarda madaniyat va uni boshqarish jabhalarida demokratik tamoyillar birmuncha mavjud bulib, hokimiyat mahalliy urf-odatlar va hususiyatlarni hisobga olishga majbur bulgan edi. Keyinchalik esa ma'muriy-buyruqbozlik usullari keng quloch otib mustahkamlanib borishi bilan yalpi kursatkichlar ortidan quvish, bolshevikcha «madaniy inqilob» yo'li va usullari ustivorlik qila boshladi. Xalqning ma'rifatga, fanga va milliy ma'naviyatga bo'lgan intilishi hukmron kuchlar tomonidan uzokni kuzlamay va yahshi o'ylamay olib borgan siyosatlari natijasida siyosiy manfaatlar yo'lga burildi. Yangi ziyoli kadrlarni shakllantirish, eski mavjud milliy ziyolilarni yo'q qilish ana shu maqsadlarni ko'zlab amalga oshirildi. Savodxonlik darajasining o'sishi byurokratik boshqaruv tizimining mustahkamlanib borishi, texnika taraqqiyoti tomon yutish va ilmiy muassasalarning tashkil topish jarayonlari ular ustidan qattiq mafkuraviy nazoratning o'rnatilishi yuz berdi.

Sovetlarning «madaniy inqilob» tadbiri jamiyatning barcha jabhalarini, ayniqsa fan va madaniyatni uta mafkuralashtirib, uning har bir sohasini qamrab oldi. Bolsheviklar tarbiyaning dastlabki va ta'sirchan quroli bo'lgan xalq ta'limini birinchi kunidanok mafkura izmiga solish uchun butun imkoniyatini ishga soldi. Maktablarda siyosiy tarbiyani yo'lga qo'yishga va uni takomillashtirib borishga e'tibor berdi. Ma'lumki, bolsheviklar mafkurasi negizida asosan sinfiy kurash goyasi ustivorlik qilgan. O'zgacha fikrlashga bo'lgan har qanday urinish «sinfiy dushman qarshiligi» deb baholandi.

20-30 yillarda mustabid tuzumiga qarshi fikr bildirganlarni ta'qib ostiga olish avj oldi. Ayni shu paytda "18lar guruhi", "inog'omovchilik", "qosimovchilik" kabi siyosiy ishlar to'qib chiqarilgan edi.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, respublika NKVDsi "Uchlik"lari tomonidan 1937-39 yillarida 41 mingdan ziyod kishi qamoqqa olinib, ulardan 6 ming 920 tasi otib tashlangan edi.

Shunday qilib, har qanday o'zgacha fikrni kuch bilan bo'g'adigan, ommaviy o'zboshimchalik va zo'rlik bilan Vatanga sodiq necha minglab kishilarni qirib tashlangan mustabid targ'ibot qaror topdi va kuchya bordi.

2. 20-yillarning boshida Turkistonda madaniy qurilish ishlari xalq xo'jaligi vayron bo'lgan va bolsheviklar ataylab boshlab bergan sinfiy kurash keskinlashgan

murakkab sharoitlarda olib borildi. Bu davrda Turkiston madaniy hayoti o'ziga hos ziddiyatli, bir-birini inkor etuvchi salbiy va ijobiy holatlarning o'zaro kurashi tarzida namoyon bo'ldi. Bolsheviklar yakkahokimligi tiklanib bo'lingach, chor hukumati siyosatiga monand ravishda sovetlar amalga oshirgan madaniy siyosatning ustivor yo'nalishi millat, milliy o'zligini anglashning muhim sharti bo'lgan madaniyatni yo'q qilish, ayniqsa, uning milliy sifatlarini qo'porib tashlashga qaratilgan edi. Maqsadga erishish uchun sovet tuzumi o'rnatilgan dastlabki kundanoq bolsheviklar partiyasi yagona, tanho hukmron partiyaqa aylanishini ta'minlash, bolshevizmga hayot bo'lgan barcha nazariya va goyalarga qarshi kurashish, ularning ta'sirini yo'qotishga qaratilgan siyosatni olib bordi.

Ularning bundan ko'zlagan asosiy maqsadi tubida esa, siyosiy manfaatlar yotardi.

Ushbu maqsadda 1921 yil oxirlarida Turkiston Respublikasi bo'yicha 1000 dan ortiq savodsizlikni tugatish maktablari faoliyat ko'rsatayotgan edi. Mustabid tuzum sovetlarcha savodli shahslarni shakllantirish, "savodsizlik"ni tugatish borasida shiddatli kurashni avj oldirib yubordi va 1920 yilning 17 sentyabrida TASSR Maorif xalq komissarligi tomonidan aholi orasida savodsizlikni tugatish to'grisida dekret qabul qilinadi. Unga muvofiq, 8 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan barcha fuqarolar o'kish va yozishni o'rganishlari shart bo'lgan. TASSR Maorif xalq komissarligi huzurida esa savodsizlikni tugatish bilan shugullanuvchi favqulodda komissiya ta'sis etiladi. "Savodsizlikni tugatish" (likbez) maktab va kurslari tarmogini yaratish borasida bir qator tadbirlar amalga oshiriladi. Hususan, 1920 yilning oxiriga kelib, "likbez"larning soni bir mingdan oshib ketadi. Ularni bitirganlar esa 70 mingta edi. Ushbu maktablar uchun o'qituvchilar tayyorlashga ham katta e'tibor qaratilib, qisqa muddatda mahalliy millatga mansub 2000ta o'qituvchi tayyorlandi. 1924 yilning boshida esa "Bitsin savodsizlik!" jamiyati vujudga keladi. Uning o'zagini o'qituvchilar, talabalar tashkil qilgan. Savodsizlikni tugatish bo'yicha ushbu jamiyat tomonidan dastlabki paytda 35 maktab ochilib 10200 kishi o'z savodini chiqardi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1937 yilga kelib, respublikamizda savodsizlik tugatilib, kamsavodli kishilar soni 2 milliondan ziyod bo'lgan. Aholining sovetlar idrokidagi umumiy savodxonligi 67,8% ga yetgan edi.

1923 yilda Turkiston kommunistik universiteti (SAKU) ish boshladi. Shu bilan bir qatorda Turkistonda 2 ta markaziy, 5 ta viloyat va 5 ta uyezd partiya sovet-maktablari ham ishlamoqda edi. 20 yillarning ikkinchi yarmi, 30 yillarda ma'muriy buyruqbozlik usullari keng quloq otib, mustahkamlanishi bilan, bolshyevikcha «madaniy inqilob» yo'li va usullari ustivorlik qila boshladi. 30 yillarda sovet maktablari darsliklariga muhtoj bo'lib turgan bir paytda, jadid mualliflari yozgan va musulmon bolalarining psixologiyasiga moslashtirilgan darsliklardan foydalanish haqida o'ylab ham ko'rilmadi.

Maktablarda ko'p hollarda ma'lumoti past, malakasiz kishilar muallimlik qildilar. Umuman 1932 yilda respublika pedagogika o'quv yurtlarida ishlayotgan o'qituvchilarning 72% ini boshlangich ma'lumotga ega bo'lganlar tashkil qilgan edi. Bu yillarda respublika oliy o'quv yurtlari tarmogi ortib bordi. Agar 1932 yilda respublikada 31 ta oliy o'quv yurtida 12,2 ming talaba o'qigan bo'lsa, 1941 yilga kelib ularda ta'lim olayotganlarning soni 18 ming kishiga yetdi. Shu bilan birga bu yillar davomida 100 ga yaqin o'rta maxsus o'quv yurtlari tashkil qilinib, ularda 15 mingga yaqin yoshlar ta'lim olishdi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida bu yillar davomida o'zbek millatiga

mansub talabalar soni ham ortib bordi. Lekin oliy o'quv yurtlaridagi mavjud professor-o'qituvchilar o'zagini asosan rus ziyolilari tashkil qilar edi. Shunga qaramasdan 30-yillarda respublikamiz hamda mintaqada ilm-fan ravnaqiga munosib hissa qo'shgan mahalliy millatga mansub olimlar yetishib chiqdilar. Ular: T. Qori-Niyoziy, T.Sarimsoqov, S.Sirojiddinov, O.Sodiqov, N.Dolimov, T.Zohidov, U.Oripov, S.Umarov va boshqalardir. Ilmiy-tadqiqot muassasalari tarmogi va ilmiy kadrlar sonining jadal o'sishi olimlar oldiga yangi vazifalarning qo'yilishi, ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish va ularni muvofiqlashtirib turish ishlarini takomillashtirishni taqozo qildi. 1932 yilga kelib O'zbekiston olimlari Respublika Fanlar Akademiyasini tashkil etishga kirishdilar. Bu yo'lda ilk tashlangan qadam Markaziy Ijroiya Qo'mitasi qoshida 1932 yil 11 oktyabrda O'zbekiston ilmiy tekshirish muassasalariga rahbarlik qiluvchi respublika Fan qo'mitasining tuzilishi bo'ldi. 1940 yil 9-yanvarda Fan qo'mitasi Ittifoq Fanlar Akademiyasining O'zbekiston filiali (O'zFAN)ga aylantirildi. Shu davrdan O'zFAN – O'zbekistonning ilmiy-tadqiqot markaziga aylandi. Uning tarkibiga geologiya, botanika, kimyo, suv xo'jaligi muammolari, tarix, til va adabiyot institutlari; tuproqshunoslik, zoologiya, fizika va matematika sektorlari; Toshkent astronomiya observatoriyasi; iqtisodiy tadqiqotlar va kartografiya byurosi kiritildi. 1943 yilda O'zFAN asosida O'zbekiston Fanlar akademiyasi (O'zFA) tashkil etildi, uning birinchi prezidenti etib akademik Toshmuhammad Niyozovich Kori-Niyoziy saylandi.

1946-1985 yillar oraligida Markaz ideologlari tomonidan o'ylab topilgan «rivojlangan sosializm», «sosialistik turmush tarzi» kabi hayoliy va noilmiy aqidalar girdobida butun mamlakatda bo'lganidek, O'zbekistonda ham maorif, oliy ta'lim, ilm-fan, san'at o'ta siyosiylik holda rivojlanishga majbur qilindi. Ushbu davrda madaniyatga hos, uning rivojlanishi uchun muhim omil bo'lgan erkinlik, demokratiya batamom yo'q qilindi. Madaniyat, ayniqsa milliy madaniyatning «rivoji» maxsus qolipga solindi. Totalitar tizim sharoitida madaniy-ma'rifiy muassasalardan ommaga g'oyaviy ta'sir o'tkazish maqsadida keng foydalanildi. 1960 yillar respublikada 2,977 klub bo'lsa, 1970 yilda ularning soni 3,441taga yetdi. Shu yillari kutubxonalar soni tegishli ravishda 3,418tadan 5,822taga, muzeylar soni 14tadan 26taga, kinoqurilmalar soni 2,178tadan 3,988taga oshdi. Lekin bularning ko'pchiligi statistik hisobotlarda oshirib ko'rsatilgan bo'lib, aslida o'zlarining bevosita funksiyalarini samarali bajarish uchun hayotiy imkoniyatga ega bo'lmadi. Ularning moddiy texnika bazasi past darajada bo'lib, moliya bilan yetarli ta'minlanmadi. Bu jihatdan O'zbekiston sobik sovet respublikalari o'rtasida eng quyi pogonada turdi.

1969 yilda Rossiyada aholining 10 ming nafariga 14 klub muassasi to'g'ri kelsa, Belorussiyada 11ta, O'zbekistonda esa atigi 4ta edi. Madaniy-ma'rifiy muassasalarga davlat tomonidan ajratilgan mablag' aholi jon boshiga Estoniyada 21,3 so'mni, Armanistonda 17,9 so'm, RSFSRda 9,7 so'mni tashkil qilsa, O'zbekistonda 4,5 so'mni tashkil qilardi. Respublika kutubxonalarining kitob fondi 1950-1970 yillarda o'n barobarga ko'paygan bo'lsa-da, lekin ularning ko'pchiligini mafkuraviy targ'ibot uchun zarur bo'lgan marksizm-leninizmga oid asarlar tashkil qilar edi. Olingan kitoblarning 8-10 foizigina respublikada nashr etilgan bo'lib, qolganlari chetdan keltirilib, ularning aksariyati rus tilida edi. Madaniy-ma'rifiy muassasalar moliyaviy jihatdan davlat nazoratidan chetda qolganligi uchun ko'pincha jamoatchilik asosida ko'rildi. O'zbekistonda ta'lim tizimini yaxshilash uchun o'nlab qarorlar qabul qilinardi. Biroq bu qarorlar milliy maktablarda to'liq bajarilmasdi. Maktablar urushdan keyin ham

darsliklar bilan to'liq ta'minlanmadi. O'qituvchi hodimlar masalasi urushdan keyingi yillarda eng jiddiy muammolardan edi. Chunki, malakali o'qituvchilar asosan urushga yuborilgan, ularning ko'pchiligi halok bo'lgandi. 1950 yilda respublika xalq xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlashda 26 ta oliy o'quv yurtlari, shuningdek 2 ta universitet faoliyat ko'rsatdi.

Shu bilan birga 92 ta tehnikum urta mahsus ta'lim tizimida ish olib bordi. 1950-1953 yillarda oliy o'quv yurtini bitirganlarning atigi 30% ini, o'rta mahsus o'quv yurtlari bitiruvchilarining esa 33% ini o'zbeklar tashkil qildi, holos. O'zbek millatiga mansub yoshlarni oliy va o'rta mahsus ta'lim maskanlariga bunchalik kam jalb etilishining sabablaridan biri bu o'quv yurtlariga kiruvchi yoshlar o'rta maktablarda ommaviy-siyosiy tadbirlarga, qishloq ishlariga asossiz ravishda ko'plab jalb qilinishi oqibatida ular oliy o'quv yurtlariga kira olishlari uchun talab qilinadigan bilimni olish imkoniyatiga ega bo'lmasdilar. Yana bir muhim sabablaridan biri, oliy o'quv yurtlariga kirish uchun sinov sifatida horijiy tillardan imtihon qo'yilishi va talabalarga 80 yillardan boshlab rus tilida dars o'tilishi edi. Ayni paytda, qayd etish joizki, respublikada oliy o'quv yurtlari soni ham ortib bordi. 1959 yili respublika oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligi tizimida 31 ta oliy o'quv yurtlari mavjud bo'lib, ularda 88 ming kishi ta'lim olgan bo'lsa, 1985 yilga kelib oliy o'quv yurtlari soni 42 taga talabalar soni esa 285,5 ming kishini tashkil qildi. Shuningdek, respublikadagi 249 ta o'rta mahsus bilim yurtlarida 281,7 ming o'quvchi bilim oldi. Bu miqdor mahalliy millat yigit qizlari bilim uchun emas diplom uchun qiziqsh degan aqidalar asoslanganligini ko'rsatadi.

Bu davrda mutahassislar tayyorlashda asosiy e'tibor son ko'rsatkichlariga qaratildi. Shu bilan birga, oliy va o'rta mahsus ta'lim tizimida mafkuraviy tazyiqlar kuchaydi; mutahassislik bo'yicha asosiy fanlarni o'qitishni takomillashtirish o'rniga barcha oliy o'quv yurtlarida kommunistik mafkurani shakllantiruvchi KPSS tarixi, marksizm-leninizm falsafasi, siyosiy iqtisod fanlarini o'qitish amalga oshirildi. O'quv jarayoni uchun muhim bo'lgan demokratik va ijodiy jihatlar inkor etildi. Natijada oliy ta'lim tizimida mas'uliyatsiz, loqayd, «o'rtamiyona» mutahassislar tayyorlash mehanizmi vujudga keldi. Shunday bo'lishiga qaramay O'zbekistonliklarni, hususan o'zbeklarning ilmga chanqoqligi har qanday sun'iy to'siqlarni yenga boshladi. O'zbekistonda fan va tehnikaning hamma sohalarida yirik olimlar yetishtirilib, fan nomzodlarini va doktorlarini tayyorlash bo'yicha sobik SSSRda oldingi qatorlarga chiqdi.

1950 yil O'zbekistonda 1760 fan nomzodi, 180 fan doktorlari ilmiy ish olib borar edi. 1965 yilda esa, fan nomzodlarining soni 4000 va fan doktori 324taga yetdi. 50-60 yillari Respublika Fanlar akademiyasining olimlari, ayniqsa, matematika-mehanika, tibbiyot, energetika, qishloq xo'jaligi sohalarida yoshlar olib bordilar. Bir qancha ilmiy-tekshirish institutlari travmatologiya va ortopediya, energetika, matematika, onkologiya va radiologiya, O'rta Osiyo qishloq xo'jaligini mehanizasiyalash va elektrlashtirish, kibernetika va boshqa bir qancha institutlar shu yillarda ishga tushirildi. Fanlar akademiyasi qoshida Falsafa va huquq instituti tashkil etilib, Sharqshunoslik instituti faoliyati kengaytirildi.

50-yillardan boshlab respublikada ilmiy-tadqiqot ishlarida atom quvvatidan foydalana boshlandi. Dastlabki paytda atom quvvati Toshkent va Samarkand Davlat universitetlari laboratoriyalarida, Fanlar akademiyasining fizika-tehnika institutida, politehnika va medisina institutlarida ishlatildi. 1956 yil boshlarida Toshkentdan 30 km

yiroqda, 750 shtat birligiga mo'ljallangan Yadro ilmiy-tadqiqot instituti va barcha qulayliklarga ega bo'lgan shaharcha qurilib, 1958 yili ishga tushirildi. Uning birinchi direktori etib, yirik fizik olim, akademik Ubay Orifov tayinladi.

1951-1954 yillari respublikada yana bir yirik ilmiy markaz bunyod etildi. 80 gektar maydonda ittifoqda yagona tabiiy sharoitda o'sadigan Toshkent botanika bog'i yaratildi. 1956 yili 5 noyabrda O'rta Osiyoda birinchi Toshkent telemarkazi ishga tushirildi. 1962 yil Urganchda, 1964 yil Nukusda ham televizion markazlar ish boshladi.

O'zbekistonlik olimlarning bir qanchasi, ayniqsa, tabiiy fanlar sohasida o'zlarining ilmiy yutuqlari bilan nafaqat sobiq ittifoq doirasida, balki jahon miqyosida tan olindi va yuqori darajadagi davlat mukofotlariga sazovor bo'ldilar. O'zbek olimlaridan matematiklar – T.N.Qori-Niyoziy, T.A.Sarimsoqov, S.H.Sirojiddinov, fiziklar – U.O.Oripov, S.A.Azimov, ximiklar – O.S.Sodiqov, S.Yu.Yunusov, M.I.Nabiyev, geologlar – H.M.Abdullayev, I.K.Hamraboyev, G.A.Mavlonov, biologlar – A.M.Muzaffarov, K.Z.Zokirov, T.Z.Zohidov texnika sohasida M.T.Urazboyev, H.A.Rahmatulin, H.Fayziyev, jamiyatshunoslik fani sohasida I.M.Muminov, H.Sulaymonova, Yo.G.Gulomovlar shular jumlasidandir.

3. Yurtboshimiz I.A.Karimovning mana bu ibratomuz so'zlarida ulug' ajdodlarimizning muttasil mustaqillik g'oyasiga sodiq bo'lib, shunga intilib yashab kelganligiga yana bir bor amin bo'lamiz: «Biz ona O'zbekiston istiqlolini, uning sha'nu shavkatini qanday himoya etishni ota-bobolarimizdan meros qilib olishimiz va uning himoyasiga hamisha tayyor turmog'imiz darkor».

Darhaqiqat, chor mustamlakachiligi o'zining behad zulmkorligi, qabohati bilan yurtimiz, uning jafokash odamlari tanasida o'chmas dard-hasrat qoldirdi, ularning qalbi dilini pora-pora etib, beadam mahrumliklarga giriftor qildi. U ajdodlarimizning qalb olamini azaldan bezab, ularni ma'nau va ruhan qo'llab-quvvatlab kelgan ne-ne asl ma'naviy qadriyatlarni zavol toptira borib, ularning jismi-jonida mavj urib kelgan milliy istiqlol va erk tuyg'ularini asta-sekin sundirishga urinib keldi. Yurtimiz tuprog'ini qonga belagan chor zobitlaridan biri bo'lgan general Skobelevning:

«Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas tez orada o'zi tanazullga uchraydi», deb aytgan behayo so'zlari bekorga aytilmagan albatta.

Bolsheviklar hokimiyati o'rnatilgach o'lka Xalqlarining ma'naviy madaniy hayotida huddi shu qoidaga asoslanib, milliy o'tmishni unutilgan, sovet tuzumini ardoqlaydigan, fanatik sovet kishisini vujudga keltirish yo'lidan bordi. 20 yillarning oxiri 30 yillarning boshidan madaniy hayotda ma'muriy buyruqbozlik usullarining keng qo'llanilishi, shuningdek qatag'onlar to'lqinining boshlanganligi, albatta milliy ma'naviyatimizga jiddiy to'sik bo'ldi. XX asrning 20-30 yillarida hukmron kommunistik partiyaning madaniy-qurilish siyosati asosan «shaklan milliy, mazmunan socialistik madaniyatini shakllantirishga qaratildi. Shu bois bu yillarda o'zbek xalqining olis asrlarga borib qadaluvchi moddiy va ma'naviy madaniyati durdonalari, asoriatlilariga, masjidular madrasalar, gumbazu maqbaralar ko'rinishidagi noyob me'moriy obidalarga zo'r berib hujum uyushtirildi. hatto ko'p joylarda «Hudosizlar jamiyatlari» tuzilib, ular orqali diniy e'tiqod va tasavvurlarga qarshi, uning pokdamon peshvolariga qarshi hujumkor ateistik kurash, tashviqot va targibot avj oldirildi. Bolshevistik siyosiy doiralar o'zgacha dinni, o'zgacha e'tiqodni xalq ongiga singdirishga harakat qildi. Bu din marksizm g'oyasi edi. Bu go'yani ommalashtirish uchun barcha imkoniyatlar ishga

solindi. Jamiyatga asosiy mafkura sifatida marksizmning kiritilishi natijasida boshqa dunyoqarashlar batamom inkor etildi. Marksizm g'oyasini qabul qilmagan har bir kishi «Xalq dushmani» deb e'lon qilindi.

O'zbek adabiyotining Fitrat, Cho'lpon kabi «keksa» avlodi vakillarining 30-yillarda erkin ijod etishga yo'l qo'yilmadi. Shoir va yozuvchilarning o'z asarlarida Lenin va Stalin obrazlarini yaratishlariga alohida e'tibor qaratildi, kommunistik obrazi o'zbek adabiyotining asosiy obraziga aylandi, o'zbek kishisi ongining shakllanishi, albatta rus «og'a»sining ishtiroki va ta'sirida ro'y berishi lozimligi adabiyot oldiga qo'yilgan asosiy talablardan edi. 1929 yili turli bahonalar bilan uyushtirilgan «tozalash» kompaniyalarida o'zbek ziyolilarining dastlabki avlodi mahv etildi. Ammo 1929-1930 yillardagi «tozalash» bilan o'zbek xalqi va uning madaniyatini sovetlashtirish muhim ekanini tushungan davlat va partiya 1937 yilda adabiyotimiz va umuman madaniyatimizning eng sara arboblarni yo'q qilib, hatto ular nomini tarixdan o'chirib tashlash uchun barcha choralarni ko'rdi. A.Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Elbek, Usmon Nosir, Gozi Yunus, G'ulom Zafariy singari yozuvchilar «Xalq dushmanlari» deb e'lon qilindi.

Bu qatog'on qurbonlari Ona yurt uchun, Vatan uchun jonlarini garovga qo'yib, faoliyat yuritganliklarini Prezidentimizning quyidagi so'zlaridan ham bilish mumkin: «XX asr boshidagi ma'rifatchilik harakati haqida gap ketganda bir savol fikrimizni teranlashtiradi. O'sha haraktning namoyandalari boylik uchun, shon-shuhrat uchun maydonga chiqishdimi? Mahmudhujja Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Tavallolarga maktab ochganlari, xalqni o'z haq-huquqlarini tanishga da'vat etganlari uchun biron maosh to'laganmi? Albatta, yo'q! Ular o't bilan o'ynashayotganlarini, istibdodga qarshi kurashayotganlari uchun ayovsiz jazolanishlarini oldindan yahshi bilishgan. Bilaturib, ongli ravishda mana shu yo'ldan borganlar. Chunki vijdonlari, iymonlari shunga da'vat etgan».

50-yillarning oxirlarida «SSSRda sosializmning to'la va uzil-kesil galaba qilgan»ligini KPSS XXI s'yezdi (1959 yil yanvar-fevral) tantanali ravishda e'lon qildi. 60 yillardayoq jamiyat taraqqiyotida kundan-kunga sekinlashish mehanizmi tobora kuchayib, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida beqaror rivojlanish ko'zga tashlandi va SSSRda 80 yillarga kelib «va'da qilingan kommunizm» bo'lmasligi yaqqol sezilib qoldi. Shu boisdan «rivojlangan sosializm» g'oyasi o'ylab chiqilib, barcha sohalar kabi madaniy-ma'rifiy soha ham mana shu g'oyaga moslashtirildi. Mustabid tuzum illatlari fan taraqqiyotiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmay qo'ymadi. Bu narsa, erkinlik, ijodiy muhit yaratish o'rniga, ma'muriy buyruqbozlik usulini qo'llashda fanga ham yuqoridan turib «ko'rsatma» berishda, ayniqsa olimlar tomonidan yaratilgan yangiliklarni ishlab chiqishga o'z vaqtida joriy qilinmaslikda yaqqol ko'rindi. Ayniqsa, bu davrda ijtimoiy-gumanitar fanlarga nisbatan «zo'ravonlik», ularni kommunistik mafkura «andozasiga» solish yanada kuchaydi. qadimiy tarihimizni o'rganish «o'tmishga sajda qilish» deb qoralandi.

40 yillar ohiri 50 yillar boshidagi yangi qatog'onlar to'lqini M.Shayhzoda, Mirzakalon Ismoilov, Shuhrat, Sayid Ahmad, Shukrullo singari yozuvchilarni «temir parda» orasiga tashladi. 60 yillarning ikkinchi yarmi va 70 yillarda yaratilgan o'zbek adabiyotining eng yahshi namunalari mavjud tuzumga nisbatan muholifat maqomida maydonga keldi. Shuning uchun ham bu davrda yozilgan asarlar hali o'z qiymatini yo'qotgan emas. San'at sohasidagi hodimlarga ham eng avvalo inqilobiy sovet turmush

tarzini ulug'lovchi asarlar sonini ko'paytirishga ahamiyat berish vazifasi yuklandi. Milliy-tarixiy mavzularga e'tibor berish esa «burjua mafkurasiga sajda qilish» deb baholandi.

60-80 yillarda madaniy-ma'rifiy muassasalar ish shakli, uslublari ko'proq badiiylikdan siyosatlashgan «madaniy yulga» moslasha bordi. Natijada har bir madaniyat maskanlarining ish faoliyati natijalari uning qay darajada xalq madaniy saviyasini oshirganligiga qarab emas, aksincha, qay yo'sinda kommunistik mafkuraning targ'ibotchisi sifatida ish olib borganligiga qarab baholandi. Kino, radio, televideniye mehnatkashlarni «kommunistik» ruhda tarbiyalashda, xalq ongiga rus madaniyatini singdirishda katta rol o'ynadi. 1946-1985 yillarda O'zbekiston madaniyatining rivoj topishga madaniyat va san'at sohasini moddiy-iqtisodiy jihatdan ta'minlashda yo'l qo'yilgan jiddiy hatolar ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Hususan, 1940 yildan boshlab surunkali ravishda mazkur soha uchun davlat byudjetidan mablag' ajratish kamayib borish sabablardan biri sovet davlati iqtisodiy ahvolidning tobora yomonlashib borayotganligidan dalolat edi. Ayniqsa, bu 80 yillarning ikkinchi yarmiga kelib keskin tus ola boshladi.

Shunday bo'lsa-da mustabid tuzum o'zining mafkuraviy cheklashlaridan, kommunistik g'oyaga zid bo'lgan qarashlarga murosasiz bo'lishdan voz kechmadi. Aksincha, ijtimoiy-iqtisodiy turg'unlik yillarida ham siyosiy aqidaparastlik yanada kuchaydi.

Qonun chiqaruvchi va ijrochi hokimiyat ittifoqdagi singari, respublikada ham rasman sovetlar ixtiyorida edi. 1950 — 1959-yillarda O'zbekiston Oliy Soveti Prezidiumiga Sh.R. Rashidov boshchilik qildi. Hullas, sovet tuzumining murakkab va o'ta ziddiyatli yillarida o'zbek halqi o'zligini, qadimiy milliy ma'daniyati va qadriyatlarini saqlab qolishga harakat qildi. Lekin bu oson kechmadi. Bu yo'lda o'ziga hos kurashlar va yo'qotishlar sodir bo'ldi. Kommunistik mafkura mahalliy halqning milliy g'ururini sindirishga urindi. Halqni milliy ma'daniyatdan, milliy an-analardan chalg'itish uchun «kommunizm» va «rivojlangan sotsializm» kabi hayoliy aqidalarni o'ylab topdi. Ularni halq ommasi ongiga singdirish uchun barcha choralardan, vositalardan va usullardan foydalandi. Lekin o'zbek halqi bularning barchasiga bardosh berdi. Chunki halq ijtimoiy-siyosiy hayotda muqarrar o'zgarishlar sodir bo'lishiga ishonar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin» T.2 T., «O'zbekiston» 1996.
- 2.Karimov IA. «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir» T.Z T., O'zbekiston» 1996.
- 3.Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» T., O'zbekiston» 1998.
- 4.Mahmudov M. «Qatag'on qurbonlari» T. 1991.
- 5.O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob: Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. T. »Sharq» 2000.
- 6.O'zbekistonning yangi tarixi 2-kitob: O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. T. «Sharq» 2000 y; O'zbekiston tarixi. T. "UAJBNT" markazi 2003 y.
- 7.Tursunov I.N. O'zbekiston maorifchilari istiqlol yo'lidagi ishlari tarixidan. (1917-1939) T. 1995.
- 8.Sodiqov M. Erksevar, hurriyatparvar el vorislarimiz. T.1992.

13-MAVZU: MUSTABID SOVET TUZUMINING O'ZBEKISTONDAGI QATAG'ONLIK SIYOSATI VA UNING OQIBATLHARI.

Reja:

1. SSSRda ma'muriy-buyruqbozlik totalitar tuzumning qaror topishi. Respublika huquqlarining cheklanishi.
2. Siyosiy qatag'onlik, uning bosqichlari va og'ir oqibatlari.
3. Stalin vafotidan keyin ma'muriy-buyruqbozlik tizimining kuchhayishi, ijtimoiy-adolat qoidalharining buzilishi.

Tayanch so'z va iboralar:.

Ma'muriy buyruqbozlik, totalitar tuzum, "18 lar guruhi", "inog'omovchilik", "qosimovchilik", qatag'onlar, shaxsga sig'inish.

1. XX asr 20-yillharining yarmiga kelib sovetlar mamlakatining hokimiyat boshqaruv idora tizimida ham keskin o'zgaris hollari yuz berdi. Stalin asta-sekinlik bilan o'zining yakka hokimligini butun choralhar bilan qaror toptirish hharakatida bo'ldi. 20-yillar oxirlharida Stalin tomonidan yangi nazhariy qarash sifatida ilgari surilgan «Sozializm mustakamlanib borgan shari sinfiy dushman qarshiligi ham shunchalik kuchayib boradi» degan g'oya qonuniy hatti-hharakatlarning avj olishiga olib keldi. Stalin va uning atrofdagilhari mamlakat va partiya hayotiga oid har bir masalada o'z irodasi, hukmini boshqalarga majbur yetib har qanday muolifatchi qarashlarni, ularning tashuvchilarini mahv yetib bordilhar. Su tariqa, mamlakatda Lenin tomonidan asos solingan totalitar boshqaruv tizimini Stalin yanada kuchaytirdi. Bu tizimning moyiyati shundaki, unda davlat boshqaruvi markazlashgan va buyruqbozlik harakterida bo'ladi. Ijtimoiy, iqtisodiyot, madaniyat, ma'naviyat sohalhari ustidan qattiq nazorat o'rnatildi. Turlixil tarzda fikr, tafakkur yuritish, muolifatchilik harakterlarida bo'lish qat'iy man etildi, siyosiy yerqinliklar taqiqlanadi. Ayni chog'da demokratiya buzildi, ilg'or, taraqqiyparvar kuchlar qatag'onlikka maxkum etiladi. hukmron partiyaning yagona irodasi, o'zboshimchaligi, chegara bilmas zo'rvonligi avjiga mindi. Mamlakatda totalitar tuzumning qaror topishi milliy sovet respublikalari hayotiga ham dahl qilib, ularning butun inon itiyorini Ittifoq davlati tasarrufiga bog'lab qo'ydi. Bu O'zbekiston timsolida ham ko'zga yaqqol tashlanadi. Avvalo, respublika hokimiyati, boshqaruvining hamma bo'g'inlari to'liq ravishda SSSR organlariga bo'ysundirildi. Shuningdek, bu yerdagi yagona rahbar tashkilot – O'zbekiston Kompartiyasi ham VKP(b)ning tarkibiy qismi sifatida, ya'ni viloyat bo'limi maqomiga tushirildi. Binobarin, hukmron partiya qabul qiladigan har qanday qaroru farmoyishlar, rahbariy ko'rsatmalar respublika partiya tashkilotlari tomonidan bajarilishi majburiy va shart edi. Stalincha ma'muriy-buyruqbozlik tizimi ko'zga ko'rinarli va ko'zga ko'rinmas ming hil qizil iplar bilan O'zbekistonni o'z domiga kiritib, uning amaldagi rasmiy mustaqilligini ham yo'kka chiqargan edi. Uning mahalliy rahbariyati respublikaning iqtisodiy, ho'jalik, madaniy-ma'naviy hayotiga oid biror bir masala, muammoni mustaqil tarzda hal etishga haqli, huquqli emas edi.

Mustabid tuzum markazdan O'zbekistonga o'zining ko'p sonli sadoqatli hodimlari, vakillarini rahbariy lavozimlarda ishlashga uzluksiz yuborib turdi. Ular yordamida o'lka hayotida kechayotgan barcha jarayonlar, o'zgarishlardan doimiy habardor bo'lib, mahalliy kadrlar faoliyatini kuzatib, nazorat qilib bordi. O'z xalqi, yurtining milliy manfaatlarini himoya qilib, uning istiqbolini ko'zlab, o'zida kuch iroda topib, bor haqiqatni aytishga jur'at qilgan millat kishilari birinchi navbatda hukmron Markazning

qahr-g'azabiga duchor bo'ldi. Qatag'onlik zulmkorlari, ularning gumashtalari bir imo-ishora bilan bunday yurt fidoyilarini oradan olib tashlash, faoliyatini og'machilik, buzg'unchilikda ayblash, sha'niga millatchi, xalq dushmani, aksilinqilobchi, burjua malaylari kabi asossiz bo'htonlar bilan la'nat tamg'asini tirkashga doimo tayyor turardilar. Buning yorikin ifodasini sovet mafkurachilari tomonidan to'kib chikarilgan va o'zbek milliy kadrlari sha'nini bulg'ashga karatilgan «18lar guruhi», «Inog'omovchilik», «Qosimovchilik» degan siyosiy ishlar misolida ko'rish mumkin. Mazkur guruhlar faoliyatiga oid tarixiy hujjatlarni ko'zdan kechirib, tahlil etar ekanmiz, bu insonlar hatti-harakatida, faoliyatida ularni ayblashga hiech bir asosli ashyo-dalillar bo'lmaganligiga to'la amin bo'lamiz. Ularning yagona «gunohi» - bu o'z millati dardi, tashvishi va manfaatini ko'zlab, ayrim muhim muammolarni ko'targanligi va ularni hal etishga yuQorining e'tiborini jalb etganligi, holos. Ho'sh, «18lar guruhi» tarkibi kimlardan iborat bo'lgan? Ular sovet mutasaddilari oldida qanday gunoh kilgan edilar? Respublikaning taniqli arboblardan tashkil topgan bu guruh (I.Hidiraliev, M.Saidjanov, U.Ashurov, R.Rahimboboyev, R.Rafiqov va b.) ga tirkalgan asossiz aybga, uyushtirilgan bo'htonga ko'ra, go'yo uning a'zolari hukmron Markazning ulug'davlatchilik va shovinistik siyosatiga, milliy kadrlarga nisbatan bepisandlik, loqaydlik yo'liga qarshi chiqib, adolat va haqqoniylik tamoyillarini himoya qilib chiqqandilar. «O'n sakkizlar guruhi» bolsheviklar tomonidan boy-quloq deb nomlangan o'ziga to'q ho'jaliklarning yer-suv islohati jarayonida belgilangan me'yordan ortiqcha mol-mulki tortib olinishiga qarshi chiqdi. Shuningdek sovetlarga saylovlar vaktida, «quloq» deb tadbirkor, to'k ho'jaliklarning saylov huquqidan mahrum qilinishi bilan kelisha olmadi. Ular tijorat, hunarmandchilikni yo'qotishga qaratilgan og'ir soliqlarni kamaytirishni talab qildilar, o'zbek ayollarini ozodlikka chiqarishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymaslik, qon to'kilishiga olib kelmaslik zarurligini ko'rsatdilar. Ularning bu talab va istaklari O'zbekistondagi markaz vakillariga yoqmadi. Shu bois rasmiy partiya organlari tomonidan mazkur guruh keskin qoralandi va uning a'zolari o'z lavozimlaridan olinib, turli partiyaviy jazolarga giriftor etildilar.

«Inog'omovchilik» guruhi to'g'risida gap borganda ham unga qo'yilgan barcha ayblarning to'lik tarzda to'kib chikarilganligi ayon bo'ladi. Ma'lumki Rahim Inog'omov O'z KP(b) MK Matbuot bo'limi mudiri va O'zSSR Maorif halq komissari vazifasida faoliyat yuritib kelgan. Shuningdek, R.Inog'omov o'zining bir qator nutqlarida O'zbekiston Kompartiyasining mustaqil faoliyat yurita olmayotganligiga, Markazning nazoratchi organlarining o'lka hayotidagi zo'ravonligiga ham alohida e'tibor qaratgan. Respublikaning bir qator mahalliy partiya, sovet organlari mas'ul hodimlaridan M.Mavlonbekov, I.Isamuhamedov, M.Aliyev singari hammaslklar R.Inog'omov qarashlarini qo'llab-quvvatlab chiqqandilar. Albatta, bunday muholifatchi chiqishlar hukmron partiya mutasaddilarining qahriga uchramasdan, jazolanmasdan qolmasdi. Shu bois 1926-1931 yillarda bu guruh faoliyati partiya tashkilotlarida bir necha bor muhokama qililib, og'machi guruhbozlikda ayblandi. R.Inog'omov 1926 yil ohirida «O'zbekiston ziyolilari» risolasini matbuotda e'lon qildi. Unda «Oktyabrdagi o'zgarish o'zbek halqi uchun kutilmagan voqea bo'ldi va o'zbek mehnatkashlari tayyor emas edi», - degan fikrni ilgari surdi. Shuningdek R.Inog'omov o'zining bir-qator nutqlarida O'zbekiston kompartiyasini Rossiyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi kuzatilayotganlikda, markazning Sredazbyuro, SredazEKOSO kabi «nazoratchi» organlarini zo'ravonlikda aybladi. 1926 yil 12 dekabrda bo'lgan O'zKP(b) MK Ijroiya

byurosi «R.Inog'omov faoliyati» haqidagi masalasini ko'rib chiqib «inog'omovchilik»ni O'zbekiston Kompartiyasidagi «mayda burjuachilik, millatchilikka tomon og'ish» deb baholadi va respublika partiya tashkilotlarida keng muhokama qilib «inog'omovchilik»ka «baho berish»ni topshirdi. Shunga ko'ra barcha partiya tashkilotlari majlislarida «inog'omovchi»lik qoralandi. R.Inog'omov va uning tarafdorlari vazifalaridan olinib, nomlari qoralandi, o'zlari esa tavba tazarru qilishga majbur etildilar.

«Qosimovchilik» guruhi ham 1929-1930 yillarda sovet hukmron rejimi tomonidan milliy kadrlarni, ziyolilarni qatag'on qilish, jazolash maqsadida atayin uyushtirilgan navbatdagi uydirma bo'lgan. O'zSSR Oliy Sudining raisi lavozimida ishlab kelgan Sa'dulla Qosimov va uning yaqin maslakdoshlari deb topilgan N.Alimov, B.Sharipov kabi 7 kishi 1929 yilning 2-yarmida qamoqqa olinadilar. Ularning atayin to'qib chiqarilgan «ayblov ishi»ga siyosiy tus beriladi. Bunga ko'ra, ular respublikadagi millatchi tashkilotlar bilan aloqa bog'laganlikda qoralandilar. Bu guruhning 4ta a'zosi mana shu asossiz ayblar bilan ayblanib, otib tashlandi, qolgan 3 kishi esa ko'p yillik qamoq jazosiga hukm qilindi. Eng so'nggi ma'lumotlar, tarixiy hujjatlarni har tomonlama o'rganish, tahlil qilish, surishtirishlar bunday tashkilotlarning respublika hududida butunlay bo'lmaganligini tasdiqlamoqda. Demak, bunday aksilinqilobiy tashkilotlar qatag'onlik tuzumi buyurtmasi asosida Markaz jallodlari va jazo organlari tomonidan atayin to'kib chikarilgan. Buning orasida ming-minglab begunoh, aybsiz insonlar shafqatsiz jazolangan, aziz umrlari hazon bo'lgan.

2. Mamlakatda ma'muriy buyruqbozlik tizimi qaror topib mustahkamlanib borishi bilan bir qatorda respublikaning butun ijtimoiy-siyosiy hayoti muttasil siyosatlashtirilib va baynalminallashtirilib borildi va hukmron partiya tomonidan «sosialistik qurilish» va mustabid tuzumni mustahkamlash vazifalariga bo'ysundirildi. Ijtimoiy-siyosiy hayot shu qadar shiddat bilan o'zgarib bordiki, mavjud har bir masalaga siyosiy nuqtai nazardan qaraldi. Buning natijasida milliylik o'rniga amalda baynalmilallik ustivor qilib qo'yildi, milliy qadriyatlar an'ana, urf-odatlar oyoqosti qilindi. Kommunistik partiya o'rnatgan ana shu mustabid tuzumni, u amalga oshirgan, «sosialistik tajriba»ni mahalliy halq, avvalo uning ilg'or vakillari zo'r norozilik bilan kutib oldilar, ular halqning milliy madaniyatini, an'analari va urf-odatlarini, ko'p asrlik ma'naviy merosini saqlab qolishga intildilar, Markazning zo'ravonligiga qarshi ochiq tanqidiy fikrlar bildirdilar.

Kommunistik partiya hukmronligi davridagi siyosiy qatag'onlarning bosqichlari haqida gapirganda, uni 3 davrga bo'lish mumkin.

1. O'tgan asrning 20-30 yillar qatag'onlari. Bu davrda juda ko'plab davlat va partiya rahbarlari, ziyolilar, o'qituvchilar, jadidlar qatag'on qilindi.

2. XX asrning 50-yillar qatag'onlari. Bu davrda shoirlar, yozuvchilar, ularning asarlari qatag'on qilindi.

3. XX asrning 80-yillar qatag'onlari. «Pahta ishi», «O'zbek ishi» nomi bilan Markaz tomonidan to'qib chiqarilgan buhtonlar natijasida yuzlab respublika, viloyat, tuman rahbarlari, oddiy pahtakorlar qo'shib yozishda, ko'zbo'yamachilikda, poraho'rlikda ayblanib, turli hil muddatlarga ozodlikdan mahrum etildi, ularga ma'naviy va moddiy zarar yetkazildi.

Milliy madaniyatni qayta tiklash halq turmushini yahshilash muammolariga diqqatni jalb etishga uringan rahbar hodimlar va ijodiy ziyolilar ustidan 20-yillar

davomida hufiyona zo'rlik va repressiyalar siyosati o'tkazildi. Shu munosabat bilan Turar Risqulov, Fayzulla Ho'jayev, Abdulla Rahimboyev, Nazir To'raqulov, Inomjon Hidiraliyev, Kayg'usiz Otaboyev, Akmal Ikromov, Sultonbek Hujanov singari mashhur arboblarning millatchilikda ayblandilar. Turar Risqulov (1894-1938) 1919 yil mart oyida tuzilgan musulmon kommunistlari byurosi raisi, Turkiston MIK raisi, keyinchalik Turkiston HKS raisi bo'lib ishlab kelgan.

T.Risqulov 1919 yilda Turkistonda bolsheviklar hokimiyatini saklab kolish uchun bu yerga kelgan Sh.Eliava boshchiligidagi Turkkomissiya faoliyatiga qarshi chikdi. Hatto Turkiston HKS raisi bo'lib ishlagan K.Otaboyev katta yig'inda kelganida yevropaliklar mahalliy sharoitni yerli halq tilini bilmaydi, shuning uchun ular o'lkada foydali ish qilmayapti deb ochiq gapirgan edi. T.Risqulov Turkiston XKS raisi qilib tayinlanayotganda yerli halqlar qobiliyatli kadrlarini ishga faol jalb qilish shartini qo'ydi.

Turkkomissiya faoliyatidan norozi bo'lgan yerli halq vakillari uni tugatishni, Turkfront RVS (inqilobiy harbiy kengash) huquqlarini cheklash, qizil armiya qismlarini Turkistondan chiqarish yoki qurolsizlantirishni qat'iy talab qildi.

1920 yillarning boshlaridayoq Turkiston ASSRni bo'lib tashlash va milliy til belgisiga qarab muhtor (avtonom) respublikalar tuzish masalasidagi Turkkomissiya raisi H.Rudzutak tashabbusi bilan qabul qilingan tezislarga ham T.Risqulov qarshi chiqadi. U turkiyzabon halqlarni alohida qismlarga bo'lib tashlab bo'lmaydi degan g'oyani ilgari surdi. Markaz bu fikrni inkor etib, uni panturkizm, panislomizm, burjua millatchiligida aybladi. 1938 yilda u qatag'on qurboni bo'ldi.

Akmal Ikromov (1898-1938) davlat va siyosiy arboblardan biri edi. Dastlab u o'lkada tashkil topgan «izchillar», «Chig'atoy gurungi»ning a'zosi bo'lib sovet tuzumiga qarshi maqola va she'rlar yozgan. U she'rlarida Elhon tahallusini qo'lladi. 1921 yilda Turkiston KP MK kotibi lavozimiga saylangan A.Ikromov 1922-1924 yillarda Moskvada o'qidi va kommunistik g'oyalar bilan qurollantirildi. 1925 yil fevralda A.Ikromov O'zKP MKning mas'ul kotibi, 1929 yilda MKning birinchi kotibi lavozimlariga tayinlanadi. U sovet hokimiyatining siyosatini izchillik bilan amalga oshirdi. O'zbekistonda yer-suv islohoti, majburiy jamoalashtirish, «quloqlarni sinf sifatida tugatish» kabi tadbirlarda faol ishtirok etdi va ularga rahbarlik qildi. O'sha davrda milliy ziyolilarni qatag'on bo'lishiga maydon hozirlagan «Siyosiy ko'rlarmiz» degan maqolasini e'lon qildi. A.Ikromov «inog'omovchilik»ka qarshi bir-necha bor chiqishlar qilib, ularni «milliy og'machilik» va «millatchilikda» ayblaydi. 1927 yil oktyabrda Samarqandda bo'lgan O'zSSR madaniyat hodimlarining II qurultoyida A.Ikromov «Mafkuraviy jabhadagi kurash va madaniyat hodimlarining vazifalari» nomli ma'ruzasidan so'ng, 1929 yilda Munavvar Qori boshliq taraqqiyparvarlar qatag'onga uchradilar. Uning rahnamoligida millat ravnaki va istikloli yo'lida faoliyat yuritgan, halqqa ziyo taratib kelgan «Milliy Ittihad» va «Milliy istiqboli» tashkilotlarining 87 a'zosi ustidan sud uyushtirildi va ularning 15tasi 1931 yilda Moskvada otib tashlandi, qolganlari uzoq muddatga qamoq jazosiga tortildi. Ular halqimizning asl farzandlari edi. Masalan, ulardan biri – professor G'ozi Olim Yunusov edi. U kishi 50dan ortik asarlar muallifi, arab, fors, nemis, ingliz, barcha turkiy tillarning bilimdoni, rus, nemis, arab tillarida mahsus kurslardan Samarqand universitetida dars bergan edi.

Hullas, bolsheviklar rejimiga sidqidildan hizmat kilgan A.Ikromovni ham mustabid tuzum qatag'onlari ayab o'tirmadi. U 1937 yil sentyabrda Toshkentda hibsga olindi va 1938 yil mart oyida Moskvada otib tashlandi. Inomjon Hidiraliyev (1891-1928) Farg'ona viloyati Namangan uyezdining Pop volostida dehqon oilasida tug'ilgan. U 1922-1924 yillarda Turkiston ASSR MIK va HKKning RSFSRdagi Muhtor vakili bo'lib ishladi. I.Hidiraliyev 1924 yil aprel-avgustda Londonda bo'lgan Sovet-Angliya muzokaralarida ishtirok etdi. U F.Ho'jayev, T.Risqulov, K.Otaboyevlar bilan hamkorlikda bolsheviklarning shovinistik siyosatini izchillik bilan fosh etdi. Turkistondagi istiqloqlilik harakatiga hayrihoh edi. U «o'n sakkizlar guruhi»ning tashkilotchilardan biri bo'lib, bolsheviklar tomonidan o'tkazilayotgan «quloqlarni sinf sifatida tugatish» siyosatiga qarshi chiqqan edi. Pahtakor dehqonlarni himoyachisi edi. Mustabid tuzumning ruhiy tazyiqiga uchragan I.Hidiraliyev 1928 yil 31 dekabrda Moskvadagi «Nasional» mehmonhonasida o'z joniga qasd qildi.

Ularning faoliyati GPU (davlat siyosiy boshqarmasi) hamda NKVD (ichki ishlar halq komissarligi) tomonidan doimiy ravishda kuzatib borilgan. 30-yillarda o'zbek adabiyotining Fitrat va Cho'lpon kabi «keksa» avlodi vakillarining erkin ijod etishiga yo'l qo'yilmadi. Fitrat 1938 yil 4 oktyabrda «sovet hokimiyatiga qarshi aksil-inqilobiy, pantyurkisti ishlar olib borganlikda» ayblanib, otib tashlandi. Fitrat Buxoroda F.Ho'jayev bilan birga adolatli hukumat tuzish niyatida o'z dasturini ishlab chiqdi. Bu dastur 10dan ortiq banddan iborat bo'lib, unda davlatning tashkiliy tizimi, idora qilishda armiyaning roli, milliy pul, hususiy mulk egaligi, vakflar, din erkinligiga alohida e'tibor berilgan edi. U rus inqilobiga totalitar tuzumga qarshi edi. Fitratning madaniy merosidagi yagona buyuk fazilat: milliy mustakillik uchun kurash edi. U o'zining «Temur oldida» asarida «Qaysi bir yurt nobob shahs qo'liga tushib qolsa, halqi o'zaro ahil va totuvlikka erisha olmasa, boshqalarga yem bo'lishi muqarrar», – deb yozadi. Fitrat o'zining «Chin sevish» va «Hind ihtilochilari» asarlari milliy mustaqillik uchun kurash g'oyasini ifoda etgan. Bu asarlarida talangan, kamsitilgan, bo'lingan To'ron elini birlashtirish uchun Oллоhdan Amir Temur va Abdullahonni tiriltirishni iltijo qildi. U konstitusion monarhiya tizimidagi davlatni tuzish g'oyalarini ilgari surgan. O'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy 20-yillarda «O'tgan kunlar»dan keyin «Mehrobdan chayon» asarini yaratib, o'zbek romanchiligini jahon madaniyatiga olib chiqdi. Biroq sovet rejimi uning «O'tgan kunlar» asari kitobhonlarni sovet voqyeligidan uzoqlashtiradi va unda millatchilik qarashlari ochiq aks etgan deb, tanqid ostiga oladi va bu uning 1937 yilda qamoqqa olinishi uchun asos bo'lib hizmat qiladi. U 1938 yil 4 oktyabrda otiladi.

Taniqli o'zbek shoiri, dramaturg va tarjimon Usmon Nosir o'zining «Yurak», «Mehrim», «Norbuta» kabi she'riy dostonlari bilan shuhrat qozongan. U Dobrolyubov, Lermontov asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. 1936 yilning ohiridan 1940 yilgacha bo'lgan davrda respublika bo'yicha yozuvchilar, jurnalistlar, davlat va jamoat arboblari 5758 kishi qamoqqa olingan. Ulardan 4811 kishi otib tashlangan. O'ylab chiqarilgan sohta ayblovlar bo'yicha O'zbekistonda 1937-1939 yillar bo'yicha hammasi bo'lib 41 mingdan ziyod kishi qamoqqa olingan, ulardan 37 mingdan ortiqg'i jazolangan, 6920tasi otib tashlangan.

20-30 yillardagi mustabid tuzumning qatag'onlik siyosati jiddiy va fojiali ahvolga olib keldi. Milliy ziyolilarning jismonan yo'q qilinishi oqibatida milliy madaniyat to'la to'kis rivojlana olmadi. 30-yillarning boshida dindor va e'tikodli kishilarga ham

zo'ravonlik siyosati amalga oshirildi. Minglab masjidlar yo'q qilinib hudosizlar uyiga, ateizm muzeylariga aylantirildi. Ko'plab ko'hna masjidlar qarovsiz qoldirildi, yangilari esa umuman qurilmadi. Diniy marosimlar, qadimiy urf-odatlar ta'qiqlandi. Diniy ulamolarning asosiy qismi qamoq lagerlariga jo'natildi. 1925 yilda O'zbekistonda 97 ta vaqf maktablari va 1500 ortikeski maktablar yashirin holda ish olib borar edi. Ular ham 1928 yilga kelib o'z faoliyatini amalda tugatdilar. Bu davrda «Sozializm da dinga o'rin yo'q, unga din begona» degan fanatik qarash, qoida ustun bo'lib qoldi.

3. Ikkinchi jahon urushidan so'ng mamlakatning ijtimoiy-siyosiy tizimida partiyaning yakka hukmronligi kuchayib bordi. Respublikaning partiya organlari Markazning yo'l-yo'riqlariga tayanib, dunyoqarashi va ijodi partiya mafkurasiga to'g'ri kelmaydigan ijodiy ziyolilar vakillariga hujum qila boshladilar. Go'yoki ularning asarlarida millatchilik g'oyalari «mavjudligi», o'rta asr tarihi, o'sha davrda o'tgan tarihiy shahslarning roli ideallashtirilgan degan ayblar qo'yildi. Oybek, Abdulla Qahhor, Mamarasul Boboyev, Mirtemir, Shayhzoda kabi o'zbek yozuvchilari badnom qilindi. Shu bilan birga «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Tohir va Zuhra», «Alpomish», «Gulandom» va boshqa afsonaviy folklor syujetlariga asoslangan opera, balet va musiqali drama spektakllari ijodkorlari ham «zararli» g'oyalarni targ'ib qilishda ayblandilar. O'zbekiston gumanitar va ijtimoiy fanlarining ko'pgina arboblari ham qoralandi. O'z KP(b) MK byurosi 1950 yil 1-sentyabrda «O'zbekiston SSR FAning ishi to'g'risi»dagi masala ko'rib chikib, bu masala yuzasidan kabul kilgan qarorida Respublika FAning gumanitar fanlar bo'limi va uning institutlari «o'z ishlarini VKP(b) MKning masalalariga doir qarorlariga muvofik ravishda qayta ko'rmadilar», bu institutlarga siyosiy ishonchga sazovor bo'lmagan va burjua obyektivizmi hamda kosmopolitizm g'oyasini tashib yuradigan kishilar joylashib olganlar¹⁰[1] - deb ko'rsatib o'tdi.

O'zbekiston yozuvchilari, shoirlari va olimlarini badnom qilish yuzasidan 1952 yil 21-22 fevralda bo'lib o'tgan O'z KP(b) MKning X-plenumi keng suratda siyosiy kompaniyaning cho'kkisi bo'ldi. Unda O'z KP(b) MKning 1-kotibi A.Niyozovning «Respublikada mafkura ishining ahvoli va uni yahshilash choralari to'g'risida»gi ma'ruzasi tinglandi. Unda aytilishicha, «O'zbekistonda adabiyotchi hodimlar orasida sovetlarga qarshi millatchilik kayfiyatidagi bir guruh shahslar bo'lgan. Bu guruh qatnashchilari O'zbekistonni sovet ittifoqidan zo'rlik bilan ajratib olmoqchi bo'lgan». Ma'ruzada To'rob To'la «Qo'pol millatchilik hatolari»ga yo'l qo'yganlikda, Temir Fattoh – «Milliy mahdudlik»da, M.Oybek – «Jiddiy mafkuraviy aynish»da, M.Shayhzoda – «O'tmishni ideallashtirishda, tarihiy shahslarni noto'g'ri tasvirlash»da, ularning hammalari birgalikda «Burjua–millatchilik qarashlarining namoyon bo'lishi»da ayblandi. 1951 yilda M.Shayhzoda, Shukrullo Yusupov, G'ulom Aliyev va boshqa bir qator ijodkorlar «Antisovet millatchilik faoliyati»da ayblanib qamoqqa olindi va 25 yillik qamoq jazosiga hukm ostiga olindi. Shu yillarda faylasuf V.Zohidov, iktisodchi O.Aminovlar panturkizmi tashviqot qilishda va burjua millatchilikda ayblanib, ta'qib qilindi. Ana shu mazmunda qatag'on qilinganlarning soni 60 dan ortiq edi. 1952 yil 22-avgustdagi O'z KP(b) MKning byurosi qarori bilan V.Zohidov «Ko'pol siyosiy va millatchilikdan iborat hatolarga yo'l qo'yilgani uchun» partiyadan o'chirildi

¹⁰[1] ЎзРПДА, 58-фонд, 27-руйхат, 54-йиђма жилд, 151-152 бетлар.

va SAGU (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) o'kituvchisi va O'zbekiston FA Sharkshunoslik universitetining katta ilmiy hodimi lavozimidan bo'shatildi¹¹[2].

40-yillar ohiri–50-yillar boshlari stalin davridagi ommaviy qatag'onlar natijasida sobiq SSSR bo'yicha 3778234 kishi hibsga olindi, ulardan 786098 kishi otib tashlandi¹²[3].

1937-1953 yillar qatag'onligi davrida O'zbekistonda NKVD «uchligi» tomonidan yuz ming kishi qamoqqa olindi, ulardan o'n besh ming nafari otib tashlandi. Bu dahshatli holatni tariflab, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov Toshkentdagi «Shahidlar hotirasi» yodgorlik majmuasining ochilishiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutkida «Zulm va zo'ravonlikka qurilgan mustabid, beshafqat tuzum davrida o'zligini, millat qadr-qimmatini teran anglagan, ijtimoiy-siyosiy ongi yuksak, halqni uyg'otishga, halqni boshqarishga qodir bo'lgan, ma'rifat va ma'naviyat yo'lida fidoyilik ko'rsatgan barcha aql-zakovat sohiblarining»¹³[4] qancha-qanchalari jismonan yo'q qilinganligi haqida gapirdi. Assossiz qatag'on qilinganlarni oqlash Stalin vafotidan keyin boshlandi. Natijada O'zbekiston bo'yicha qatag'on qilingan, tiriklar va halok bo'lganlardan 40 mingga yaqini oqlandi.

XX asrning 80-yillar o'rtalarida qatag'onlik siyosati yana boshlandi. Unga nafakat milliy kadrlar, ijod ahli balki, ho'jalik hodimlari va davlat arboblari ham tortildi. O'zbekistonda qonunchilik va huquq tartiblarini tiklash, partiya davlat organlarini kadrlar bilan mustahkamlash degan nikoblar bilan markazdan katta vakolatga ega bo'lgan mas'ul hodimlarining «desant» guruhlari kela boshladi. Ularga partiya va sovet, sud organlaridan katta lavozimlar berildi. «Pahta ishi», «O'zbeklar ishi», «Sharkiy front» deb atalgan mash'um siyosat niqobi ostida minglab begunoh kishilar jinoiy javobgarlikka tortildi. Moskvaga yuborilgan generallar, prokurorlar, tergovchilar istagan odamlarni hibsga olishardi.

Markaziy matbuotning ba'zi bir mualliflari Kavkaz, O'rta Osiyo va Kozog'iston halqlari yuziga qora choplashga harakat qila boshladilar. 1983 yilning ohirida respublikada juda og'ir vaziyat vujudga kelgan edi. Jinoyatchilikka qarshi kurashish nikobi ostida sobiq Markazdan ketma-ket turli tergov guruhlari tashlandi. O'zbekiston Kompartiyasi MKning 2-kotibligiga Anishchev, Ministrlar soveti raisining 1-o'rinbosari Ogarok, Oliy Kengash Prezidiumi raisining o'rinbosari etib Romanovskiylar tayinlandi, Toshkent shahrining takdiri Satinga topshirildi. «Pahta ishi» va «O'zbeklar ishi» deb yuzsizlarcha nomlangan tergovlar boshlanib ketdi. Gdlyan guruhi O'zbekistonliklarga nisbatan qonunsiz, beshavkat ishlarni boshlab yubordi. 1989 yilgacha bu ishlar bo'yicha 4,5 mingdan ko'prok qishi sudlandi. O'sha paytda respublikadagi qamoqhonalarda joy qolmagani sababli sudlanganlarning mingdan ortig'i jazoni o'tash uchun Sibir qamoqhonalariga jo'natildi¹⁴[5]. O'zbekiston mustaqillikka erishgach Islom Karimov tashabbusi bilan «pahta ishi» qayta ko'rib chiqildi va minglab begunoh kishilar oqlandi, qatag'onlarga chek qo'yildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T.2. T., «O'zbekiston», 1996.

¹¹[2] Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. – Т.: Шарф, 2000. - 517-б.

¹²[3] Известия, 1990, 14 феврал.

¹³[4] Халф сўзи, 2000, 13 май.

¹⁴[5] Ўзбекистон тарихи. Т.: УА ЖБНТ маркази, 2003. 523-бет.

2. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. T., «O'zbekiston», 1996.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1997.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
5. Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – T.: “O'zbekiston”, 2005.
6. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 2007.
7. Mahmudov M. Qatag'on qurbonlari. T., «O'zbekiston», 1991.
8. Tursunov I.I. O'zbekiston maorifchilarining istiqlol yo'lidagi ishlari tarixidan (1917-1939). T., 1995.
9. Usmonov I. Qatag'on qurbonlari. T., «O'zbekiston», 1992.
10. Usmon Turon. Turkiy halqlar mafkurasi. T., «Cho'lpon», 1995.
11. Sodikov M. Erk sevar, hurriyatparvar el vorislarimiz. T., «Kamalak», 1992. 20-30 betlar.
12. O'zbekim. «Vatan» seriyasi. T., 1992. 142-180 betlar.
13. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. T., «Shark», 2000.
14. O'zbekiston tarixi. 1-qism. A.Sagdullayev, B.Eshov tahriri ostida. T., Universitet. 1999. 2-nashr.

14-MAVZU: IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEK XALQINING FASHIZM USTIDAN QOZONILGAN G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI.

Reja:

1. Urushning boshlanishi. O'zbekiston moddiy va madaniy kuchlarning fashizmga qarshi urushga safarbar yetilishi.
2. G'alaba yo'lida o'zbek xalqi farzandlarining jasorati va fidokorona mehnati.
3. O'zbekiston fan va madaniyati urush yillarida. O'zbek xalqining baynalminalligi va yuksak gumanizmi.

Tayanch so'z va iboralar:

Jahon urushi. Antifashist koalitsiyasi. Avgust bitimi. Adolatli urush. Safarbarlik. Yevakuasiya. Harbiy iz. O'zbekiston xalq xo'jaligi. O'zbeklar jasorati. Fidokorona mehnat. Fan va madaniyat. Gumanizm. Baynalminallik.

1. Insoniyat tarixida ikkinchi jahon urushi yeng katta fojialardan biri sifatida o'rin yegallagan. Bu urushga jahonning 72 mamlakati qo'shilib, ulardagi armiyalar safiga 110 mln kishi safarbar qilingan yedi. Urush davomida qariyb 55 mln kishi o'ldirilib, minglab shahar va qishloqlar, zavod va fabrikalar, madaniyat obidalari, kommunikasiya va irrigasiya inshootlari vayronaga aylantirilgan yedi. Ko'rilgan zarar va sarflangan mablag'larning umumiy miqdori 4 trln. dollarni tashkil qildi. Shu o'rinda savol tug'iladi: ikkinchi jahon urushi boshlanishining sabablari nimada? Uning oldini olish mumkin yedimi, yoki u muqarrar ravishda boshlanishi kerak yedimi? XX asrning 30 yillarida jahonda vujudga kelgan ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy vaziyatni tahlil qilish asosida bu savolga javob berish mumkin.

Ikkinchi jahon urushining ildizlari 20-30 yillarda butun dunyoni qamrab olgan siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy tanglikka borib taqaladi. Tanglik natijasida jahonning

yetakchi mamlakatlari o'rtasida ziddiyatlar g'oyat kuchayib ketadi va oxir oqibatda ikkinchi jahon urushining boshlanishiga olib keladi. Bu birinchidan.

Ikkinchidan, urush olovi ko'p jihatdan fashistlar Germaniyasi va militaristik Yaponiyaning jahonga hukmron bo'lish maqsadida amalga oshirgan harakatlari natijasida tobora kuchayib borgan yedi.

Uchinchidan, shuni ham unutmaslik kerakki g'arb mamlakatlarining siyosiy yetakchilari 20-30 yillarda insoniyatga havf solayotgan yeng yovuz kuch bu "bolshevizm balosi" deb hisoblab, unga qarshi kurashda ayrim hollarda tarixiy jihatdan oqlanmagan ishlarni amalga oshirdilar. Jumladan, Germaniyadagi urushga intiluvchi kuchlarni ko'llab quvvatladilar va bu mamlakatni harbiy-iqtisodiy qudratini oshirish uchun mablag' ajratish siyosatini yurgizdilar. Germaniyada hukmronlikni o'rnatgan Gitler boshchiligidagi fashistlarning xududiy da'volariga nisbatan kelishtirish siyosatini yurgizdilar. Buning oqibatida Avstriya va Chexiyaning Sudet viloyati Germaniya tarkibiga qo'shib olindi. Bundan ruhlangan Gitler va uning hamtovoqlari butun jahonga hukmron bo'lish uchun o'z harakatlarini avj oldirdilar.

To'rtinchidan, ikkinchi jahon urushining boshlanish sabablari haqida gapirganda shuni unutmaslik kerakki, bu urush ko'p jihatdan sovet davlatining "butun dunyoda socialistik inqilob"ni amalga oshirishga qaratilgan tashqi siyosatining oqibati bo'ldi. Sovet hokimiyati o'rnatilgan dastlabki damlardan oq bolshevistik rahbariyat butun planeta miqyosida kommunistik tuzum hukmronligini o'rnatishga qaratilgan harakatlarini boshlab yubordi. Ana shu harakat yo'nalishlaridan biri turli mamlakatlar o'rtasidagi ziddiyatlardan ustalik bilan foydalanish va ularni bir-biriga gij-gijlashdan iborat yedi. SSSRning Angliya va Fransiyadan uzoqlashib Germaniya bilan yaqinlashishi ana shu siyosatning natijasi bo'ldi. Stalin o'shanda imperialistlarning yagona frontini buzib yuborishga muvaffaq bo'ldim deb ishongan yedi. Lekin voqealarning keyingi rivoji shuni ko'rsatdiki SSSR bilan Germaniya o'rtasida 1939 yil 23 avgustda 10 yil muddatga tuzilgan hujum qilmaslik haqidagi hujjat Gitlerga ikki frontda urushmaslik va butun kuchini G'arb mamlakatlariga qarshi qaratish imkoniyatini bergan yekan. "Avgust bitimi" jahon urushi boshlanishini tezlashtirdi. Bitim tuzilgandan keyin oradan ketgan 8 kun o'tgach, 1939 yil 1 sentyabrda Germaniya Polshaga qarshi xujum boshladi. Voqealarning bunchalik jadallashishi Angliya va Fransiya uchun kutilmagan holat yedi. Shuning uchun ular 3 sentyabrda Germaniyaga qarshi urush ye'lon qilgan bo'lsalarda qahramonona jang qilgan polyak armiyasiga real harbiy yordam ko'rsata olmadilar. "Avgust bitimi"ning mahfiy moddalariga ko'ra SSSR Germaniya bilan bir vaqtning o'zida Polshaga hujum qilishi kerak yedi. Lekin, Stalin bu masalada Gitlerni quv tushirdi. Urushga tayyor yemasligini bahona qilib Germaniyadan mag'lubiyatga uchragan Polshaning sharqiy hududlariga 17 sentyabrda qizil qo'shinlarning "agressor" sifatida yemas xaloskor sifatida kirishiga yerisha oldi. Bundan tashqari Stalinning bu o'yini natijasida SSSR betaraflikka yerishdi va jahon jamoatchiligi ko'zi o'ngida Germaniya jahon urushining asosiy aybdori sifatida gavdalandi.

1939-1940 yillar davomida asosiy urush harakatlari Yevropada davom yetdi. Shu davr mobaynida Germaniya Polsha, Norvegiya, Fransiya, Belgiya, Gollandiya, Daniya, Lyuksemburni yegalladi. Sovetlar davlati yesa shu davrda o'z hududini Leningrad va Murmansk oralig'idagi yerlarni Finlyandiyadan, Bessarabiya va Shimoliy Bukovinani Ruminiyadan, G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorussiyani Polshadan tortib olish hisobiga

kengaytirdi. Bundan tashqari Boltiqbo'yi respublikalari 1940 yil yoziga kelib qizil armiya tomonidan okkupasiya qilindi.

SSSR bilan Germaniya o'rtasidagi hujum qilmaslik haqidagi bitim o'n yil muddatga tuzilgan yedi. Lekin Stalin ham, Gitler ham bitimga ko'rsatilgan muddat davomida rioya qilish niyatida yemas yedilar. Ularning har biri o'zi uchun qulay vaqtda bitimdan chiqmoqchi yedi. Ikkinchi jahon urushining dastlabki davrida vaziyatning Germaniya uchun qulayligi, fashistlar armiyasining tayyorgarlik darajasi qizil armiyadan yuqoriligi, Germaniya harbiy-iqtisodiy salohiyat jihatdan Yevropa mamlakatlari hisobiga SSSRdan o'zib ketganligi sababli Gitler Stalindan oldinroq bitimni bekor qilish choralarini ko'rdi va 1941 yil 22 iyunda SSSR ga qarshi urush harakatlarini boshladi. SSSRning Boltiq dengizidan Qora dengizgacha bo'lgan chegaralariga fashistlarning 191 diviziyasi hujum qildi. Urushning dastlabki kunlaridayoq gitlerchilar Latviyani, Litvani, Belorusiyaning bir qismini bosib oldilar. Urushning yettinchi kuni Minsk ishg'ol qilindi. Voqealarning bunday rivoji Stalinni sarosimaga solib qo'ydi. Artilleriya Bosh marshali Voronovning xotiralariga ko'ra Stalin chuqur ruhiy tanglikni boshidan kechirib bir necha kun davomida o'z qarorgohida hych kimni qabul qilmasdan yakka o'zi istiqomat qilgan yekan.

Kommunistik partiya boshlangan urushni ulug' Vatan urushi deb ye'lon qilgan bo'lsada, o'zbeklar uchun u bunday urush yemas yedi. Chunki o'sha davrda biz Rossiyaning mustamlakasi yedik. Istiqloqlilik harakatining qonga belanganligi, ye'tiqod uchun ta'qiblar, jamoalashtirish davridagi zo'ravonliklar, 20-30 yillardagi ommaviy qatag'onlar xalqimiz xotirasidan o'chmagan yedi va shuning uchun sovet mustabid tuzumini himoya qilishni xalqimiz kam o'ylar yedi. Lekin shu bilan birgalikda o'zbek xalqi fashizmning insoniyatga bolshevizm balosidan ham katta havf solayotganini, unga qarshi kurashish adolatli yekanligini tushunib yetdi va dushmanga qarshi kurashishga otlandi. Shu jihatdan I.A.Karimovning «Urush davri voqealarini, jangchilarimizning jasoratlarini tahlil yetishda va ta'riflashda» ham mafkurabozlikni kamroq aytishga doir chaqirig'i nihoyatda dolzarb bo'lib jaranglaydi. Prezident haqli ravishda bunday deb ta'kidlagan yedi: “Ikkinchi jahon urushiga qanday qaralmasin, bu urush qaysi g'oya ostida va kimning qo'li bilan olib borilgan bo'lmasin, o'z Vatani, yel-yurtining yorug' kelajagi, beg'ubor osmoni uchun jang maydonlarida halok bo'lganlarni, o'z umrlarini bevaqt xazon qilgan insonlarni doimo yodda saqlaymiz. Bu achchiq, lekin oliy haqiqatni unutishga hych kimning haqqi yo'q va bunga yo'l ham bermaymiz”¹⁵[1] Urushning dastlabki kunlaridanoq partiya va davlat tashkilotlarining tashabbusi bilan O'zbekistonning barcha hududlarida mitinglar va yig'ilishlar o'tkazildi. So'zga chiqqanlar urushning hammamiz uchun adolatli urush yekanligini ta'kidlab, Vatanni himoya qilishga va g'alaba yo'lida front orqasida fidokorona mehnat qilishga tayyor yekanliklarini izhor qildilar. Respublikada ko'ngillilar harakati ommaviy tus ola boshladi. Chunonchi, 1941 yilning 22 iyunidan 8 iyuliga qadar Samarqand viloyat harbiy komissarliklariga ko'ngillilardan 1316 ta ariza tushdi. Urushning dastlabki kunlarida respublika bo'yicha hammasi bo'lib 14 mingdan ortiq ariza tushgan yedi.

Iqtisodiyotni harbiy izga solish harbiy-kommunistik usullar bilan amalga oshirildi. Bu ishga rahbarlikni 1941 yil 30 iyunda tuzilgan Stalin boshchiligidagi Davlat Mudofaa Komiteti amalga oshirdi. Davlat Mudofaa Komiteti qarorlari urush davrida qonun kuchiga yega yedi. Front orqasida ishni tashkil qilishdagi yeng katta muammolardan

¹⁵[1] Каримов И.А. Ватан саждагоғ каби мушаддасдир. –Т.: 1996. 81- бет

biri ishchi kuchining yetishmasligida yedi. Shuning uchun katta yoshdagilar uchun ish kuni 11 soatgacha uzaytirildi, ta'tilga chiqarish bekor qilindi. Idora xizmatchilari, uy bekalari, o'qituvchilar, ishlab chiqarishga jalb qilindi. Harbiy korxonalarining barcha xodimlari safarbar deb ye'lon qilindi va shu korxonalariga biriktirib qo'yildi. Mehnat intizomini buzganlar uchun keskin jazo choralari belgilandi. O'zbekiston mehnatkashlari, avvalo xotin qizlar mamlakat boshiga tushgan kulfat fojiani o'z kulfatlari va fojialari deb bildilar. 1941 yil iyul oyining o'zida Ursatevsk stansiyasida 300 dan ortiq, Samarqandda 200 dan ko'proq, "Tashselmash zavodi" da 220, Andijon parovoz deposida 120 dan ortiq xotin qizlar frontga ketgan o'z otalari, akalari va yerlarining o'rniga ishga kirib mardonavor mehnat qildilar. Kadrlar muammosi bundan tashqari fabrika-zavod ta'limi maktablarida, hunar-bilim yurtlarida, qisqa muddatli turli kurslarda oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ham hal qilindi.

Respublikamizdagi barcha sanoat korxonalari urush boshlanganidanoq qayta qurilib, madofaa uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tkazildi. Qurol-yarog'lar va o'q dorilar ishlab chiqarish rejalari, O'zbekistonning xom ashyo va moddiy resurslarini front yehtiyojlariga va avvalo respublikada og'ir sanoat vujudga keltirishga safarbar qilish choralari ko'rildi. Respublika rahbariyati korxonalarining samaradorligini oshirish maqsadida ularning huquqlarini kengaytirdilar, murakkab vazifalarni markaz bilan kelishmasdan tezkorlik bilan hal qilishdan qo'rqmadilar. Urushning birinchi kunlaridanoq O'zbekiston aholisi moddiy resurslarini safarbar qilish, jangovar holatga keltirish tadbirlari ko'rildi. Front uchun zahira va komandirlar tayyorlandi. Bu ishni amalga oshirishda urushning boshida O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan harbiy akademiyalar va bilim yurtlari alohida o'rin yegalladilar. O'rta Osiyo Harbiy okrugi bo'yicha urush boshlangandan keyin 1,5 yil ichida 109 ta harbiy qo'shilma tuzildi. Ular orasida O'zbekistonda tuzilgan milliy harbiy qo'shilmalar ham bor yedi. 1941 yil noyabridan 1942 yil martigacha O'zbekistonda 9 ta alohida o'qchi brigada va 5 ta (otliq) diviziya tuzildi.

Bundan tashqari O'zbekistonda madofaa jamg'armalari uchun mablag' to'plash tashkil qilindi. Urushning dastlabki kunlaridayoq bu jamg'armalarga respublika aholisining 30 mln so'm mablag'i tushdi.

Shunday qilib, urushning dastlabki davridayoq O'zbekistonda xalq xo'jaligi harbiy izga o'tkazildi, milliondan ortiq kishi harbiy xizmatga chaqirildi. Butun xalq, barcha moddiy va ma'naviy boyliklar fashizmga qarshi kurashga safarbar qilindi.

2. Sovet ittifoqi g'arbidagi ko'pgina katta sanoat va qishloq xo'jaligi rayonlarining fashistlar tomonidan bosib olinganligi mamlakat xalq xo'jaligini og'ir ahvolga solib qo'ydi. Chunki bu hududlarda SSSR aholisining 40% i yashar, temirning 68% i, po'latning 58% i, alyuminiyning 60% i, ko'mirning 63% i, bug'doyning 38% ini shu yerlar berar yedi. Mudofaa ahamiyatiga yega bo'lgan og'ir sanoat korxonalarining katta qismi g'arbiy hududlarda joylashgan yedi. Urush boshidagi bunday katta yo'qotishning o'rnini qoplash va dushman ustidan g'alabani ta'minlaydigan sanoat ishlab chiqarishini yo'lga qo'yish o'sha davrdagi dolzarb vazifa bo'lib qolgan yedi. Bu vazifani bajarish uchun urush boshida amalga oshirilgan tadbirlar haqida ma'ruzamiz boshida aytib o'tgan yedik. 1941 yilning yoziga kelib xalq xo'jaligini qayta qurib, uni harbiy izga o'tkazish O'zbekistonda asosan oxiriga yetkazilgan yedi. 1942 yili yalpi sanoat mahsulotini ishlab chiqarish ikki barobar ko'paydi, 1943 yilda yesa sanoatning respublika xalq xo'jaligidagi salmog'i 75% gacha ortdi. Harbiy ishlab chiqarish

quvvatlarini oshirib borish zarurlari sanoat qurilishini tobora ko'paytirishni talab qilar yedi. O'zbekistondagi industrial rivojlanish yelektr yenergiya ishlab chiqarishni keskin ravishda oshirishni talab qildi. Yelektr stansiyalar qurilishiga 1941 yilda 1 mlrd so'm ajratilgan bo'lsada, mablag' yetishmasligi sababli qurilish ishlari hashar yo'li bilan amalga oshirildi. Hammasi bo'lib yetti yirik yelektrostansiyasi, jumladan Salor va Farhod GESlari barpo yetildi.

Shu yillardagi O'zbekiston og'ir sanoati rivojlanishining asosiy yo'nalishlari yenergetika, mashinasozlikdan tashqari qora va rangli metallurgiya, ko'mir bazasini vujudga keltirish, kimyo sanoati tarmoqlarini yuksaltirishdan iborat bo'ldi. Respublika sanoat qurilishi maydonchasiga aylandi. Bekobodda metallurgiya zavodi, Lyangarda molibden fabrikasi qurilib, Chirchiq yelektrokimyo kombinatining ikkinchi navbati ishga tushirildi. Respublikada urush yillari hammasi bo'lib 280 ta yangi sanoat korxonalari barpo yetildi. Toshkent mamlakatning yeng yirik sanoat markazlaridan biriga aylandi. Shu davr mobaynida respublika sanoati quvvati 2 marta, neft ishlab chiqarish 4 marta, ko'mir ishlab chiqarish 30 marta, ximiya sanoati 7,5 barobar, mashinasozlik 13,4 marta, metallni qayta ishlash 4,5 marta ko'paydi. Respublikada sanoatni yuksaltirish sohasida amalga oshirilgan tadbirlarning barchasi ma'muriy - buyruqbozlik usulini qo'llash yo'li bilan bajarildi. Mavjud imkoniyatlar, resurslar kishilarning jismoniy-ruhiy holati hisobga olinmasligi oddiy holat yedi. Odamlar holdan toyguncha ishlashga majbur qilinardi. Lekin hamma ham haddan tashqari zo'riqib ishlashga bardosh berolmasdi, ba'zilar holdan toyib halok bo'lishardi. Uzoq masofalardan ishga qatnovchilar uchun transport yo'q yedi. Kiyim-bosh, poyabzal yetishmasdi, iste'mol qilinadigan oziq-ovqat ham bir holatda yedi. Sanoat obektlari majburiy ravishda ishga tushirildi, sexlardagi stanoklar, devorlarni tiklash bilan bir vaqtda o'rnatildi, hatto tomi yo'q binolarda ham mahsulotlar ishlab chiqarildi, havo yesa nihoyatda sovuq yedi, malakali ishchilar o'rnida yendigina o'qishni tamomlagan o'smirlar va xotin-qizlar ishlardi, ishlab chiqarish sifati talab darajasida bo'lmasdi. Ochlik va nihoyatda charchab-toliqishdan sillasi qurishiga qaramasdan sanoat xodimlari frontni qurol-yarog', jangovor texnika, moddiy resurslar bilan ta'minlash uchun bor imkoniyatlarini ishga solardilar.

SSSR Germaniya ustidan qurollanish poygasida yutib chiqqanligida mamlakat mehnatkashlarining, jumladan o'zbekistonliklarning fidokorona mehnati hal qiluvchi ahamiyatga yega bo'ldi. O'zbekiston sanoati urush davomida frontga 2100 ta samolyot, 17342 ta aviamotor, 2318 ming dona aviabomba, 17100 ta minomyot, 4500 birlikdan iborat minalarni yo'q qiluvchi qurol, 60 mingga yaqin harbiy kimyoviy apparatura, 22 mln dona mina va 500 ming dona snaryad, 3 mln radiolampa, 300 mingta parashyut 5 ta bronepoyezd, 18 ta sanitar poyezdi, 2200 ta ko'chma oshxona 7518,8 mingta gimnasterka, 2636,7 mingta paxtali nimcha, 2861,5 mingta armiya yetigi yetkazib berdilar.

Fashistlar Germaniyasi ustidan qozonilgan g'alabada O'zbekiston qishloq xo'jaligi mehnatkashlarining ham katta hissalar bor. Qishloq xo'jaligi oldida front va front ortini oziq-ovqat mahsulotlari bilan, sanoatni xom ashyo bilan yetarli darajada ta'minlashdek g'oyat qiyin vazifa turardi. Buning uchun agrar ishlab chiqarishni g'oyat qisqa muddat ichida, butun xalq xo'jaligi kabi, harbiy izga o'tkazish, qishloqdagi barcha moddiy resurslarni safarbar yetish, texnika yekinlari, don, kartoshka va sabzavotlar yekishni ko'paytirish, chorvachilik mahsuldorligini, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish

samaradorligini oshirish lozim yedi. Bu vazifalarni hal qilish bir qator omillar tufayli murakkablashib ketgan yedi. Birinchidan, shu davrga kelib markaz olib borgan siyosat natijasida paxta yakka hokimligi qaror topganligi qishloq xo'jaligi boshqa sohalarining rivojlanishini birmuncha qiyinlashtirdi. Chunki ajdodlar to'plagan tajriba unutila boshlagan yedi. Buning ustiga Markaz O'zbekiston oldiga oziq-ovqat bilan ta'minlash vazifasini qo'yarkan, paxta maydonlarini kamaytirmaslikni ham talab qildi. Chunki paxta mudofaa sanoati uchun g'oyat muhim xom ashyo hisoblanar yedi.

Ikkinchidan, butun mamlakat miqyosida sanoat harbiy izga ko'chirilganligi sababli, traktorlar, seyalkalar, yuk mashinalari va boshqa uskunalar bilan qishloq xo'jaligini ta'minlash to'xtatildi. Yonilg'i, yehtiyot qismlar olib kelinishi keskin kamaytirildi. Natijada agrar sohaning moddiy texnika bazasi zaiflashdi qo'l mehnatining ulushi oshdi va ot ulov bilan bajariladigan ishlar hajmi ko'paydi. Uchinchidan, malakali kadrlar va qishloq aholisining mehnatga yaroqli asosiy qismi frontga safarbar yetildi. Bundan tashqari 155 mingdan ortiq o'zbekistonliklar mehnat batalonlariga jalb qilindilar. Buning oqibatida 1945 yilga kelib qishloqdagi mehnatkash dehqonlar soni 40% ga kamaydi. Ayniqsa mexanizatorlar soni keskin qisqardi. Ularning soni urush boshida 27888 kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1942 yilga kelib 2775 kishiga tushib qoldi. Ishlab chiqarishga xotin-qizlar, keksalar, o'smirlar jalb qilindi. Mehnat intizomini mustahkamlashga qaratilgan haddan ziyod keskin choralar ko'rildi. Rejalashtirilgan mehnat kunini bajarmaganlar sudga berilar yedi. Biroq, qishloq mehnatkashlarining tabiati bunday qattiq choralarni talab qilmas yedi. Ular, qalb amri, or-nomus dav'ati bilan frontga umumxalq yordamini ko'rsatish harakatiga qo'shildilar. Paxta tayyorlash rejasi 1941 yilda 1940 yildagiga nisbatan 45 kun oldin bajarildi va davlatga 1,6 mln tonna paxta topshirildi. G'alla va boshqa oziq-ovqat yekinlarini yekishni kengaytirish zarurati yangi yer maydonlarini o'zlashtirishni talab qildi. 1941 yilning bahoridayoq 220,5 ming gektar yangi hosildor yerlar o'zlashtirildi.

Respublika irrigasiya qurilishi yuksak sur'atlar bilan davom yetdi. Shimoliy Farg'ona, Shimoliy Toshkent, Yuqori Chirchiq, So'x-Shohimardon, Uchqo'rg'on kanallari, Rudasoy, Kosonsoy suv omborlari qurildi. Natijada faqat 1942-1943 yillar mobaynida 546 ming gektar yer o'zlashtirildi. Respublikada qand lavlagi, zig'ir, kanop, makkajo'xori, kunjut kabi yekinlar yekishga ye'tibor kuchaydi. Respublika SSSR da yetishtirilayotgan qand lavlagining 25 % ini ishlab chiqara boshladi. Qishloq xo'jaligi yekin maydonlari strukturasi ham birmuncha o'zgardi. Urushgacha yekin maydonlarining 90 % ida paxta yekilgan bo'lsa, urush yillarida bu ko'rsatkich ancha kamaydi. Masalan, Farg'ona viloyatida paxta maydoni 51 % ga tushirildi.

Urushga safarbar qilingan O'zbekistonlik jangchi-larning umumiy tarkibidan 263005 kishi halok bo'lgan, 132670 kishi bedarak yo'qolgan, 60452 vatandoshimiz nogiron bo'lib qolgan. Bu raqamlar bosqinchilarga qarshi jang qilgan o'zbekistonliklarning 27,6%i qurbon bo'lganligidan yoki bedarak yo'qolganligidan dalolat beradi. Urushga safarbar qilinganlarning bunchalik katta qismining yo'qotilishi ko'p jihatdan kommunistik rahbariyat, avvalo Stalinning yo'l qo'ygan jinoiy xato, kamchiliklari oqibatida sodir bo'ldi. Birinchidan, armiyadagi ommaviy qatag'onlar sovet qurolli kuchlarining jangovar qobiliyatiga halokatli zarbalar bergan yedi. Faqat 1937 yilning mayidan sentyabrigacha 40 mingga yaqin polk, diviziya, korpus, brigada, harbiy okruglarga qo'mondonlik qilayotgan, shtablarga rahbarlik qilayotgan zobitlar qatag'on qilingan yedi. Natijada qo'mondonlik tarkibining kasbiy tayyorgarligi darajasi

nihoyatda pasayib ketgan yedi va buning oqibatida urush boshida katta qurbonlar berilgan yedi. Qatag'onlar keyingi yillarda ham davom yettirildi. Hatto 1941 yilda urush boshlangandan keyin ham bir guruh tajribali diviziya, korpus, armiya va front qo'mondonlari qamoqqa olinib otib tashlangan yedilar.

1942-1943 yillar davomida o'zbek jangchilari Don daryosi bo'yidagi, Stalingrad ostonalaridagi va Kursk yonidagi janglarda ishtirok yetdilar. Masalan, Stalingrad uchun bo'lgan janglarda minamyotchilar rotasi komandiri M. Rustamov avgust oyida ikki hafta ichida 150 ta soldat va zobitni qirib tashladi va 20 ta yuk mashinasini yakson qildi. 1943 yil iyulida Oryol yaqinidagi Zolotaryovka qishlog'i uchun bo'lgan jangda farg'onalik Ahmadjon Shukurov 110 nafar fashistni yo'q qilib, 15 tasini asir oldi. Bu jasorati uchun unga Qahramon unvoni berildi. Dnepr uchun olib borilgan janglarda yesa qahramonlik ko'rsatgani uchun 26 o'zbek yigitiga Qahramon unvoni berildi.

O'zbekiston vakillari partizanlar harakatida ham fidoiylik bilan ishtirok yetdilar. Qahramon unvoni bilan taqdirlangan Mamadali Topiboldiyev nomi Belorussiyada juda mashhur. U 67 ta dushman soldat va zobitni yo'q qilib, 180 tasini asirga olgan yedi.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra Yugoslaviyadagi harbiy va partizan tuzilmalarida 6100 ta sovet fuqarosi qatnashgan. Ularning 260 tasi o'zbekistonliklar yedi. Yevropani fashistlar zulmidan qutqarish uchun bo'lgan janglarda ham o'zbekistonliklar katta jasorat ko'rsatishgan. 1945 yil aprelida Kenigsberg shahrini qo'lga kiritishdagi ishtiroki uchun 5140 o'zbekistonlik jangchiga jangovar orden va medallar berildi. Gdansk shahri uchun bo'lgan janglarda birinchi o'zbek generali Sobir Rahimov qahramonlarcha halok bo'ldi. Ikkinchi jahon urushi yillarida mardlik va jasorat ko'rsatgani uchun 110 ming o'zbekistonlik jangchi orden va medallar bilan mukofatlandi, 338 kishiga Qahramon unvoni berildi, 82 nafar jangchi uchala darajali shuhrat ordeniga sazovor bo'ldi. Afsuski Stalincha rahbariyat Vatan himoyachilarining barchasiga birday iltifot kursatmadi. E'n minglab mard jangchilar hyech bir gunohsiz taxqirlash va xerlashlarga duchor bo'ldilar. Šizil armiya jangchilarining anchagina qismi urushning boshlang'ich davrida asirga tushib qolgan edi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra asirga tushganlarning umumiy soni 6,2 mln kishini tashkil qilgan. Ulardan 4 mln kishi nemis konslagerlarida halok bo'lgan, 1 mln kishi turli «milliy» harbiy bo'linmalarga qo'shilgan, tirik qolgan 1 mln kishi esa nemis lagerlarini sovet lagerlari bilan almashtirishga majbur bo'ldilar. Fashistlar tomonidan tuzilgan «milliy» bo'linmalar orasida o'zbek, turkman, qozoq, qirg'iz va qoraqalpoq harbiy asirlaridan tashkil topgan «Turkiston legioni» ham bor edi. Lekin ular orasida dushman tomoniga ongli ravishda o'tgan va fashistlarga faol yordamlashishga qaror qilganlar salmog'i unchalik ko'p emas edi. Asosan, legionerlar frontga yuborishsa o'zimiz tomonga o'tib olamiz degan umid bilan yozilgan edilar.

Legionerlarga ijtimoiy siyosiy baho berish ham murakkabligicha qolmoqda. Bu masalani chuqur urganish va xolisona xulosa chiqarish tarixchi olimlar oldida turgan muhim vazifalarda biridir.

1945 yil Gitler Germaniyasiga qarshi olib borilgan urush g'alaba bilan yakunlandi. Urush maydonlarida o'zbekistonliklar to'kkan qon, yuz minglab berilgan qurbon bejiz ketmadi. Jahon fashizm vabosidan asrab qolindi.

3. Urush yillarida o'zbek ziyolilarining minglab namoyondalari frontga safarbar qilindi, mamlakat ichkarisida qolganlari o'zlarining fidokorona mehnatlari bilan fashistlar ustidan g'alaba qozonishga munosib hissa qo'shdilar.

Urushning birinchi kunlaridanoq O'zbekiston olimlari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari professor o'qituvchilari xo'jalikni harbiy izga ko'chirib uni front yehtiyolariga bo'ysuntirish bilan bog'lik muammolarni hal qilishga kirishdilar. Bu boradagi ilmiy va tashkiliy ishlarni muvofiqlashtirish, ularga rahbarlik qilish sobiq SSSR FA ning O'zbekiston filiali va keyinroq, 1943 yil 4 noyabrda uning asosida tashkil yetilgan O'zbekiston Fanlar Akademiyasi zimmasiga tushdi. Bu akademiyaning birinchi prezidenti yetib T.N. Qori-Niyoziy saylandi. Respublika olimlari faoliyatidagi asosiy yo'nalishlardan biri mudofaa ahamiyatiga yega bo'lgan mahalliy hom-ashyoni o'rganish va o'zlashtirish, yangi resurslarni izlab topish va ulardan foydalanish, korxonalar va dehqonchilik xo'jaliklariga amaliy ilmiy-texnikaviy yordam ko'rsatishdan iborat yedi. Masalan, O'rta Osiyo Industrial instituti va SAGU xodimlari Angren ko'miridan, kauchukli o'simlik va alinutlardan faollik bilan foydalanish yuzasidan tadqiqot ishlari olib bordilar. Agrar iqtisodidagi institutlarning olimlari hosildorlikni oshirish va yangi qishloq xo'jalik yekinlarini joriy qilish, chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish usullarini ishlab chiqdilar. Kimyogar olimlar kam uchraydigan materiallarning o'rnini bosuvchi va turli chiqindilardan qimmatbaho mahsulotlar ishlab chiqarish usullarini topdilar. Ishlab chiqarishni kengaytirish va hom ashyo manbalarini qidirib topish maqsadida geolog olimlar faqat 1943 yilning o'zida 35 yekspedisiya tashkil qildilar. Matematika, fizika, mexanika, yenergetika olimlarning ilmiy izlanishlari metallni qayta ishlash, mashinasozlik va mudofaa sanoati boshqa tarmoqlarining rivojlanishini ta'minladi. O'zbekistonning ijtimoiy-gumanitar fanlari olimlari kommunistik mafkura doirasida bo'lsada fashizm mafkurasiga qarshi kurashga, gitlerchilarning bosqinchilik faoliyatini fosh qilishga, xalqimizning yuksak vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashga qaratilgan qator ilmiy-ommaviy asarlar yaratdilar.

Urush davrida SSSR ning g'arbiy xududlaridan ko'chirilib keltirilgan olimlar O'zbekiston olimlari bilan mustahkam aloqada ish olib bordilar. O'zbek olimlarining urush davridagi ilmiy izlanishlari front, aholi, xalq-xo'jaligi va g'alaba uchun beqiyos ahamiyatga yega bo'ldi. Urush davridagi katta qiyinchiliklarga qaramay respublika oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari malakali kadrlar tayyorlash yuzasidagi o'z faoliyatlarini davom ettirdilar. Hammasi bo'lib 20 mingdan ortiq oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar tayyorlandi. Qiyinchiliklarga qaramay oliy maktab rivojlanib bordi. 1945 yilga kelib oliy o'quv yurtlarning soni urushdan oldingi davrga nisbatan 3 taga ko'paydi. Urush umum ta'lim maktablarining faoliyatini g'oyat murakkablashtirib yubordi. O'qituvchilarning ancha qismi harbiy xizmatga chaqirilib, yuqori sinf o'qituvchilarining ko'plari ishlab chiqarishga ketib qolishi oqibatida maktablar, o'qituvchi va o'qituvchilarning soni birmuncha kamaydi. Bundan tashqari maktab binolarining bir qismi gospitalarga va harbiy mashq punktlarga aylantirilgan yedi. Natijada faqat 1942-43 o'quv yilida 210 ta maktab faoliyati to'xtatildi. Maktablarni yoqilg'i, darsliklar, o'quv qurollari bilan ta'minlash juda ham qiyinlashdi. Lekin sharoit og'irligiga qaramay boshlang'ich va o'rta maktablarining asosiy qismi o'z faoliyatini to'xtatmadi, ularning tarmog'i, ta'lim tizimi saqlab qolindi.

Og'ir sinov yillarida fashizmga qarshi umumxalq kurashiga o'zbek adabiyoti va san'ati ham o'z hissasini qo'shdi. Shoir va yozuvchilar, dramaturg va publisistlar xalqni fashistlarga qarshi chuqur nafrat va g'alabaga so'zsiz ishonch ruhida tarbiyalaydigan yangi-yangi asarlar ustida ish olib bordilar. Oybekning "Yovga o'lim" she'ri, "Navoiy" romani, H.Olimjonning "O'lim bosqinchilarga", G'.G'ulomning "Sen yetim yemassan",

“Men yahudiy” kabi asarlari jamoatchilikning yuksak bahosiga sazovar bo’ldi. Uyg’un, Islom shoir, M.Shayxzoda, S.Abdulla singari shoirlar ham harbiy lirikaning maydonga kelishida faol ishtirok yetdilar.

Yozuvchilar va shoirlar o’z asarlari qahramonlarning obrazlarini bevosita frontlarda bo’lib, jangchilar bilan uchrashib, birga yashab ularning qahramonliklarini ba’zan hayotlarini xavf ostida qoldirib bo’lsada, o’z ko’zlari bilan ko’rib, undan g’oyaviy ta’sirlanib yaratdilar. O’zbekistonga urush yillari ko’plab yozuvchilar, shoirlar, san’atkorlar ko’chirib keltirildi. Ular orasida nafaqat mamlakat miqyosida, balki butun dunyoga tanilgan A.Axmatova, Ya.Kolas, N.Pogodin, A.Tolstoy, V.Yan kabi yozuvchilar, shoirlar bor yedi. O’zbek adiblari ular bilan hamkorlikda ko’plab kapital asarlar yaratdilar. “Biz yengamiz” almanaxi, “O’zbekistonlik shoirlar frontga” antalogiyasi shular jumlasidandir. Urush yillarida o’zbek teatr san’ati ham katta hajmdagi vazifalarni bajardi. Bu davrda O’zbekistonda 35 ta mahalliy, 56 ta yevakuasiya qilingan teatrlar ishladi. 1941 yilning iyulidan 1944 yilgacha ular 203 ta yangi postanovka qo’yib 13568 ta spektakl va konsert ko’rsatdilar. Urush yillarida respublika san’at xodimlari 30 dan ortiq konsert brigadalari tarkibida harakatdagi armiya qismlarida 35 mingdan ortiq konsert berdilar. Brigadalar tarkibida Tamaraxonim, H.Nosirova, S.Yeshonho’jayeva, M.Turg’unboyeva, A.Hidoyatov, O.Yoqubov, K.Zokirov, Sh.Burhonov va boshqa san’at arboblari bor yedi. Urushdagi g’alabaga o’zbek kino, sirk san’atlari ustalari, rassomlar, kompozitorlar, haykaltaroshlar, matbuot xodimlari xalq qahramonligini tarannum yetuvchi, xalqimizni vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashga hizmat qiluvchi asarlar bilan beqiyos hissa qo’shdilar.

Shunday qilib, urush davri o’zbek fani va madaniyati xalq va armiyani dushman ustidan yerishilajak g’alabaga safarbar yetish, xalqning ruhiy qudratini ro’yobga chiqarish, olamshumul tarixiy voqealarga oz bo’lsada ta’sir o’tkazishga qodir kuch yekanligini yorqin namoyish yetdi. Urushning og’ir yillarida o’zbek xalqining yuksak ma’naviy ahloqiy fazilatlarini, uning insonparvarlik, baynalminalchilik, vatanparvarlik xususiyatlari namoyon bo’ldi. Umumiy ahvolning keskin yomonlashib, oziq-ovqat borasida qiyinchiliklar tug’ilganligiga, shaharlarda oziq-ovqat kartochka tizimi joriy qilinganligiga, sanoat mahsulotlarini taqsimlashning meyorli tizimiga o’tilganligiga, aholi turmush darajasining keskin pasayganligiga qaramasdan o’zbek xalqi urushning ayanchli yillarida dushman vaqtincha bosib olgan hududlardagi aholiga do’stona bag’rini keng ochdi, o’z yurtidan ayrilgan quvg’inlarni, urush qurbonlarini qalb harorati bilan isitdi, ularni g’amxo’rlik va mehmondo’sstlik bilan ko’nglini ko’tardi, qardosh xalqlarga iqtisodiyotni tiklashda va madaniy qurilishni yo’lga qo’yishda yordam berdi. Urush yillarida respublikaga bir milliondan ortiq kishi, shu jumladan, 200 ming bola keldi. Kelganlar turar joy bilan ta’minlanib, ishga joylashtirildi. O’zbekiston aholisi o’zi nochor ahvolda bo’lishiga qaramasdan o’z noni, kiyim-kechagi, turar joyini ko’chib kelganlar bilan birga baham ko’rdi.

Mudofaa jamg’armasi tuzish umumxalq harakatiga o’zbekistonliklar o’zlari muhtoj yekanligiga qaramasdan katta hissa qo’shdilar. 1941-1945 yillar davomida mudofaa jamg’armasiga respublika mehnatkashlari pul va davlat zayomi obligasiyalari shaklida 650 mln so’mdan ziyod mablag’ topshirdilar. 22 mln so’mdan ortiq qimmatbaho buyumlar, 55 kg.ga yaqin qimmatbaho metallar topshirdilar. Ana shu mablag’larga 3 ta bronepoyezd, avia yeskadrilya, tank kolonnalari va boshqa texnika qurilib, frontga

jo'natildi. O'zbek xalqiga hos insonparvarlik fashistlardan ozod yetilgan hududlarda xalq xo'jaligini tiklashda bergan yordamida o'z ifodasini topdi. 1943 yilda O'zbekiston kolxoz va sovxozlari ozod qilingan tumanlarga 1152 traktor, 25 ta kombayn, 1138 ta plug 379 ta seyalka va boshqa texnika jo'natdilar. O'zbekistonliklar tumanlardagi maktablar va boshqa sohalar uchun pul va moddiy vositalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalari, kitoblar, oziq-ovqatlar, kiyim bosh, poyafal va shu kabilarni yetkazib berdilar.

Urush xalqlar o'rtasidagi do'stlikni, baynalminal birlikni mustahkamladi. Lekin Stalin boshchiligidagi rahbariyat urush yillarida milliy siyosatda kechirib bo'lmas zo'ravonlikni amalga oshirdi. 1941-1945 yillarda Volga bo'yi nemislari, qalmiqlar, chechenlar, ingushlar, qrim tatarlari, qorachoylar, balqarlar, mesxeti turklariga mansub bo'lganlar to'lasincha, qisman litov, latish, yeston, polyak, yunonlar majburiy ravishda o'z ona yurtlaridan badarg'a qilindilar. Ularning umumiy soni 3 mln 226 ming kishidan ortiq yedi. Ko'chirish ular uchun chinakam fojiaga aylandi. Ko'chirish vaqtida, maxsus posyolka va lagerlarda deyarli 200 ming chechen va ingush, 120 ming qalmiq (xalqning yarmi), 40 ming qorachoylik (millatning uchdan bir qismi), 20 ming balqar (millatning yarmi) halok bo'lgan yedi. Stalin va uning atrofidagilar o'zlarining harakatlarini fashistlar okkupasiyasi davrida ayrim maxs va guruhlarning xoinligi uchun berilgan jazo, sovet mamlakati xavfsizligini qo'riqlash deb bahona qildilar. Aslida bu zo'ravonlikdan ko'zlangan maqsad barcha milliy respublikalar aholisi ruhini tushirish, ularda qo'rquv hissini kuchaytirish yo'li bilan tuzumni mustahkamlashdan iborat yedi. O'zbekistonga 150 mingdan ortiq qrim tatarlar, 175 ming chechen, 157 ming ingush, 4,5 ming balkar, armani va greklar ko'chirib keltirildi. Keyinchalik mesxeti turklar ham ko'chirib kelindi. Stalin ma'muriyati tomonidan ular "dushman sheriklari" deb ye'lon qilinganligiga, majburiy-taqiqlovchi to'siqlar borligiga qaramay o'zbek xalqi ularga mehr-shafqat ko'rsatdi. Kelganlarga sharoitlar yaratib, uy, yer sotib olish va imorat qurish uchun qarz ajratildi, oziq-ovqat bilan yordam berildi.

Shunday qilib, o'zbek xalqining urush frontlaridagi jasorati, mamlakat ichkarisidagi fidokorona mehnati ikkinchi jahon urushi g'olibona tugallanishining bevosita tarkibiy qismi bo'ldi.

Urushdan keyingi yillarda halok bo'lganlar xotirasini tiklash va qadrlash maqsadida «Xotira» kitoblari tuzildi. Bu xayrli ishga ayniqsa mustaqillik yillarida katta etibor berilmoqda. Poytaxtimiz Toshkenda Xotira maydoni va motamsaro ona yodgorlik majmuasi tiklandi. Viloyat markazlarida ham yodgorlik majmualari barpo etildi. Bu ishlarga boshchilik qilgan yurtboshimiz farmoni bilan 9 may «Xotira va qadrlash» kuni deb e'lon qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. –T.: O'zbekiston, 1995.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008.
3. Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – T.: "O'zbekiston", 2005.
4. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: "O'zbekiston", 2007.
5. O'zbekiston tarixi (1917-1993 yillar). –T. O'qituvchi, 1994.
6. Karimov Sh. G'alabaga qo'shilgan hissa. –T., O'zbekiston, 1990.
7. O'zbekiston tarixi va madaniyati. -T., O'zbekiston, 1992.

8.O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). –T. Sharq, 2000.

9.O'zbekistonning yangi tarixi.2 kitob. O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida. - T. Sharq, 2000.

10.O'zbekiston tarixi. T. Yangi asr avlodi. 2003.

15-MAVZU: SOVETLAR IMPERIYASINING TANAZZULGA YUZ TUTISHI VA O'ZBEKISTONDA DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO'LGA KIRITILISHI HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYAT ASOSLARINING BARPO ETILISHI.

Reja:

1. 80-yillarning o'rtalarida SSSRda inqirozli vaziyatning yanada keskinlashuvi. «Qayta qurish» konsepsiyasi».

2. 1991 yil avgust voqealari. KPSS faoliyatining to'xtalishi va SSSRning tanazzulga tutishi.

3. O'zbekiston davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi - o'zbek xalqi hayotida mislsiz tarixiy voqea. O'zbekiston Konstitusiyasining qabul qilinishi va uning ahamiyati.

Tayanch so'z va iboralar:

«O'zbekiston Respublikasi davlat Mustaqilligi tug'risida» gi Qonun, referendum, Prezident saylovlari, Davlat ramzlari, O'zbekiston Konstitutsiyasi, Huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, ko'ppartiyaviylik, Oliy Majlis, Quyi palata, Spiker, Senat, Vazirlar Mahkamasi, mahalliy boshqaruv, sud hokimiyati, Milliy siyosat, Ommaviy axborot vositalari, II Palatali Parlament. Inqirozli vaziyat «qayta qurish», demokratiya, «kadrlar to'dasi», Farg'ona, Qo'qon fojeasi, ekologik holat, Orol fojeasi, «Paxta ishi», «O'zbeklar ishi», I.A.Karimov O'zbekistonning birinchi Prezidenti, Mustaqillik Deklaratsiyasi, Moskvadagi avgust voqealari, SSSRning tanazzuli.

1. XX asrning 80-yillar o'rtalariga kelib SSSRda tanglik holati keskin kuchaydi, bu hol uning ichki manbalari nimadan iborat, degan masalani keskin qilib qo'ydi. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimining yanada kuchayishi oqibatida mamlakatda ishlab chiqarish sur'atlari keskin pasaydi, yalpi mahsulot hajmi kamaydi, ishlab chiqaruvchilarning ishlab-chiqarish vositalaridan begonalashuvi yanada ortib bordi.

Boshqaruv tizimining o'ta markazlashganligi va taraqqiyotga to'g'anoq bo'layotganligi markaziy siyosiy rahbariyatni bu yo'nalishda muayyan islohotlar o'tkazishga undadi. To'g'ri, 50 va 60 yillarning o'rtalarida sovet jamiyatini bir oz bo'lsada demokratlashtirish va iqtisodiyotni boshqarish jarayonlarini isloh qilishga urinishlar bo'ldi. Ammo eskilikka yopilib olgan holda ma'muriy tizim doirasida, iqtisodiyotga partiya rahbarligi va uning haddan tashqari mafkura izmida bo'lishi sharoitida qilingan islohotlar kutilgan natijalarni bermadi. «Aksincha – deb ta'kidlagan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov, - so'nggi o'n yillar mobaynida soxta obro' orttirish maqsadida qabul qilingan va mavjud imkoniyatlarni hisobga olmagan ijtimoiy, oziq-ovqat, agrar, energetika, ekologiya va boshqa sohalardagi ko'pgina dasturlar iqtisodiy qarama-qarshiliklarni chuqurlashtirib yubordi. Natijada

iqtisodiyotni batamom izdan chiqarib, moddiy va moliyaviy mablag'lar taqsimchilikning dahshatli tarzda o'sishiga olib keldi»¹⁶[1].

Mustabid tizim davrida ishlab chiqarish samaradorligi keskin pasaydi, mahsulot sifatidagi e'tibor susaydi, fan-texnika taraqqiyoti jihatidan jahonning rivojlangan mamlakatlaridan orqada qola boshladi. Bugungi kun nuqtai nazaridan yondashganda, kommunistik mafkura xalqa siyosiy ekstremizmning (keskin chora-tadbirlar ko'rishning) yaqqol ifodalangan mavkura turlaridan biri ekanligi namoyon bo'ladi. U o'zi paydo bo'lgan dastlabki kunlardan boshlab keng xalq ommasiga nisbatan ommaviy zo'oavonlik qilishga va unga nisbatan siyosiy qirg'inlar ishlatishga asoslangan edi. SSSRning inqirozga uchragan, bu bilan esa jahon socialistik tizimining barbod bo'lishi tarixiy qonuniyat edi. Inqirozga uchragan kommunistik eksperiment kommunistlar barpo etgan «sotsializm binosi» avval boshdan o'ta yaroqsiz markscha loyihaning chirigan poydevori ustiga ko'rilganligini ishonarli tarzda namoyish etdi. Tovarsiz, bozorsiz poydeor ustiga quriladigan yangi ijtimoiy tuzum barpo etish g'oyasi o'ta yaroqsizligi bilan ajralib turar edi.

Oktyabr to'ntarishidan keyin darhol xususiy mulkchilik ta'qib etildi, badavlat kishilar quvg'in qilindi, ko'p ukladlilik tugatildi, bozorlar bekitildi, mafkuralagan tanho iqtisodiyot jadal sur'atlar bilan shakllandi. Mamlakat xo'jaligi bozor iqtisodiyotini yuqori samaradorlikka olib boruvchi vosita raqobatdan mahrum bo'ldi. Jadidlar harakatining fidoyilaridan biri, mashhur ma'rifatparvar olim va adib Mahmudxo'ja Behbudiy 1906 yildayoq Lenin partiyasini «buyruktariya mustabid», deb atagan, uning dasturi Turkistonning erkin rivojlanishi uchun faqat yaroqsizgina bo'lib qolmasdan, shu bilan birga zararli ekanligini ham ta'kidlagan edi. Urushdan keyingi yillarda markscha iqtisodiy andozaning joriy etilishi og'ir oqibatlarga sabab bo'ldi. Socialistik iqtisodiyotga xos bo'lgan umumiy illatlardan tashqari, u O'zbekistonda xalq xo'jaligining mustamlakachilik yo'nalishini saqlab qolish bilan to'ldirildi. Respublika xalq xo'jaligi har tomonlama (paxtachilikka) ixtisoslashtirilgan juda ko'plab salbiy oqibatlarga olib keldi. Eng global muammo – Orol fojiasi yuzaga keldi.

60-70 yillarda boshlangan oltin qazib chiqarish sanoati har yili markazga 50 tonnagacha oltin yetkazib bergan. O'zbekistondan olib chiqib ketilgan ulkan tabiiy resurslarning qiymati 100 mlrd. lab AQSh dollariga teng bo'lgan. Markaziy hukumat esa respublikaning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga juda arzimagan qoldiq mablag'larni ajratardi. Jamiyat ijtimoiy siyosiy hayotida tub o'zgarishlar bo'lishiga umidning so'nishi 80-yillarning boshlarida ayniqsa kuchaydi. Buning oqibatida, bir tomondan, ma'muriy siyosiy biqizlik kuchaygan bo'lsa, boshqa tomondan jamiyat a'zolari mehant intizomining pasayishi, ijtimoiy loqaydlik, befarqlik kuchayib bordi. Ana shunday sharoitda 80-yillarning o'rtalarida sovet jamiyatida «qayta qurish» boshlandi. Qayta qurish KPSS MK Bosh Kotibi M.S.Gorbachyov va KPSS MKning 1985 yil aprel plenumi bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu jarayon avvalo jamiyatning ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarida to'planib qolgan inqirozli holatlarini tahlil etishdan boshlandi. Natijada mahsulot ishlab chiqarish uchun ikki barovar ko'p tabiiy resurslar, energiya, inson mehnati sarf etilishi, temir, po'lat, stanoklar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallashiga qaraamasdan mamlakatda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilganligi qayd etildi. Biroq qayta qurish «konsepsiyasi» avval boshdanoq noilmiy bo'lib, u mag'lubiyatga mahkum edi. Qayta

¹⁶[1] Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий-истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т., 280-бет.

qurish borasidagi dastlabki tajribalarning ko'rsatishicha mamlakat siyosiy rahbariyati birinchi kundanoq qayta qurish mafkurasini anglab yetishda nihoyatda soddalashgan nuqtai nazar bilan yondashdi. Qayta qurish «konsepsiyasi» qardosh ittifoqdosh respublikalarning hayotiy manfaatlari va muammolarini chuqur ilmiy tahlil qilishga, ularni bilishga asoslanmagan edi. O'sha davrda sovet socialistik tuzumi iqtisodiy, siyosiy jihatdan ulkan imkoniyatlarga ega deb hisoblandi, tarixiy istiqbol sosializm tomonida deb qaraldi.

80-yillarning o'rtalarida boshlangan qayta qurish siyosati 2 bosqichda amalga oshirishi zarur edi. Birinchi bosqich 1985-1987 yillarni o'z ichiga olib, bu bosqich ma'muriy tashkiliy tadbirlarning an'anaviy usullarda olib borish bilan izohlanadi. Bu bosqichda fan texnika taraqqiyotiga katta e'tibor beriladi, iqtisodiyotning rivojlanishi uchun ma'lum tadbirlar ishlab chiqiladi. Ammo bunday jarayonni ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Natijada 1986 yildan boshlab mamlakat iqtisodiy ahvoli battar yomonlashdi. 1987 yil yanvardan ishlab chiqarish sur'atlari keskin pasaydi, iqtisodiyotda inqirozli holat yuzaga keldi. qayta qurishning birinchi bosqichi shu tarzda mag'lub bo'ldi.

Qayta qurishning 2-bosqichi 1987-1990 yillarni o'z ichiga olib endi jamiyatning barcha jabhalarini kompleks tarzida isloh qilishni kun tartibiga qo'ydi. Bunday vazifa sobiq siyosiy mafkura tomonidan 1987 yil yanvarida yanada aniqlashtirildi va uning asosiy maqsadi sovet jamiyatini to'liq demokratlashtirishdan iborat ekanligi ta'kidlandi.

Ammo mamlakatda tub demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish, boshlangan islohotlarni oxiriga yetkazish mumkin bo'lmadi. Bu 2 sabab bilan izohlanadi. Birinchidan, qayta qurishning aniq, izchil, ilmiy jihatdan puxta ishlab chiqilgan dasturi yo'q edi. Ikkinchidan, partiya rahbarlari bundan manfaatdor emas edilar. Ma'lumki, qayta qurish «yuqoridan» boshlandi. Mazkur jarayonning boshlanishi paytida jamiyat a'zolari unga katta umid bog'ladilar. Ro'y berayotgan o'zgarishlar ayrim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlar ertangi kunga ishonch ruhini uyg'otdi. Lekin keyinchalik vaziyat o'zgardi, 80-yillarning 2-yarmidan boshlangan iqtisodiy inqiroz, ijtimoiy muammolarni hal etishdan o'quvsizlik demokratik jarayonlar va oshkoralikning yarim yo'lda qolib ketish – bularning barisi jamiyat a'zolarining qayta qurishga bo'lgan munosabatini o'zgartirdi. Qayta qurishning 3-yilida uning to'liq mag'lub bo'lishi aniq ko'zga tashlanib qoldi. Amaliy ishlar, foydali tadbirlar o'rniga siyosiy jabhadagi «musobaqalar»: siyosiy safsata, quruq vadalar kishilarda loqaydlik holatini yanada kuchaytirdi. Ijtimoiy faollik o'rnini sustkashlik, davlat va partiya siyosatiga ishonmaslik, befarqlik egalladi.

Qayta qurish oshkoralik, demokratiya va fikrlar xilma-xilligining ma'lum ma'noda kuchayishiga imkon yaratdi. Natijada tom ma'noda oshkoralikka erishib bo'lmadi, demokratiya esa amalda navbatdagi «siyosiy o'yin»lar ko'rinishini oldi. 1985-1990 yillar xalq ta'limi tizimidagi ayrim siljishlar ma'muriy buyruqbozlik tizimining zo'r berib qilgan harakati bilan tavsiflanadi. Lekin bu davrda ta'lim va tarbiya sohasida ziddiyatli holatlar yanada keskinlashdi. Maktab o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimi moddiy jihatdan yetarli darajada ta'minladi. Sovet ta'lim tizimi jahon andozasidan ajralib qoldi, jahonning ilg'or tajribalaridan bahramand bo'lmadi. Ta'lim, tarbiya sohasida kadrlarni sifat jihatidan qayta ko'rib chiqolmadi mafkuraviy cheklashlar tobora kuchayib bordi. 80-yillarning o'rtalarida boshlangan xalq maorifidagi islohotlar mavjud muammolarni hal etmadi. Masalan xalq ta'limi sohasida

belgilangan islohotlarni amalga oshirish maqsadida 1985-1990 yillarga mo'ljallab tuzilgan istiqbolli rejalar 3693 ming o'quvchiga mo'ljallangan yangi maktablar qurilishi ko'zda tutilgan edi, ammo mablag'ning yetishmasligini bahona qilgan markaz uni 920000 o'ringa tushirdi. Holbuki bu paytda respublika qishloqlaridagi mavjud maktablarning 20% haligacha moslashtirilmagan binolarda faoliyat ko'rsatayotgan edi. O'qituvchi kadrlar tayyorlashda salbiy xatolarga yo'l qo'yildi. 1985 yildan respublika maktablarida ishlayotgan o'qituvchilar soni 268,4 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1990 yilga kelib bu raqam 243,9 ming nafarga tushib qoldi. Buning sababi birinchidan aholi o'rtasida o'qituvchiga nisbatan e'tiborsizlik bo'lsa, ikkinchidan o'qituvchilarni ijtimoiy himoyalashdagi yo'l qo'yilgan jiddiy xatolar bo'ldi.

O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida Uzkompartiyaning XVI plenumi (1984 yil 23 iyun) o'sha paytdagi rahbarlari o'rtasidagi no'noqlik, markaz oldida tiz cho'kib sajda qilishlari oqibatida «O'zbek ishi», «Paxta ishi» deb nomlangan ishlar o'ylab topildi. O'zbekistonning sobiq kompartiya rahbarlari laganbardorligi tufayli 1984 yildan respublikamizga mamlakatning turli mintaqalaridan «desanchilar» yog'ilib kela boshladilar. Gdlyan va Ivanov rahbarligidagi jazo otryadlari 1984-1989 yillarda turli bahonalar tufayli o'n minglab rahbarlarni ishdan oldilar, kadrlarni almashtirish siyosati oilaviy tus oldi. Birgina 1984-1987 yillarda Moskva, Leningrad va Rossiyaning boshqa shaharlaridan 400 dan ortiq kishi O'zbekistonning partiya, sovet, ma'muriy xo'jalik organlariga ishga yuborildi. Bu davrda ijtimoiy ma'naviy sohada milliylikning har bir ko'rinishi «internasionalizm» mohiyatiga yod ekanligini isbotlashga harakat qilindi. Bu narsa o'zbek tili, din, milliy urf-odat, an'ana, marosimlar ayniqsa Navro'z bayramiga munosabatda yaqqol ko'rindi. O'zbek xalqining asrlar davomida yashab kelgan milliy urf-odatlari, dini ta'qirlandi, oyoq osti qilindi. Natijada xalq orasida, loqaydlik, milliy munosabatlar bobida noroziliklarning kuchayishiga sabab bo'ldi. 1989 yil may, iyun oylarida Farg'ona, Toshkent viloyatlarida va Andijon shahrida millatlararo mojarolar bo'lib o'tdi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida mustabid tuzum tomonidan deportasiya qilingan bir qator xalqlar qatorida mesxeti turklari ham bo'lib, ular asosan aholi zich yashaydigan Farg'ona viloyatiga, bir qismi esa Andijon, Namangan va Toshkent viloyatlariga joylashtirilgan edi. Buning oqibatida ijtimoiy-iqtisodiy va millatlararo munosabatlarda qo'shimcha muammolarni keltirib chiqardi. Bunga sovet davlati o'z vaqtida e'tibor bermadi. O'sha davrdagi respublikaning siyosiy rahbariyati (R.Nishonov) o'z vaqtida unga to'g'ri baho berolmadi. Natijada Farg'ona viloyatining turlishaharlarida yoshlarning oilaviy chiqishlari, millatlararo to'qnashuvlar chiqishiga sabab bo'ldi. Respublika matbuotida bu haqda to'g'ri ma'lumotlar berilmasdan go'yoki bu mojarolarga «mahalliy aholi aybdor» deb noxolis baho berildi. 11 iyunda Toshkent shahrida ishlayotgan va o'qiyotgan Farg'onalik yoshlardan 100 ga yaqini «Qizil maydonda» namoyish uyushtirib, Farg'ona voqealari haqida «noto'g'ri ma'lumot berishlariga qarshi fikr bildirdilar va boshqa bir qator talablar qo'yidilar»^{17[2]}.

1989 yil 8 iyunda Qo'qonda tinch namoyishlar harbiy qismlar tomonidan o'qqa topildi, natijada ellikdan ziyod kishi halok bo'ldi, 200 dan ortig'i yarador qilindi. Umuman 3-12 iyun kunlari Farg'ona viloyatidagi bo'lgan millatlararo to'qnashuvlar va ularni harbiylar tomonidan o'qqa tutishi oqibatida 103 kishi halok bo'lgan, 1009 kishi

^{17[2]} Бобоев Х. Фарғона фожеалари кундалиги. (Фан ва турмуш. 1990, нашр 5, 17 бет).

jarohatlangan va 650 xonadonga o't qo'yib vayron qilingan.^{18[3]} Farg'ona voqealaridan keyin O'zbekiston KPMQning 1-kotibi lavozimiga saylangan I.A.Karimov boshliq siyosiy rahbariyat bu masalada prinsipial mavqeyini egalladi. O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni o'rganib unga to'g'ri baho berar ekan, I.A.Karimov matbuot komissiyasida: «O'zbekiston yana bir «Farg'ona»ga chidab tura olmaydi», degan edi. Bu aslida yangi rahbarning respublikadagi ahvolni tubdan o'zgartirishga azmu qaror qilganligidan dalolat edi.

Davlat tili haqidagi qonun qabul qilngandan so'ng milliy o'zlikni anglash, milliy davlatchilikni tiklash yo'lini respublikada yana bir tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim siyosiy qadam qo'yildi. 1990 yil 24 martda XII-chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Soveti birinchi sessiyasi o'sha paytda respublika kompartiyasi markaziy komitetining 1-kotibi bo'lgan I.A.Karimovning O'zbekiston SSRning Prezidenti etib saylandi. Shu tariqa, O'zbekiston – SSSR respublikalari ichida birinchi bo'lib o'zining milliy huquqiy va demokratik davlatiga mustahkam zamin yaratdi.

2. O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvining joriy qilinishini bir qancha omillar, eng avvalo, SSSRda 1990 yil boshlariga kelib mustabid davlat siyosiy inqirozining kuchayganligi taqozo etdi. Shuningdek, bu inqiroz iqtisodiyotda va ijtimoiy-siyosiy sohada qilingan va markazning ittifoqchi respublikalarida yangilashga qaratilgan islohotlarni barbod bo'lishi bilan ham namoyon bo'ldi. 1990 yil oxirlariga kelib SSSR tarkibidan Litva, Latviya, Estoniya, Gruziya, Azarbayjonning chiqib ketishi SSSRning davlat butunligiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston xalqi oshkoralik va demokratiyalashdan, milliy va madaniy qadriyatlarni tiklashdan, o'z haq-huquqlarini, o'z taqdirini o'zi belgilash va iqtisodiy hamda siyosiy jihatdan tuzilmalariga qaramlikdan xalos bo'lish huquqlarini amalga oshirishdan tobora ko'proq manfaatdor ekanliklarini ochiq namoyon qila boshladilar. O'zbekistonning mustaqilligi yo'lidagi yana bir muhim qadam O'zbekiston SSR Oliy Kengashining XII-chaqiriq 2-sessiyasida (1990 y 20 iyun) qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi «Mustaqillik Deklarasiyasi»dir. Unda o'zbek xalqining asrlar davomida qo'lga kiritgan davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an'analari hisobga olindi. Deklarasiya 12-moddadan iborat bo'lib, uning 1-moddasida «O'zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o'z hududida barcha tarkibiy qismlarni belgilashda tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir», deb yozib qo'yilgan. «Mustaqillik Deklarasiyasi» xalqimiz tomonidan zo'r mamnuniyat bilan kutib oldi. Shu kundan boshlab respublikada O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilinadigan bo'ldi.

Bunga misol tariqasida, 1991 yil 22 iyul O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumi qarorida Prezident huzuridagi Vazirlar mahkamasiga ittifoqqa bo'ysunuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning O'zbekiston SSR huquqiy tobeligiga o'tishi tarkibini belgilash vazifasi topshirildi. O'sha vaqtda Markaz rahbarlari respublikalar ittifoqini qanchalik saqalb qolishga urinmasinlar buning iloji yo'q edi. Chunki endi eskicha tartib bilan mamlakatni idora etib bo'lmas, o'z navbatida ittifoqdosh respublikalarni mustaqillikka bo'lgan intilishi tobora kuchayib borardi. Ta'kidlash lozimki, mazkur hujjat O'zbekiston qonunlarining Ittifoq qonunlaridan ustivorligini ta'minladi. Shu bilan birga, «Mustaqillik Deklarasiyasi» O'zbekistonning 1991 yil 31 avgustga qadar mavjud bo'lgan boshqaruv, huquqiy faoliyatini ta'minladi. 1991 yil 11

^{18[3]} ;ша жойда, 17 бет.

yanvarida mamlakat Prezidenti qishloq aholisiga bevosita amaliy yordam berish uchun navbatdagi Farmonga imzo chekdi. Mazkur Farmon 1989 yilda boshlangan haqiqiy yangilanishlarning mantiqiy davomi edi. Prezident imzolangan hujjatda 1991 yilda paxta ekin maydoni qisqartirilishini nazarda tutib, tomorqa maydonlariga 108,5 ming gektar yer ajratish ko'rsatilgan. 1991 yil 14 fevralda O'zbekiston Oliy Kengashining navbatdan tashqari to'rtinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyada mamlakat Prezidenti I.A.Karimov nutq so'zladi. Mazkur nutq matbuotda Murakkab vaziyatda oqilona siyosat yuritaylik», degan sarlavhada chop etildi. Ushbu nutqida O'zbekiston rahbari Ittifoq shartnomasiga o'z munosabatini bildirib, O'zbekistonning bu shartnomaga kirmasligini qayd etib o'tdi. 1991 yil Nasro'z bayrami arafasida Prezident avf etish to'g'risidagi Farmonga imzo chekdi. Ushbu Farmon ham xalq tomonidan zo'r quvonch bilan kutib olindi. Qolaversa, amnistiyani o'sha davrda faqat ittifoq Prezidenti e'lon qilar edi. 1991 yil 19 avgustga kelib, butun jahonni hayajonga solgan Moskvada davlat to'ntarishiga urinish bo'ldi.

To'ntarish tarafdorlarining asl maqsadlari ittifoqda yashovchi barcha xalqlarning mustaqillikka erishuviga yo'l qo'ymaslik hamda mamlakatdagi parokandalikdan foydalanib qolish edi. Lekin O'zbekiston rahbariyati mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatni saqlash, respublika hududida favqulodda holat joriy etilishiga, Konstitusiyaga qarshi davlat to'ntarishini qo'llab-quvvatlash yo'lidagi ig'vokorona harakatlarga uchmaslik uchun o'zlarining butun imkoniyatlaridan foydalandilar. O'sha vaqtda O'zbekiston Prezidenti Hindiston safarida edi. Safardan qaytib 19 avgust kuni kechqurun Toshkent shahri faollari bilan uchrashib, qat'iy tarzda O'zbekiston nuqtai nazarini ma'lum qildi. Respublika rahbariyati: «Markazdan, Kim bo'lishidan qat'i nazar, qonunga xilof ko'rsatmalarni bajarish mumkin emas», deb hisobladi. 20 avgustda O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari ishtirokida qo'shma majlisi bo'ldi. Unda O'zbekistonning mustaqillikka erishish yo'li o'zgarmasligi haqida Bayonot qabul qilindi. Prezident I.A.Karimov respublika aholisiga murojaat bilan chiqdi va O'zbekistonning o'z mustaqilligiga erishish yo'li qat'iy ekanligini ta'kidladi. O'zbekiston Prezidentining Farmoni bilan Favqulodda holat davlat komitetining g'ayrikonstitutsiyaviy, huququq qarshi qarorlari va boshqa ko'rsatmalari noqonuniy, deb e'lon qilindi. Shunday murakkab sharoitda, ya'ni markaz va respublikalar o'rtasidagi munosabatlar tobora taranglashib, Markaz boshqaruv qobiliyatini yo'qotgan, har bir respublika o'z holiga tashlab qo'yilgan bir sharoitda tarixiy vaziyatni to'g'ri baholagan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Kengash, sessiyasini chaqirish va unda O'zbekiston Mustaqilligi haqida Qonun qabul qilishni talab qildi. Chunki har bir milliy respublikaning chinakam teng huquqligi va mustaqilligi ta'minlangandagina tanazzuldan chiqish mumkin edi. Ayni shu maqsadlarni ko'zlab, jumhuriyat Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari sessiyasi 1991 yil 31 avgustda o'z ishini boshladi. O'zbekistonning Mustaqil Davlat, deb e'lon qilinishida mazkur sessiya katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Bularning barchasi oxir-oqibatda mustabid Sovet davlatini tag-tomiri bilan yemiradigan ichki ziddiyatlarga aylandiki, bu illatlar tuzum inqirozini muqarrar qilib qo'ydi. Sovet imperiyasi inqirozining asosiy sabablari nimalardan iborat edi?

Birinchidan, «ittifoq»ning inqirozga uchrashiga shu narsa sabab bo'ldiki, u avvalboshdan oq ixtiyoriy asosda emas, balki zo'ravonlik, tazyiq o'tkazish yo'li bilan

«ittifoq»qa kirgan xalqlarning xohish-irodasiga zid ravishda tashkil etilgan edi. Haqiqatdan ham, o'z mohiyatiga ko'ra bu qat'iy markazlashtirish tamoyillari asosida qurilgan va har qanday demokratik normalarni rad etuvchi davlat edi.

Ikkinchidan, sovet imperiyasi aslida chor samoderjaviyasining «merosxo'ri» sifatida mustamlakachilik siyosatini davom ettirdi, u butun-butun xalqlarning milliy manfaatlarini poymol qildi, butun «ittifoq» hududida bu xalqlarga yot bo'lgan sovetlar shaklidagi davlat hokimiyati tizimini tashkil etdi. Sovet davlatida rahbarlik vazifasi geografik, siyosiy, iqtisodiy va etnik jihatlardan ittifoq markazi qo'lida mustahkamlandi, ular aslida, ramziy jihatdan olganda, qandaydir, «markaz»ga uyushgan edi. Shunga binoan, Markaz bilan etnik chekka joylar (shu jumladan, O'zbekiston) o'rtasidagi munosabatlar asosan imperiyacha munosabatlar, ya'ni adolatsiz va Markazga mutloq bo'ysungan holda bo'lib keldi.

Uchinchidan, SSSR jahonga hukmron bo'lishga, rivojlangan kapitalistik mamlakatlardan ustunlikka da'vo qilgan edi, lekin u zamon sinoviga bardosh berolmadi. Bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan va taraqqiyotning demokratik yo'lini tanlagan mamlakatlar ustun bo'lib chiqdi. Jahon xalqlari siyosiy va iqtisodiy rivojlanishning sovet andozasi istiqbolsiz ekanligini tushunib yetdilar. Bu ham inqirozga uchrashishning muhim sabablaridan biri bo'ldi.

To'rtinchidan, «Ittifoq» inqirozga uchrashishning asosiy sabablaridan yana biri shu bo'ldiki, mustamlakachilik ahvoriga va turli-tuman kommunistik «eksperiment»Larga duchor qilinishiga qaramasdan, o'zbek xalqi o'zining milliy g'ururini kelajakka, ozodlikka bo'lgan ishonchini yo'qotmadi, mustaqillik poydevorini qiyinchilik va katta yo'qotishlar bilan bo'lsa-da, qadamba-qadam qo'yib bordi. Buyuk avlodlardan meros bo'lib qolgan ma'naviy yetukligi, sabr-toqati, Vatanga muhabbati, mehnatsevarligi va bunyodkorligi xalqni mustabid tuzumning dahshatli qatag'onlaridan omon saqladi, tobe bo'lib yashashni istamasligini ochiq namoyish qildi.

O'zbekiston xalqi azaldan o'z fikri-zikri bilan yashagan. O'zining qaryib 3000 yillik davlatchilik tarixida qisqa vaqtgina mustaqil yashagan. Ayniqsa keyingi oq va qizil saltanatning deyarlik 130 yil davom etgan hukmronligi o'z tarixiy davlatchiligiga ega bo'lgan Turkistonni mustamlaka va qaramga aylantirgandi. Bu zulmatga qarshi goh oshkora, goh pinhona kurashib keldi.

O'zbekistonning Mustaqillik sari qo'yilgan dastlabki qadamlari 1989 yil 23 iyunda Islom Abdug'aniyevich Karimovdek jasoratli inson davlat tepasiga kelganidan keyin boshlandi. Uning tashabbusi bilan O'zbekiston hukumati tomonidan 1989 yil 15 avgustda «Kolxozchilar, sovxoz ishchilari, fuqarolar, shaxsiy tomorqa xo'jaliklari va individual uy-joy qurilishini yanada rivojlantirish to'g'risida» maxsus qaror qabul qilindi. Garchi bu g'oya Ittifoq rahbarlariga yoqmagan bo'lsa ham, I.A.Karimov o'z fikridan qaytmay, uni sobitqadamlik bilan amalga oshira bordi. Natijada o'sha yilning 4 oyida aholiga qo'shimcha 90,7 ming gektar yer tomorqa sifatida berildi.

1989 yil 21 oktyabrda O'zbekiston Oliy Kengashining XI sessiyasi O'zbekistonning davlat tili haqidagi Qonunni qabul qildi. Ushbu qonunning qabul qilinishi madaniy-ma'naviy va siyosiy hayotida ro'y bergan g'oyat muhim voqea bo'ldi.

O'zbekiston SSR Oliy Kengashining 1990 yil 24-martda bo'lib o'tgan sessiyasida boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish, prezidentlik lavozimini joriy etish to'g'risida qaror qabul qilindi va O'zbekistonda ittifoqdosh respublikalar orasida birinchi bo'lib prezidentlik lavozimi joriy etildi.

O'zbekistonning mustaqilligi yo'lidagi yana bir muhim qadam O'zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq ikkinchi sessiyasida (1990 y. 20 iyun) qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik Deklarasiyasi»dir. Ushbu Deklarasiyani qabul qilishda Respublika Oliy Soveti deputatlari jonbozlik ko'rsatdilar. «Mustaqillik Deklarasiyasi»da har bir millat o'z taqdirini o'zi belgilashi, va bu holat Deklarasiya qoidasi bilan kafolatlanishi ta'kidlandi. Unda o'zbek xalqining asrlar davomida qo'lga kiritgan davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an'analari hisobga olindi. Deklarasiya 12 moddadan iborat bo'lib, uning 1-moddasida «O'zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o'z hududida barcha tarkibiy qismlarni belgilashda tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir» deb yozib qo'yilgan. Sessiya qabul qilgan bu «Mustaqillik Deklarasiyasi» xalqimiz tomonidan katta mamnuniyat bilan kutib olindi.

3. 1991 yil 19 avgustga kelib, butun jahonni hayajonga solgan Moskvada davlat to'ntarishiga urinish bo'ldi.

To'ntarish tarafdorlarining asl maqsadlari ittifoqda yashovchi barcha xalqlarning mustaqillikka erishuviga yo'l qo'ymaslik hamda mamlakatdagi porakandalikdan foydalanib qolish edi. Lekin O'zbekiston rahbariyati mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatni saqlash, respublika hududida favqulodda holat joriy etishligiga, Konstitutsion tuzumga qarshi kurash yo'lidagi harqanday harakatlariga uchmaslik uchun butun imkoniyatlarini ishga soldilar. O'sha vaqtda O'zbekiston Prezidenti Hindiston safarida edi. Safardan qaytib 19 avgust kuni kechqurun Toshkent shahri faollari bilan uchrashib, qat'iy tarzda O'zbekiston nuqtai nazarini ma'lum qildi. Respublika rahbariyati: «Markazdan, kim bo'lishidan qat'iy nazar, berilgan qonunga xilof ko'rsatmalarni bajarish mumkin emas», deb hisobladi. 20 avgustda O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari ishtirokida qo'shma majlisi bo'ldi. Unda O'zbekistonning mustaqillikka erishish yo'li o'zgarmasligi haqida Bayonot qabul qilindi. Prezident I.A.Karimov respublika aholisiga murojaat bilan chiqdi va O'zbekistonning o'z mustaqilligiga erishish yo'li qat'iy ekanligini ta'kidladi. O'zbekiston Prezidentining farmoni bilan favqulodda holat davlat komitetining g'ayrikonstitusiyaviy, huquqqa qarshi qarorlari va boshqa ko'rsatmalar noqonuniy, deb e'lon qilindi. Shunday bir murakkab sharoitda, ya'ni Markaz va respublikalar o'rtasidagi munosabatlar tobora taranglashib, Markaz boshqaruv qobiliyatini yo'qotgan, har bir respublika o'z holiga tashlab qo'yilgan bir sharoitda tarixiy vaziyatni to'g'ri baholagan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Oliy Kengash sessiyasini chaqirishni va unda O'zbekiston Mustaqilligi haqida Qonun qabul qilishni talab qildi. Chunki har bir milliy respublikaning chinakam teng huquqligi va mustaqilligi ta'minlangandagina tanazzuldan chiqish mumkin edi. Ayni shu maqsadlarni ko'zlab, jumhuriyat Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari oltinchi sessiyasi 1991 yil 31 avgustda o'z ishini boshladi. O'zbekistonning Mustaqil davlat, deb e'lon qilinishida mazkur sessiya katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Unda «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida» gi Qonun hamda «O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida»gi Qonun kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi. Sessiyada O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Prezident I.A.Karimov ma'ruza qildi. U o'z nutqida 1991 yil o'rtalarida Markaziy hukumat olib borayotgan ichki siyosatni tahlil qildi. 19-21 avgust kunlari Moskva favqulodda holat davlat komiteti a'zolarining xalqlar ozodligi,

respublikalar mustaqilligiga qarshi qaratilganligi xalqqa ro'y-rost bildirildi. Oliy Kengash deputatlari moddama-modda muhokamadan so'ng «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi Qonun»ni qabul qildilar. So'ngra davlat mustaqilligi to'g'risidagi Bayonot qabul qilindi. O'zbekiston SSRning nomi «O'zbekiston Respublikasi», deb o'zgartirildi. Mustaqillik belgilangan kun – 1 sentyabr 1991 yildan boshlab milliy bayram va dam olish kuni, deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi haqidagi bu hujjatlar o'zbek xalqining asriy orzusi ro'yobga chiqqanligining huquqiy ifodasi bo'ldi.

«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonun 17 moddadan iborat bo'lib, mustaqil respublika uchun vaqtincha Konstitutsiya rolini o'ynaydigan bo'ldi.

Ushbu qonunda O'zbekiston mustaqil demokratik davlat, deb e'lon qilindi, ma'muriy-hududiy tuzilishi, hokimiyat va boshqaruv idoralari tuzilishini mustaqil belgilash qonunlashtirildi. Respublikaning davlat bo'linishi hamda iqtisodiy asoslari ham qonunda o'z aksini topdi. Shuningdek, ushbu hujjatda O'zbekistonning Qoraqalpog'iston bilan munosabatlari xususida so'z borib, O'zbekiston Qoraqalpog'istonning hududiy yaxlitligini tan olishi haqida fikr yuritiladi, u O'zbekiston tarkibida ekanligi e'tirof etiladi. Bunday qonunning qabul qilinishi o'sha davrda erishilgan yutuqlarning yuqori cho'qqisi bo'ldi. Shunday qilib, o'zbek xalqi asrlar davomida orzu qilgan mustaqillikka tinch yo'l bilan yurtboshimiz I.A.Karimov boshchiligida respublika rahbariyatining oqilona yo'l tutishi orqali erishildi.

Endi O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilinishi bilan bog'liq qonunlar tizimini yaratish zarur edi. O'zbekiston erishgan istiqloolni mustahkamlash uchun mamlakatda referendum o'tqazishga qaror qilindi. 1991 yil 18 noyabrda Oliy Kengash VIII sessiyasi O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Shunga muvofiq 29 dekabrda «Siz Oliy Kengash tomonidan O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qilinishini ma'quullaysizmi?» mavzuida referendum o'tkazildi. Referendum yakuniga ko'ra unda qatnashgan aholining 98,2 foizi O'zbekiston mustaqilligini yoqlab ovoz berdi. O'zbekiston mustaqil respublika, deb e'lon qilinishi jahon jamoatchiligi tomonidan ham zo'r qoniqish bilan kutib olindi. Fikrimiz isboti sifatida Amerika Qo'shma Shtatlarining o'sha paytdagi Prezidenti Jorj Bushning I.Karimov nomiga yuborgan telegrammasi hamda Shvesiya bosh vaziri K.Bilodtning telegrammalaridan ko'rish mumkin. 1991 yil 14 sentyabrda O'zbekiston Kompartiyasining favqulodda XXIII syezdida I.A.Karimov taklifi bilan O'zbekiston Kompartiyasi KPSS tarkibidan chiqqanligi e'lon qilindi. Partiyaning bundan buyon faoliyat ko'rsatmasligi e'tiborga olinib, ushbu partiya o'rnida Xalq Demokratik partiyasi tuzilganligi e'lon qilindi. O'zbekiston mustaqil davlat, deb e'lon qilingan kunning o'zidayoq mustaqil davlat ramzlarini joriy qilish yuzasidan amaliy choralar ko'rildi. O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida, respublika gerbining nusxasi va davlat madhiyasining musiqiy bayoni haqida maxsus qaror qabul qilindi. Unda Konstitutsiya komissiyasining ekspert guruhiga davlat bayrog'ining variantlari ustida ishlashni davom ettirish, Oliy Kengashning tegishli qo'mitalariga Konstitutsiya komissiyasi ijodiy guruhi bilan hamkorlikda davlat bayrog'i, madhiyasi haqida qonun loyihalarini ishlab chiqib, navbatdagi sessiyaga taqdim etish vazifasi topshirildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991 yil 18 noyabrda bo'lib

o'tgan VIII sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida» Qonuni qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i ulug' ajdodlarimizning aqida va maslaklariga mos keluvchi, millat tabiati va xalqimiz ruhiyatidan kelib chiqib, uning milliy va ma'naviy jihatlarini ham o'zida aks ettirmog'i kerak edi. Mamlakatimiz davlat bayrog'i yurtimizning o'tmishi, bugungi kuni va kelajagi yorqin ramzi bo'lib qoldi.

1992 yil 2 iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi» to'g'risida Qonun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 10 dekabrda bo'lib o'tgan XI sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Sessiyada shoir Abdulla Oripov va bastakor Mutal Burxonov tomonidan tayyorlangan madhiya nusxasi tasdiqlandi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin davlat boshqaruvining prezidentlik shakli rivojlandi. 1991 yil 29 dekabrda o'zbek xalqi o'z xohish-irodasi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentini sayladi. Saylovga jiddiy tayyorgarlik ko'rib, O'zbekiston Respublikasi saylovlari muqobillik asosida o'tdi. Oliy lavozimga ikki nomzod - O'zbekiston XDP va O'zbekiston kasaba uyushmalari federasiyasi nomzodi I.A.Karimov va «Erk» demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov nomzodi qo'yildi.

Saylovlar yakuniga ko'ra 8 million 514 ming 136 ovoz yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi Islom Karimov nomzodini, 1 million 220 ming 474 saylovchi (12,3%) Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi. Markaziy saylov komissiyasi okrug komissiyalari majlis bayonlarini ko'rib chiqib, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonunning 35-moddasiga asosan Islom Abdug'aniyevich Karimovni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan, deb hisoblashga qaror qildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 5-bo'limining 19-bobida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maqomi belgilab berildi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimi 35 yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan 5 yil muddatga saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga nomzodlar soni cheklanmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida saylovchilarnig kamida 50 foizi qatnashgan taqdirda saylov haqiqiy deb hisoblanadi. Umuman O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ovoz berishda qatnashgan saylovchilar ovozlarning yarmidan ko'pini olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Prezidentni saylash tartibi O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonuni bilan belgilanadi. Bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bo'lishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat qurilishi sohasidagi tajribasidan unumli foydalanish maqsadida muddati tugashi munosabati bilan iste'foga chiqqan Prezident umrbod Konstitusiyaviy sud a'zosi lavozimini egallashi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti lavozimni ijro etishga kirishish chog'ida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qasamyod qiladi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitusiya tomonidan davlat, xojalik, ijtimoiy-madaniy qurilish, xalqaro

munosabatlar sohasida unga berilgan vakolatlarini amalga oshirish maqsadida Konstitusiyasiga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti betobligi sababli o'z vazifasini bajara olmasligi Oliy Majlis tuzgan davlat tibbiy komissiyasi xulosasi bilan tasdiqlangan taqdirda o'n kun muddat ichida Oliy Majlisning favqulodda yig'ilishida deputatlar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini vaqtincha bajaruvchi saylanadi. Bu holda uch oy muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumxalq saylovi o'tkazilishi shart. Jahon sivilizasiyasida alohida o'rin tutadigan, ko'p asrlik boy tarixga ega bo'lgan O'zbekiston diyorida butun dunyoga mashhur olimlar, davlat arboblari yetishib chiqqan. Xalqimizning ko'p yillar davomida olib borgan matonatli kurashi natijasida qaror topgan mustaqil O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan odil, haqqoniy demokratik jamiyat qurish stixiyali (ko'r-ko'rona) ravishda emas, balki jahon taraqqiyotining, chunonchi, buyuk zaminimizda yaratilgan tarixiy tajribalarga, g'oyalarga, ma'rifiy-ilmii taraqqiyotga amal qilgan holda ro'yobga chiqdi. O'zbekiston mustaqillik sari yo'l tutar ekan, 1989 yilning yoz oylari va 1990 yil bahori O'zbekiston hayotida burilash davri bo'ldi. Xuddi shu paytlarda o'zbek xalqining taqdirini hal qiladigan taraqqiyot yo'llari ishlab chiqildi. Xususan, teng huquqli mustaqil O'zbekistonning inson manfaatini himoya qilish ustuvor vazifa deb maqsad qo'ygan demokratik yo'lda rivojlanishi bosh strategik yo'nalish, deya belgilandi. Ana shu yo'lning boshida, 1989 yil martidan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti sifatida Islom Abdug'aniyevich Karimov turdi. Asrlarga teng qisqa vaqtda erishilgan yutuqlar: mamlakatda o'rnatilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorlik, tarixiy, milliy va diniy qadriyatlarimizning tiklanishi, jamiyatda o'rnatilgan osoyishtalikni, mustaqil O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatida tutgan o'rnining ortib borishini xalqimiz, jahonning yirik davlat arboblari Islom Karimov nomi bilan bog'laydilar. Dunyo mamlakatlarida yangi jamiyat qurishning «O'zbek modeliga» uning asoschisi va yetakchisi Islom Abdug'aniyevich Karimovning siyosiy portretiga qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Amerika Qo'shma Shtatlarida chiqadigan nufuzli «Novoye russkoye slovo» haftanomasi O'zbekiston Prezidenti I.Karimovni Mustaqil davlatlar hamdo'stligining ko'p rahbarlariga namuna qilib ko'rsatdi va BMT xavfsizlik kengashiga murojaat qilib, O'zbekiston Prezidentining ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga e'tibor berishga va uning tajribasi bilan notinch mamlakatlarning davlat rahbarlarini tanishtirishga chaqirdi. 1996 yili Venada (Avstriya) «XX asr xalqlari dohiylari» nomida chop etilgan kitoblarning bir jildi O'zbekiston Prezidentiga bag'ishlangan. Kitob mualliflari «Islom Karimov kommunizmdan keyingi O'rta Osiyo mintaqasidagi eng buyuk davlat arbobidir», deb tan beradi.

Islom Karimovning har bir asari, ma'ruza va maqolalari bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning g'oyaviy-nazariy asoslarini, amaliy ishlarining kundalik dasturini tashkil qiladi. G'arb va Sharqning rivojlangan mamlakatlari asrlar davomidagi taraqqiyot yo'llarini, o'zbek davlatchiligining ming yillar davomidagi tarixiy tajribasini o'rgangan holda yaratilgan I.A.Karimov asarlarida mustaqil O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy taraqqiyotining muhim yo'nalishlari, yangi jamiyat qurishning butun dunyoda tan olingan asosiy tamoyillari to'g'risida ta'limot yaratildi.

Istiqlolning dastlabki bosqichida bosilib chiqqan «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» va boshqa bir qancha asarlari va nutqlarida bayon etilgan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining birinchi navbatdagi vazifalari keyinchalik g'oyat muhim ahamiyat kasb etgan «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida», «Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish vazifalari» va boshqa asarlarida o'z rivojini topdi.

Istiqlol sharoitida odil demokratik jamiyat qurish vazifalarining ortib borishi, xalqaro ekstremistik, diniy aqidaparastlik harakatlarning mustaqilligimizga tahdidini hisobga olib, Islom Karimov jamiyatshunos olimlar bilan uchrashuvida (aprel 2000 yil), gazeta va jurnallar muxbirlarining savollariga javoblarida (fevral 1998 yil, avgust 1998 yil, iyun 2000 yil) milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasini ishlab chiqish va ularni aholi o'rtasida keng targ'ib qilish, ayniqsa, yoshlarimiz ongiga singdirish zarurati bu murakkab, lekin muhim ishlarning yo'llari va usullariga e'tiborni kuchaytirdi.

I.A.Karimov istiqlolning birinchi kunlaridan boshlab ta'lim-tarbiya sohasida tub o'zgarishlar qilishga, yangi jamiyat qurish talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash masalasiga katta ahamiyat berdi. Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi»ga ilg'or taraqqiy etgan mamlakatlar jamoatchiligi tomonidan yuksak baho berilmoqda. M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining rektori akademik V.Sadovnichiy O'zbekistonda yangi avlod tarbiyasi, ta'lim tizimini tubdan isloh etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar rossiyalik olimlar, ta'lim sohasi mutaxassislari tomonidan yuksak baholanayotganini ta'kidlaydi. «Biz sizni kelajak avlod uchun katta g'amxo'rlik qilayotgan davlat rahbari sifatida alohida hurmat qilamiz», deydi u O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat qilib. I.A.Karimovga dunyoning eng ilg'or ilm-fan, madaniyat va siyosat arboblari qatorida jahonning eng yirik o'quv yurtlaridan bo'lgan Moskva Davlat universitetining faxriy professori unvoni berildi. O'zbekiston Respublikasining qisqa vaqt ichida ta'lim-tarbiya, madaniyat va sport sohasida erishgan katta yutuqlarini hisobga olib I.A.Karimovga YuNESKO «Oltin medali», Xalqaro Olimpiya komiteti tomonidan «Oltin medal» topshirilishi, Rossiya Federasiyasi Oliy pedagogika akademiyasiga faxriy a'zo etib saylanishi bejiz bo'lmasdan, yurtboshimiz tomonidan ishlab chiqilgan va muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning dunyo miqyosida tan olinganligining belgisidir. I.A.Karimov yangi jamiyat qurishda milliy, diniy qadriyatlarimizni tiklash ishlariga shu maqsadda Vatanimiz tarixini xolisona, haqqoniy yaratishga jamiyatshunos olimlarning e'tiborini jalb qildi. Prezidentimiz istiqlolning dastlabki kunlarida (1992 yil, yanvar) «Tarixga, merosimizga bo'lgan munosabat tubdan o'zgartirilishi lozim, yangi darsliklardan tortib oddiy kitoblargacha – hammasiga haqiqat yozilishi shart», deb aniq vazifa qo'ydi.

Vatanimiz tarixini o'rganish, uning yangi kelajak avlodni tarbiyalashdagi tutgan o'rni, ahamiyati masalalari I.A.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» (1998 yil avgust) nomli asarida keng bayon etib berildi. Yurtboshimiz haqqoniy millatning o'zligini anglashning poydevori, ma'naviy-mafkuraviy, g'oyaviy-siyosiy ishlarimizning haqqoniy manbai ekanligini qayta-qayta taqqoslab ko'rsatadi. Prezidentimiz har bir «siyosatchiman, arbobman degan odam, agar vijdoni bo'lsa, o'z xalqining tarixiy o'tmishini bilishi shart», degan vazifani qo'ydi.

O'tmish davrining murakkab vazifalari, qarama-qarshiliklari davlat rahbaridan boshqaruvning har xil usullarini, kerak bo'lsa, qattiqqo'llikni talab qiladi. Prezident Islom Karimov shunday vaziyatda xalq manfaatiga ma'qul keladigan har xil usullardan foydalanib, mamlakatni boshqarmoqda.

O'zbekiston xalqining istiqlol yillarida erishgan eng katta yutug'i- mamlakatda o'rnatilgan tinchlik, barqarorlik, tartib-intizomdir. Respublika aholisining mutloq ko'pchiligi (97,5%) bunday sharoitga bevosita I.A.Karimovning yetakchiligida erishildi, deb hisoblaydi.

O'zbek xalqi 2000 yil 9 yanvarda bo'lib o'tgan Prezident saylovida o'zining Islom Karimovga nisbatan chuqur hurmati va ehtiromini izhor qildi. Saylovchilarning 91,9 foizi Islom Karimovga ovoz berib, u yana bir karra davlat rahbari etib sayladi. I.A.Karimov yangi davrning jahon miqyosidagi davlat arbobi, O'zbekiston xalqining buyuk yo'lboshchisi sifatida mamlakatnigina emas, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning ham qator nishonlari va faxriy unvonlari bilan taqdirlandi.

Mustaqillik tomon qo'yilgan dastlabki qadamlaridan biri – bo'lajak suveren respublikaning Konstitusiyasini tayorlash g'oyasi I.A.Karimov tomonidan 1990 yilning mart oyida ilgari surildi. Ko'p o'tmay shu yilning iyun oyida Oliy Kengashning ikkinchi sessiyasida respublika Prezidenti rahbarligida 64 kishidan iborat Konstitusiyaviy Komissiya tuzildi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi o'z mohiyati va ahamiyati jihatidan sovet davridagi Konstitusiyalardan, xususan, 1978 yilgi O'zbekiston SSR Konstitusiyasidan tubdan farq qilishi kerak edi. Sotsialistik O'zbekiston Konstitusiyasi o'zining mazmuni, ruhi bilan sobiq ittifoq Konstitusiyasidan kelib chiqib, O'zbekistonni bu ittifoqqa qo'l-oyog'I bilan zanjirband etdi. Sinfylik, partiyaviylik g'oyalari bilan sug'orilgan Konstitusiya g'oyat darajada mafkuralashtirildi va siyosiyashtirildi. Inson manfaatlariga nisbatan davlat manfaatlari ustun qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining dastlabki varianti 1991 yil oktyabr-noyabrda tayyorlab bo'lindi. U muqaddimani qamrab olgan, olti bo'limdan iborat edi. 1992 yil bahorida loyihaning 149 moddadan iborat ikkinchi varianti ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining loyihasi puxta ishlovlardan so'ng Konstitusiyaviy komissiya qarori bilan 1992 yil 26 sentyabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi qariyb uch oy davom etdi.

Umumxalq muhokamasida jami 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi.

1992 yil 8 dekabrda 12-chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi bo'ldi. Unda O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini qabul qilish haqidagi masala ko'rildi. Bu xususda Konstitusiyaviy komissiya raisi, Prezident I.A.Karimov ma'ruza qildi. Ushbu ma'ruzada sessiya muhokamasiga havola qilingan O'zbekistonning asosiy Qonuni, respublikada avvalgi yillarda qabul qilingan qonunlardan farqli o'laroq, demokratik yo'l bilan tayyorlangan bo'lib, unda yillar davomida sinovdan o'tgan umuminsoniy qadriyatlar o'z aksini topganligi, u ko'plab taraqqiy etgan mamlakatlarning tajribalarini o'ziga singdirganligi alohida uqtirildi. Shuning uchun ham mazkur Konstitusiya har qanday yetakchi mamlakatlarning konstitusiyasi bilan bahslashga olishi mumkin deb ta'kidlandi. Sessiyada deputatlar 80 ga yaqin o'zgarish, qo'shimcha va aniqliklar kiritdilar.

Konstitutsiya kelajagi buyuk O'zbekistonning qad rostlashi uchun, adolatli huquqiy davlat barpo etish uchun mustahkam huquqiy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Konstitutsiya 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat.

Konstitutsiyaning xususiyatlari:

2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumini natijalariga ko'ra hamda uning asosida qabul qilingan 2003 yil 24 apreldagi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan.

Birinchidan, u huquqiy va siyosiy tafakkurning eng yuksak yutuqlarini, hozirgi zamon konstitutsiyaviylik ilmini o'zida mujassam etgan.

Ikkinchidan, o'zbek xalqi madaniyati va milliy an'alarining chuqur ildizlariga suyanganligi ham uning o'ziga xos muhim xususiyatidir.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasidagi avvalgi ijtimoiy-iqtisodiy, davlat siyosiy tizimidan amalda boshqa tizimga o'tganligi, tubdan yangilanish ro'y berganligi konstitutsiyaviy rasmiylashtirish bilan ajralib turadi.

Tamoyillari:

Yangi Konstitutsiyada xalq azaldan orzu qilgan, o'z taqdirini o'zi belgilash qoidasi mukammal tarzda o'rin olgan. Shu bois u xalq hokimiyati tamoyiliga asoslanadi va uni mustahkamlaydi. Xalq hokimiyati degan ibora butun hokimiyat amalda va yuridik jihatdan xalqniki ekanligini anglatadi. Demokratizm yangi Konstitutsiyaning asosiy tamoyili hisoblanadi. Konstitutsiyada insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish nazarda tutilgan;

Yangi Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati oliy organlarining tuzilishi, hokimiyatning bo'linishi tamoyili ham asoslab berilgan. O'zbekistonda davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi hokimiyati, ijro etuvchi hokimiyat va sud hokimiyatiga bo'linishi qonunlashtirildi. U hokimiyatdan har biri mustaqil faoliyat ko'rsatadi.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat Oliy Majlis tomonidan, ijro etuvchi hokimiyat esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va uning rahbarligi ostida Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi. Sud hokimiyati Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi tomonidan amalga oshirilib, ular birgalikda respublikaning yagona tizimini tashkil etadi;

Milliy o'z-o'zini boshqarish tamoyili joylardagi davlat hokimiyati organlariga bag'ishlangan.

Mustaqillik yillari milliy davlatchilik asoslarini qurish yillari bo'ldi. O'tgan yillar qo'hna tariximizni teran his qilish, bugungi kunda jahon miqyosida o'z o'rnimizni egallash davri bo'ldi. Bu davrda biz o'zligimizni anglab, tarixiy yo'limizni uzil-kesil tanlab oldik.

Mustaqil O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov tarixiy an'analarga, dunyo tajribalariga, o'lkaning o'ziga xos tomonlariga tayangan holda jamiyatni siyosiy jihatdan tubdan isloh qilish yo'llarini ishlab chiqdi. Bu jarayonda ikkita bosh vazifa:

1.Eski ma'muriy tizimni tugatish va hokimiyat boshqaruv organlarini qayta qurish;

2.Yangi davlatchilikning huquqiy va siyosiy asoslarini yaratish, davlatchilikda yangi markaziy va mahalliy boshqaruv tizimini shakllantirish masalalarini hal qilishdan iboratdir.

Jamiyatda qonuniylikning g'alaba qilishi, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy va boshqa huquqlarini himoyasi uchun hokimiyatlarning bo'linishi prinsipi haqli ravishda amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 11-moddasida hokimiyatning bo'linishi tamoyili konstitusiya darajasida mustahkamlandi.

Davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirishning yo'llarini ko'rsatib berar ekan. Prezident I.A.Karimov eng avvalo, bu vazifa hokimiyat barcha tarmoqlarining bir-biridan mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlashga bog'liqligini uqtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining huquqiy holati Konstitusiyaning V bo'lim XVIII bobida va 1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida»gi Qonunda belgilangan. Bu qonunlarga ko'ra, Oliy Majlis Oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Sobiq Ittifoqdan qolgan qonunlarni o'zgartirish, mamlakat hayoti uchun zarur vazifalarni amalga oshirish, demokratik tamoyillar asosida Oliy Majlisni shakllantirish uchun 1994 yil 25 dekabrda saylovlar belgilandi.

1993yilning 28 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida»gi Qonunga ko'ra respublika parlamentiga saylovlar umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi 1 chaqiriq Oliy Majlisiga saylov respublikamiz siyosiy hayotida o'lgan yutuq bo'lib, bunda 250 ta deputatdan iborat Oliy Majlis - yangi Parlament demokratik va ko'ppartiyaviylik asosida tuzildi.

Oliy Majlis faoliyatini erkinlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II chaqiriq VII sessiyasida ikki palatali parlament tuzish to'g'risida umumxalq referendumini o'tqazishga qaror qilindi. Shu asosda 2002 yil 27 yanvarda o'tgan umumxalq referendumida qatnashgan fuqarolarning 93,65 foizi parlamentning ikki palatadan tuzilishini qo'llab-quvvatlaydi.

1995 yil 23-24 fevralda chiqarilgan birinchi sessiyada O'zbekiston parlamenti hokimiyat vakillik organlaridan saylangan 120 kishidan iborat deputatlar blokini, 69 deputatdan tashkil topgan Xalq Demokratik partiyasi fraksiyasini, 47 deputatni uyushtirgan «Adolat» sosial-demokratik fraksiyasini, 14 deputat ishtirokida «Vatan taraqqiyoti» partiyasi fraksiyasini ro'yxatga oldi. Oliy Majlis sessiyalarida va uning qo'mitalarida olib borilayotgan ishlar asosan mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotini yuqori bosqichga ko'tarish, qonunchilikning sifat darajasini yuksaltirishga qaratilgan. Qonunlar qabul qilinmasdan oldin umumxalq muhokamasiga taqdim qilinishi islohotlarni amalga oshirishga ijobiy ta'sir qildi.

1997 yil aprelda Oliy Majlis tarkibida inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) tashkil qilinganligi haqida qaror qabul qilindi. Ombudsman jahondagi 85 dan ortiq mamlakatda bo'lib, uning huquqiy holatini aniq, ravshan belgilab beruvchi konstitusiyaviy qonun Markaziy Osiyo davlatlarida birinchi huquqiy institutdir. Ushbu qonunda «Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) mansabdor shaxslar, tashkilotlar va davlat organlarining inson huquqi, erki va qonuniy manfaatlarining davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlashga ko'maklashish maqsadida faoliyat ko'rsatadi», deb ta'kidlangan. Vakillik Oliy Majlisning yordamchi instituti bo'lib, u ijtimoiy manfaatlarining muvozanatiga, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha eng maqbul davlat tizimi yaratilishiga ko'maklashadi. Qonun

ombudsman institutining umumiy konsepsiyasi va jahon amaliyotining uyg'unlashgan shakli sifatida inson huquqlari vakili faoliyatining asosiy qoidasi - qonuniylik, oshkoralik, adolatparvarlik, insonparvarlik, har bir ishi uchun ochiqlik ekanligini tasdiqlaydi. Ombudsman fuqarolarning ariza va murojaatlarini ko'rib chiqishda, zarur axborotlarni talab qilib olishda mansabdor shaxslar va davlat organlari bilan hamkorlik qilmoqda.

Qonun qabul qilgunga qadar ham inson huquqlari bo'yicha vakil mamlakat Konstitusiyasi doirasida faoliyat ko'rsatib keldi. Jumladan, birgina 1996 yilda inson huquqlari bo'yicha vakil hamda fuqarolarning konstitusiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi bo'yicha komissiya a'zolari 700dan ortiq murojaatni ko'rib chiqdi. Ana shunday arizalarning tegishli qismidagi dalillar o'z tasdig'ini topgan va zarur choralar ko'rilgan. Inson huquqlari bo'yicha vakil BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasining Jenevada bo'lib o'tgan 52-sessiyasining majlisida qatnashdi va so'zga chiqdi. Chet ellarga xizmat safari davomida Inson huquqlari bo'yicha vakil BMT seminarida, BMTning Sharqiy Yevropa va MDH davlatlaridagi vakillarining mintaqaviy uchrashuvida so'zga chiqdi. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va boshqa tashkilotlarning bir qator kengashlari hamda seminarlari ishida qatnashdi.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IV sessiyasida (2000 yil, 14 dekabr) Oliy Majlisining O'zbekiston xalqiga murojaatida: «Yangi asr mamlakat uchun yangilanish va taraqqiyot davriga aylanishiga ishonamiz. Shu boisdan ham mustaqil yurtimizning yorug' istiqboli uchun barchamiz hamjihat bo'lib kurashaylik, maqsadimiz Vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi, xalq farovonligi va kelajak avlodning baxt-saodatidir», deyilgan.

Mamlakatimizda barcha sohani qamrab olgan keng miqyosli islohotlarni uzluksiz davom ettirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995 yil 26 martda Prezident I.Karimovning vakolatini 1997 yildan 2000 yilgacha uzaytirish yuzasidan unumli xalq referendumini o'tqazishga qaror qildi. 2000 yil 11 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisida 2000 yil 9 yanvar kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi natijalari tasdiqlandi. Shu kuni Fidokorlar milliy demokratik partiyasidan nomzodi ko'rsatilgan Islom Karimov uchun 11 million 147 ming 621 saylovchi yoki saylovlarning 91,90 foizi ovoz berdi. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzodi ko'rsatilgan Abulhafiz Jalolov uchun 505 ming 1661 saylovchi yoki 4,17 foiz saylovchi ovoz berdi.

«O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonunning 35-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Islom Abdug'aniyevich Karimovni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanganligi to'g'risida qaror qabul qilindi. Amaldagi Konstitusiyada Prezident davlat va ijro etuvchi hokimiyatning boshlig'i qilib belgilanishi ijro etuvchi hokimiyatni kuchaytirishga qaratilgan tadbir, deb aytish mumkin. Mamlakatimizning ijro etuvchi hokimiyatining tarkibi Prezident tomonidan tayinlanib, Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi. O'zbekistonda prezidentlik instituti o'rnatilgan dastlabki davrda Vazirlar kengashi hukumat sifatidagi huquqiy maqomini va vakolatlarini saqlab qolgan edi. Uning 1990 yil 30 martida Oliy Kengash tasdiqlagan yangi tarkibi 41 kishi, ya'ni Rais, Bosh vazir, uning ikki birinchi o'rinbosari, to'rt o'rinbosar, 19 vazir, 14 davlat qo'mitasi raisidan iborat edi. Respublikada demokratik jamiyat qurish borasida boshqaruv idoralari faoliyati takomillashtirilib borildi. 1995 yil 5 mayda O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisining II sessiyasi bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibi to'g'risidagi Prezidentning farmonini tasdiqlash masalasi ko'rildi va sessiyada Vazirlar Mahkamasining 35 kishidan iborat yangi tarkibi tasdiqlandi.

1991 yil 6 sentyabrda respublika mustaqilligi hamda hududiy yaxlitligini himoya qilish maqsadida Mudofaa ishlari vazirligi tuzildi. Shu maqsadlarni ko'zlab uning tarkibida 1992 yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi milliy gvardiya brigadasi barpo etish lozim, deb topildi, 1992 yil iyulida u Mudofaa vazirligiga bo'ysundirildi.

Xalq xo'jaligini boshqarishning yangi usuli sifatida konsernlar vujudga keltirildi. Bu avvalo iqtisodiy mustaqillik va bozor iqtisodiga o'tish zaruriyati bilan bog'liq bo'ldi. «O'zdonmahsulot», «O'zbekneftgaz» va boshqa ko'plab konsernlar shular jumlasidandir. 1991 yil 7 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil qilindi.

1990-1992 yillari O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi qabul qilingunicha bo'lgan davrda mahalliy hokimiyat organlari tizimini shakllantirish va ish faoliyatini takomillashtirish maqsadida bir necha huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Bular orasida 1992 yil 4 yanvarda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat organlarini qayta tuzish to'g'risida»gi Qonun alohida ahamiyat kasb etdi. Bu qonun asosida mahalliy hokimiyat organlari tizimida butunlay yangi organ – hokimlik va hokim lavozimi ta'sis etildi va uning vakillik organlariga boshchilik qilishi tamoyillari belgilab qo'yildi.

Ijro etuvchi hokimiyat organlarida bog'liqlikni ko'paytirish maqsadida, viloyatlar hokimlari O'zbekiston Prezidenti tomonidan, tuman va shahar hokimlari viloyat hokimi tomonidan lavozimiga tayinlanishi va lavozimidan ozod qilinishi hamda bu masalalar tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanishi tartiblari belgilandi. Partiya organlarining qaramligiga tushib qolgan ijro organlari – ijroiya komitetlari tugatildi.

Shuningdek, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonun (1993 yil sentyabr), «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylovlar to'g'risida»gi Qonun (1994 yil may) kabi hujjatlar muhim o'rin egallaydiki, ular kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T., «O'zbekiston», 1992.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., «O'zbekiston», 1992.
- 3.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1997.
- 4.Karimov I.A. Qayta qurishning birinchi va asosiy yo'nalishlari. T., «O'zbekiston», 1990.
- 5.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
- 6.Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – T.: “O'zbekiston”, 2005.
- 7.Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 2007.
- 8.O'zbekiston SSRning Mustaqillik Deklaratsiyasi. T., «O'zbekiston», 1991.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 1991 yil 31-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutqi. (Xalq so'zi, 1991, 3-sentyabr).
10. Usmonov Q., Sodiqov M. va b. O'zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida. T., «O'qituvchi», 1996.
11. Xujamberdiyev Yo. O'zbeklar ishi. T., «Yozuvchi», 1990.
12. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. T., «Sharq», 2000, 624-659 betlar.
13. Murtazayeva R.H. va b. O'zbekiston tarixi (Ma'ruzalar matni). T., 2000, 502-543 betlar.
14. Usmonov Q., Sodiqov T. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yil-lar) .T:Sharq, 2003.
15. O'zbekiston tarixi 10-sinf uchun darslik "Sharq" 2000 yil.

16-MAVZU: MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IQTISODIY, MA'NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOTI HAMDA JAHON HAMJAMIYATIGA QO'SHILISHI.

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasining bozor munosabalarining shakllantirish yo'li. «O'zbek modeli» uning tamoyillari.
2. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ma'naviy hayot, xalq ta'limi, fan va madaniyat.
3. O'zbekistonda tinchliksevar mustaqil tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi, uning tamoyillari.
4. O'zbekistonning MDHga a'zo bo'lgan davlatlar bilan hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlar bilan ko'p tomonlama aloqalar. Qo'shma korxonaning tashkil etilishi va ularning faoliyati.

Tayanch so'z va iboralar:

“O'zbek modeli”, iqtisodiy taraqqiyot, bozor munosabatlari, mulkni xususiyashtirish, ko'p ukladli iqtisod, bozor infratuzilmasi eksport, import, makroiqtisodiy barqarorlik, aksiyadorlik, ma'naviy meros, “Ma'naviyat va ma'rifat” markazi, Milliy qadriyatlarning tiklanishi, Milliy istiqbol mafkurasi, Ta'lim-tarbiya tizimi. Tinchliksevar tashqi siyosat, geografik-strategik imkoniyat, tashqi siyosatning asosiy tamoyillari, jahon hamjamiyati, hamdo'slik mamlakatlari, Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati, BMT, NATO, YUNESKO, YUNISEF, EKOSAN, SHHT, Yevropa Ittifoqi.

1. Davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish uchun qulay sharoit va keng imkoniyatlar yaratdi. Aslida bizning mamlakatimizda bozor munosabatlari yangilik emas. Ming yillar davomida ajdodlarimiz hunarmandlar ishlab chiqargan ajoyib mahsulotlarini, tabiiy boyliklarini dunyoning to'rt tomoniga chiqarib savdogarlik qilgan, mol almashgan. O'zbekistonning boy imkoniyatlari, geopolitik sharoitidan foydalanib, o'zimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'limizni belgilash dastlabki kunlarning eng muhim vazifasi bo'lib qoldi. O'zbekiston tanlangan islohot yo'li ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodini shakllantirishga qaratildi.

Bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning asosiy yo'nalishlari Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilib, dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning yirik mutaxassislari, davlat arboblari tomonidan tan olindi va o'zining hayotiyligini namoyish etmoqda. Bu tamoyillarning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

-iqtisod siyosatdan ustun turib, mafkuraviy tazyiqlarsiz, o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanmog'i kerak;

-davlat bosh islohotchi bo'lib, u islohotlarning ustivor yo'nalishlarini belgilab berishi va ularni izchillik bilan amalga oshirishi lozim;

-bozor munosabatlariga o'tish qonun ustuvorligini talab qiladi. Butun xalq tomonidan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarga amal qilinishi shart;

-bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini himoya qilishning kuchli ijtimoiy siyotasini o'tkazish;

-ijtimoiy islohotlarning rivojlanib borishi va yo'nalishini belgilab beruvchi tamoyillardan biri bozor iqtisodiyotiga o'tish evolyusion yo'l bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarur.

Yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish tamoyillari asosida g'oyat mas'uliyatli va murakkab vazifa - iqtisodiy islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Iqtisodiy strategiyaning boshlang'ich nuqtasi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning pirovard maqsadini belgilab olishdan iboratdir. Bu vazifa markazlashtirilgan, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga, bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tishdan iboratdir.

Bozor islohotlarini amalga oshirish dasturiga ko'ra ustuvor vazifalar bosqichma-bosqich hal qilinadi.

Dastlabki vaqtning o'zida iqtisodiy munosabatlarning huquqiy negizini barpo etadigan 100 ga yaqin asosiy qonun hujjatlari qabul qilingan. Iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investisiyalari bo'yicha Prezident huzurida maxsus idoralararo kengash tuzildi.

Bozor munosabatlariga o'tishning asosiy shartlaridan biri mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish amalga oshirildi. Bu bilan davlat monopoliyasi tugatilib, ma'muriy buyruqbozlik tizimi buzildi va bozor iqtisodiyotiga asos solindi, xususiy mulkdorlarning keng qatlami shakllantirildi va xorijiy sarmoyadan foydalanib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali aholining turmush darajasi yaxshilana boshladi. Mulkni xususiylashtirish va ko'p ukladli iqtisodni shakllantirish O'zbekistonda o'ziga xos yo'l bilan amalga oshirildi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdan maqsad: 1.Davlat monopoliyasini tugatib, ma'muriy buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotiga asos solish. 2.Xususiy mulkdorlarning keng qatlamini shakllantirish. 3.Xorijiy sarmoyadorlarga keng yo'l ochish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va aholini turmush tarzini yuksaltirishdan iborat. 1992-1993 yillar xususiylashtirishning birinchi bosqichida «kichik xususiylashtirish» amalga oshirildi. Buning oqibatida asosan maishiy xizmat va savdo korxonalari, transport va qurilishning kichik korxonalari, davlat sanoat va mahsulot qayta ishlash korxonalari mulk shaklini o'zgartirdi. Bular mulkning ijara, jamoa va aksiyadorlik shakliga aylantirildi. Uy-joylar keng miqyosda xususiylashtirilib, aholining ayrim qismiga tekin, boshqa qismiga esa arzon narxda xususiy qilib berildi.

Dastlabki davrda agrar sohada ham islohotlar amalga oshirildi. Natijada qishloq xo'jaligida 770 ta kolxoz va davlat xo'jaliklari xususiylashtirildi. Jamoa va ijara xo'jaliklariga aylantirildi. Lekin qishloqda bu jarayon sekin kechdi va qiyinchiliklarni bartaraf etishga to'g'ri keldi. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, agrar sohadagi byurokratik boshqaruv tizimining har xil to'siqlari, qishloqda islohotning borishiga halaqit berardi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonining birinchi bosqichidagi eng muhim xulosa mulkdorlar sinfining shakllana boshlagani, xususiylashtirish mexanizmining ishlab chiqilishi, iqtisodiy islohotlarga nisbatan kishilar psixologiyasi va munosabatining o'zgarishi bo'ldi. Mustaqillik yillarida yuz bergan tub o'zgarishlardan biri mamlakatda ikki yo'l bilan mulkdorlar sinfi shakllana boshladi. Birinchidan, kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish, ikkinchidan, pul mablag'larini omonat kassalari yoki banklarga qo'yish, qimmatbaho qog'ozlarga aylantirish yo'li bilan iqtisodiy jihatdan erkin bo'lgan mulkdor «o'z boyligini ko'paytirishdan manfaatdor bo'libgina qolmay, balki butun mamlakatni boyitishga ham qodir bo'ladi», deydi Prezident Islom Karimov.

1995 yil mamlakatning boshqa sohalarini isloh qilishda tub burilish yili bo'ldi, eng muhimi islohot jarayonlariga kishilarimizning ishonchi ortdi. Ishlab chiqarishning pasayishi keskin to'xtadi, jamiyatimizda iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy barqarorlik yuz berdi. Moliyaviy vaziyat o'nglanib, inflyasiyani 1994 yilga nisbatan uch barobar kamaytirishga erishildi. Narxning o'sishi yil boshida 16,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, yil oxirida 2,2 foizni tashkil qildi. Valyuta bozorida joriy yilda o'tgan yilga nisbatan 11 marta ko'p, ya'ni 1,3 mlrd. dollar sotildi.

Ichki yalpi mahsulot 1995 yilda 1994 yilning darajasiga nisbatan 96 foiz o'rniga 98,8 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan milliy daromad 98,5 foizga yetdi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi shu yili o'tgan yilga nisbatan 100,2 foizga teng bo'ldi.

Respublikada kichik va xususiy tadbirkorlikni shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlovchi zaruriy huquqiy asos yaratilgan. Amaldagi qonunchilik hujjatlarida, Respublika Prezidentining farmonlarida xususiy tadbirkorlikdan soliq olish, unga moliyaviy yordam ko'rsatish borasida imtiyozlar berish, imtiyozli kreditlar ajratish, moddiy-texnika va xom ashyo resurslari bilan ta'minlash borasida ko'maklashish nazarda tutilgan. Ana shu sa'y-harakatlarning natijasida 1995 yil o'rtasida respublika xalq xo'jaligida 30770 kichik korxonalar va kooperativ, 20115 xususiy korxonalar ishlab turdi. 15600 fermer xo'jaligi tashkil etildi, ularga 200 ming gektarga yaqin yer birlashtirib berilgan bo'lib, 67,5 ming kishi mehnat qilmoqda edi. Fermer xo'jaliklarining tasarrufida 190 mingga yaqin qoramol va boshqa hayvonlar mavjud. 1995 yilning faqat birinchi choragidagina fermer xo'jaliklari tomonidan o'tgan yilning tegishli davridagiga nisbatan ikki barobar ko'p go'sht va sut mahsulotlari tayyorlandi.

Ikkinchi bosqichda I.A.Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» (1995 y.) asarida qo'yilgan masalalar, xususan, xususiylashtirish va raqobatchilik muhitini shakllantirish jarayonlarini chuqurlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, milliy valyutani mustahkamlash, iqtisodiyot tarkibiy strukturasi tubdan o'zgartirish chora-tadbirlari amalga oshirildi. 2000 yilda xususiylashtirish davlat dasturi bo'yicha ko'zda tutilgan 167 obyekt o'rniga 374 obyekt xususiylashtirildi. Ularning negizida 152 ta hissadorlik jamiyati, 103 xususiy korxonalar tashkil etildi. Shu yili davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdan 14.3 milliard so'm mablag' tushdi. Bu 1999 yilgi ko'rsatkichdan 1,6 barobar ko'pdir.

Umuman olganda o'tgan o'n yil davomida bozor munosabatlarini shakllantirishda tub o'zgarishlar yuz berdi. Hozirgi paytda 87,4 foiz mulk nodavlat, 12,6 foizi davlat mulki ko'rinishida ish yuritmoqda. Respublikada jami 60 mingga yaqin korxonadan 50,5 mingga yaqini xususiylashtirilgan korxonalaridir. Mulkning tarkibi jihatidan 19,5 mingga yaqini davlat, 105 mingta xususiy, 3,4 mingdan ortiq chet el investorlari ishtirokida, shundan 442 qo'shma korxonalar, 3,5 mingga yaqin aksionerlik jamiyati, 1,2 mingga yaqin jamoa va 34 mingdan ortiq boshqa korxonalaridir.

Iqtisodiy islohotlarning borishida o'rta va kichik biznesni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda 180 mingdan ortiq kichik va o'rta biznes subyektlari va 200 mingga yaqin yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublikamiz sharoitida qishloq xo'jaligida keskin burilish yasash g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Hozirgi kunda mamlakatda 3,3 million shaxsiy tomorqa xo'jaligi mavjud bo'lib, shundan 1,8 millionga yaqini dehqon xo'jaligidir. Bundan tashqari 72 mingdan ortiq fermer va 1,4 mingdan ziyod shirkat xo'jaligi faoliyat ko'rsatmoqda.

2. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan bir vaqtda ma'naviy merosimizni, madaniy qadriyatlarimizni tiklash va ularni xalqimizga yetkazish borasida keng ko'lamda faoliyat olib borilmoqda.

Respublika Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, ma'naviyatning mohiyati shunchalik kengki, uni o'lchab ham, poyoniga yetkazib ham bo'lmaydi. U inson uchun butun bir olamdur. Bozor munosabatlari sharoitida ma'naviyat va ma'rifat ishlariga g'oyat katta e'tibor berilishi mustaqil O'zbekistonda yangi jamiyat qurishning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Shu borada «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazini tashkil qilish va uning faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan 1994 yil 23 apreldagi va keyingi Prezident farmonlari respublikada ma'naviy va mafkuraviy ishlarni yuksaltirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yilning 2 iyunidagi «Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi yangi Farmoni esa mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni izchil amalga oshirish, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini xalqimiz ongi va qalbiga singdirish borasida o'lgan ishlarni amalga oshirishga qaratilgan muhim dastur bo'ldi. Yurtboshimizning ma'naviyatga bosh homiy bo'layotgani, viloyat hokimlarining ma'naviy va ma'rifiy kengashlariga shaxsan o'zlari raislik qilayotganlari mamlakatimizda ma'naviy qadriyatlarni tiklash, har tomonlama kamol topgan insonni tarbiyalashga qanchalik katta e'tibor berilayotganligini ko'rsatadi. Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi Prezident farmonining ijrosini ta'minlash maqsadida «Jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish», «Aholining siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish» yuzasidan hujjatlar qabul qilib, 39 ta kichik ishchi guruhlarni tuzdi. Qabul qilingan dasturlarni amalga oshirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini kuchaytirish yuzasidan kengashning joylardagi bo'limlari muayyan ishlarni amalga oshirmoqdalar.

1991 yili buyuk shoir Alisher Navoiy yubileyini o'tkazish katta voqea bo'ldi. Bu tantanaga bag'ishlanib respublikamizda shoirning asarlari nashrdan chiqarildi. 1994 yil Mirzo Ulug'bek tavallud topgan kunining 600 yilligi keng ko'lamda, jahon miqyosida nishonlandi. YuNESKOning Parijdagi qarorgihida yubileyga bag'ishlangan haftalik bo'lib o'tdi. Mustaqillik yillarida buyuk sohibqiron Amir Temurning 660 yillik yubileyi o'tqazildi. YuNESKO tomonidan 1996 yil «Amir Temur yili», deb e'lon qilindi. Shu yili YuNESKOning Parijdagi qarorgohida «Temuriylar davri, fan, madaniyat va

maorifning gullab-yashnashi» mavzuida anjuman bo'lib o'tdi va unga bag'ishlangan ko'rgazma ochildi. Mamlakatimizda «Temur va temuriylar» muzeyi, Amir Temur nomi berilgan bog'lar, ko'chalar barpo etildi.

Islom olamining allomasi Iso at-Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud az-Zamaxshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Bahovuddin Naqshbandiyning 675 yilligi keng qo'lamda nishonlandi. Ularning asarlari nashrdan chiqarildi.

Barcha viloyatlar va shaharlarda har yili Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiyarga bag'ishlanib kechalar o'tkazildi, Jaloliddin Manguberding 800 yillik tavalludiga, «Alpomish» dostoni yaratilishining 1000 yilligiga bag'ishlangan turli kechalar, bahslar tashkil etildi. Ma'naviy hayotni takomillashtirish maqsadida al-Buxoriyning yubileyiga bag'ishlab, Qur'oni Karimdan keyin ikkinchi o'rinda turadigan «Al-Jome' as-Sahih» (Ishonarli to'plam), «Al-adab al-mufrad» (Adab durdonalari) o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashrdan chiqarildi.

1998 yili Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi, Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi jahon miqyosida keng nishonlandi. Respublikada yubileylar munosabati bilan allomalar hayotiga bag'ishlangan ilmiy anjumanlar va badiiy ko'rgazmalar ochildi. Yurtboshimiz Islom Karimov tashabbusi va bevosita ishtiroki bilan buyuk vatandoshlarimiz fiqh ilmining bilimdoni, nomi Sharq va G'arbda mashhur bo'lgan Abul Hasan ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al-Farg'oniy al-Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi, kalom ilmining asoschisi Imom Abu Mansur al-Motrudiy tavalludining 1130 yilligi butun mamlakatimizda keng nishonlandi. Yurtimiz hali Ittifoq tarkibida bo'lgan, Kremlning hukmronligi hali kuchini yo'qotmagan bir paytda – 1990 yil iyun oyida Respublika Prezidenti Islom Karimov «Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga haj qilishi to'g'risida»gi Farmonga imzo chekdi. O'zbekiston hukumatining har tomonlama qo'llab-quvvatlashi bilan 1991 yilda 350 kishi haj safariga borgan bo'lsa, 2001 yili hojilarning soni 3801 kishiga yetdi. Jami mustaqillik yillari haj ibodatini ado etishga muvaffaq bo'lganlarning soni 31.057 kishini tashkil qildi.

1992 yil Prezident farmoni bilan Ramazon va Qurbon hayiti kunlari umumxalq bayrami, deb e'lon qilindi. Xalqimiz asrlar davomida nishonlab kelgan bayramlaridan biri – «Navro'z» umumxalq bayrami sifatida qayta tiklandi. «Movarounnahr» diniy boshqarmasi faoliyati respublikamiz hayotida o'z o'rnini egalladi. Din inson ruhini poklashi, odamlar o'rtasida mehr-oqibat tuyg'ularini mustahkamlashi, milliy qadriyat va an'analarni asrashga qaratilgan xizmati bilan jamiyat hayotida muhim o'rin tutib kelgan. O'zbek yurti qadimdan dinlar rivoj topgan makondir. Hozirgi kunda ko'p millatli O'zbekiston Respublikasida islom dini bilan bir qatorda o'n ikkita diniy konfessiyalar yonma-yon yashab kelmoqda.

1995 yili pravoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasi tashkil etilganligining 125 yilligi yubileyi, O'zbekiston yevangel-lyuteran jamoasi tashkil etilganining 100 yilligiga bag'ishlangan «Bir osmon ostida» shiori bilan musulmon va xristian dinlari vakillari o'rtasida o'tkazilgan muloqot katta ahamiyat kasb etdi. Toshkentda 2000 yilning sentyabrida YuNESKO rahnamoligida «Jahon dinlari tinchlik madaniyati yo'lida» mavzuida dinlararo muloqot, xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Unda AQSh, Fransiya, Rossiya, Eron, Isroil, Hindiston, Xitoy, Vatikan kabi o'ttizga yaqin mamlakat, shuningdek, xalqaro diniy muassasalar vakillari qatnashdilar. Anjumanni

o'tkazish uchun aynan O'zbekiston tanlangani bejiz emas. Zero, bu o'lkadan dunyoga dong'i ketgan buyuk allomalar, islom olamida katta hurmatga ega bo'lgan buyuk zotlar yetishib chiqqan. Hozirgi kunda mustaqil O'zbekistonda din va vijdon erkinligi mustahkam qaror topgan va barcha diniy konfessiyalar birgalikda mustahkam tinchlikni saqlash, diniy ekstremizm va xalqaro terrorchilikka qarshi dadil kurash olib bormoqda. AQSh sobiq davlat sekretari Madlen Olbrayt 2000 yil aprelida Toshkent Sinagogida ibodat qilgandan keyin shunday degan edi. «O'zbekistonda, yana takror aytaman, O'zbekistonda barcha dinlarga bir xil e'tibor berilayotgani, vijdon erkinligi to'la ta'minlanganligi meni juda quvontirdi. Bu jihatdan O'zbekistonni butun dunyoga ibrat qilib ko'rsatsa arziydi».

Istiqlol yo'lida qadam tashlab borayotgan Vatanimizdagi mavjud ma'naviy, madaniy omillariga ahamiyat berish bilan birga, maorif, ta'lim-tarbiya ishlariga e'tibor kuchaytirilmoqda. «Ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa, biz ko'zlangan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi», - deydi I.A.Karimov.

Respublikamizda ta'limning yangi tizimini amalga oshirishda O'zbekiston hukumati tariximizdagi ta'lim jarayonlarini o'rganib chiqib, ta'limni isloh qilish dasturini tayyorladi. Barcha e'tibor ta'lim tizimlarini demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirib, uning moddiy-texnika bazasini zamon va davr talablari darajasiga ko'tarish va O'zbekistonning ma'rifiy salohiyatini kuchaytirishga qaratildi. Shu maqsadda 1992 yil 2 iyulda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi.

Ta'limni isloh qilish quyidagi tamoyillar asosida olib boriladi:

- **ta'lim-tarbiyaning insonparvarligi va demokratiyaviyligi;**
- **ta'lim tizimining uzluksizligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi;**
- **ta'limda umuminsoniy va milliy-madaniy, ma'naviy qadriyatlarning ustuvorligi;**
- **e'tiqodi, dinidan qat'i nazar, barcha fuqarolar uchun ta'lim olish imkoniyatlari yaratilganligi;**
- **ta'lim muassasalarining siyosiy partiyalar va harakatlar ta'siridan holiligi.**

1993 yil Respublikamiz Prezidenti tomonidan «O'zbekistonda o'quvchi-yoshlarni rag'batlantirish choralari to'g'risida»gi Farmoniga binoan talaba va aspirantlar uchun maxsus stipendiyalar belgilandi. Ular uchun rivojlangan davlatlardagi universitetlarda ta'lim olish, ulardagi ilmiy markazlarda ishlash, malakalarini oshirish uchun sharoitlar yaratib berildi.

O'zbekiston mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardan boshlab eng muhim muassasalardan biri eskicha tafakkur, e'tiqodidan qutulgan, istiqlol uchun, o'z ona-yurti uchun xizmat qilgan kadrlar tayyorlash masalasi bo'ldi. Eski tuzumni asta-sekin tag-tomiri bilan tugatib, batamom yangi, jahonning ilg'or taraqqiy etgan mamlakatlari yo'lidan boradigan haqiqiy demokratik jamiyat qurish endilikda yangicha fikrlaydigan, quyidan tortib yuqori toifadagi kadrlarga bog'liq bo'lib qoldi.

Bozor munosabatlariga asoslangan yangi jamiyatda rahbar kadrlarni tayyorlash maqsadida Prezident qoshidagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti, ayrim vazirliklar qoshida akademiyalar tashkil etilishi katta ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz respublika va viloyatlarning rahbar xodimlari, huquq organlari rahbarlari bilan uchrashuvlarida hokimiyatlar, huquq organlarining ayrim xodimlari tomonidan tartib-intizomning, qonunchilikning buzilayotgani to'g'risida har gal kuyib-

pishib gapiradi va urug'-aymoqchilik, mahalliychilik, nopoklik kabi o'tmish qoldiqlaridan toza, el-yurti va xalqiga mehnat qiladigan yosh kadrlarni tayyorlash, ularga yo'l ochib berish zarurligini qayta-qayta takrorlab ko'rsatadi.

O'zbekiston mustaqilligining kelajagi yuqori malakali, ma'rifatli, el-yurtiga sadoqatli mutaxassislarini tayyorlashga bevosita bog'liq. I.A.Karimov muxbirlarning «Sizning siyosatingizda ta'lim-tarbiya masalasiga katta e'tibor berishning sabablari nimada?», degan savolga «Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib yangi jamiyat qurib bo'lmaydi, ong, g'oya, tafakkur ta'lim-tarbiya bilan uzviy bog'liq, bir-birini to'ldiradi», deb javob beradi.

1997 yil 29 avgustda Oliy Majlisning 1X sessiyasida I.A.Karimovning «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» ma'ruzasi asosida yangi tahrirda «Ta'lim to'g'risida» Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.

Istiqlol yillarida maktabgacha tarbiya muassasalarida, boshlang'ich sinflarda o'quv-tarbiya ishlariga e'tibor kuchaytirilib, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari tizimida liseylar, kollejlari, biznes maktablari ochildi, 8 ta institut asosida universitetlar tashkil qilindi. 2000 yil boshlariga kelib, mamlakatimizda 61 ta oliy, 258 ta o'rta maxsus o'quv yurtlari, shu jumladan, 75 ta kollejda 360 mingdan ortiq talaba bilim olmoqda. Mustaqilligimiz kelajagi yoshlar qo'lida ekan bilimdon, ma'naviyatli, mustaqil fikrlab, mustaqil ish yuritadigan yoshlarni, Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, jamiyatimizning eng katta boyligi, mamlakatimizning intellektual, aql-zakovat boyligi bo'lmish yigit-qizlarimizni tarbiyalash mamlakatimiz hayotida birinchi darajali vazifa etib qo'yilmoqda.

Bu borada «Ulug'bek» (1993 y.), «Umid» (1997 y.) jamg'armalari olib borayotgan ishlar alohida o'rin tutadi. Faqat «Umid» jamg'armasi sinovlarida 1997-1999 yillar mobaynida 5500 nafar yoshlar qatnashib, 658 tasi Prezident grantlariga sazovor bo'ldi. 2000-2001 o'quv yilidagi bu tanlovda 3000 nafar yoshlar bilimi sinovdan o'tkazilib, ulardan 124 nafari xorijiy davlatlarning eng nufuzli o'quv yurtlarida o'qishga muayassar bo'ldi.

2001 yil o'z faoliyatini boshlagan «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining asosiy maqsad va vazifalari kelajak avlodimiz diliga va ongiga milliy istiqloq g'oyalari va mafkurasini singdirish, aholining aksariyatini tashkil qilgan yigit-qizlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashga qaratilganidir.

Jamiyatimizda siyosiy mustaqillikka erishib, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy vazifalar amalga oshirilayotgan bir vaqtda milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasini, Yurtboshimiz aytganidek, suv bilan havodek zarurdir. Busiz, ya'ni fikrlash, e'tiqod o'zgarmasdan bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlikka erishish murakkab vazifadir. I.A.Karimov milliy mustaqillik g'oyasining zarurligi to'g'risida gapirar ekan, «o'zining kelajagini qurmoqchi bo'lgan har qanday davlat yoxud jamiyat, albatta, o'z milliy g'oyasiga suyanishi va tayanishi kerak», deb ta'kidlaydi va milliy istiqloq mafkurasining vazifasini ko'rsatib, uning «... asl ma'nosi eskicha aqidalardan xoli bo'lgan, mustaqil va yangicha fikrlovchi kishilarni tarbiyalashdan iborat», deydi. Mustaqillik g'oyasi va mafkurasining xalqimizga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, uni birlashtiruvchi, buyuk maqsadlar uchun butun kuchlarimizni uyg'unlashtiruvchi ahamiyatini nazarda tutib, Prezident I.A.Karimov mustaqillikning dastlabki davrida, 1993 yil 6 may O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining II chaqiriq XII sessiyasida «Oldimizda turgan eng muhim masala bu - milliy istiqloq

mafkurasini yaratish va hayotimizga tadbqiq etishdir», degan edi. Kishilarimizni qaysi toifa va guruhda bo'lishidan qat'i nazar ma'naviy inqirozdan chiqaradigan yagona milliy g'oya atrofida birlashtiradigan birdan-bir qudratli kuch ana shu milliy mustaqillik mafkurasidir.

Yagona maqsad, yagona g'oya bo'lmasa, jamiyat inqirozga uchraydi, halok bo'ladi. Buni biz yaqin va olis o'tmishdagi tariximizdan bilamiz. Milliy istiqlol g'oyasi kelajak maqsadni ifodalaydigan xalqimizning ming yillik tarixini buyuk kelajak bilan bog'laydigan, ana shu yuksak maqsad yo'lida 120 dan ortiq millatlar va elatlarni, barcha kishilarimizni birlashtiruvchi bayroq vazifasini bajaradi.

Mustaqil O'zbekiston tarixi milliy istiqlol g'oyasining tarixidir. I.A.Karimov: «O'zining hayotini, oldiga qo'ygan maqsadlarini aniq tasavvur qila oladigan, o'z kelajagi haqida qayg'uradigan millat hech bir davrda milliy g'oya va milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi», - deydi.

Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekiston Respublikasining ko'p millatli omilini saqlab qolishi va uni rivojlantirishdek buyuk maqsadni o'zining adolatli, insonparvar huquqiy jamiyat qurish yo'lidagi ustivor yo'nalish, deb qaraydi. «O'zbekiston – Vatanim manim» g'oyasi barcha O'zbekistonliklarning dilidan o'rin olgan. Bu fikrlarning tasdig'ini «Ijtimoiy fikr» markazi tomonidan 1999 yilning iyun oyida esa o'tkazilgan sosiologik tadqiqotlarning natijasidan ko'rish mumkin. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Toshkent, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahrida 1350 korrespondentlar ishtirokida o'tkazilgan tadqiqotdan tashqari tojik, qozoq, tatar, qirg'iz, rus, ukrain, belorus millatlari vakillari O'zbekistonda millatlararo va fuqarolararo totuvlik va barqarorlikning sabablari nimada, degan savolga yakdillik bilan quyidagicha javob berdilar: 59,5 foizi Respublika Prezidenti I.A.Karimovning oqilona siyosati, 31,3 foiz – davlatning oddiy xalq to'g'risidagi g'amxo'rliqi, 22 foiz – o'zbek xalqining bag'rikengligi, 15,3 foiz iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotdagi barqarorlik.

Milliy mustaqillik g'oyasining eng muhim vazifalaridan biri mustaqilligimiz tayanchi va kelajagi bo'lgan yosh avlodni milliy g'urur, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat. Mustaqillik g'oyalariga e'tiborsizlik og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. 1999 yil 16 fevral «qonli seshanba» kuni voqealari milliy mustaqillik g'oyasini, mafkurasini yoshlarimiz diliga yetkazish zarurligini, buning uchun g'oyaviy, mafkuraviy ishlarimizni kuchaytirish lozimligini ko'rsatdi.

Bu borada yurtboshimiz I.A.Karimovning 2000 yil aprelida Oqsaroy qarorgohida ziyolilar bilan o'tkazilgan muloqotida, shu yilning iyun oyida «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblaridagi milliy istiqlol mafkurasining mohiyati, zarurati, uning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy asoslari to'g'risidagi ta'limoti istiqlolimizning buyuk g'oyalarini kishilarimiz ongiga singdirish borasidagi ishlarimizning dasturidir.

Milliy istiqlol g'oyasini, uning tushuncha va tamoyillarini xalqimiz, birinchi navbatda, yoshlarimiz o'rtasida targ'ib va tashviq etishning usullarini shakllantirish yo'lida dastlabki qadamlar qo'yilmoqda. «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi qoshida targ'ibot-tashviqot markazining tuzilgani, jamoatchi ma'ruzachilar ishining yo'lga qo'yilayotgani, ular uchun «Voizga yordam» ruknida risolalar chop etilayotgani shular jumlasidandir. Prezidentimiz farmoni bilan «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» maxsus fan sifatida ta'lim tizimining barcha bosqichlariga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 8 apreldagi Farmoni hamda uni amalga oshirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Fanlar rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirlari va innovasiya faoliyati haqida»gi qarori mamlakatda fanni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Respublika olimlarini xorijiy mamlakatlarga malaka oshirishga yuborishga katta e'tibor berildi. Ilmiy yechimlarni va tashqi bozorda targ'ib etish va tarqatish maqsadida respublika ilmiy ishlanmalari innovasiya tijorat markazi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestasiya komissiyasi tashkil etilishi munosabati bilan FAning mavqeyi yanada ortdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Oltin medal birinchi bo'lib shu yili ijtimoiy va gumanitar fanlar sohasida katta yutuqlarga erishgani uchun filologiya fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining a'zosi U.I.Karimovga nasib etdi.

1992 yil oktyabr oyida esa geologiya-mineralogiya fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi FAning akademigi I.H.Hamrobayev geologiya va geofizika sohasida erishgan muvaffaqiyatlari uchun Habib Abdullayev nomidagi Oltin medalning birinchi sohibi bo'ldi. U AQSh da chiqadigan «Global tektonika va metallogeniya» xalqaro ilmiy jurnali tahririyatiga a'zo etib saylandi. «Fan va texnikada kim haqiqatan kim?», deb nomlangan jahon fan va texnikasining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan eng buyuk olimlarning hayoti va ilmiy faoliyati to'g'risidagi asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qomusga O'zbekiston Respublikasi FAning akademigi P.Q.Habibullayev kiritilgan. O'zbek olimi bu sharafiga o'zining qattiq va yumshoq jismlar issiqlik fizikasining katta muammolarini, energetikaning fizika-texnikaviy muammolarini ishlab chiqqanligi uchun muyassar bo'lgan.

Mustaqillik yillarida FAning 40ga yaqin ilmiy markazi va tadqiqot laboratoriyalarida yirik olimlar faol mehnat qilmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi FA institutlari olimlari xorijiy davlatlar olimlari bilan hamkorlikda ilmiy aloqalarni kengaytirib bormoqdalar. Natijada, 1992 yil dekabr oyida texnika fanlari doktori G'.G'.Umarov K.E.Siolkovskiy nomidagi Kosmonavtika xalqaro akademiyasining a'zosi bo'ldi. U mazkur Xalqaro akademianing a'zosi bo'lgan birinchi o'zbek olimidir. Shuningdek, o'zbekistonlik M.S.Bulatov, S.M.Sutyagin, I.I.Notkinlar 1993 yilda Iordaniya Islom Fanlar akademiyasi a'ziligiga, M.S.Salohiddinov YuNESKO Informasiya xalqaro akademiyasining haqiqiy a'ziligiga, 1994 yil oktyabr oyida X.Olloyorov, 1995 yil fevral oyida A.Shamsiyev Nyu-York FAning faxriy a'ziligiga, Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi xalqaro akademiyasining haqiqiy a'ziligiga Z.S.Salimov, A.A.A'zamxo'jayev, 1997 yil oktyabrida U.Tojixonov va Z.Zaripovlar Tabiat va jamiyat fanlari xalqaro akademiyasining a'ziligiga, akademik E.Yusupov esa Turkiya Fanlar akademiyasining haqiqiy a'ziligiga saylandilar. Amerika biografiya instituti O'zbekistonning yetakchi olimlaridan biri O.Fayzullayevga uning jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasiga asoslanib «2001 yil insoni» unvonini berdi hamda mazkur institutning maslahatchilar Kengashi a'ziligiga sayladi. Bular O'zbekiston fanining xalqaro miqyosda tan olinishining yaqqol misolidir. Yurtboshimiz aytganlaridek, XXI asrda quroli, qo'shini bo'lgan davlat emas, balki turli sohalar bo'yicha kuchli mutaxassislari bo'lgan davlatgina qudratli davlat hisoblanadi. Zeroki,

har bir xalq fan sohasida katta yutuqlarni qo'lga kiritgan mashhur farzandlari bilan buyukdir.

1998 yil 26 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning «O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Bu farmonga muvofiq O'zbekiston tomosha san'atining ko'p asrlik an'analarini o'rganish, boyitish va targ'ib qilish, teatr san'atini har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni amalga oshirishda teatr arboblarning faol qatnashishini ta'minlash maqsadida «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi.

O'zbekistonda musiqa va raqs san'atini rivojlantirish maqsadida «O'zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi. Unda musiqa-raqs san'atini rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash masalalari ko'zda tutildi.

Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyoti, adabiyotshunoslik fani taraqqiyotida ham yangi sahifalar ochildi. Asarlari zararli, o'zlari millatchi, deb nohaq baholangan Cho'lpon, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud, Munavvar Qori singari millatparvar yozuvchi, ma'rifatparvarlar ijodi xolisona o'rganilib, ularning asarlari chop etildi, teatr sahnalarida o'z o'rnini egalladi.

Ma'rifatparvarlar faoliyatining asl mohiyatini, adabiy, madaniy, siyosiy hayotdagi o'rnini ro'yi-rost ko'rsatish boshlandi. O'tmishda diniy va saroy adabiyoti vakili, deb tang'a bosilgan buyuk shoir va mutafakkirlar hayoti va ijodi o'rganilib, asarlari xalqqa qaytarildi. Mustaqillik sharofati bois mo'tabar Qur'oni Karim va Hadislar, H.Karomatovning «Qur'on va o'zbek adabiyoti» nomli kitobi nashr etildi. Aytish mumkinki, bunday asarlarning xalqimiz qo'lga yetib borishi butunlay yangi, sog'lom, sof milliy g'oyalarimizning, maqsad va intilishlarimizning sifat darajasini belgilaydi. Adabiyot sohasidagi va ko'plab nashr etilgan boshqa asarlar milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasining buyuk hayotbaxsh kuchini ko'rsatadi. Mustaqillik davri adabiyotining bayroqdorlari O'zbekiston Qahramonlari Said Ahmad, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O'zbekiston xalq shoirlari Muhammad Yusufkar ijodiy faoliyati bilan butun xalqimiz faxrlanadi. Milliy istiqloq davridagi o'zbek adabiyotshunosligi oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda Ozod Sharafiddinov, Begali Qosimov, Naim Karimov, Erik Karimov, Ahmad Aliyev, Najmiddin Komilovlarning asarlari alohida o'rin egallaydi. Tohir Malikning romanlari, O.Matjon, O.Hojiyeva, H.Sultonov, A.Suyun, Y.Eshbek, H.Do'stmuhammad singari shoir va adiblarning badiiy barkamol, g'oyaviy yetuk asarlari o'zbek milliy istiqloq adabiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Millatimizning o'zligini anglashda, milliy, tarixiy qadriyatlarimizni tiklashda muzeylar alohida o'rin tutadi. Shu jihatdan Prezident I.A.Karimovning 1998 yil 12 yanvardagi «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni bu boradagi ishlarni rivojlantirishda dastur rolini bajarmoqda. Mustaqillik yillari respublikamizda muzeylarga bo'lgan e'tibor oshib bormoqda «Temuriylar tarixi davlat muzeyi»ning qurilishi, «O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi», «Xalq amaliy san'ati muzeyi»ning qayta jihozlanishi buning dalolatidir. Hozirgi kunda davlat qaramog'idagi muzeylar 81 tani tashkil qilib, shulardan 15 tasi tarix muzeylari, 23 ta o'lkashunoslik, 10 ta badiiy san'at koshonasi, 20 ta memorial muassasasi, 8 ta adabiyot, 4 ta tibbiyot muzeylaridir.

Shuningdek, mamlakatning shaharlari va tumanlarida 510 muzey xalqimizning boy tarixiy-madaniy xazinalarini namoyish etmoqda va kishilarimizni, yosh avlodni

ma'naviy-ma'rifiy jihatdan tarbiyalashga o'zlarining hissalarini qo'shmoqda. O'zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi tasarrufidagi jami muzeylarda 2000 yil boshlarida 1.350 ming eksponat saqlanmoqda va ularni o'tgan davrda 1.655.400 kishi tomosha qilgan. Sharq va G'arb me'morchiligi uyg'unlashgan binolar yurtimiz poytaxti va viloyat markazlarida qad ko'tarib, shaharlarimiz husniga husn qo'shmoqda. Milliy bank, mehmonxona binolari hamda madaniyat va istirohat bog'larining bunyod etilishi buning yorqin misolidir. Haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, tasviriy san'at, raqs, kino san'atlarida ham an'anaviy va zamonaviy usullar uyg'unlashib yetuk asarlar yaratildi va yaratilmoqda. Aholi ijtimoiy himoyasida xalq salomatligini saqlash muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilganda, O'zbekiston mustaqillik yillari iqtisodiy-ijtimoiy boradagi yutuqlari bilan bir qatorda mafkuraviy-ma'naviy, madaniy ishlarga ham e'tiborni kuchaytirib, jahonning rivojlangan davlatlari orasida o'z nufuzi va obro'sini yuqori ko'tarmoqda.

3. Bizga ma'lumki, mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgan barcha mamlakatlar o'z rivojlanish yo'lini o'zlari tanlab oladilar va jahon hamjamiyatiga qo'shilish orqali o'z taqdirini belgilaydilar. Shuning uchun ham O'zbekiston mustaqil davlat maqomiga ega bo'lishi bilanoq jahon hamjamiyatiga qo'shilish yo'lini tutdi. Bu davrni yoritishdan oldin, talaba XXI asr arafasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayon va xalqaro vaziyatga qisqagina nazar tashlashi lozim.

XXI asr bo'sag'asida dunyo ijtimoiy-siyosiy jarayonlari tubdan o'zgardi, inson va tabiat, odam va olam taqdiriga daxldorlik hissi tobora kuchaydi. Geografik - siyosiy o'rin jihatdan O'zbekiston Markaziy Osiyoning qoq o'rtasida joylashganligi ayni ana shu mintaqada barqarorlikni ta'minlash, o'zaro hamkorlik va birodarlikni chuqurlashtirish uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoda, Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan bo'lib, uning hududi shimoliy-g'arbda Turon pastteksligini, janubiy-sharqda Tyan-shan va Oloy tog' tizmalarini, janubiy-g'arbda Qizilqum cho'llarining bir qismini egallaydi. Uning g'arbdan sharqqacha bo'lgan maydoni uzunligi-1425 kilometrni, shimoldan janubgacha bo'lgan maydoni uzunligi 930 kilometrni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi tarkibiga: 12 ta ma'muriy viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi, 157 qishloq tumani, 123 shahar va 104 shahar tipidagi posyolka kiradi. Davlatning poytaxti – Toshkent shahri.

O'zbekistonda 100 dan ziyod millatlar va ellatlarning vakili bo'lgan 22 milliondan ko'proq kishi istiqomat qiladi.

O'zbekiston – katta imkoniyatlar mamlakati. O'zbekistonda hamma narsa: tabiat boyliklari, hosildor yerlar, mehnat resurslari, qudratli, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ma'naviy potensial mavjuddir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov dunyo muammolarini hal qilishning eng insonparvar, eng adolatparvar tamoyillarga asoslanib mintaqaviy mojarolar va qo'shni mamlakatlarni o'zaro kelishmovchilik muammolaridan tortib, butun yer shari va insoniyat taqdiriga daxldor bo'lgan juda ulkan masalalarni o'rtaga tashlamoqda. Bu ayniqsa, xalqaro terrorizm va narkobiznes, diniy aqidaparastlik va ekstremizm bilan bog'liq bo'lgan muammolardir. Ayni ana shu muammolar bugun dunyo ahliga tahdid solayotgan eng og'ir fojia ekanligini, u bilan murosa qilib bo'lmasligini, bu illatlarni yo'q qilish uchun juda katta qat'iyat, siyosiy iroda va ichki qudrat kerakligini O'zbekiston o'z timsolida ko'rsatdi.

Mamlakat tashqi siyosatiga doir bunday qoidalar Prezident I.Karimovning nutq, maqola va risolalarida yanada oydinlashtirildi. I.A.Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li» asari bu borada muhim manba bo'lib, bu risola 5 qismdan iborat. Unda O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatdagi konsepsiyasi bayon qilingan. «O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan, ko'p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish - davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g'oyat muhim vositasidir»¹⁹[1] - deb alohida uqtirgan edi Yurtboshimiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning yuqorida tilga olingan risolasida O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat ekanligi aytib o'tilgan:

Birinchidan: O'zining milliy davlat manfaatlari ustun bo'lgan holda o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish. Bizning mustaqil davlatimiz biron-bir buyuk davlatning ta'sir doirasiga tushib qolish niyatida emas. O'zbekiston yana kimgadir bo'ysunish uchun mustaqil bo'lgani yo'q.

Ikkinchidan: Respublika odamlar va davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda umumbashariy qadriyatlarni ustun qo'yib, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash uchun, mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish uchun kurashadi. O'zbekiston yadrosiz mintaqa bo'lib qoladi, tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirish niyati yo'q.

Inson huquqlari to'g'risidagi, hujum qilmaslik haqidagi nizomi masalalarini hal etishda kuch ishlatishdan va kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan voz kechish to'g'risidagi xalqaro hujjatlarni tan oladi, ularga rioya qiladi.

Uchinchidan: Respublikaning tashqi siyosati teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlarni ichki ishlariga aralashmaslik qoidalari asosida quriladi. Mustaqil Davlatlar hamdo'stligida butun tashqi siyosatda ham bizning shiorimiz — tenglar orasida teng bo'lish.

To'rtinchidan: Mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar tashqi siyosatda ochiq-oydinlik prinsipini ro'yobga chiqarishga va barcha tinchliksevar davlatlar bilan keng tashqi aloqalarni o'rnatishga intiladi.

Beshinchidan: O'zining milliy huquqiy tizimini vujudga keltirayotgan yosh mustaqil O'zbekiston ichki milliy qonuniyatlarida xalqaro huquq normalarining ustuvorligini tan oladi. Bizning mustaqil davlatimiz o'z qiyofasini yo'qotmay, jahon hamjamiyatiga kirar ekan, xalqaro talablarga rioya qilishga tayyordir.

Oltinchidan: O'zbekiston to'la ishonch prinsiplari asosida ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish, xalqaro aloqalarni chuqurlashtirish uchun harakat qiladi²⁰[2].

O'zbekiston Respublikasi o'zining tashqi siyosatidagi yo'nalishlarini demokratik prinsiplarga asoslangan holda olib borar ekan, 1991 yil dekabrda 1992 yil iyul oyigacha bo'lgan davr ichida respublikani 111 davlat, hozirgi kunga qadar esa O'zbekiston mustaqilligini 180 dan ortiq davlat tan oldi, ularning 100 dan ortig'i bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Toshkentda AQSh, Turkiya, Germaniya, Rossiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston va boshqa rivojlangan mamlakatlarning elchixonalari ochildi. Shuningdek, O'zbekistonda 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta

¹⁹[1] Karimov I.A. "O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li". T.: "O'zbekiston", 1992, 9-bet.

²⁰[2] Karimov I.A. "O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li". T.: "O'zbekiston", 1992, 25-27 betlar.

hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. O'z navbatida O'zbekistonning elchilari dunyodagi 20 dan ortiq yirik davlatlarda faoliyat ko'rsatib turibdi.

Mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatining asosini ochiq-oydinlik, teng huquqlilik, demokratik prinsiplarga sodiqlik, umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lash, respublika ijtimoiy hayotidagi demokratik jarayonga ta'sir qilish kabilar tashkil etadi va respublika tashqi siyosati tinchlik va xavfsizlik uchun umumjahon e'tirof etgan ochiq yakdillik talablariga asoslanadi. 1992 yil 2 martda O'zbekiston xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lib, dunyo miqyosida tan olindi. Bu voqea respublikaning mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiyatda munosib o'rin olishida ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1993 yil fevral oyiga kelib Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi. Xolid Malik BMTning O'zbekistondagi vakili etib tayinlandi.

O'zbekiston BMTning to'laqonli a'zosi sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining yig'ilishlarida ishtirok etishi bilan o'zining xalqaro hamjamiyatga kirish jarayonini davom ettirdi. O'zbekiston rahbariyatining dunyodagi global muammolarga jahon miqyosida e'tiborini qaratishi O'zbekistonning tashqi siyosatda tutgan aniq o'rnini belgilab berdi. Chunonchi, 1993 yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi ma'ruzasida O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning ilgari surgan birinchi xalqaro tashabbusi O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi adolatparvar siyosatidan darak berdi. Prezident I.A.Karimov bu ma'ruzasida bir qator aniq takliflarni bildirdi. Bularga Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMTning doimiy ishlaydigan seminarini chaqirish, BMT xavfsizlik kengashida yuzaga kelayotgan mojarolarni tahlil qilish va istiqbolni belgilash bo'yicha maxsus guruh tuzish, Markaziy Osiyoni yadrosiz zona, deb e'lon qilish, bu mintaqada kimyoviy modda hamda bakteriologik qurolni taqiqlash bo'yicha xalqaro nazorat o'rnatish, Markaziy Osiyoda narkobiznesga qarshi hamkorlikda kurashish uchun BMTning mintaqaviy komissiyasini tuzish, Orol muammosini hal qilish masalasi bo'yicha BMTning maxsus komissiyasini tuzish kabilar kiradi.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov 1995 yil BMTning ellik yilligi munosabati bilan Bosh Assambleyaning maxsus tantanali yig'ilishida so'zlagan nutqida ham asosiy e'tiborni bu tashkilotning faoliyatini yanada kengaytirish bilan bir qatorda yana mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik, ekstremizm, terrorizm, narkobiznesga qarshi kurash masalalariga qaratdi. Prezidentimiz muayyan «olovli nuqtalar», deb atalayotgan mintaqalarda birgalashib harakat qilib, tinchlik va barqarorlikka erishish lozimligi haqidagi aniq takliflarni kiritdi va O'zbekiston «ommaviy qirg'in qurollarini tarqatmaslikni ta'minlash bo'yicha kerakli xalqaro kafolatlarni qabul qilish, yadro sinovlarini butunlay to'xtatish haqidagi shartnomaning tezda tuzilishi tarafdori» ekanligini ham ko'rsatib o'tdi.

Xalqaro munosabatlar ravnaqi mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikning, aholi turmush darajasini yuksaltirishning o'ziga xos kafolati ekanligi hech kimga sir emas. Shu bois ham O'zbekiston rahbariyatining tashqi siyosatda mintaqaviy barqarorlikni saqlab qolish maqsadida ilgari surgan tashabbuslari ko'pgina davlatlar va BMT tomonidan doimo tasdiqlanib kelindi. BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida, Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti sammitidagi yig'ilishlarda O'zbekiston Prezidentining kiritgan aniq tashabbuslari, mintaqaxavfsizligini ta'minlashga qaratilgan

taklifi BMT boshchiligidagi «6+2» guruhining tuzilishiga asos bo'lgan edi (O'zbekiston, XXR, Rossiya, Eron, Pokiston, Tojikiston kuzatuvchi sifatida BMT, Birlashgan front va «Tolibon» harakati). Ushbu guruhning 1999 yil iyul oyida Toshkentda o'tkazgan uchrashuvi muhim xalqaro voqea hisoblanib, bu uchrashuv mintaqaning o'zida bo'lib o'tdi. Uchrashuvning yakuni sifatida 19 iyul kuni «Afg'onistondagi mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishning asosiy prinsiplari to'g'risida»gi tarixiy hujjat imzolandi. Ushbu hujjat BMTning rasmiy hujjati sifatida tarqatildi. Mazkur anjuman O'zbekiston rahbariyatining ko'p yillik sa'y-harakatlari natijasi edi. O'zbekiston rahbariyatining tinchlik yo'lidagi harakatlari mazkur uchrashuvdan Afg'onistonda muxolif kuchlar o'rtasida boshlangan jangovor harakatlarning oldini olish uchun Respublika Tashqi ishlar vazirligining Bayonotida ham yaqqol ko'zga tashlandi. Mazkur bayonot o'zaro qon to'kilishining oqibatlarini haqida jiddiy tashvishlangan holda muxolif tomonlarning harakatlarini qoralab o'tdi. Bularning barchasi dunyo hamjamiyati oldida O'zbekistonning tinchlik yo'lidagi real harakatlarining asosi sifatida yaqqol ko'zga tashlandi.

4. 1991 yil 8 dekabrda Minsk shahrida sobiq Ittifoqning barham topishi munosabati bilan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga asos solindi. MDHning vujudga kelishi haqidagi hujjatga dastlab Rossiya Federasiyasi, Ukraina va Belorussiya davlatlari imzo chekdilar. 21 dekabrda Almatida o'tgan uchrashuvda MDH bitimini jami 11 davlat imzolab, MDHga a'zo bo'lib kirdi. Ular bu bitimda davlatlarning hududiy butunligini tan olish, amaldagi chegaralar, ularning ochiqligi, fuqarolarning harakati erkinligiga, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, harbiy harakat va qurol-yarog' tarqatishning oldini olishda birgalikda harakat qilishga kelishib oldilar.

MDH a'zolarining birgalikdagi harakatlariga quyidagi vazifalar kiritildi:

- tashqi siyosiy faoliyatlarni muvofiqlashtirish, mudofaa siyosati va tashqi chegarani muhofaza qilish;**
- umumiy iqtisodiy muhitni rivojlantirish va Umumevropa, Yevroosiyo bozorini shakllantirish;**
- iqtisodiy islohot o'tqazish;**
- bojxona siyosatini birga olib borish;**
- transport, aloqa, energetika tizimlarini rivojlantirish;**
- ekologik, atrof-muhit xavfsizligini ta'minlash;**
- uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish.**

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida hamdo'stlik mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berdi. O'zbekiston ham davlatlararo bank va boshqa hamdo'stlik iqtisodiy tuzilmalarining shakllanishida faol ishtirok etdi. «Mustaqil davlatlar hamdo'stligini tashkil qiluvchi mamlakatlar bilan bevosita va ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish,-degan edi I.A.Karimov, - tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biridir».

1991-2000 yillarda MDH davlatlari boshliqlarining 30 ga yaqin kengashlari bo'lib o'tdi va muhim hujjatlar imzolandi. Ular orasida xavfsizlik masalalari, tinchlikni saqlash, iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yib olish uchun davlatlararo iqtisodiy qo'mita tuzish, iqtisodiy integrasiyani to'laqonli amalga oshirish, bojxona va ittifoq to'lovi masalalarini izga solib olish kabilar muhim o'rin egalladi. O'zbekiston MDH doirasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalar bo'yicha shartnoma hamda kelishuvlarni Rossiya,

Ukraina, Belorussiya, Moldaviya va boshqa mamlakatlar bilan imzolab, o'zaro manfaatli hamdo'stlik aloqalari uchun mustahkam asos yaratdi.

O'zbekiston MDH davlatlari bilan hamkorlikda iqtisodiy mintaqalararo munosabatlarni mustahkamlashga kirishar ekan, ularning siyosiy mustaqilligiga daxl qilmaslik nuqtai nazaridan yondashdi. 1992 yil may oyida MDH davlat rahbarlarining Toshkent uchrashuvida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan boshlangan kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi MDH doirasidagi davlatlar o'rtasidagi aloqalarning yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. 1993 yil MDH davlatlari bilan imzolangan «Iqtisodiy ittifoq» haqidagi shartnoma ham bu davlatlarning iqtisodiy taraqqiyoti va o'zaro hamkorliklarining yanada mustahkamlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Ayni vaqtda O'zbekiston 1996 yili Venada sobiq ittifoqdosh davlatlar Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon, Moldova davlatlari asos solgan o'ziga xos tuzilmaga ham 1999 yil aprel oyida a'zo bo'ldi. Natijada, bu tuzilma unga uyushgan davlatlarning nomidan olingan bosh harflar asosida GUUAM, deb yuritila boshlandi. Mazkur tuzilma mintaqaviy hamkorlik doirasidagi Osiyo-Kavkaz-Yevropa transport yo'lagini rivojlantirish, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishni maqsad qilib oldi. 2001 yil iyun oyida ana shu tashkilotga a'zo davlatlarning uchrashuvi bo'lib, unda O'zbekiston ham ishtirok etdi. Yaltada bo'lib o'tgan sammitda hamkorlikni mustahkamlashga doir ayrim masalalar ko'rib chiqildi. Rossiya Federasiyasi bilan mustaqillik yillarida bo'layotgan o'zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlik yaxshi samara berayotganini ta'kidlab o'tmoq joizdir. Bu ikki mamlakat o'rtasidagi 1992 yil o'rnatilgan diplomatik aloqalardan so'ng siyosiy, iqtisodiy sohalarida 150 dan ortiq shartnomalar imzolandi. Rossiya Federasiyasi Bosh vaziri V.Chernomirdin, keyinroq Ye.Primakov 1998 yil Rossiya Federasiyasi Prezidenti B.Yelsin, 1999 yil dekabr va 2000 yil may oyida Prezident V.V.Putinning O'zbekistonga qilgan tashriflari Rossiya va O'zbekistonning o'zaro iqtisodiy hamkorliklarini yo'lga qo'yishda, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi birgalikda kurashida alohida o'rin tutdi. Bunday uchrashuvlar nafaqat Rossiya Federasiyasi bilan, balki Ukraina bilan ham keng yo'lga qo'yildi. 1994 yili Ukraina Prezidenti Leonid Kuchma davlat tashrifi bilan Toshkentga keldi. O'zbekiston va Ukraina davlat rahbarlari o'rtasidagi o'zaro muloqotda iqtisodiy hamkorlik, transport, sanoat, qishloq xo'jaligi, mineral xom ashyo qazib olish, fan-texnika taraqqiyotidagi yutuqlarda o'zaro hamkorlikni olib borish bo'yicha tuzilgan bitimlarni amalga oshirish bilan aloqador bo'lgan masalalar asosiy o'rin egalladi. Nafaqat iqtisodiy, balki madaniy aloqalar ham yo'lga qo'yildi. Leonid Kuchma o'zining O'zbekistonga tashrifi davomida O'zbekiston baynalmilal madaniy markazida ham bo'ldi. O'z navbatida O'zbekiston Prezidenti ham Ukrainaga uch marta safar qildi. Bu ikki davlat o'rtasidagi aloqalar hozirgi kunga qadar davom etib, tovar ayirboshlash hajmi 300 million AQSh dollaridan oshdi. O'zbekiston Ukrainaga rangli metall, gazlama va boshqa turdagi mahsulotlarni yetkazib bergan bo'lsa, Ukrainada O'zbekistonga texnika asbob-uskunalari keltirildi. Bugungi kunda O'zbekistonda 20 dan ortiq o'zbek-ukraina qo'shma korxonalarini ishlab turibdi. 2001 yil MDH tashkil topganligining 10 yilligi munosabati bilan Rossiya davlati poytaxtida MDH davlatlari rahbarlari ishtirokida sammit o'z ishini boshladi. Sammitda o'tgan vaqt mobaynida qilingan ishlar sarhisob qilindi va o'zaro savdodagi cheklashlarni bartaraf etish, tovarlar va xizmatlar oqimini ko'paytirish uchun axborot-marketing markazlarini tuzish, ta'lim,

madaniyat, soliq, bojxona sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi muassasalar, xo'jalik sudlari hamkorligini kengaytirish masalalari muhokama etildi. Sammit ishtirokchilari MDH tuzilganligining o'n yilligi munosabati bilan hamda Afg'onistondagi vaziyatga doir bayonotga imzo chekdilar. O'zaro hamkorlik doirasidagi bunday uchrashuvlar o'z navbatida hamkorlik, davlat chegarasini himoya qilish, MDH doirasidagi davlatlarning fan-texnika taraqqiyotidagi yutuqlaridan o'zaro keng foydalanish, iqtisodiy aloqalarni keng qamrovli olib borish, ekologik muammolarni hal etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach Markaziy Osiyodagi yosh mustaqil davlatlar Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorlik, o'zaro do'stlik aloqalari yanada mustahkamlandi. Bizga ma'lumki, asrlar davomida birga yashab kelgan dini bir, tarixi bir, ikki tilda so'zlashuvchi xalqlar sobiq Ittifoq davrida bo'lib tashlangan edi. Qog'ozdagina suveren, aslida esa markazga qaram sho'ro respublikalari barpo etildi. Bu soxta siyosat tufayli turmush tarzi, ruhiy va ma'naviy qadriyatlari bir bo'lgan xalqlar bo'lib yuborilgan edi. Ularning o'z tili, madaniyati bor. Ularning ma'naviy, ruhiy va fikriy yaqinligi hamma narsadan ustun kelgan.

Shuning uchun ham mavlono Rudakiy: «Dunyoning shodligi yig'ilsa butun, Do'stlar diydoridan bo'lolmas ustun» deb bejiz aytmagan. Markaziy Osiyo davlatlarining 1990 yil 13-15 avgustda Toshkentda bo'lgan uchrashuvda maslahat kengashini tuzish to'g'risida bitim imzolandi. 1993 yil yanvarida Prezident I.A. Karimov tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Toshkent uchrashuvi tashkil etildi. Oliy darajadagi bu uchrashuvga 5 davlat rahbarlari qatnashdi va Hamdo'stlik haqidagi bitimga imzo chekishdi. Shu tariqa jahonda «Markaziy Osiyo» degan yangi atama paydo bo'ldi. 1993 yil mart oyida Markaziy Osiyo davlatlarining navbatdagi uchrashuvi Kizil O'rdada bo'lib o'tdi. Unda Orolni qutqarish Xalqaro jamg'armasi tuzilib, N.Nazarboyev uning prezidenti etib saylandi. Bu uchrashuvda Orol va Orol bo'yidagi ekologik ahvol, uning insonlar hayoti uchun nihoyatda xavfli ekanligi va bu muammoni yechish masalalari o'rtaga qo'yildi. Keyingi yillarda O'zbekiston-Qozog'iston munosabatlari yanada kengayib bormoqda. Hozirgi kunda Qozog'istonda 1 mln. o'zbek, O'zbekistonda 1 mln. qozoq istiqomat qilmoqda. O'zbekistonda 605 ta qozoq maktabi bo'lib, unda 15000 bola o'qimoqda. Toshkent davlat pedagogika universiteti, Sirdaryo, Jizzax, Nukus va Navoiy pedagogika institutlarida qozoq tilida o'qish olib boriladigan bo'limlar ishlay boshlaydi. Jizzax viloyatida «Kok-tem», «Qozoq teatr studiyasi» ochildi. O'zbekistonda 1992 yildan boshlab qozoq tilida «Nurli jol» respublika gazetasi nashr qilina boshlandi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning Tojikiston, Turkmaniston va Qirg'iziston bilan ham o'zaro munosabatlari rivojlanmoqda. Mamlakatimiz rahbari juda ko'plab jahonning nufuzli tashkilotlarining minbarlarida so'zga chiqib bizga qo'shni bo'lgan Tojikistondagi birodarkushlik urushini oldini olish va terrorizmga qarshi birgalikda kurashish dasturlarini ilgari surdi. Lekin ba'zi Yevropa mamlakatlari bu masalaga panja orasidan qaradi. Natijada terrorizmning insoniyat uchun nihoyatda xavfli ekanligi AQShdagi 11 sentyabr voqealaridan keyin yaqqol namoyon bo'ldi. O'zbek xalqi terrorizmning xavfini 1999 yil 16 fevralda Toshkent voqealaridan juda yaxshi biladi. AQShdagi sentyabr voqealaridan so'ng butun dunyo hamjamiyati Afg'onistonda uya qurib olgan terrorizmning makoniga urush e'lon qildi. Bu urush mehnatkash Afg'on xalqiga emas, qonxo'r, kallakesar terroristik guruhlariga qaratilgan edi. AQShning Afg'onistonga qaratilgan urushini O'zbekiston rahbariyati qo'llab-quvvatladi. Jafokash Afg'on xalqiga o'zining beg'araz yordamini

berdi. Termizdan har kuni oziq-ovqat ortgan mashinalar insonparvarlik yordamini Afg'on xalqiga yetkazib turdi. Nihoyat ikki yarim oylik AQSh-Afg'oniston urushi to'xtadi. Afg'on xalqidan 10 yillar davomida orzu qilgan tinchlik ro'yobga chiqdi. Endi Afg'oniston o'z taqdirini o'zi belgilamoqda. Lekin 20 yildan ziyod davom etgan fuqarolar urushi uning iqtisodini butunlay izdan chiqargan edi. O'zbekiston raxbariyati va xalqi bundan keyin ham Afg'on xalqiga o'z yordamini ayamaydi. Afg'onistonda urushning to'xtashi butun Markaziy Osiyoda tinchlikning qaror topishiga olib keldi. Tojikistonda ham ahvol yaxshilanib, iqtisodiy o'sish suratlari ko'rinmoqda. Qo'shning tinch bo'lsa, o'zing tinch bo'lasan. Tinchlik barqaror bo'lgan joyda iqtisodiy o'sish, xalq farovonligi ko'zga tashlanadi. Prezident I.Karimov tomonidan 1995 yil 5 mayda Oliy Majlis 2-sessiyasida «Turkiston-umumiy uyimiz» shiorining ilgari surilishi mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu ma'noda Prezidentimizning «Yosh avlodga biz ozod va obod Vatanni meros qoldirmog'imiz kerakki, ular bobolarining ulug' niyatlari va ishlarini davom ettirsinlar. Chunki yoshlarning ma'naviy uyg'oqligi g'aflatdan asrovchi asosiy omillardan biridir», - degan so'zlarini butun o'zbek xalqi ko'nglidagi fikrlar desak mubolag'a bo'lmasdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-j. T.: O'zbekiston, 1996.
- 2.Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-j. T.: O'zbekiston, 1996.
- 3.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997.
- 4.Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: O'zbekiston, 1997.
- 5.Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq millatni-millat qilishga xizmat etsin. T.: O'zbekiston, 1998.
- 6.Karimov I.A. Kuchli davlatlatdan kuchli jamiyat sari. T.: Sharq, 1998.
- 7.Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush – pirovard maqsadimiz. T.: O'zbekiston, 2000.
- 8.Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: O'zbekiston, 2000.
- 9.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008.
- 10.Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – T.: «O'zbekiston», 2005.
- 11.Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: «O'zbekiston», 2007.
- 12.Azizxo'jayev A. Davlatchilik va madaniyat. «Sharq», 1997.
- 13.Leonid Levitin, Donald S.Karlayl. Islom Karimov – Yangi O'zbekiston Prezidenti. T.: O'zbekiston, 1996.
- 14.Murtazayeva R.H. va b. O'zbekiston tarixi (Ma'ruzalar matni). T., 2000.
- 15.Usmonov Q., Sharopov Sh va b. O'zbekiston – siyosiy va huquqiy islohotlar sari. T.: Universitet, 1996.
- 15.Usmonov K., Abdug'aniyev A va b. O'zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida. T., «O'qituvchi», 1996.
- 16.O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T.: O'zbekiston, 1992.

17. O'zbekiston tarixi. 1-qism. A.Sagdullayev, B.Eshov tahriri ostida. T.: Universitet, 1999. II nashri.
18. O'zbekiston yangi tarixi. 3-kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. T.: Sharq, 2000.
19. Usmonov Q., Sodiqov T. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yil-lar) .T:Sharq, 2003.
20. O'zbekiston tarixi 10-sinf uchun darslik "Sharq" 2000 yil.

O'zbekiston tarixi faniga oid internetdagi SAYTLAR

uzbekistan.uzpak.uz. – O'zbekiston tarixining “Buyuk ipak yo'li” davridan mustaqillik yillarigacha bo'lgan davri haqidagi sayt.

zamin.freenet.uz. - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi “Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi”ning sayti. Saytda davlatimizning mustaqillik yillari tarixi haqida ma'lumotlar mavjud.

www.uzbekistan.uz – O'zbekiston buyuk kelajak sari.

www.mfa.uz - O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar Vazirligining maxsus sayti. Saytda davlatimizning xalqaro aloqalari to'g'risidagi ma'lumotlar jamlangan.

www.press-service.uz.- Prezidentimizning asarlari va mehnatlari jamlangan sayt.

www.gov.uz - портал правительства Республики Узбекистан.

www.natlib.uz /turk/ - Туркестанский сборник.

history.uzsci.net - Tarix institutining “O'zbekiston tarixi” nomli jurnali.

ula.uzsci.net – Журнал: Наука и образование Узбекистана.

www.xonatlas.uz – O'zbekiston madaniyati to'g'risidagi sayt.

